

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**IBROHIM YO'LDOSHEV
MUBORAK MIRZARAHIMOVA
FARIDA IMOMOVA
ANORA MAHMUDOVA**

**TIL VA ADABIYOT TA'LIMIDA
MODDIY VA MA'NAVIY HAYOT
UYG'UNLIGI
(metodik qo'llanma)**

TOSHKENT – 2010

74.268.0

T49

Til va adabiyot ta'limida moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi: (metodik qo'llanma) / I. Yo'ldoshev [va boshq.]; mas'ul muharrir B. To'xliyev; O'zR oily va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat ped. un-ti. – T.: 2010. – 192 b.

I. Yo'ldoshev, Ibrohim.

УДК: 821.512.133:130.12(072)

811.512.133:130.12(072)

ББК 74.268.0

Mazkur metodik qo'llanmada "Ona tili va adabiyot" fanlari yuzasidan noan'anaviy dars ishlanmalari negizida yoshlarni moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi ruhida tarbiyalash ko'zda tutilgan. Unda berilgan dars ishlanmalari bevosita o'quv rejaga kiritilgan mavzularning ayrimlarini qamrab olgan. Shuningdek, undan sinfdan tashqari o'qishga oid mavzular ham joy olgan.

Qo'llanma umumiy o'rta hamda o'rta maxsus ta'lim tizimi o'qituvchilar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan oily ta'lim muassasalarining "O'zbek tili va adabiyoti" ta'lim yo'nalishi talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir
filologiya fanlari doktori, professor
Boqijon To'xliyev

Taqrizchilar:

filologiya fanlari nomzodi, professor *Rixsivoy Yunusov*
filologiya fanlari nomzodi, dotsent *Shoira Isayeva*

Qo'llanma ITD-4-108 «Yoshlarda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini ta'minlash: muammo va vazifalar» mavzusidagi davlat amaliy granti loyihasi doirasida tayyorlangan.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kehgashi tomonidan nashrqa tavsya etilgan.

© Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti, 2010.

SO‘Z BOSHI

«... insonga xos orzu-intilishlarni ro‘yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy olamni bamisolli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o‘ylaymanki, o‘rinli bo‘ladi.

Qachonki ana shu ikki muhim omil o‘zaro uyg‘unlashsa, tom ma’nodagi qush qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o‘sish-o‘zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo‘ladi.

Biz istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab xalqimizning asrlar davomida intilib kelgan orzu-maqsadlari va zamon talablarini, dunyoviy taraqqiyot mezonlarini hisobga olgan holda, jamiyatimiz hayotida ana shu ikki omilning uyg‘un tarzda rivojlanishiga alohida e’tibor qaratdik. Mustaqillik biz uchun nafaqat iqtisodiy, balki beqiyos ma’naviy imkoniyatlar manbai ekanini anglab, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini, iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish jarayonlarini aynan shu asosda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berdik».

Islom Karimov

Ma’naviy olam, ma’naviy borliq jamiyat va inson hayotining eng muhim jihatlaridan bo‘lib hisoblanadi. U jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida sodir bo‘layotgan jarayonlar bilan uzviy aloqadorlikdadir. Jamiyat hayotining undan holi bo‘lgan biron bir sohasi yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas. Jamiyatning ma’naviy hayoti qamrovi nihoyatda keng, mazmunan chuqur, shaklan xilma-xildir. Ma’naviy hayot inson aql-idroki va tafakkurining barcha maxsullarini jamiyat tomonidan to‘plangan madaniy boyliklarida ifodalangan yutuqlarini, ijtimoiy ong shakllarini, kishilarning g‘oyalarini, qarashlari, tasavvurlari, dunyoqarashi, odob-ahloqi, butun ma’naviy olamni qamrab oladi.

Insonlar tomonidan uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilgan va rivojlantirilgan ma’naviy boyliklar, ijtimoiy ongning ilmiy, badiiy,

huquqiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa shakllari, dunyoqarashning butun sohasini ham jamiyat ma'naviy hayotiga kiritish mumkin.

Jamiyat ma'naviy hayoti, boshqacha aytganda, umuman ma'naviy ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida inson tafakkuri mevalari - g'oyalar, qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, konsepsiylar, ta'lim-tarbiya tizimlari, diniy va badiiy obrazlar, ijtimoiy me'yor va qonun-qoidalar, pand-u nasihatlar, yo'l-yo'riqlar, rejalar, dasturlar yaratiladi. Ma'naviy ishlab chiqarish mahsullari, qo'lyozmalar, kitoblar, toshlardagi bitiklar, yozuvlar, rasmlar, chizmalar singari va boshqa shakllarda ham namoyon bo'ladi.

Maorif, ilm-fan, adabiyot, san'at, kino va teatr tomoshalari, tasviriy san'at asarlari, maqollar, masallar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlar, qo'shiq, musiqa, xalq ijodiyotining jamiki durdonalari inson ma'naviy faoliyatining muhim elementlari, ko'rinishlari, tarkibiy qismlaridir. Kutubxona va muzeylar, radio va televideniya, matbuot, umuman, ommaviy axborot vositalari haqida ham shu fikrni aytish mumkin.

Albatta, ta'lim tizimida, xususan, umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida yoshlarni moddiy va ma'naviy hayat uyg'unligi ruhida tarbiyalashda Ona tili va adabiyot fanlarining o'mi beqiyosdir. Chunki o'quvchida «... o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'tasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zлari bilan aytganda, «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur»¹.

Shu bois, mazkur qo'llanmada umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida til va adabiyot ta'limi orqali yoshlarni moddiy va ma'naviy hayat uyg'unligi ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi ayrim mavzular noan'anaviy dars ishlanmalari tarzida yoritib berildi.

Umuman, Ona tili va adabiyot darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmash kuch. – T.: Ma'naviyat, 2010. – B. 83.

kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda Ona tili va adabiyot darslarining o'rni beqiyosdir.

Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzag», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalanamiz. Darslarda o'zimiz o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim.

Ushbu qo'llanma, asosan, "O'zbek tili va adabiyoti" ta'lim yo'nalishi talabalariga, shuningdek, umumiyo'rta ta'lim hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida mehnat qilayotgan til va adabiyot fani o'qituvchilariga mo'ljallangan. Undan talabalar pedagogik amaliyot davrida keng foydalanishlari ham mumkin.

NOAN'ANAVIY DARSNING ASOSIY YO'NALISHLARI:

- a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- v) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- g) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:

- o'qituvchilarga kerakli metodik yordam ko'rsatish;
- turkum fanlar bo'yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferentsiya hamda seminarlar tashkil etish;
- darslarni kuzatish va ularda IPT elementlarini qo'llash darajasini oshirish;
- ilg'or ijodkor o'qituvchilar tajribasini o'rganish va ommalashtirish;

- dars jarayonida umumiy yoki mavhum tushunchalar o‘rniga aniq ilmiy asoslangan ma’lumotlar berish va boshqalar.

Bugungi taraqqiyot har bir o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o‘z navbatida, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo‘lishi, ulardan o‘z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo‘lmoqda. Darslarda qo‘llanadigan interfaol usullar o‘quvchilarda o‘z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko‘tarish, mantiqiy aniq va to‘liq nutq sohibi bo‘lishiga erishish kabi muhim vazifalarning bajarilishini nazarda tutadi. Ona tili darslarida o‘tiladigan mavzuga oid o‘yin usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

ONA TILI

TIL MUSTAQILLIGI – EL MUSTAQILLIGI

Darsning jihizi: Texnik vositalar: audio kassetalalar va video.
F.A.Abdullayevning «Til qanday rivojlanadi» risolasi (T.,1972 yil),
Nizomiddin Mahmudovning «Ma'rifat manzillari» kitobi (T.,1999 yil).

Darsning uslubi: Suhbat, munozara.

Darsning shiori: Til mustaqilligi - el mustaqilligi.

Nafosatda o'z xislati ko'rki bordir,
Asrlarning ortib qo'ygan mulki bordir.
Kimki qilsa bu tilimni tilim-tilim
Do'stlar menga qorong'udir yetti iq'im. (Mirtemir)

Ming yillarkim bulbul kalomi,
O'zgarmaydi yaxlit hamisha.
Ammo sho'rlik to'tining holi
O'zgalarga taqlid hamisha.
Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she'rga solaman.
Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to'ti bo'lib qolaman.

(Abdulla Oripov)

O'qituvchi: Bugungi darsimiz suhbat darsi bo'ladi. Darsimizni «Tilga e'tibor» ko'rsatuvi mehmoni, professor Nizomiddin Mahmudov bilan bo'lgan suhbatdan boshlasak. Suhbatda milliy mafkura, milliy istiqlol, o'zbek tilining bugungi kundagi taraqqiyoti haqida gap ketadi. Video orqali beriladigan ushbu ko'rsatuvni diqqat bilan ko'ring. Dars davomida o'z fikringizni bildirasiz. Domlaning «Ma'rifat manzillari» kitobini albatta o'qib chiqing. Sizni qiziqtirgan savollarga javob topasiz degan umiddaman. (O'quvchilar besh daqiqa ko'rsatuvdan parcha ko'rib, mavzuga tayyorgarlik ko'rishadi).

Siz ushbu darsga qanday shior tanlagan bo'lar edingiz ?

O'quvchilar: «Har bir millatning borligini ko'rsatadurg'on hayoti - bu til va adabiyotdir» (Abdulla Avloniy).

«Og'ziga kelganni demak nodonning ishi, oldiga kelganni yemak hayvonning ishi» (Alisher Navoiy).

«So‘z-gul, ish-meva» (Al-Xorazmiy). «Ko‘ngul durji ichra guhar so‘z durur, Bashar gulshanida samar so‘z durur» (Alisher Navoiy).

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilarim! Bugun – 21-fevral, jahon tillarining bayram kuni. Yashasin jahon tillari! Mana uch yildirki, bu kun bayram sifatida jahon xalqlari tomonidan nishonlanmoqda. Chet tilini o‘rganishga qiziqish bizga ota-bobolarimizdan qolgan tarixiy merosdir. Mustaqil O‘zbekistonimizning turli xorijiy davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari rivojlanishi borasida chet tilini o‘rganishning ahamiyati oshdi. Cheti tili - dunyoni bilishning haqiqiy vositalaridan biri. Chet tilini mukammal o‘rganish uchun, avvalo, ona tilini bilishimiz, til xususiyatlarini qiyoslay olishimiz kerak bo‘ladi. Hazrat Navoiy aytganlaridek:

So‘zdurki, nishon berur o‘likka jondin

So‘zdurki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin

Bilkim guqari sharifroq yo‘q ondin.

Tilimiz nechog‘li go‘zal, boy til, Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining ravnaqi uchun kurashchi bo‘lgan. Til qachon buyuk bo‘ladi – har bir millat o‘z tilini e‘zozlasa, uning buyukligiga shak keltirmasagina u buyuk bo‘lib qoladi. Hozir bo‘ladigan «Zakovat» o‘yinidan sizning til haqidagi bilimlaringizni sinab olamiz:

1. Qanday tillar tirik til hisoblanadi?

Xalqlar hozir ham gaplashadigan tillar tirik til hisoblanadi.

2. O‘lik til nima? - Bizga yozma yodgorliklari yetib kelgan, ammo yer yuzida yashayotgan xalqlarning hech biri hozir muomalada ishlatmaydigan til «o‘lik til» deb yuritiladi.

Masalan: lotin tili, qadimgi sanskrit tili.

3. Tillarning qaysi oilalarini bilasiz? - Hind Yevropa , Oltoy oilasi bor.

4. Turkiy tillar qaysi til oilasiga kiradi? - Oltoy oilasiga.

5. Asos til nima - Ma’lum tillarning paydo bo‘lishi uchun manba bo‘lib, o‘zi aloqa vositasi sifatida ishlatilmaydigan bo‘lib qolgan til (bobo til) deb yuritiladi.

6. Dunyodagi xalqlar necha xil tilda gaplashadi? - 2976 xilda

7. Har bir tilga qanchadan kishi to‘g‘ri keladi?- 1 mln.atrofida.

8. Tillar necha turga bo‘linadi? -2 turga: O‘lik va tirik til.

9. Dog‘istonda qancha halq bor va ular qanday tilda so‘zlashadi?

- 1 mln.dan ortiq . 40 ta tilda so‘zlashadi.

10. Tibbiyotdagilarni qaysi tilda yoziladi? - Lotinda

11. Bizda ham o'lik til bo'lganmi? - Xorazmiy tili 11 asrga kelib o'lik til holiga kelgan.
12. Atoqli tilshunos, olim, professor Yevgeniy Dmitrievich Polivanov necha xil tilda gaplashgan?- 45ta. 150 dan ortiq asarlar yaratib, tilshunoslik, xalq og'zaki ijodining qirralarini ochib bergan.
13. Nomi birgina tovushdan iborat til ham bormi? - Bu «I» tilidir. I tili Xitoyning ba'zi viloyatlariiga tarqagan.
14. Eng so'zi uzun til qaysi? - Chukotkadagi (eskimos) tili
15. Zamaxshariy qanday sohalarda asarlar yaratdi? - 50 dan ortiq asarlari tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tafsir, geografiya, hadis va huquq kabi soxalarga oiddir.
16. Allomani qanday nom bilan atashgan? - hurmat va mehr bilan «Arablar va g'ayri arablar ustozisi» va «Xorazm faxri» deb atashgan.
17. O'zbek tili qachon vujudga kelgan? - O'zbek tili XI asrda mustaqil til sifatida shakllana boshlagan. XIV asrda umumxalq o'zbek adabiy tili-turkiy til vujudga kelgan, tarkib topgan.
18. O'zbek tili haqida Alisher Navoiyning qanday asarini bilasiz? - «Muhokamat-ul-lug'atayn» asari.
19. Qadimgi turkiy tilda yozilgan yodgorliklarni bilasizmi va ularning nomi? - O'rxun-Enasoy yodgorliklari. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'ot it-turk», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoqiyq» asarlari misol bo'ladi.
20. O'zbek tili tarixi taraqqiyotida yangi boshqich qachondan boshlandi? - 1989-yilning 21-oktyabridan.
21. Eski arab yozuvidan keyingi yozuvlarimiz haqida nima bilasiz? - 1926-1930 yildan 1940-yilgacha lotin yozuvida, keyin rus grafikasi asosidagi yozuvda edik. 35 harf.
22. Lotin alifbosi qaysi yildan qayta tiklandi?
- O'zbekiston Respublikasining 1993- yil, 2-3-sentyabrida bo'lgan olyi kengashida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazish haqida qonun qabul qilindi 32 ta harf.1 apostrof
- O'qituvchi:** «Nazm daqiqasi» ga xush kelibsiz. O'zbek adabiyotida ikki tilda ijod qilgan shoirlarimiz juda ko'p. Masalan: Alisher Navoiy, Lutfiy, Bobur, Ogahiy, Sayfi Saroiy, Furqat, Hamza kabilar. Hozirgi davrimizda esa tarjima sharofati bilan jahon yozuvchilarining go'zal asarlari o'zbek tilidagi adabiyot karvoniga kelib qo'shildi. Zulfiya ham mohir tarjimon bo'lgan. Hozir shoira tarjima qilgan Nekrasov she'ridan eskirgan so'zlarni topishga harakat qiling.

Yo‘q, emasman ojiz qul also,
Men ayloman, ayloman, ayol,
Achchiq og‘ir qismatim, ammo
Unga sodiq butun hayotim.

Temir bilak uzukni qilaman hadya,
Deyman muqqaddas bilib ardoqlang shuni.
Bobolaring men uchun bir tuhfa deya
Kishanidan yasagan surgunda uni.

O‘qituvchi: O‘quv faoliyatimizning endigi bosqichida magnit lentasidan Baxtiyor Xolxo‘jaevning «Ona tilim» qo‘shtig‘ini tinglab quyidagi kartochka savollariga javob berishga tayyorlaning.

1. O‘zbek tilida yangi so‘zlar qanday usulda yasaladi?
2. Qanday so‘zlar eskirgan so‘zlar hsoblanadi?
3. Maktab hayotiga oid eskirgan so‘zlardan toping.
4. Yangi kirgan so‘zlardan misollar keltiring.
5. Qanday so‘zlar umumhalq so‘zları hisoblanadi.

1-o‘quvchi: O‘zbek tilining grammatic qurilishida ham, uning fonetikasida ham, juda sekin bo‘lsa-da, o‘zgarishlar bo‘ladi. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ravishdoshning bir shakli fe'l o‘zagiga -b, (-ib) qo‘shtimchasini qo‘shtish bilan hosil bo‘ladi: asrab, olib kabi.

Bir vaqtlar ravishdosh -bon (ibon) qo‘shtimchasi bilan ham hosil qilingan: Hunarni asraban netkumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketkumdir oxir? (Navoiy).

2-o‘quvchi: Hozirgi o‘zbek adabiy tilida kesimlik qo‘shtimchasi ko‘pincha -dir shaklida ishlatalidi:

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

3-o‘quvchi: Tilning rivojlanishi jamiat hayoti bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlar tilda aks etadi. Bu o‘zgarishlar hammadan ko‘proq tilning lug‘at boyligida o‘z ifodasini topadi. Yangi narsa-buyum va tushunchalarining keng iste’moldan chiqib ketishi hammadan avval tilning lug‘at boyligida o‘zgarish bo‘lishiga olib keladi. Masalan: qo‘qonarava, izvosh, fayton, qozi, brichka, paranji, tillaqosh, zar kokil, mingboshi kabi...

Dunyodagi tillar yo‘qolib bir til qolishi mumkinmi?

O‘quvchilar: Javob tariqasida Erkin Vohidovning «Ona tilim o‘lmaydi» she’ridagi ayrim parchalarni keltirsak.

Notiq dedi: Taqdir shul

Bu jahoni y iroda.
Tillar yo'qolur butkul
Bir til qolur dunyoda.

«Ey, voiz, pastga tush,
Bu gap chiqdi qaerdan?
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabridan.

Kim darg'azab, kim hayron
Chiqib keldilar qator
Dante, Shiller va Bayron
Firdavsiy, Balzak, Tagor.

Va'zingni qo'y birodar
Sen aytganing bo'lmaydi.
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o'lmaydi».

O'qituvchi: Amerika olimi Benjamin Liof aytadiki, «Agar Nyuton inglizcha o'ylab, inglizcha fikr qilib, kashfiyat qilmaganda edi, mashhur kashf qilgan qonuni sal bo'lsa-da boshqacha bo'lar edi. Bu qonunni aynan shu tarzda bo'lishi Nyutonning inglizcha tafakkur qilganligi natijasidir». Bundan ko'rinish turibdiki, til millat ruhining ko'zgusi ekan.

O'qituvchi: Diqqatingizni bir lahma Navoiy zamonasidagi shoirlar suhbatiga qaratmoqchiman.

(O'quvchilar «Shoirlar suhbat» deb nomlangan parchani ko'rsatishadi).

Ahmad Hojibekning hovlisi gavjum edi. She'rxonlik qilinar edi. Shunda shoir Riyoziy Navoiyning bir g'azalini o'qiydi:

Yordin hech kim meningdek zor-u mahjur o'lmasin,
Jumlai olamda rasvoliqliqa mashhur o'lmasin.
Yor vasliga quvondim, quvdi kuyidin meni,
Ey Navoiy, hech kim davlatga mag'rur o'lmasin.

Vafoiy: Bu Navoiyning yangi g'azalimi?

Riyoziy: Shu kuni yozilgan. Men uni Badiiy Andijoniydan olibdurmen.

Vafoiy: Turkigo'y shuaroning malik ul-kalomidur. Navoiy bu ash'orni oliy maqomga yetkazibdur.

Suhbatdosh: Navoiy uchun har kuni qirq-ellik bayt she'r aytmaq nonushtada nonni qaymoqqa botirib tanovul qilmoq kabi

- yengil va halovatlidur.
- Riyoziy: Navoiy o'n besh-o'n olti yosh paytida Mashhadda ekanidayoq «Zullisonayn», ya'ni «ikki til egasi» nomini olgan edi.
- Xatoiy: Uning forsiydagagi ash'ori turkiydagagi qadar latif emasdur.
- Vafoiy: Yaxshiki u turkiy aytur, bo'lmasa ko'pgina forsiguy shoirlarni chetlatib qo'yari edi.
- Suhbatdosh: Turkigo'y shuaroning imkoniyati cheklangan, turkiyda hali «Xamsa» bitilmagan. Uning o'quvchisi ozdir. Chunki turkiy tilda avom so'zlashur.
- Xatoiy: Avom eldir taq sir. El uchun unga tushunarli tilda she'r bitmoq sharafli bir kasbdirk, Navoiy bu borada ko'p ish qilmoqdadur.
- Riyoziy: Turkiyda u «Xamsa»ni bitmogi ajab emasdur.
- Shoirlar: Ajab emas...ajab emas...
- O'qituvchi:** Endi shoirning «Hayrat ul-abror» (Yaxshilar hayrati) asaridagi hikmatlarini diqqat bilan o'qib chiqib, qanday xulosaga kelganingizni so'zlab bering.
- 1-o'quvchi: Kim kitob tuzish yo'lini tanlagan bo'lsa, unga toza durday qimmatbaho narsalar nazm va nasrdir. Bular hikmatli so'zlar, tarixiy voqealar, hikoyalar, she'r bilan bitilgan turli-tuman maqolotlardan iboratdir.
- 2-o'quvchi: Bilki, Navoiy, nima yozsang ham, haq so'zidan boshqa so'zga qalam urma... kabi.
- O'quvchi: Navoiy rasmiy ish faoliyatida o'zbek tilining ham rasmiy til darajasiga ko'tarilib, saroyda ish yuritadigan til bo'lishi kerak, deb bir umr yozg'irib o'tdi.
- O'quvchi: O'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida turkiy til forsiy tildan kam emasligini, turkiy tilning imkoniyatlari keng bo'lib, forsiy tildan qolishmasligini ta'kidlagan.
- O'quvchi: Alisher Navoiy sharq adabiyotining yigirma janrida ijod qilgan yagona ijodkor sifatida o'zbek tilining so'z xazinasini boyitdi.
- O'quvchi: Shoir o'zbek tilidagi so'zlarni ko'plab yangi ma'nolarda qo'llab, ulardan yangi so'zlar yasadi.
- O'qituvchi:** Olmon allomasi Vilhelm fon Xumbold «Yer yuzidagi tillarning rang-barangligi bu tovushning xilma-xilligi emas, dunyonni ko'rishning xilma-xilligidir» deb yozgan edi. Har bir millatni dunyonni

idrok qilish yo'sini, mentaliteti bor. Har bir millatni o'z tafakkur tarzi bo'ladi. Davlat tili masalasi hamma davlatlarda o'z mavqeyiga ega bo'ladi. Xalqning birligini ta'minlaydigan narsa tildir. Biz va sizning tilimizning sofligi uchun kurashmog'imiz kerak bo'ladi.

Fransuzlar ham o'z tillarining tabiiyligi, sofligi uchun kurashga bel bog'laganlar. Hozir video orqali «Tilga e'tibor» ko'rsatuvidan chet ellik magistr qiz Jon Sung Kim bilan bo'lgan suhabatni e'tiboringizga havola qilaman. Diqqat bilan tinglab, o'z xulosalaringizni bildiring.

— Men bu yerga Janubiy Koreyadan keldim. Pedagogika universitetida magistraturada o'qiyman. O'zbek tilini bir yildan beri o'rganaman. Menga rus tilida murojaat qilishadi. Nega o'zbek tilini o'rganyapsiz? deyishadi. Bu mening asabimga tegadi. Men shunda: bu yer O'zbekiston emasmi? desam, ular kulishadi. Ular o'zi o'zbek, lekin o'zbek tilini yaxshi bilishmaydi. Rus tilida gaplashadilar. Keyin men xafa bo'laman.

O'quvchi: Ha, oramizda hali ham o'z tilini qadriga yetmagan, milliy g'urur nimaligini bilmaydigan odamlar bor. Gapirayotganda ruscha so'zlarni qo'shib aytishni go'yoki, madaniyatli odamlarga xos xislat deb biladilar. Oqibatda ikki tilni ham buzadi. Undaylarga mening rahmim keladi.

O'quvchi: O'zbekcha so'zlarni o'zbekona gapirish ham bir san'at. Mirzakalon Ismoiliy hamda G'aybullha Assalom ustozlar «Ey birodar, matbuotga yozgan matningni avval o'zing ovoz chiqarib o'qib ko'r, qulog'inga tabiiy tuyulib, o'zbekcha eshitilyaptimi, yo'qmi?» deb uqtirganlar.

O'quvchi: Tilidan ayrılgan odamning boshiga do'ppi, egniga chopon kiydirib, beliga belboq bog'lamang, u baribir o'zbek bo'la olmaydi. Shuning uchun ham tilni millatning ruhi deb, bejiz aytishmagan.

O'quvchi: Men chet el filmlarini o'zbekcha dublyajlarini ko'rishni juda yoqtiraman. Chunki so'zlarning ta'siri kuchliday tuyuladi. Tilimizning serqirraligi, jozibadorligi namoyon bo'ladi.

O'qituvchi: Endi tasavvur qiling, siz chet eldasiz...

Ushbu matnni imo-ishora bilan tushuntiring. «Biz siz bilan do'st birodarmiz. Men samolyotda uchib keldim. Shahrингиз juda go'zal ekan» kabi... Bilasizmi, ba'zi davlatlarda boshni silkitib ma'qullah inkor tariqasida ishlataladi. Ushbu rasmdagi qarsak, bosh barmoqning

yuqoriga ko‘tarilishi, pastga ishorasi, yonga kabi harakatlari nimani anglatadi?

O‘quvchi: Qarsak hamma joyda olqish ma’nosida, barmoqlarning turli yoqlarga harakati esa birjada bizneschilar tomonidan bir-birlariga beradigan ma’lumotlarini ifodalaydi

O‘quvchi: Begona yurta nimani his qildingiz?

O‘quvchi: Begona yurtda darrov tilimizni, o‘sgan yerimizni sog‘indik. Til bilgan taqdirda ham ma’lum vaqt dan so‘ng Vatan sog‘inchi qalbimizni kemiradi. O‘z yurtingda o‘z tilingda qo‘shiqlar eshitganga ne yetsin.

O‘quvchi: O‘z uyim-o‘lan to‘shagim, deb bejiz aytishmagan.

Bu bilan birovning uyida, yurtida yumshoq to‘shakda o‘tirganingdan ko‘ra, tap-taqir o‘lan to‘shakda o‘tirsang ham, o‘z uying yaxshi, demoqchi bo‘lganlar. Har kimga o‘z uy-joyi, o‘z ona-yurti naqadar qadr-qimmatli ekani haqida aytildi.

Jahon tillariga tushunarli bo‘lgan so‘zlardan misollar keltiring.

O‘quvchilar: velkom, global, sport, foto, interneyshinil, dans, xobbi, popcorn, fokus, open, ofis, faks, kollej, internet kabilar...

O‘qituvchi: Juda yaxshi. Darsimiz yakunida yiqqan kartochkalar izingizni tekshirib ko‘ring. Eng ko‘p kartochkaga ega bo‘lgan o‘quvchi «bugungi darsimizning g‘olibi» deb topildi.

Ona tili va istiqlol tushunchalari o‘zaro shunchalar uzziyi bog‘liqki, ularni biri-biridan ayri tasavvur etish qiyin. Zotan, istiqlol millatning, yurtning, Vatanning o‘z erkiga sohibligi, hurligidir. Ana shu erkinlikning qadriga yetaylik.

SIFAT. INSON QIYOFASINI TASVIRLASH

(6-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan)

Darsning maqsadi: O‘quvchilarga sifat mavzusiga oid nazariy bilim berish. Ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish; ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish va erkin fikrlashga o‘rgatish. Inson qiyofasini tasvirlash yo‘li bilan ularga to‘g‘ri baho berish, ularning ichki dunyosini ochishda adashmaslik xislatlarni shakllantirish; insonparvarlik ruhidha tarbiyalash.

Darsning jihizi: Texnik vositalar: audio, video kassetalar. 6-sinf ona tili darsligi. Adabiyot, tarix, botanika, geografiya darsliklari. Maqsud Qorievning «Spitamen» qissasi. Adabiyot namoyondalarining rasmlari, manzara, natyurmort kartinalari, xonatlas materiali. «Sifatlarning yasalishi», «Sifatlarning ma’no turlari», qo‘g‘irchoqlar kabi ko‘rgazmalar.

Darsning shiori: 1. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat ma’rifatli insonning ikki qanotidir. (Islom Karimov) 2. Bilim, ma’rifat yaxshi axloq bilan bezanmog‘i lozim. (Abu Nasr Forobi) 3.El netib topg‘ay menikim, men o‘zimni topmasam... (Alisher Navoiy)

Bilag‘onlar shiori: Sharm-u hayo niqobidagi chehra qutida saqlangan qimmatbaho gavharga o‘xshaydi.

Topqirlar: Oliy himmatli, mard odam bir lahzada do‘sit orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi.

Ziyraklar: Donolardan o‘rganish va o‘rgangan narsalarni boshqalarga o‘rgatish eng buyuk insoniy belgilardandir. (Xalq hikmatlari)

Saxiylar: Boshingda vataning bor – baxtiyorsan,

Bu baxtni jonda saqla, toki borsan. (Mirzakalon Ismoiliy)

Darsning uslubi: Interfaol, suhbat, o‘yin.

Aziz o‘quvchilar! Bugungi darsimiz sifat haqida bo‘lib, biz inson qiyofasini tasvirlash yo‘li bilan ularni kashf etamiz. Avvalo, kichik guruahlarga bo‘linib olamiz. Siz guruhingiz bilan maslahatlashib, istagan mashhur kishingiz, shaharingiz, qishlog‘ingiz yoki mahallangiz sharafi uchun kurashmog‘ingiz kerak. Yozuvtaxtada ana shunday vatanparvar, yurt ozodligi uchun kurashgan qahramonlarning portretlari bor. (Alpomish, Spitamen, To‘maris, Shiroq, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon kabi...) Ulardan birini tanlashingiz

ham mumkin. Darsda faol qatnashib, topshiriqlarni to‘g‘ri bajarsangiz rag‘bat kartochkasi beriladi. Darsda vaqtidan unumli foydalanish, o‘zaro hurmat, tez va to‘g‘ri javob berish, samimiylilik qoidalariga amal qilinadi. Guruhingiz bilan hamkorlikda ishlab, g‘oliblikni qo‘lga kiritin.

Birinchi topshiriq. Bir daqiqa vaqt ichida guruhingiz bilan shioringizni sharhlab, tanlagan kishingiz (shahringiz, mahallangiz) sharafmi oqlovchi chiroyli nutq matnini tuzib, unda sifatga oid so‘zlardan foydalaning. Matnni suxandonlarga xos ohangda so‘zlang.

O‘qituvchi: Darsimiz shiorlaridan ham ko‘rinib turibdiki, ma’rifatlari, komil inson bo‘lib yetishish uchun aqliy zakovat, ruhiy ma’naviy salohiyat, yaxshi ahloq, sharm-u hayoli chehra, oliv himmatlilik, mardlik, donolik, shukronalilik xislatlari kerak ekan. Biz shundagina vatanimiz borligidan baxtiyor bo‘lib, bag‘ri keng ona yurtimiz, quyoshli osmonimiz, mehribon ota-onamiz, bilimdon ustozlarimiz, do‘stlarimizning qadriga yetamiz.

Topshiriq: Sizning savodxonligingizni tekshirish uchun magnit tasmdan Abdulla Oripovning «Men nechun sevaman O‘zbekistonni» qo‘srig‘i yangraydi. Qo‘srig‘ matnida sifatga oid so‘zlar tushirib qoldirilgan. Siz bu so‘zлarni joyiga qalam bilan yozib qo‘ying. Guruhlar matnlarni almashib, xatolarini tekshirib ko‘radilar.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,

Men nechun sevaman O‘zbekistonni

Tuprog‘in ko‘zimga aylab

Nechun Vatan deya yer-u osmonni,

..... atayman, atayman tanho.

Aslida dunyoda tanho nima bor,

Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?

Yoki quyoshimi sevgimga sabab?

Axir-ku butun Osiyo.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?

Bog‘larin deb ko‘z-ko‘z etaman,

Nechun ardoqlarman, tuprog‘ini men

O‘paman: «Tuprog‘ing, Vatan...»

Aslida tuproqni tabiat

Taqsim aylagan-ku yer yuziga

Nechun bu tuproq deb yig‘ladi Furqat,

O, Qashg‘ar tuprog‘i, sen?!

Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni,
Sababini aytgin desalar menga,
..... so'zlardan oldin
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:

Xalqim, tarix hukmi seni agarda
..... muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?

Vatanlar, Vatanlar, mayli, gullasin,
Bog' unsin mangulik muzda ham, ammo
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
..... farzand bo'lsa kechirma aslo!

(to'tiyo – noyob narsa, aziz ma'nosida, muqaddas, quyoshli, jannat, bebaho, odil, teng, qashshoq, shoirona go'zal, mangu, sevgan).

O'qituvchi: Hozir «Zakovat» savollariga javob berib, o'tgan dars mavzularini qay tarzda o'zlashtirganingizni namoyon qilasiz:

1. Sifat deb nimaga aytildi?
2. Sifat qanday so'z turkumiga mansub?
3. Sifat tuzilishiga ko'ra necha turli bo'ladi?
4. Sifat qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
5. Inson qiyofasi deganda nimani tushunasiz?
Endigi bosqich: «Topqirlik».

1. Bilag'onlar guruhiga topshiriq. Bunda siz «mozaika» o'yinida qatnashib, otning ma'no guruhlarini ajratishingiz, ot nomlarini qatorga to'g'ri terishingiz kerak. Topshiriqni aniq bajarsangiz mozaikada «Shrek va malika» qiyofasi aks etadi.

Otning ma'no turlari:

1. Kishi: Aziza, Umida, Tolib, Oybek, Elbek, Yulduz...
2. Geografik: Pomir, Nil, Volga, Tyan-Shan, Sirdaryo...
3. Kasb : ishchi, dehqon, duradgor, tilshunos, fermer...
4. Shaxs: o'quvchi, paxtakor, yurtdosh, yo'lsoz, kampir...
5. Narsa: ochg'ich, yoqilg'i, yelpig'ich, supurgi, parda.
6. O'rinn-joy: Toshkent, Qo'qon, Namangan, O'sh, Quva...
7. Mavhum: do'stlik, ishonch, sadoqat, vafo, muhabbat ...
8. Qarindoshlik: aka, uka, ota, ona, opa, singil, bobo ...
9. Sifatlar: qalin, sersuv, go'zal, tiniq, sovuq, qizil ...
10. Bayram: Yangi yil, 8-mart, Mustaqillik, Navro'z...

Y-7152 |

2. Topqirlar guruhiga topshiriq. Yozuvtaxtada berilgan sifatlarni ma'nosiga qarab jadvalga guruhlang.

1. Rang-tus: Oq, qora, qizil, pushti, moviy, tiniq, yashil...
2. Maza-ta'm: Shirin, nordon, bemaza, achchiq, sho'r, mazali...
3. Hajm-o'lchov: keng, tor, uzun, yaqin, katta, uzoq, qisqa...
4. Hid: xushbo'y, yoqimli, qo'lansa, sassiq, muattar, badbo'y...
5. Makon-zamon: yozgi, kuzgi, bahorgi, ertapishar, kechki...
6. Holat: Sovuq, iliq, ochiq, tinch, issiq, jazirama, sokin..
7. Xususiyat: Chiroyli, quvnoq, sodda, mug'ombir, sho'x, ziqna ...

3. Ziyraklar guruhiga topshiriq. Chap ustundagi maqollarning davomini o'ng ustundan toping. Maqollar tarkibidan sifatlarni belgilang.

- | | |
|------------------------------|-----------------------------|
| 1. Ahmoqona farmonga | sabotli bo'l! |
| 2. Achchiq -achchiq gapirib | maslahat so'rama! |
| 3. Sinalmagan kishidan | odilona javob. |
| 4. Salobatli bo'lma, | shirin javob kutma! |
| 5. Chin so'z - mo'tabar, | bolasi to'q bo'ladi. |
| 6. Bemaza qovunning | Yaxshi so'z – muxtasar. |
| 7. Qo'nog'i ko'p uyning | urug'i ko'p bo'ladi. |
| 8. Maslahatlari ish bitar | ! Bilimi zo'r mingni yiqar. |
| 9. Tikansiz gul bo'lmas, | ! Maslahatsiz ish yitar. |
| 10. Bilagi zo'r birni yiqar, | ! Mashaqqatsiz - hunar. |

4. Saxiylar guruhiga topshiriq. Semantik tahlil. «To'kin dasturxon» o'yinida qatnashib, patnisiga qo'yilgan sabzavotlar, sun'iy mevalar va plakatda aks etgan mevalarni ta'riflang.

«Avvalo O'zbekiston jannatmakon o'lka, tuprog'i zar, saxiy tabiatini to'kin dasturxonimizga qishin-yozin o'z noz-ne'matlarini tortiq qiladi. Limon – mevali daraxt, nordon, tuxumsimon, sariq; Olma – shirin, dumaloq, pushtirang; Qalampir – uzunchoq, qizil, achchiq; Banan – uzunchoq, qalin, shirin, qovun ta'mli, sariq ; Pomidor – qizil, dumaloq, chuchuk-shirin, suvli; Sholg'om – shirin, shifobaxsh, sariq sholg'om kabi...»

O'qituvchi: Endigi bosqichda fanlarga sayohat qilamiz. Siz bir daqiqa ichida geografiya, tarix, botanika va adabiyot fanlaridan berilgan ma'lumotlar bilan tanishib, nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying. O'z bilimingizni sinab ko'ring.

Botanika:

1. Bakteriyalarning, turlari bor. (chirituvchi, achituvchi)

2. Ayrim bakteriyalar tirk o'simlik, hayvon va odam organizmida, ular hujayrasida yashab, oziqlanadi. Bunday bakteriyalar deb ataladi. (parazit)
3. Bu bakteriyalar orasida odamlarda,,,,, yuqumli kasalliklar paydo qiladigani bor. (sil, terlama, bo'g'ma, vabo, o'lat)

Geografiya:

1. Antarktidamuz bilan qoplangan materik, , o'rtacha balandligi bo'yicha(doimiy, yagona, eng sovuq, eng baland)
2. Yunoncha ---- qanday ma'noni bildiradi? (anti) - - , «arktika» - degani. (qarama-qarshi, teskari, shimoliy)
3. Kolarado -- (eng chuqur dara), Niagara ---(eng go'zal va maftunkor sharshara), Alyaska --- (eng uzun vodiy muzligi), Grelandiya – (eng katta oroli bor).

Tarix:

1. Axuramazda zardushtiyarlarning va xudosi hisoblangan. (donishmand, ulug')
2. Mitra – dehqonlar va chorvadorlarning, bag'ishlovchi homiysidir. (hosildorlik, farovonlik).
3. Mitra va qiyofasida tasvirlangan. (o'spirin, jangchi,)
4. Zardushtiylar umrining tub ma'nosi amal, so'z, ... fikrdan iborat bo'lgan. (ezgu)
5. To'maris bosqinchilarga-..... qaytib ketishni taklif qiladi. To'maris , ayol! (tinch-omon, mag'rur, mard)

O'qituvchi: Eng qadimgi odamning ko'rinishi qanday bo'lgan? Siz bu haqda nimalarni bilasiz?

1. Qaddi-qomatini tik tutib yuradigan odam.
2. Peshonasi keng, qoshlari qalin, ko'zları katta-katta, burni keng, jag'i oldinga chiqqan.
3. Jussasi katta, baquvvat, yelkalari keng.
4. Farg'ona vodisidan «neandertal», ya'ni eng qadimgi odamlarning suyak goldiqlari topilgan.

Endi «Bu qiyofa kimniki?» o'yinida qatnashib, ziyrak o'quvchiligidengizni isbotlang.

1. Yoshi qirqlarga borib qolgan, yarg'oq teridan kamzul kiygan, chiroylikkina ayol belidagi oltin kamarga taqilgan qilichini avaylab ushlagan holda palos ustiga sakrab tushdi. U «Boshimizdan zar

sochganlaringda ham biz erkinlikni qullikka almashtirmaymiz», - dedi qat'iy ohangda. (To'maris)

2. Erkaklardek barvasta, gavdali, qop-qora bu xotinning yo'g'on ovozi ham, uzun qirra burni, ketmonni yelkasiga tashlagancha etik kiyib g'oz yurishi ham boshqa ayollarga o'xshamas, hatto qoramitir, siyrak mo'ylovi gacha bor edi. U qachon qarasa qulog'iga rayhon taqib yurar edi. Uni birinchi marta ko'rganimdayoq qo'rqib qolganman.

(«Dunyoning ishlari» qissasidagi Zebi xola)

3. Sallalari boshlarida oq savat, birlari mo'ltoninamo, hiylagar, birlari esa to'nkadaj qo'pol, eshak gavdali. Og'izlari maqtanib o'nbesh qarish mayda suxan, ezmachuruk, zanchalish.

(“Tanobchilar”. Ali xo'ja, Hakimjon)

O'qituvchi: Adabiyotda bir necha sifatni bir-biriga ulash san'ati «Tansiq-as-sifat», ya'ni «sifatlar tizması» deb ataladi. Masalan: Ibn Sino va Al Beruniylarning ustozi Al Masihiy «Ochko'z odam qanoatlanarli, go'zal, farovon, tinch hayotdan ham mammun bo'lmaydi, u tengi yo'q boylikka intiladi, ammo u bunday boylikka erishganida ham ochko'zlik uni tark etmaydi» degan gapida qanoatlanarli, go'zal, farovon, tinch so'zlaridir. Inson qiyofasini tasvirlash esa «Portret» janri deb yuritiladi. Ilmiy tasvirda odamning yoshi, yuz tuzilishi, ko'zi, qulog'i, burni, sochining rangi, bo'yi, gavdasi kabi faktlarga asoslangan bo'ladi. Bunday tasvirdan ichki ishlar bo'limi xodimlari ko'proq foydalanishadi. Bobomiz Amir Temurni o'z ko'zi bilan ko'rgan tarixchi ibn Arabshoh uning qiyofasini mana bunday tasvirlagan: «Temur baland bo'yli, qadimiy pahlavonlarday ulkan qomatli, yelkalari keng, boshi shernikiday katta, barmoqlari yo'g'on, oq-u qizil tiniq yuzli, yo'g'on ovozli, ikki ko'zi bamisolai ikki yoniq shamday olovli, badani pishiq, xuddi tosh misoli qattiq, o'limdan qo'rqlmaydigan, iztirobsiz, vazmin odam edi». Bunga siz buyuk Temurning portretini ko'rib amin bo'lasiz.

Dostonlarda inson qiyofasi saj usulida, ya'ni qofiyadosh so'zlarda ham beriladi. «Ravshan» dostonidan olingen ushbu parchaga e'tibor bering. «Ravshanbek zehnini qo'yib qarasa, Zulhumor yasangan, hurday, tishlari durday, ko'zları yulduzday, qoshlari qunduzday, lablari qirmizday, og'izlari o'ymoqday, lablari qaymoqday qiz ekan».

Mumtoz adabiyotda ham bunday tasvirlarni o'qish mumkin. So'z mulkinining sultonii Alisher Navoiyning «Qoshi yosinmu deyin» g'azalini tengdoshingiz Yulduzzon ijrosida video kasseta orqali

eshitasiz. Ushbu g'azal «G'azalxonlik» kechasidan yozib olingen. She'rda qiz qoshining yoysimon, ko'zlar qora, qarashlari qahqli, kipriklari tikandek qattiq, sochlari huddi tuzoqqa o'xhash, suhbat shirin, turfa xollik, qaddi-qomati niholga o'xhash kabi tashbehtar qo'llangan.

Endigi topshiriq «Matn bilan ishlash». Bunda siz o'qigan badiiy asar sahifalaridan inson qiyofasini yorituvchi o'rirlarni topasiz.

Bilag'onlar guruhiiga topshiriq. Xudoyerdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romanidan olingen parchalardan «Qidirilmoxda» rukni ostida Hoshimjonning qiyofasini aniqlang. Tasvirlarni obrazga kirib o'qing.

1. Diqqat, diqqat! – (hovliqib, xirillab gapira boshladи Hayitvoy,) - o'g'rini qidirayotganlar diqqatiga. Hozirgina qochgan bola o'n ikki -o'n uch yoshlarda edi. O'zi qorachadan kelgan, orig, bo'yи mendan ko'ra novcharoq, ko'zlar yirik-yirik, doim chaqnab turadi. Burni angishvonaga o'xshaydi. Gapirganda tutilib-tutilib qoladi. Ustida oq shoyidan sorochkasi bor, shimi yo'l-yo'l sherstdan, dazmullanmagan. Afti-boshiga bir haftadan buyon suv tegmagan bo'lsa kerak. Hamma yog'i kir.»

2. «Rayon militsiya bo'limi mehnatkashlarga shuni yozib bildiradiki, bundan uch kun avval to'rtinchи sovxozdan Hoshimjon Ro'ziev nomli bir yigit qochdi. O'zini agronom qilib ko'rsatib yurgan bu shaxs, aslida, shahar jinnixonalarining biridan qochib kelgan kimsadir. Bo'yи terakdek novcha, o'zi igna yutgandek ozg'in, yurganda biroz oqsab yuradi. Gapida ma'no yo'q, yosh bolalardek aljib gapiradi. Ko'rgan-bilganlar bo'lsa militsiya bo'limiga xabar qilishini so'raymiz...»

3. Sovxozi direktori baland bo'yli, yelkalari keng, polvonnamo bir kishi ekan. Gapirganda ovozi xuddi xumming ichidan chiqqandek guldirab, jaranglab eshitiladi. Kulganda tomni ko'tarib yuborgudek qattiq kuladi, yurganda uyning pollari lapanglab ketadi.

Topqirlar guruhiiga topshiriq. G'afur G'ulomning «Shum bola» asaridan berilgan parchadan inson qiyofasi tasvirlarini toping. Ularni tasvirlashda ko'rgazmadagi qo'g'irchoqlardan foydalanishingiz mumkin.

1. Chang bosgan kipriklar tagidagi qo'y ko'zlar menga juda tanish. Yo'lning gard-g'ubori qoqilmagan namatdek qilib yuborgan bu bashara ko'zimga issiq-issiq ko'rindi. Lekin egnidagi qozoqi

chakmon bilan boshidagi teskari ag‘darilgan telpak, qo‘lidagi boshi cho‘qmor kaltagi menga tanish emas (Omon tasviri).

2. Tepamizda saman otga mingan, moshkichiri soqolli, burni xuddi paxtali to‘nga qadalgan tugmaday ichiga botib ketgan puchuq bir kishi qamchi o‘ynatib siyosat qilar edi.

3. Omon uyqudan chap yonboshi bilan turdi. Qovog‘ining peshayvoni tushib ketgan, to‘g‘ri gapga ham tersayib javob berar, mechkay kasalga uchragan bolalarday injiq edi.

4. Sariboy – ezma, xasis, nazari past, laqma, dunyoda faqat o‘zim bo‘lay, deydigan, Shum bola aytganidek, «odamni xit qilib yuboradigan» xilidan.

5. Shum bola chaqqon, topqir, hozirjavob, har qanday vaziyatdan chiqib keta oladigan abjir yigit. U – yerga ursa ko‘kka sapchiydigani, bir joyda uzoqroq turib qolsa yuragi siqilib ketadigan, tinib-tinchimas bola.

Ziyraklar guruhiga topshiriq. Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyasi misolida inson qiyofasi tasvirlangan o‘rinnlarni toping.

1. Dadamlar to‘ladan kelgan, novcha, qirraburun, o‘sha davrda rasm bo‘lgan to‘mtoq mo‘ylovli, xushqad, salobatli kishi edilar. Egnidagi libosi ko‘krak cho‘ntakli yashil kostyum va galife shim kiygan, oyoqlarida ham o‘sha zamonlarda rasm bo‘lgan g‘arch-g‘urch xrom etik.

2. Chiroyli foytundan o‘sha paytlarda barcha kattalar uchun rasm bo‘lgan yashil rang galife shim va gimnastyorka kiygan o‘rtta yashar ikki kishi bilan qizil ko‘ylakli, ko‘zlarini qiyg‘och bir ayol tushdi.

3. Boyagidan ham battar qorayib, bir zumda allaqanday ozib, munkayib qolgan dadamlar avval faryod chekayotgan oyimlar bilan opamlar, so‘ng qaqshab-qaltirab qolgan ukalarimning peshonalaridan o‘pdilar.

Saxiyalar guruhiga topshiriq. Maqsud Qoriyevning «Spitamen» qissasi sahifasidan inson qiyofasining tasvirlarini toping. Rasmlarga qarab so‘zlang.

1. Spitamenning otasi pahlavonsifat, ancha qattiqko‘l odam, shu boisdan yuzidan nur yog‘ilib turadigan yakka-yu yagona o‘g‘lini ham ana shu ruhda tarbiyalaydi.

2. Spitamen yosh bo'lsa ham, qaddi bastli, kelishgan, chiroyli bo'lib etishgan edi. Endigina sabza bo'la boshlagan mo'ylabi, qop-qora baquvvat patila-patila sochlari o'ziga yarashib turgan.

3. Otasi uni jismoniy jihatdan yetuk, baquvvat jangari yigitlarga birkitib qo'ygandi. So'g'diyonada barcha uni qoplon terisini yopingan chapdast ovchi deyishadi. U mohir sarkarda. Uning xonligi ham, bekligi ham bor. Agar ko'nglini topsangiz, hech narsasini ayamaydi, qo'li ochiq, agar izzat nafsiq teksangiz, undan yomoni yo'q.

O'qituvchi: Diqqat, reklama!

Quyidagi tasvir Primqul Qodirovning «Nizomning tantiligi» hikoyasidan olingan. Bu obraz kim ekanligini hikoyani o'qish jarayonida bilib olasiz.

«Qoshlari qalin, ko'zlar ko'kish, qirra burun, kalta qirqilgan soqoli va qayrilma mo'ylovi o'ziga juda yarashgan durkun gavdali (Sherxonning) qarashlarida burgutni eslatadigan bir ifoda bor.»

Topshiriq: Siz o'z sinfdoshingizning tashqi qiyofasi va xarakterini yaxshi bilasiz. Musobaqalashayotgan guruhdan bir tengdoshingizni tanlab, tashqi qiyofasini tasvirlang. Eng chiroyli, to'g'ri tasvirni aniqlash uchun ovoz beriladi.

Quyidagi tasvir ko'p ovoz bilan g'olib deb topildi.

«Zaynab sinfimizning eng peshqadam, a'lo bahoga o'qiydigan qizlaridan biridir. U sariqdan kelgan, yuzi lo'ppigina, kulib turgan chehrasi doim o'ziga yarashib turadi. Ayniqsa, uning serma'no shahlo ko'zlar va qop-qora yoysimon qoshi odamlar diqqatini darrov o'ziga tortadi. Yuzining o'ng tomonidagi qora xoli, sarg'ish tusda tovlanyotgan jingalak sochlari uning husniga husn, go'zalligiga go'zallik baxsh etib turganday.

Zaynabning hamisha dazmollangan oq koftasi, qora yubkasi doim yarashadi. U ortiqcha zeb-u ziynatlarni yoqtirmaydi. Uni juda hurmat qilamiz».

O'qituvchi: Har qanday inson qiyofasi, harakati, fazilatlari qolaversa gaplaridan o'zining kim ekanligini atrofdagilarga bildirib turadi.

O'zbek millatida Vatan juda mo'tabar tushuncha hisoblanadi. Butun umr yurt hijronida yig'lab o'tgan Furqat bir g'azalida «Vatan hajrida o'rtangan jismim hatto qabrda ham qon-qon yig'laydiki, qabrimga kim ishora etar ekan, barmog'i qon bo'ladi» degan mazmunni ifodalagan edi.

Guruhlarga topshiriq. Muhammad Yusufning ushbu she'rlaridan qanday inson ekanini bilish mumkinmi? Sifatlarni aniqlang.

1. Tanish terak. Ariq yoqasi
Bo'tana suv, shirin loyqa suv.
Tor ko'chada otlar taqasi...
Qancha bo'lди ko'rmaganimga
2. Yog'och eshik ochilar sekin...
Toshmehrman men juda, lekin
Hozir yig'lavorishim mumkin –
Qancha bo'lди ko'rmaganimga...
3. «Atrofing ko'm-ko'k maysa, keng bir o'tloq bo'lsa... Osmon tip-tiniq. Maysaga yastanib yotsang-u ... o'lib qolsang!»
4. Ushbu she'r dan O'zbekning qiyofasini aniqlang?
Qiyosi yo'q aslo, mehri bir daryo,
O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek.
Bolalariga-ku bildirmas, ammo
Dunyoda bolam, deb yashaydi o'zbek.
O'nta bo'lsa o'rni boshqa uning-chun:
O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun
Qizim parilardan chehrasi gulgun,
Yuzlari lolam deb yashaydi o'zbek.

Uyga vazifa: Istagan sinfdoshingizning tashqi qiyofasini, tabiat manzarasini tasvirlang. Adabiyot darsligingizdan «Adabiyot – odamni tanish vositasisi» xotimasini o'qib, Tog'ay Murod, Pirimqul Qodirov asarlaridan inson qiyofasi tasvirlarini toping. Sifatga oid so'zlarni ma'no guruhlariiga ajrating.

Ilova:

Diqqat, reklama!

Quyidagi tasvir Pirimqul Qodirovning «Avlodlar dovonii» romanidan parcha «Nizomning tantiligi» hikoyasidan olingan. Bu obraz kim ekanligini hikoyani o'qish jarayonida bilib olasiz.

«Qoshlari qalin, ko'zları ko'kish, qırra burun, kalta qirqilgan soqoli va qayrilma mo'ylovi o'ziga juda yarashgan durkun gavdali... (Sherxonning) qarashlarida burgutni eslatadigan bir ifoda bor.»

Darsda o'quvchi quyidagi talablar asosida baholanadi.

- | | |
|--------------------------------------|---------------------------|
| 1. Sharhlash (mustaqil fikr bayoni). | 3. Savodxonlik. |
| 2. Notiqlik (suxandonlik). | 4. Musiqali diktant. |
| | 5. Zakovat (aqliy hujum). |

- | | |
|---------------------------------|--------------------------|
| 6. Topqirlik (anglash). | 10. Matn bilan ishslash. |
| 7. Ijodkorlik (fikrlash). | 11. Rolga kirish. |
| 8. Fanlarga sayohat (zukkolik). | 12. Amalda sinash. |
| 9. Tasavvur qilish. | Mustahkamlash. |

Illova: Dars ko'rgazmasiga qo'yilgan **ma'nodosh sifatlar:**

1. Ulug'sifat: ulug'ver, salobatli, sersavlat, o'zini og'ir, yaxshi tutadigan, kamtar, muomalada nozik, insonparvar, sokin, mehribon.
2. Ulug'ver: savlatdor ko'rinishli, salobatli; muhtasham, ulug'ver gavdali; alp, ulug'.
3. Ulug': buyuk, beqiyos talantli, iste'dodli, qobiliyatli, ulug' zot; mansabdar, boshliq.
4. Turfa: ajibligi bilan kishini hayratga soladigan, ajoyib, g'alati...
5. Shafqatli: rahmdil, mehribon, bag'ri keng...
6. Yuvosh: tinch, beozor, mayin, yuvoshgina, sokin odam...
7. Ehtiyotsiz: tadbirsiz, pala-partish, rejasiz, isrofgar...
8. Qiyshiq: burushgan, qing'ir. «Basharang qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalama» (maqol) (G'ilay, sersoqol, to'la yuzli, bir ko'zi qiyshiq, muloyim tovushli kishi)
9. Qilichday: o'tkir, qaddi-qomati kelishgan, tik, tetik, qilichdek yigit. (Qoshi qilich)
10. Qiyg'och: qisiq, suzuk ko'z; nafis qiya tushgan (qosh haqida): xushro'y, qiyg'och qosh.
11. Tasmaday: ingichka, nozik, xipcha, ozg'in, xushbichim.
12. Tasqara: beo'xshov, xunuk, badbashara, turqi sovuq.
13. Takasaltang: ish yoqmas, dangasa, tanbal, tekintomoq, mujmalu mijg'ov, yalqov...
14. Tiyrap: serharakat, bardam, tetik, ziyrak, baquvvat, xushyor, o'tkir ko'z, tiyrap chol...
15. Shakl-shamoyil: tashqi ko'rinish, qiyofa, vajohat, yuz, gavda ko'rinishlari.
16. Tamanno: noz-ishva, karashma, tamannoli.
17. O'taketgan: nihoyatda, g'irt, g'oyat, juda, uchiga chiqqan g'irrom, munofiq, makkor...
18. Ko'zi qattiq: qahri, ko'ngli, bag'ri, yuragi, terisi kabi.. Gapida qattiq turmoq...
19. Husndor: husnli, ko'rkan, chiroyli, go'zal, kelishgan, malohatli, oy yuzli, istarali...

20. Hiylagar: nayrangboz, firibgar, makkor, ayyor, dog'uli, sehrgar, tulki, tullak...
21. Hilol: yangi chiqqan oy, uch kunlik oy. (Zulxumorning kamoli, oyday jamoli, oq yuzida xoli, yangi chiqqan oyday ikki qoshi - hiloli) «Ravshan»
22. Qalang'i-qasang'i: har xil bo'limg'ur, betayin odamlar, sayoqlar..
23. Yarashiq: mos keladigan, munosib, muvofiq, yarashiqli...(Qora shirindan kelgan bu qizning lablari qalin va yarashiqli edi)
24. Chakakli: seryig'i, yig'loqi, sergap, ezma..(ko'chma: ochofat, yuho, yebto'ymas)
25. Chakak-chakak: oriq, yuz go'shtlari kam. (Betobligi uchun bo'lsa kerak, chakak-chakak bo'lib ketibdi)
26. Tovlanmoq: rang-barang tusda tovlanmoq, ko'zga tashlanmoq, o'zini ko'z-ko'z qilmoq, jilva qilmoq, mehri tovlanmoq...

Xalq maqollari

1. Baq-baq etgan takani yomg'ir yoqqanda ko'r, shaq-shaq etgan kelinni sigir soqqanda ko'r.
2. Benomusga – ne nomus? (benomus, behayo, oriyatsiz, yuzsiz, betamiz, bezori, imonsiz, uyatsiz odamlarni qoralovchi maqol)
3. Betimining qalini – jonimnin huzuri. (beandisha, bezbet, ochko'z, yeb to'ymas sulloh odamning tilidan, shunday odamga kinoya)
4. Bo'ynda illati borning iligi qaltirar. (xiyonatchi, jinoyatchi kimsalar)
5. Dilida kiri borning – ichida siri bor. (ichi qora, dilgir odamlardan jirkanish)
6. Yeyishing – kepak, kiyishing – ipak.
7. Yeyishing – sholg'om-u, yotishing – Marg'ilonning sirli saroyi.
8. Yoqimlining cho'tiri bilinmas.
9. It vovullab qariydi.
10. It desa, quyrug'i yo'q, sigir desa, muguzi yo'q.
(Odoblidek tuyuladi, lekin xira, shilqim, urag'on, yomon odamning ishini qiladi)
11. Teshik qulog nelar eshitmas.
12. Til - qilichdan o'tkir.
13. Qoloqdan cho'loq yaxshi.... kabi.

OLMOSH HAQIDA MA'LUMOTLAR

Darsning maqsadi: O'quvchilarda olmosh so'z turkumi haqida tushuncha hosil qilish. Ularni o'zaro hamkorlikda ishlashga o'rgatish, nutqiy malakalarini oshirish, qo'shimcha materiallardan foydalanishga o'rgatish.

Darsning jahozi: Vatanimiz gerbi, bayrog'i. Audio kasseta. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 7-sinf adabiyot darsligi.

Darsning shiori: O'qigan o'qdan oshar, o'qimagan turkidan shoshar.
(xalq maqoli).

Guruhlarning shiori: O'qigan - o'qigan emas, uqqan - o'qigan.
Ilm olmoq - igna bilan quduq qazimoq.

Aziz o'quvchilarim! Bugungi darsimiz olmosh haqida bo'ladi. Siz shiorlardan birini tanlab, quvnoqlar va zukkolar guruhlariiga bo'linishingiz kerak. Siz dars davomida beriladigan topshiriqlarga tayyor turishingiz, olgan bilimlarinigizni namoyon qila olishingiz, qo'shimcha adabiyotlardan tezkorlik bilan foydalana olishingiz kerak bo'ladi. O'quv faoliyatimizning birinchi bosqichida «To'g'ri, noto'g'ri» o'yinini boshlaymiz. Bunda guruhlar bir-biriga savollar berishadi. Guruhlar to'g'ri noto'g'rilingini tekshirishadi. Javobni to'g'ri topsangiz kartochka olish huquqiga ega bo'lasiz. Darsimizning niyoyasida kartochkalar yordamida g'olib guruhi aniqlanadi.

Quvnoqlar: Olmoshlar nutqimizni o'rinsiz takrorlashdan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasidir.

Zukkolar: To'g'ri. Men, sen, u, biz, siz, ular, bu, shu, o'sha, hamma, o'z, kim, nima, qachon, qaer, ancha kabi so'zlar olmoshlar bo'lib, ularning aniq lug'aviy ma'nosi yo'q .

Quvnoqlar: To'g'ri. Olmoshlarning ma'nosi gapirganda ham, yozganda ham oydinlashadi.

Zukkolar: Noto'g'ri. Olmoshlarning ma'nosi faqat matndagina, ya'ni yozilganda oydinlashadi.

O'quvchi: Olmoshlar matndan anglashib turgan so'zlarga, so'z birikmalariga yoki fikrlarga, shuningdek, so'zlovchi yoki tinglovchiga ishora qiladi, ularni almashtiradi.

Quvnoqlar: To'g'ri. Olmoshlar ko'rsatish, kishilik, o'zlik, belgilash olmoshlariga bo'linadi.

Zukkolar: Noto'g'ri. Yana uchta so'roq, gumon, bo'lishsizlik olmoshlarga ham bo'linadi.

O'quvchi: Ko'rsatish olmoshlari ba'zan miqdor-daraja olmoshlari deb ham ataymiz.

Quvnoqlar: Noto'g'ri. Ko'rsatish olmoshlardan yasalgan: shunday, shunaqa, buncha, o'shancha kabi olmoshlar xususiyat, belgi, miqdorga ishora qilib keladi. Shuning uchun ular belgilash, ba'zan esa miqdor-daraja olmoshlari deyiladi.

O'quvchi: O'zlik olmoshlari shaxs ma'nosini ta'kidlashga xizmat qilib, shaxs olmoshlari ham deyiladi.

Zukkolar: Noto'g'ri. Xizmati to'g'ri, lekin ular shaxs olmoshlari deyilmaydi. Chunki shaxsga ishora qilmaydi. Shaxs, kishilik olmoshlari: men, sen biz, siz, ular.

O'quvchi: So'roq, olmoshlari ishtirok etgan gaplar so'roq, oxangi bilan aytildi, yozuvda esa gap oxiriga so'roq, belgisi qo'yiladi.

Quvnoqlar: To'g'ri. «har» so'zi ko'pincha bo'lishsizlik olmoshlari bilan birikib keladi.

Zukkolar: Noto'g'ri. «har» so'zi belgilash olmoshi bo'lib, ko'pincha so'roq, olmoshlari bilan birikib keladi hamda qo'shma belgilash olmoshlari yasaydi.

O'quvchi: So'roq, olmoshlari bilan qo'shib keladigan -alla vadid olmoshlarga noaniqlik ma'nosini kiritadi va gumon olmoshlari hosil bo'ladı.

Quvnoqlar: To'g'ri. Bo'lishsizlikni ifodalovchi «hech» so'zi gumon olmoshi bilan birikib keladi.

Zukkolar: Noto'g'ri. «hech» so'zi so'roq, olmoshi bilan birikib keladi. Bo'lishsizlik olmoshlari gap kesimining bo'lishsiz shaklda kelishni talab qiladi: hech narsa yo'q.

O'quvchi: Tilimizda kamtarlik uchun «men» kishilik olmoshi o'rnidagi: kamina faqir, banda so'zlar qo'llanadi.

Quvnoqlar: To'g'ri.

O'qituvchi: Ko'rgazmada mustaqil O'zbekistonimizning gerbi, bayrog'i tasvirlangan. Hozir shu tasvir asosida izohli diktant o'tkazamiz. Sizning vazifangiz gaplarni yozib olish va birinchi gapdag'i "hoshiya", ikkinchi gapdag'i "humo", uchinchi gapdag'i "O'z tilim" so'zlariga izoh berib, olmoshlarni toping.

1. Bayroqning o'rtasidagi oq rangli enning chetlaridan teng qizil hoshiyalar o'tkazilgan.

2. Gerbning markazida qanotlarini keng yozgan humo qushi tavirlangan.

3. O‘z elim, o‘z uyim, o‘z tilim bor bo‘l.

1-o‘quvchi: “hoshiya” deganda biz daftar, kitoblarimizning bir tomonidan ma’lum hajmda qoldirilgan joyni tushunamiz. Yozuv daftarida hoshiya qizil chiziq bilan belgilanadi.

2-o‘quvchi: “humo qushi” baxt, erksevarlik rəmzi. U afsonaviy qush. Bu qush haqidagi ma’lumotlarni biz ko‘proq ertaklardan o‘qiganmiz. Biror mamlakatda podsho saylash uchun dono odamlar humo qushini uchirganlar. Humo qushi kimning boshiga qo‘nsa, o‘sha odamni podsho qilib saylashgan.

O‘qituvchi: Nima uchun mustaqil O‘zbekistonimiz gerbida qanotlarini keng yozib turgan “humo qushi” tasvirlangan?

3-o‘quvchi: Bu qush o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan respublikamizga baxt va iqbol keltiradi.

4-o‘quvchi: “O‘z tilim” deganda ona tilimizni tushunamiz. Bu kun yurtimizda yigirma birinchi oktyabrda bayram qilib nishonlanadi.

5-o‘quvchi: Bu gapda o‘zlik olmoshi ishtirok etib, ot bilan bog‘lanib o‘ziga tegishlilik, xoslik ma’nosini anglatyapti.

O‘qituvchi: Endigi o‘quv faoliyatimizning bosqichida «Ijodkor» o‘yinimizni boshlaymiz. Yozuv taxtasiga quvnoqlar guruhi ot so‘z turkumi ishtirok etgan gaplardan misollar yozadi, zukkolar esa shu gaplardan egani olmosh bilan almashtirib, fikrni davom ettirishlari yoki yangi gap tuzishlari talab qilinadi.

Quvnoqlar: Zamira juda ziyrak qiz.

Zukkolar: Uning ziyrakligi o‘qishda qo‘l keladi.

Quvnoqlar: Bolalarning hammasi band: biri kitob o‘qiyapti, biri rasm chizyapti, biri xayolga berilib, ijod q ilyapti.

Zukkolar: Ularning barchasi band: kimdir kitob o‘qipti, unisi rasm chizyapti, bunisi xayolga berilib, ijod qilyapti.

O‘qituvchi: Kodoskop orqali berilgan gaplardagi nuqtalar o‘rniga kerakli olmoshlarni qo‘ying.

1. (Bunda) _____ harorat, muhabbat shafqat.

2. (Nima) _____ kishiga ko‘p ziyon keltiradi

3. (O‘zingni) _____ er bilsang, (o‘zgani) sher bil.

4. (har) _____ yer Vatan bo‘lmash.

5. (hech kim) _____ va (q ech narsa) _____ unitilmaydi.

6. (qaerdandir) _____ samolyot tovushi eshitildi.

7. (hech kim) _____ va (hech narsa) _____ unitilmaydi.
 8. (Kaminaning) _____ nomlari _____ Mulla Do'st.
O'qituvchi: Yozuv taxtasiga guruqlar olmoshlar ishtirokida gapning bo'laklari vazifasida kela oladigan gaplar tuzing.
1. Har kim o'z burchini ado etsin. (har kim, ega).
 2. Har bahorda shu bo'lar takror. (har bahorda, hol).
 3. O'zlaridan chiqqan gap. (O'zlaridan, to'ldiruvchi).
 4. Maymunjonga nima bo'ldi (nima bo'ldi , kesim).
 5. Uzoqdan allaqanday qora ko'rindi. (allaqanday, aniq lovchi)
 6. O'z Vataniga sodiqlik - barcha fuqarolarning burchi. (barcha, aniqlovchi).

Topshiriq: Magnit lentasidan uch marta saylanma diktant matni o'qiladi. Matndagi olmoshlarni topib, daftaringizga yozing.

«Bir joyga ildiz otib turavermasdan sen ham mundoq menga o'xshab bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yursang bo'lmaydimi, qolaversa kishilar nazar e'tiboridan ham chetroqdasan, - debdi Qumg'oq Yantoqqa.

– Kishilar nazaridan uzoqroq bo'lsam ham shu zaminga chuqur ildiz otib yashayotganimdan mammunman. Senga o'xshab, xiyol sharmol tursa, qayoqqa yumalashni bilmay titrab-qaqshashdan tangri saqlasin,- deb javob beribdi Yantoq.

Shu payt bir oz shabada esgan edi, Qumg'oq uchib ketib soyga quladi-da, suv yuzida oqib ketdi».

O'quvchilar: Matndan biz - sen, menga, senga kishilik olmoshlarini hamda mundoq, shu ko'rsatish olmoshlarini topdik. Joy, kishi kabi otlarning ma'nolari kengayib olmoshlarga yaqinlashib kelgan.

O'qituvchi: Shu matndan qanday xulosaga keldingiz? Xulosalariningizni olmoshlar ishtirokida bayon eting.

Zukkolar: Yantoq o'z tug'ilib o'sgan joyiga mehr qo'ygan. Bu bilan yerga ildiz otib mustahkam o'mashgan. Qissadan hissa: O'z vatanini sevmagan odam - yomon odam. Kimda kim o'z ona diyorining zamini-yu, oqar suvlarini, kimsasiz cho'llari-yu, dala dashtlarini qalbdan seva olsa, unday odam kam bo'lmaydi, zavol ko'rmay kamol topadi.

Quvnoqlar: O'z uyim - o'lan to'shagim.

Zukkolar: Yurtni obod qilaman degan, o'zi obod bo'ladi.

O'quvchi: Maqollarda asosan o'zlik olmoshlari ishtirok etib, shaxsni ta'kidlashi olmosh tarkibidagi egalik qo'shimchalar bilan yasalyapti. O'zlik olmoshi ko'plikda kesatish, hurmat ma'nosini ifodalaydi.

Topshiriq: «Izlanish» sahifamizda quvnoqlar guruhiga 7-sinf adabiyoti darsligining she'riy matnlari tarkibidan, zukkolar guruhiga «O'zbek tili va adabiyot» jurnalidan o'rinn olgan «Muhayyirning «qirq hadis»i» maqolasi tarkibidan olmoshli satrlardan misollar keltirish topshiriladi.

Quvnoqlar: Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim.

Gado bo'lsam ne ayb, ul shoxi davronimni sog'indim.

(Jahon otin Uvaysiy).

Zukkolar: «O'zingizni duoibad qilmang, chunki qanday duo tilingizga kelsa, farishtalar omin» deydi».

Quvnoqlar: Ul ketgach, kun chiqar yorug'lik sochib,

Undan-da so'raymen sening to'g'ringda.

Ul-da o'z o'tidan bekinib, qochib

Aytadir: bir ko'rdim, tushdamas, o'ngda.

Men suyib... men suyib kimni suyibmen

Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,

Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal! (Cho'lpon).

Zukkolar: Hech umiding uzma, ey bemor

Ki, erur bu xush xidmat sango.

Har marazniki haq yaratibdur,

Yana aning uchun yubormish shifo, ya'ni: Alloh

qanday dard yuborgan bo'lsa, unga shifo ham yuborgan.

Topshiriq: Grammatik topishmoqlarni tinglab, javobini toping.

1. Ot-u sifat, sonlarga, ham otlashgan so'zlarga

har doim o'rinnbosar, otlar kabi turlanar.

Almashadi ot bilan, ham sonu sifat bilan

Aiting-chi bu qanday so'z turkumi (Olmosh).

2. «Seni», «meni» dan tushar,

«unga», «bunga» qo'shilar («н» undoshi).

3. Men, sen, u, biz, ular

Toping-chi, qanday so'zlar? (Kishilik olmoshlari).

4. Qay vaqt, allaqayerda...

Bunday so'zlar bir talay.

qanday so'zlar ekanin

- Topar yaxshi bolakay
(So‘roq , gumon olmoshlari, ravish so‘zlar).
5. Olmoshvoyning to‘satdan
g‘ayrati jo‘sh uribdi.
Otlarga taqlid qilib
Gapda ega bo‘libdi.
Kimlar o‘ylab topadi
hamda misol aytadi (O‘zlik olmoshi).
- Bu topishmoqni o‘zim topaman.
- Misolni o‘zları topdilar.
6. Ham kishilik olmoshi, ham ko‘rsatish olmoshi
Misol aytинг-chi aniq (U olmoshi).
- U masalani bir zumda yechdi.
- U erda «umid nihollari» ko‘rigi bo‘ladi.
7. Ma’nosida bor so‘roq,
qanday olmosh top o‘rtoq (So‘roq olmoshi).
- O‘qituvchi:** «Ustoz» haqida kichik matn yarating. Matnni olmoshlar ishtirok etgan gaplardan tuzishingiz kerak bo‘ladi.
- O‘quvchi:** Men «Ustoz-otangday ulug‘» hikmatiga ishonaman.
- Zukkolar:** Ustoz o‘z umrini, qalb qo‘rini, o‘z tajribasi va bilimini sening yo‘lingda sarf etadi.
- Quvnoqlar:** Ular shogirdining yutuqlaridan quvonadi.
- Zukkolar:** Kishi mehnat, ijod, hayotda nimaiki yutuqni qo‘lga kiritar ekan, bu uning ustozи tufaylidir.
- Quvnoqlar:** Ularning o‘zi va so‘zining nufuzi, ta’siri juda kuchli bo‘lgan.
- Ustoz ko‘rmagan shogird, har maqomga yo‘rg‘alar.
- Zukkolar:** Beustod hech narsa, do‘sstar, yo‘l olmas,
Yo‘l olsa ham, elga e’tibor bo‘lmas.
- O‘qituvchi:** Dars yakunida tanlagan shioringiz haqida to‘xtaling.
- Quvnoqlar:** Biz bunday darslar davomida faqat ilm cho‘qqilarini egallaymiz. O‘z umrimizni mazmunli o‘tkazish uchun avvalo o‘zini o‘rab turgan borliqni bilish, yuksak aql va tajriba egasi bo‘lishimiz darkor.
- Zukkolar:** Buning uchun ilm olishimiz, hunar egallashimiz kerak.
- Olamda ilmdan qudratliroq kuch yo‘q. O‘zbek xalqi o‘zining maqollarida ilmni va ilm egalarini yuksak baholaydi. «ilm – aql chirog‘i» deb bejiz aytishmagan.
- O‘qituvchi:** Bu bilimlaringiz bir kun yig‘ilib albatta daryo bo‘ladi. «Bilmaslik – ayb emas, o‘rganmaslik – ayb». Doimo kitob sizning hamrohingiz bo‘lsin!

GAPDA UYUSHIQ BO'LAKLAR

Modulning didaktik maqsadi:

O'quvchilarning savodxonligini oshirish, "Gapda uyushiq bo'laklar" mavzusi yuzasidan o'quvchilarning kichik guruhlarida o'zaro hamkorlikda ishlatalishga o'rgatish. Ularning og'zaki va yozma nutqiy malakalarini oshirish.

Darsning jihози: 1.Texnik vositalar: audio kassetalar, kompyuter.

2. Ko'rgazmalar: Uyushiq bo'laklarga oid gaplar, rasmlar, o'quvchilar tomonidan chizilgan suratlar, 8-sinf adabiyot darsligi, gazetalar va Islom Karimovning "Ma'naviy yuksalish yo'lida" kitobi.

Darsning shiori:

Boshi bilan sho'ng'ib kirmasa har dam

Suv ostidan durni toparmi odam. (Jomiy).

Guruhlarning shiori: Agar fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, tadqiqotlar uning ildizini tashkil etadi. Zero, ildiz qanchalik baquvvat, chuqur ketgan bo'lsa, daraxt shunchalik barq urib yashnaydi, ko'p hosil beradi.

1. Kuch-bilim va tafakkurda.

2. Ilm maskanlarida faqatgina fikr erkinligi va chinakam ijod, izlanish hukmron bo'lmog'i zarur.

3. Faqat bahs, munozara, izlanish, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin.

(Islom Karimov. "Ma'naviy yuksalish yo'lida").

Darsning uslubi: Modul usuli

Modulning maqsadi: o'quvchilarning hamkorlikda ishslash, gapda uyushiq bo'laklarning vazifasi, o'ziga xos xususiyatlari va ifodalanishi bilan tanishish, nutqiy tafakkurini kengaytirish, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan topshiriqlar.

1-guruhg'a:

1. Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, berilgan savollarga javob toping va 124-127-mashqlar misolida tekshiring.

2. «To'qri-noto'qri» o'yinida qatnashib berilgan savollarga javob bering.

2-guruhg'a:

1. Ko'rgazmadagi rasmlarga qarab uyushiq bo'lakli gaplar tuzing.

2. Berilgan gazeta, adabiyot darsligi sahifalaridan, she'riy parchalardan uyushiq bo'laklarni toping.
3. Topilgan uyushiq bo'lakli gaplardan navbatma-navbat faqat uyushiq egali, to'ldiruvchili, holli, aniqlovchili bo'laklarni hosil qiling.

3-guruhg'a:

1. «Kim g'olib» topshirig'ida fanlarga oid uyushiq bo'laklarni nuqtalar o'tniga qo'yib, gaplarni to'ldiring, qaysi bo'lakka xosligini aytинг.
2. «Sarlavhasi mendan, matni sendan» musobaqasida qatnashib mavzuga oid uyushiq bo'lakli gaplar tuzing.
3. Test bilan ishlang.

Muhokama:

1. Mavzu bo'yicha ixtiro yarata olasizmi?
2. Siz moduldan ko'zlangan maqsadga erishdingizmi? qaydarajada?
3. O'quv materialini o'zlashtirishga nima yordam berdi va nima xalaqit berdi?
4. Qaysi topshiriq tushunarsiz bo'lib qoldi?

Uy vazifasi: "Mening O'zbekistonim" mavzusida kichik matn yarating.

Matnda uyushiq bo'lakli gaplardan foydalaning.

O'qituvchi: Darsimizni o'quvchilar tayyorlab kelgan payrovdan boshlasak. (O'quvchilar payrov aytishadi)

- Ra'noxon aniqroq gapiring. Gapingizni na egasi bor, na kesimi.
 - Voy, Ziyodaxon mening gaplarim ikkinchi darajali bo'ldimi
 - E, Ra'noxon, hali gapingiz to'liq gapmidi?
 - Yo'q, mening gaplarim bog'lovchisiz qo'shma gap.
 - Menga qaranglar qizlar, falonchilar boru...
 - Falonchilar demasdan egali gap qiling. Egasi yashiringan gapdan bezorman.
 - E, qiziqmisan, birov eshitib qolmasin deb, shaxsi noma'lum gap qilyapman-da.
 - Darsimizga boshqa maktablardan ustozlar tashrif buyurib, uyushib kelishgan, bundan gapning uyushiq bo'laklarini o'tamiz, shekilli.
- O'qituvchi:** To'qri topdingiz. Men ham gapimni atov gapdan boshlayman. Bahor. Bugungi darsimiz bayram. Darsimizga xush kelibsiz, aziz ustozlar!

Aziz o‘quvchilar! Darsimizning tashkiliy qismida siz yuqorida shiorlardan birini tanlab, guruhlarga, ya’ni: tadqiqotchilar, izlanuvchilar, topqirlar va tahlilchilarga bo‘linib, qo‘lingizdagi modul asosida ishlastingiz kerak. O‘quv faoliyatini boshlashdan oldin har bir guruhdan ikkitadan o‘quvchi kompyuterda o‘tilgan darslar yuzasidan tuzilgan testlarni 3-4 daqiqa ichida ishlaysiz va olgan balingizni modulni baho grafasiga belgilab g‘oyasiz, qolgan o‘quvchilar o‘quv faoliyatining birinchi elementi asosida 124-mashqni og‘zaki bajarishadi. Gap juftliklaridan nechtadan aniqlovchi va to‘ldiruvchi borligini aytasiz. «Ahmadga do‘smini topishida yordam bering», «Yigit qizni ajdardan qanday qilib qutqaradi» deb nomlangan ko‘rgazmada savollar joylashtirilgan. Savollarga jabob bering. Dars davomida to‘g‘ri javoblarining uchun ko‘rgazmadagi hovuz baliqlaridan ushlab, o‘tloqdagи qo‘ziqorinlardan, savatdagи gullardan terib baho kartochkalaringizni yig‘ing.

1. Uyushiq bo‘laklarning gapdagи vazifalarini ayting.

1-o‘quvchi: Uyushiq bo‘laklar gapda bir xil vazifani bajaradi. Bir xil so‘roqqa javob beradi va ayni bir bo‘lak bilan sintaktik aloqada bo‘ladi.

2. Qaysi paytda uyushiq bo‘laklar uyushgan sanalmaydi?

2-o‘quvchi: Gap tarkibida xilma-xil ma’no turlariga mansub bir necha hollar yoki sifatlovchi aniqlovchilar narsani turli jihatlaridan tavsiflab kelgan bo‘lsa, ular uyushgan sanalmaydi. Masalan: keng serqatnov yo‘l, katta baland uy.

3. Uyushiq bo‘laklar qanday ifodalanadi?

3-o‘quvchi: So‘z qo‘shilmalari bilan, so‘z birikinalari, kelishik qo‘shimchalari qo‘llangan so‘zlar bilan, kengaygan birikmalar qo‘shilmalari bilan ifodalanadi.

4. Ko‘rgazmadagi rasmlar asosida gap tuzib, uyushiq bo‘laklarni ifodalang.

4-o‘quvchi: Bog‘bonlar va yordamchilar o‘rik va anjirlarni terishdi. Bog‘bonlar tom orqasida va xo‘jalik o‘rikzorida yetilgan o‘riklarni terdilar. Bog‘bonlar bargak qilish uchun yaraydigan va pishib yetilgan o‘riklarni terdilar.

5. So‘z qo‘shilmalarini qanday hosil qilish mumkin?

5-o‘quvchi: Sanash ohangi va yozuvda vergul yoki teng bog‘lovchilar vositasida bog‘langan so‘zlar so‘z q o‘shilmalarini hosil qiladi.

6. Uyushiq bo‘laklarda qanday tinish belgilari ishlatalidi?

6-o‘quvchi: Uyushiq bo‘laklarda vergul, ikki nuqta va tire ishlataladi.

7. Qaysi paytda vergul ishlatilmaydi?

7-o‘quvchi: Uyushiq bo‘laklar bog‘lovchi vositasida bog‘lansa (va, ham, hamda, - u, - yu) vergul ishlatilmaydi. Masalan: yer-u osmon uzra chaqmoq gumburladi. Yer-u osmon o‘rtasida vergul yo‘q .

8. Uyushiq bo‘laklarda bog‘lovchi bilan bir vaqtida verguñi ishlatish mumkinmi?

8-o‘quvchi: Mumkin. Agar boqlovchi takror qo‘llansa, har bir bo‘lak vergul bilan ajratiladi. Masalan: Mehnat yoshlarga ham, keksalarga ham izzat va obro‘ keltiradi.

O‘qituvchi: Ko‘rgazmadagi rasmlardan foydalanib uyushiq bo‘lakli gaplar tuzing. Eni va bo‘yi yo‘nalishida yozuv taxtasiga yozing. O‘quvchilar yozuv taxtaga misolni yozguncha sizlar ushbu gaplarni uyushiq bo‘laklar bilan to‘ldirib aytинг: Men prezident bo‘lsam.... , Men millioner bo‘lsam..., Men ustoz bo‘lsam... kabi.

(O‘quvchilar berilgan gaplarni uyushiq bo‘laklar bilan to‘ldiradilar. Masalan: Men prezident bo‘lsam keksalarga, nochorlarga, kasallarga yordam berardim. v.h.k.)

Yozuv taxtaga esa quyidagi gaplar yoziladi:

1. «Zamin saxovati» rasm ko‘rgazmasida olma, anor, qulupnay, nok, anjir, gilos, banan hamda uzum tasvirlangan.

2. Ko‘rgazmalarda gullarga qo‘ngan kapalaklar, qo‘ziqorin terayotgan tipratikonlar, hovuzchada so‘zib yurgan baliqchalar va turli qushlar mahorat bilan chizilgan.

3. Biz baliq ovida laqqa, zog‘ora, sazan, ilon, nayza, karp kabi baliqlarni tutdik.(eniga).

4. Do‘sting uchun zahar yut.

og‘ayning, o‘rtog‘ing, jo‘rang kabi... (bo‘yiga).

O‘qituvchi: O‘q uv faoliyatining ikkinchi elementida tadqiqotchilarga «Ma’rifat», «Xalq so‘zi» gazetalari, izlanuvchilarga 8-sinf adabiyot darsligining matni, topqirlarga she’riy parchalar, tahlilchilarga esa prezidentimiz Islom Karimovning «Ma’naviy yuksalish yo‘lida» kitobi sahifalaridan uyushiq bo‘lakli gaplarni topish va tahlil qilish beriladi. Tadq iq itchilar: «Ma’rifat» gazetasini tarkibidan:

1. A.Karimovning birinchi rasmiy tashrifi tarixga kirib, uning natijalari haqida hali ko‘p yozilib va tahlil qilinadi.

(3 ta kesim uyushib kelgan).

2. Genri Kissenger AQSh ning jamoat va nohukumat tashkilotlari nomidan I.A. Karimovga «Xalqaro miqyosda buyuk davlat arbobi» mukofotini topshirdi. (2 ta sifatlovchi aniq lovchi).

Izlanuvchilar: 8 -sinf adabiyot darsligining matnlaridan:

1. Qishloq hayoti romantikasi, oddiy dehqonning o‘y-xayollari, turmush tarzi, orzu-umidlari Yesenin poeziyasini belgilab berdi.

(4 ta ega uyushgan).

2. Xayriddin Sultonov bir qator hikoya to‘plamlarining, shuningdek, «Saodat sohili», «Yozning yolg‘iz yodgori», «Ajoyib kunlarning birida» kabi qissalar hamda «Boburiynoma» asarining muallifidir. (qaratqich aniqlovchilar 2 guruhda uyushgan) kabi.

Topqirlar: 8-sinf adabiyot darsligiga kirgan she’rlardan:

1. Birda haqdin, birda nohaqdin
Jabr ko‘rsam bir betavfiqdin,
Ortda tursam qalbi quroqdin,
Qadrim harob bo‘lsa tuproqdin
Ohlar urib onam yig‘laydir,
Qolganlari yolg‘on yig‘laydir.
(To‘ra Sulaymonning «Tavollo» she’ridan. 5 ta to‘ldiruvchi)
2. Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,
Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin!
(Misralarda 3 ta aniqlovchi uyushgan).

Tahlilchilar:

Islom Karimovning «Ma’naviy yuksalish yo‘lida» kitobidan:

1. Siyosatda ham, ijtimoiy hayotda ham, fanda ham bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. (3 ta o‘rin holi).

2. Abdulla Qdiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati joyiga qo‘yildi.

(5 ta aniqlovchi, 3 ta ega uyushgan).

3. Biz Beruniylarga, Buxoriyлага, Amir Temur, Mirzo Boburlarga vorismiz. (5 ta vositali to‘ldiruvchi uyushgan) kabi.

O‘qituvchi: O‘quv faoliyatining 2-bosqich, 2-elementi bo‘yicha guruhingiz bilan navbatma-navbat faqat uyushiq egali, holli, aniqlovchili, to‘ldiruvchili va kesimli gaplar to‘zib, yozuv tahtasiga yozing. Ular misollarini yozguncha qolgan guruh o‘quvchilari biri-biringizga shunga o‘xshash savollar berishingiz mumkin.

1-guruh: Biz harakatchan, vatanparvar, yurtparvar, intilishi zo'r, kuyunchak, bezovta va jonkuyar odamlar bilan ishlagimiz keladi. Gapda nechta aniqlovchi uyushgan? (7 ta).

2-guruh: Menga Pushkin bir jahon-u

Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbegin.

'She'r tarkibida qaysi bo'lak uyushgan? (2 ta ega uyushgan).

3-guruh : Har kimning ham sochlariqa oq tushsin,

Ajin tushsin, yuzlariga dog' tushsin,
Har kimning ham quvvat ketib belidan
Qo'llariga aso, bir tayoq tushsin.

She'rda qaysi bo'laklar uyushgan?

(4 ta ega, 3 ta vositali to'ldiruvchi, 4 ta kesim takror uyushgan).

4-guruh: Iymoni sof, yuzga kirib, yorug' yuz

To'yalar ko'rib, yelkasidan tog' tushsin,
U dunyoga so'nggi safar oldidan
O'z bolasin qo'lidan tuproq tushsin.

She'rning ikkinchi bandida qaysi bo'laklar uyushgan?

(2 ta ega, 2 ta to'ldiruvchi, 4 ta kesim uyushgan).

O'qituvchi: Endi yozuv taxtasiga yozgan misollaringizni o'qib, tahlil qiling.

1-guruh: O'rta Osiyo xalqlari: o'zbek, qozoq , turkman, qirg'iz, tojik bir ota-onaning farzandlarimiz. (6 ta ega uyushgan).

2-guruh: Fazliddin Husanov bir qancha davlatlarda-Fransiya, Buyuk Britaniya, Avstriya va Germaniyada Rahmaninov kuylaridan ijro etib xalqaro sovrinni qo'lga kiritdi. (5 ta holli uyushiq bo'laklar)

O'qituvchi: Kodoskopdan berilgan birinchi topshiriq bo'yicha gaplarni tahlil qiling.

1. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.

2. Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

2- topshiriq savollari:

1. Biror gap tarkibida, Bir necha ega bo'lar.

Ular qanday bo'laklar? Ularni bir-biridan qanday belgi ajratar?

(Uyushgan egalar vergul bilan ajratiladi).

2. Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin

Yaxshi ishlarimiz yomon bo'lmasin.

«Yaxshi», «yomon» so'zlari gapning qaysi bo'lagi?

(Egalar, aniqlovchi).

Olma, o'rik, shaftoli.
Gilos, bodom-u oli
Gullagan, hid taratgan,
Ko'r kam bo'ston yaratgan.

Bundagi qaysi so'zlar
Toping, qanday bo'laklar
(Uyushiq bo'laklar).

4. Bir xil so'roqli so'zlar,
Guruhanib qo'llanar.
har bir guruhdan keyin
Nuqtali vergul bo'lar

(Turli bo'laklardan to'zilgan uyushiq bo'laklar).

3-topshiriqda berilgan har bir juft so'zdagi harflar joyini almashtirish yo'li bilan O'zbekistonidagi yirik shaharlar nomini toping.

Uch-rang- (Urganch).

Tun-gilos- (Guliston).

Nasr-qadam- (Samarqand).

Sharq -sabzi- (Shahrисабз).

Iz - metr- (Termiz).

O'qituvchi: «Kim g'olib» o'yining birinchi topshirigi asosida berilgan gaplardan fanlarga oid bo'lgan uyushiq bo'laklarni nuqtalar o'miga qo'yib, gaplarni to'ldiring va qaysi bo'lakka xosligini aniqlang.

1. Geografiya bo'yicha: yer sharida oltita materik:

(Evrosiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Avstraliya, Antraktida) mavjud (7 ta ega uyushgan).

2. Biologiya: Xalqimiz qadimdan ildizmevalar: (sabzi, lavlagi, turp, sholg'om, rediska) dan turli taomlar tayyorlashgan.

(6 ta vositali to'ldiruvchi uyushgan).

3. Tarix: Tosh asrida uzoq davom etgan bosqichlarining: (paleolit, mezolit, neolit, bronza davri, eneolit) tarixi keng.

(6 ta aniq lovchi uyushgan).

4. Fizika: Inson yoqilg'ilar: (ko'mir, neft, gaz, torf, slanets, o'tin) yoqish hisobiga issiqlik olishni o'rganib oldi.

(7 ta belgisiz vositasiz to'ldiruvchi uyushgan).

O‘qituvchi: O‘yining 2-topshirig‘i bo‘yicha tadqiqotchilar aniqlovchiga, izlanuvchilar egaga, topqirlar to‘ldiruvchiga, tahlilchilar esa holga uyushiq bo‘laklar tuzadi.

1. Biz «Zinama-zina», «Zakovat», «Bo‘sh bo‘g‘in» teleo‘yinlarini va «Oltin toj», «Sinfodosh» ko‘rsatuvlarini muntazam ko‘rib boramiz. (5 ta aniqlovchi, 2 ta vositasiz to‘ldiruvchi uyushgan).

2. Esmeraldaning qoshu kipriklari, maftunkor go‘zalligi, jozibasiz bo‘lsa ham nursiz ko‘zlari, sochlari-barcha go‘zalligi olovda kuyib kul bo‘lardi. (6 ta ega uyushgan).

3. Oilamiz «Beta» choyini, «Nestle» sutini, «Neskafe» qahvasini xush ko‘rishadi. (3 aniqlovchi, 3 ta vositasiz to‘ldiruvchi uyushgan).

4. Tunda sovuq, ertalab salqin, tushda issiq, hozir yulduzlar charaqlab turgan oydin kecha. (4 ta q ol, 4 ta kesim uyushgan).

O‘qituvchi: Endi magnit lentadan Muhammad Yusufning «Yurtim. ado bo‘lmas armonlaring bor» she’rini tinglab, she’r tarkibidan uyushiq bo‘laklarni toping.

1-guruh: Ado bo‘lmas armonlaring, toshlarni yig‘latgan dostonlaring, ko‘ksing to‘la shahid o‘g‘lonlaring bor.

(Birinchi bandda 3 ta egali uyushiq bo‘laklar bor).

2-guruh: Bahor ayyomlar, shomlar, Akmal Ikromlar, mardi maydonlar.(Ikkinci bandda 4 ta ega uyushgan) kabi.

O‘qituvchi: Magnit lentadan Hamid Olimjonning 2 band she’ri saylanma diktant tariqasida 3 marta o‘qiladi. Siz she’r tarkibidan uyushiq bo‘laklarni daftaringizga yozing. Ohangga e’tibor berib, qaysi bo‘lak uyushganini aytинг.

Hokim edi yer va ko‘kda qor,
Qorda edi madrasa, minor,
Qorda edi novda-nihollar,
Qorda edi maydonga qarab
Chopa-chopa keluvchi chollar.
Odam bilan zo‘r maydon to‘la:
Bunda bordi farang, amirkon,
O‘zbek, qozoq, xitoy ham bunda,
Bunda edi rus, afg‘on, yunon.(X.O.)

1-guruh: She’rda ega uyushib kelgan. Birinchi bandda qor, madrasa, minor, novda-nihollar, chollar uyushgan.

3-guruh: Ikkinci bandda farang, amirkon, o‘zbek, qozoq , xitoy, rus, afg‘on, yunon. Jami: 8 ta ega uyushgan.

(Dasturning uchinchi bosqichida guruuhlar o‘zlarining ixtiolarini taqdim qilishdi. Tadqiqotchilar Rustam Mahmudov, Shahzoda, Doston, Avaz Olimov, Ravshan Komilov, Anvar Sanaev kabi qo‘sishqchlarning turli qo‘shiq matnidan uyushiq bo‘laklarni topib, bir qo‘shiq hajmida to‘plashgan.

Izlanuvchilar Sharof Boshbekovning «Temir xotin» asarining 359-360 betidagi Olimtoy va Qo‘chqor aka dialogi orqali uyushiq bo‘lakli gaplarni rolga kirib ijro etishdi.

Topqirlar krossvord usulida uyushiq bo‘laklardan gaplar tuzgan. Masałan: Xalq tabobatida dorivor: d-darmana, 0-otquloq , r-ro‘yan, i-isimaloq, v-valeriana, 0-oqqark, r-ravoch o‘simliklarining foydasi beqiyos. Bog‘da: b-behi, o-olma, g‘-g‘aynoli, d-do‘lana, a-anor kabi mevalar g‘arq bo‘lib pishgan.

Tahlilchilar uyushiq bo‘laklarga xos turli rasmlar chizishgan. «Maktab bog‘ida», «Soy bo‘yida», «Navro‘zda» kabi rasmlardan namunalar ko‘rsatishdi. «Mualliflar maktabimiz mehmoni» deb nomlangan rasmga egali uyushiq bo‘laklardan gap tuzib, uni ramziy ma‘noda har bir egaga bittadan o‘quvchi chiqib, obrazli harakatlar bilan ijro etishdi. Muallif: Tilshunos olimlarimizdan Hamid Ne‘matov, Nizomiddin Mahmudov, Abdulhamid Nurmonov, Ra’no Sayfullaeva hamda Muhabbat Abduraimovalar bizga ona tili darsligimizni taqdim etishgan.

O‘qituvchi: «Sarlavhasi mendan, matni sendan» o‘yinini boshlaymiz. Matndagi gaplar asosan uyushiq bo‘lakli gaplardan to‘zilishi kerak. Mavzu: «Vatanimizni jondan ortiq sevamiz». Matn yaratishga 3 daqiqa vaqt beriladi.

1. O‘zbekistan – mening vatanim, vijdonim, g‘ururim, orim.
 2. Vatan – so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan, qalam bilan yozib ham bo‘lmaydigan muqaddas oshiyon.
 3. Islom dinimizda Vatanni sevish, uni himoya qilish, ko‘z qorachig‘iday asrab uni obod qilish har bir musulmonning burchi, deb uqtiriladi.
 4. Biz uchun istiqlol-mamlakatimizning jahonda obro‘-e’tiborini ko‘taradigan sog‘lom avlodni tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish va baxtini ko‘rishdir.
 5. O‘z vatanini, qadriyatlarini, merosini ardoqlagan inson hech qachon xor bo‘lmaydi.
- Mavzu yuzasidan kompyuterga kiritilgan testlarni har bir guruhdan

2 tadan ishtirokchi chiqib ishlaydi:

1. «Eshikning qo‘qqisdan ochilishi xotinlarni cho‘chitib yubordi» (Abdulla Qodiriy) jumlasida gap bo‘laklari joylashuvি to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

A) Aniqlovchi, hol, ega, to‘ldiruvchi, kesim.

B) Aniqlovchi, to‘ldiruvchi, ega, to‘ldiruvchi, kesim.

S) Aniqlovchi, aniqlovchi, ega, to‘ldiruvchi, kesim.

2. Umumlashtiruvchi so‘z bilan qo‘llangan uyushiq bo‘lakli gap berilgan qatorni belgilang.

A) Havo issiq keldi, hamma narsadan guyo hovur ko‘tariladi.

B) Atrofi qurshagan tog‘lar, qirlar, daraxtilar -

hamma narsa bahor havosiga cho‘inilganday.

S) Mehmonxona anchagina katta edi; to‘rda javon,

o‘rtada stol, atrofida stillar.

3. So‘z gaplar berilgan qatorni aniqlang.

A) Bir gapirib, o‘n kuladi.

B) Aprel. Daraxtlar qiyg‘os gullagan.

S) Hamma xursand, o‘zida yo‘q shod,

Yetganiga shundayin damga.

4. Gapning uyushiq bo‘laklari o‘zaro qanday bog‘lovchilar bilan bog‘lanadi?

A) Faqat sanash ohangi hamda va bog‘lovchisi bilan.

B) va, ammo, lekin, biroq , chunki, shuning uchun bog‘lovchisi

S) Tesh bog‘lovchilar yoki sanash ohangi orqali.

(Test kalitlari: 1-A, 2-B, 3-B, 4-A)

O‘qituvchi: Darsimizning yakunida modulning didaktik maqsadini o‘qing, yuqoridaqgi savollarga javob bering.

O‘quvchilar mavzu yuzasidan o‘z xulosalarini bayon etishadi.

Guruh sardorlari o‘quvchilar o‘zlari uchun qo‘ygan baholarini ko‘rib chiqib hisobot beradi.

Bugungi dars yuzasidan baholaringiz..., test javoblari.

O'ZBEK TILIDA SO'Z-GAPLAR

Darsning maqsadi: Darslikning 231-mashqdagisi «O'zbek tilida so'z – gaplar haqida» matninin mazmunini o'zlashtirish, so'z – gaplar bo'yicha o'quvchilarning savodxonligini oshirish.

Darsning jahozi: «So'z-gaplar» mavzusini bo'yicha ko'rgazmali qurollar, kartochkalar, testlar, kodoskop, magnitafon.

Darsning uslubi: Musobaqa dars.

Darsning borishi: a) darsni tashkil etish:
b) o'tilgan mavzuni so'rash.

Dars quyidagi savollarni berish bilan boshlanadi:

1. Taklif so'z-gaplar kimlarga qaratilgan bo'ladi?
2. Ularga qaysi so'z-gaplar kiradi?
3. Taklif so'z-gaplar gap tarkibida kelganda qanday tinish belgilari qo'yiladi?

O'quvchilar taklif so'z-gaplar tinglovchiga qaratilishini, ular gapning boshida, o'rtasida va oxirida kelib, vergul bilan ajratilishini aytadilar. Misollar keltiradilar, so'ngra adabiyot darsligidan qidirib topilgan so'z-gapli gaplarni o'qiydilar:

1. Vo-o-o! Qanday qurganlar? («Gumbazdagi nur»)
2. O, ona Turkiston, kuylayman yonib. («Ona Turkiston» she'ridan)

3. Xo'p, lafzimdan qaytmayman. («Dahshat» hikoyasidan)

4. Yo'q, biz shu yerning odami. («O'zbeklar» hikoyasidan)

O'qituvchi: Keling, ikki guruuhga bo'linamiz. Guruuh sardorlari har bir o'quvchining to'g'ri javobi uchun rag'bat kartochkalarini yig'ib, guruhning umumiy balini jamlaydi. Birinchi shart yuzasidan guruhlarga quyidagi savollar berildi:

1. So'z-gaplar kesimlik qo'shimchalarini qabul qiladimi?
2. So'z-gaplar mustaqil so'zlardan hosil bo'ladi?
3. So'z-gaplar matn va ohang bilan bog'liq bo'ladi?
4. So'z-gaplar qaysi jihatdan ixcham gaplarga o'xshaydi?
5. So'z-gaplar sodda gaplar tarkibida kelgan boshqa bo'laklar bilan bog'lanadimi?
6. So'z bilan gapning qanday farqi bor?
7. Ilmiy matn nima?
8. Ma'rifiy matn nima?
9. Matnda ajratilgan so'zlarning atamaviy ma'nosini izohlang.

Navbatdagi sinovda so'z-gaplar yozilgan kartochkalarni guruhlab, konvertlarga joylash kerak. Kartochkalarga quyidagi so'zlar yozilgan: aftidan, shubhasiz, shekilli, to'g'risi, mabodo, voy, obbo, hay-hay, po'sht-po'sht, iya, hoy, hey, ey, ha, mayli, xo'sh, xo'p, mutlaqo, aslo, sira, mang, qani, marhamat. Bu topshiriqni har bir guruhdan ikkitadan o'quvchi bajaradi.

Uchinchi shart quyidagicha bo'lib, kodoskop orqali berilgan gaplarning qoliplari aks etadi. Guruhlар ushbu qoliplarga o'rni bilan gap tuzishlari talab etiladi.

1., chamasi, ----- ==.

2. Aytishlaricha, \\\ \----- ==.

3. ... mayli, - - - - - ==.

4. Labbay, - == - - -

To'rtinchi shartda magnit lentaсидан har bir guruh uchun ikkitadan topishmoq o'qib eshitiriladi:

1. Bildirar his-hayajon, Eh, oh, voy jonga darmon.

Qanday so'z ekan «rahmat»? Kim topsa unga rahmat. (undov so'zlar)

2. Shildir-shildir suv oqar

Suv tagidan hum oqar.

G'uv-g'uv, tak-tuk, qiy-chuvlar

Toping-chi, qanday so'zlar? (taqlid so'zlar)

3. Takror kelgan undov so'z, Ham juft kelgan undov so'z

Qanday yozilar ular? Toping, xato aytanganglar. (chiziqcha bilan)

4. Undovjon gap boshida, Kelar goh o'rtasida

Yo kelar oxirida, Bir narsa yo'ldosh unga

Turishar old so'ngida. (vergul)

Topshiriq: «to'g'ri-noto'g'ri» o'yini bo'lib, unda guruhlар aytlayotgan har bir sharhga diqqatli bo'lishlari kerak.

1. So'z-gaplar har doim mustaqil so'zlardan tuziladi. (to'g'ri)

2. Modal so'z-gaplar gapning faqat boshida keladi. (noto'g'ri)

3. So'z –gaplar kesimlik qo'shimchasini olmaydi. (to'g'ri)

4. Modal so'z-gaplar qat'iy ishonch, gumon, taxmin ma'nolarini ifodalaydi. (to'g'ri)

5. So'z gaplar faqat gap o'rtasida keladi. (noto'g'ri)

6. Undovlar faqat shodlik ma'nolarini ifodalaydi.(noto'g'ri)

7. Undov so'z-gaplar faqat takrorlanib keladi. (noto'g'ri)

8. Taklif so'z-gaplar faqat dasturxon ustida aytiladi. (noto'g'ri)

9. Tasdiq va inkor so‘z-gaplarda ma’no nozikliklari yo‘q.
(to‘g‘ri)

10. Tarkibida undovlar qo‘llangan qo‘shma fe’llar qo‘silib yoziladi. (noto‘gri)

O‘qituvchi: Bolalar, so‘z-gaplar, asosan, suhbat matnida uchraydi, suhbat esa ko‘proq og‘zaki nutqqa xos. Shunday ekan, o‘zingizni gulzorda tassavvur qilib, o‘zaro gullar payrovini yaratishga harakat qiling. Bu matnda so‘z-gaplar ham qatnashsin.

1. Jahongirbek, gulmisiz, rayhonmisiz, sunbulmisiz?

2. Ziyodullabek, aytganingizman.

1. Do‘stim, bahor ajoyib fasl-da, shak-shubhasiz, bahorni hamma sevadi, chunki olam turfa rang gullarga burkanadi.

2. Shuni ayting, do‘stim, haqiqatdan bahor ajoyib fasl-da, lekin miya qurg‘ur sal charchaydi-da, odamni uyqu bosaveradi.

1. Bahor sizga boshqacharoq ta’sir qilar ekan, shekilli, rangingiz nargiz gulidek sarg‘ayib ketibdi.

2. Og‘ayni, sizga ham yomon ta’sir qiladi, chamasi, yerni yorib chiqqan boychechakdek bir ko‘rinib, bir ko‘rinmaysiz.

1. Ey, do‘stim, men bir ko‘rinib, bir ko‘rinmasam ham darsga borsam gul yuzli qizlarimiz «qani-qani» deb kutib olishadi.

2. Hoy do‘stim, ko‘p maqtanavermang, gapingiz yolg‘on bo‘lsa loladek qizarib qolmang.

1. Men-ku loladek qizarmayman-a, siz ko‘chirmakashlik uchun «5» olib, doskaga chiqqaningizda dilingiz gulsafsardek siyoh bo‘lib qolmasin.

2. Og‘ayni, gaplaringiz atirgulning tikonidek sanchiladi-ya, mayli, do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib.

1. Oh-ho, hazilni ham tushunmas ekansiz-da, darrov namozshomguldek yopilib olasiz. Odam do‘stdan ham xafa bo‘ladimi?

2. To‘g‘risi, do‘stdan xafa bo‘lmaydilar, do‘stligimiz buzilmasin sira.

Navbatdagi topshiriq test sinovi bo‘ladi.

1. Modal so‘zlar qatorini toping.

A) Ha, yo‘q, sari, oh B) Chamasi, rostdan, to‘g‘risi

C) Xullas, bay-bay, tabiiy D) Marhamat

2. Xo‘sh, xo‘p so‘zlari so‘z-gaplarning qaysi turiga kiradi?

- A) Undov B) Inkor C) Modal D) Tasdiq so‘z-gaplarga
3. So‘z-gaplар ma’no va vazifasiga ko‘ra necha guruhга bo‘linади?
- A) 4 B) 2 C) 5 D) 3 guruhга
4. So‘z-gaplар sodda gaplar tarkibida kelganda boshqa bo‘laklar bilan....
- A) bog‘lanади B) bog‘lanmayди C) to‘g‘ri javob yo‘q
D) Ba‘zan bog‘lanади, ba‘zan bog‘lanmayди
5. Modal so‘zlar...
- A) Gap tarkibida kelади. B) Yakka o‘zi gap bo‘lib kelади
C) A va B javob to‘g‘ri D) Gap bo‘la оlmayди

Javoblar kaliti: 1. B 2. D 3. A 4. B 5. C

Ushbu shartimiz topqirlikka asoslanadi. Ya’ni jadvallardagi so‘z gaplarning so‘nggi bo‘g‘inlarini topsangiz, mustaqil so‘zlarning dastlabki bo‘g‘inlari kelib chiqadi:

kosh	ki	tob	albat	ta	lab
de	mak	kor	mutla	qo	nun
si	ra	sad	chama	si	nov
qa	ni	zom	tabi	iy	hom
marha	mat	lab	mabo	do	hiy
to‘g‘ri	si	tam	as	lo	zim
haqi	qat	tiq	may	li	mon

Guruхlar berilgan shartlarni o‘zaro bellashib, uyushgan holda bajarishdi. Musobaqa so‘ngida guruхlar yiqqan rag‘bat kartochkalarini yordamida o‘z bilimlarini baholashdi. Eng faol o‘quvchini aniqlashda o‘quvchilarning fikri inobatga olindi.

Uyga vazifa: badiiy asarlardan, gazeta sahifalaridan so‘z-gaplarni topib yozish, ularga og‘zaki izoh berish. Modal so‘z-gaplар, undov so‘zlar, tasdiq so‘zlardan qatnashtirib matn tuzish.

“O‘GDULMISH VA O‘ZG‘URMISH” MATNI USTIDA ISHLASH

Darsning maqsadi: O‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini o‘stirish;
Matn ustida ishslashga o‘rgatish; ularlarning yuksak
ma’naviy va axloqiy hislatlarini tarbiyalash.

Darsning uslubi: Mustaqil va ijodiy fikrlash, bahs.

Darsning jihози: Texnik vositalar: audio kassetalar, retroproektor.
Yordamchi so‘zlar jadvali. Yusuf Xos Hojibning
“Qutadg‘u bilig” asari va maqollardan namunalar.

Darsning shiori: Bilimni buyuk bil, uquvni chuqur
Bu ikkisi birla kishi ulg‘ayur (Yusuf Xos Hojib)

O‘quvchilar kichik guruhlarga: donolar, ziyraklar, zukkolarga
bo‘linadilar. Darsning **birinchi bosqichida** o‘quvchilar yordamchi
so‘zlarni xotirlash maqsadida ularni guruhlarga ajratib, cheklangan
vaqtida jadvalga joylashtiradilar. Masalan:

Bog‘lovchilar	Ko‘makchilar	Yuklamalar
va	kabi	bor-ku
bilan	sari	keldi-mi
ham	uchun	axir
Namunada berilgan so‘zlarning so‘roq olmasligi, so‘zlarni va gaplarni o‘zaro bog‘lashga, ma’noni kuchaytirishga xizmat qilishini aniqlaydilar. So‘ngra darslikda berilgan O‘gdulmish va O‘zg‘urmish matnnini		
sinchiklab o‘qib, tahlil qilishga kirishadilar. Matndan ajratib ko‘rsatilgan yordamchi so‘zlarning ma’no va vazifalarini izohlaydilar.		

Ikkinci bosqichda matn qismlarga bo‘linib, o‘zlashtiriladi.
Donolar guruhi matnning umumiylarini mazmunini saqlagan holda shakliy
ifodasini o‘zgartiradi. Masalan:

«Yusuf Xos Hojibning «Baxtga eltuvchi bilim» asari o‘zining
falsafiyligi va axloqiyligi bilan Dantening «Ilohiy komediya»si hamda
Gyotening «Faust» kabi jahonda mashhur bo‘lgan asarlaridan hech
ham qolishmaydi. Biz ham bu durdonamizni dunyoga ko‘z-ko‘z qilsak
yoki uning nodir asar ekanligini har qancha madh etsak arziysi. Bu
asar o‘zbek xalqining madaniyati-yu adabiyotini hamda islomiy
qarashlaridan tortib axloqiy tarbiyasigacha o‘z ichiga qamrab oladi.

Shuning uchun ham bu xazina ming yillardan avval yozilgan bo'lsada, milliy va madaniy merosimizga aylanib bo'lgan».

Ziyraklar guruhiba O'gdulmish va O'zg'urmish timsollarining fazilatlarini yoritish, xulosalash topshiriladi:

O'gdulmish	va	O'zg'urmish
aqli, dono, maqtovga loyiq, oddiy / uyg'ongan, tushungan, taqvodor		
musulmon yigit, zakovatli, savobli / zohid, ibodat		
ishlar bilan shug'ullandigan, . / bilan band, dunyoviy ishlarga		
hurmatli, bilimga chanqoq kabi... / befarq, nazari to'q kishi		

Shuning uchun.....

Odamlar uning ketidan ergashadi / U odamlardan yiroqda yashaydi

.... Zukkolar guruhi bog'lovchilardan foydalanib asar qahramonlari haqidagi o'z fikrlarini yozma bayon qilishadi: «O'gdulmish va O'zg'urmish musulmonlikning ikki yo'lidan borishdi. O'gdulmish odamlar orasida yashab hamda ularning og'irini yengil qilishni, ya'ni mashaqqatli yo'lni tanladi. Va shu bilan birga toat-u ibodatni kanda qilmay, nafsi tiyishni uddasidan ham chiqdi. O'zg'urmish esa gunohlarning oldini olish maqsadida uzlatga chekindi-yu bir umrga g'orda yashadi. Yolg'izlik va toat-ibodat ham nafsi tiyadi, ham ollohg'a yetishtiradi, deb o'yldi. Aslida musulmonlik nafaqat ro'za tutish-u namoz o'qish, balki odamlarga yaxshilik qilish bilan birga mamlakatni obod qilish hamdir».

Guruhi o'z matnlaridagi bog'lovchilarga izoh beradilar.

- Matndagi bog'lovchilar nafaqat gaplarni, balki uyushiq bo'laklarni ham bir-biriga bog'lar ekan. Ular yakka va takror holda kelishlari mumkin. Gapda qo'shimcha ma'no yuklayapti. Bilan bog'lovchisi ko'pincha matnda ko'makchi vazifasida kelgan. Teng tomonli gaplarni hamda matnning qismlarini bog'lashga xizmat qilgan.

Uchinchi bosqichda qayta xotirlash o'yin-topshirig'i beriladi. Magnitofon orqali quyidagi gaplardan donolar guruhi bog'lovchilarni topib, daftarga yozib borishlari va ularning vazifalarini aniqlashlari kerak. Ziyraklar guruhi berilgan gaplarning shaklini o'zgartirishlari kerak. Zukkolar guruhi esa gaplarning ma'nosini og'zaki sharhlab berishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi esa ularning javoblarini to'ldirib boradi. Har bir gap ikki martadan o'qiladi:

1. Kitobning otini «Qutadg'u bilig» qo'ydim va o'quvchini baxtga eltsin-u qo'lidan tutsin dedim.

2. Bilimli va zakovatli kishilarning mavqeい ko'kdan ham baland.
3. Shuning uchun ham bilim qorong'ulikni yoritguvchi chiroq hamda inson qadrini belgilovchi mezon hisoblanadi.
4. Til bamisoli qafasdagи arslon, shu bois uni o'z ixtiyoriga qo'yib bo'lmaydi.
5. Ezgu ish va ezgu so'z kishini ulug'laydi.
6. Hukm chog'ida menga o'g'lim ham, uzoq yaqin tanish-bilishlar ham, hatto chaqmoq kabi kelib-ketuvchi mehmonlar ham bir xil.
«Qutadg'u bilig»dan)

To'rtinchi bosqichda «Kim birinchi» musobaqasi o'tkazilib, retroproktor orqali quyidagi gaplar ekranga tushiriladi va nuqtalar o'miga kerakli yordamchi so'zlarni topib qo'yish vazifa qilib beriladi:

1. Telba ... (hamda) nodon kishi o'lsa, ajablanmaslik kerak.
2. Dunyodagi turli san'at .. (va) sanoqsiz hunarli uquv, bilimga tayangani ... (uchun) maqtaladi, ... (shu bois) tillardan tillarga ko'chadi.
3. Bilim ifor (bilan) juda o'xshash.
4. Ularning har ikkisini ... (ham) yashirmoq behuda Bilim aslida bitmas-tuganmas boylikka o'xshaydi, ... (shuning uchun) boshqa boyliklardan farq qiladi.
5. Bilim .. (va) zakovat kishiga qo'yilgan o'ziga xos kishandir.
«Qutadg'u bilig»dan)

QO'SHMA GAP

Darsning maqsadi: Ona tili darslariga o'quvchilarni qiziqtirish, ularning nutq malakasini, mantiqiy tafakkurini oshirish, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish.

Darsning jahozi: Texnik vositalar: audiokassetalar, 9-sinf adabiyot darsligi, Tursunoy Sodiqovaning «Mehr qolur», Shavkat Rahmonning «Saylanma» kitoblari.

Darsning uslubi: Berilgan topshiriqlarni birin-ketinlik bilan bajarish – zigzag usuli.

Darsning shiori: Ilmni kitobdan, bilimni hayotdan o'rgan!

O'qituvchi: Bugungi darsimizning mavzusi «Qo'shma gap». Darsimizning uslubi sizga berilgan topshiriqlarni birin-ketinlik bilan – zigzag usulida bajarishdan iboratdir. Mavzuni o'rganishda qo'shma gaplarning sodda gapdan farqini va ularning turlarini o'rganish hamda sekin-asta bu gaplarni nutqda qo'llashga e'tibor qaratilgan. Avvalo, siz berilgan uch daqiqa ichida quyidagi zakovat savollariga javob berib, o'z guruhingizni aniqlab oling. Topshiriqni to'g'ri bajarsangiz, kartochka olish huquqiga ega bo'lasiz. Darsimiz nihoyasida kartochkalar yordamida g'olib guruh aniqlanadi. Topshiriqlarni bajarish vaqtini qumsoat besh daqiqadan belgilab beradi.

Zakovat savollari:

1. Nutq tovushlari tizmasi nima?

(Nutq tovushlari tizmasi so'zlarini, so'zlar tizmasi so'z birikmalarini, so'z birikmalari tizmasi gaplarni, gaplar esa matnni hosil qildi).

2. Sodda va qo'shma gaplar qaysi xususiyatiga ko'ra farqlanadi? (grammatik asoslar miqdoriga ko'ra)

3. Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalarni ayting. (bog'lovchilar va ohang, nisbiy so'zlar, yuklamalar)

4. Qaysi qo'shma gaplarning qismlari shaklan mustaqil bo'ladi? (bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarning)

5. Qo'shma gaplarning qaysi turida sodda gaplar o'zaro teng bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi yordamchilar yordamida birikkan? (bog'langan qo'shma gaplarda)

6. Kuz kelsa, o'riklar gullaydi. Ushbu gapdag'i sodda gaplar qaysi jihatdan bog'lanmagan? (mantiqan)
7. *Va bog'lovchisi bilan bog'langan qo'shma gapga misol keltiring.* (Maktab hovlisidagi bog'da turfa gullar ochilgan va rang-barang kapalaklar guldan-gulga qo'nib yayraydi)
8. Biriktiruvchi bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar qismlari o'zaro qanday vositalar bilan birikadi? (biriktiruvchi bog'lovchi va -u, -yu, -da yuklamalari bilan)
9. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarda qaysi tinish belgilari qo'llanadi? (tire, vergul, nuqta vergul hamda ikki nuqta)
10. Og'zaki nutqning ko'rki nimada? (ogzaki nutqning ko'rki nutq tovushlarining aniq va to'g'ri talaffuzida, ohangning me'yorida, ovozning baland pastligida, to'xtamning o'rinnligida o'z aksini topgan)

(O'quvchilar ***tadqiqotchilar, munaqqidlar, zukkolar va donishmandlar*** guruhlariga ajralib, stol ustiga qo'yilgan quyidagi topshiriqlarni birin-ketinlik bilan bajaradilar)

1-stoldagi topshiriq. Berilgan 5 daqiqa ichida qo'shma gaplarga oid maqollardan, she'riy satrlardan namunalar keltiring va ularning bog'lanish vositalarini aytинг.

Tadqiqotchi guruhi:

1. Necha ming alloma, jo'mardlar o'lgan, tafakkur sasigan, ruhlari so'lgan, urug'lar aynigan tap-taqir cho'lda o'z bekim davlatin qursak maylimu? (ohang vositasida bog'langan qo'shma gap, tuzilishiga ko'ra so'roq gap)

2. Agar tirik bo'lsa, bir chetda turmay, hozirgi yoshlarga sardor bo'lardi, goh ko'kdan yog'ilgan, goh yerdan chiqqan tuhmatu baloga qalqon bo'lardi. (Sh.R.) (ayiruv bog'lovchisi vositasida)

3. Farosat bozorda sotilmas, aql tarozida tortilmas. (ohang vositasi orqali)

Munaqqidlar guruhi:

1. Tamizli odam – tuzli odam,
tamizsiz odam – tuzsiz odam.

(faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gap)

2. Gahi o'ris, gahi cherkas, gahi mo'mindurman gahi,
ne kavlaysan, miyonu lou illalog'a sig'mamdur.
(ayiruv bog'lovchisi vositasida)

3. Mudom miskindurman, lekin g'ulomi Mashrabingdurman,
Meni bechora bu dunyo bila uqbog'a sig'mamdu.
(Mashrab) (zidlov bog'lovchi vositasida)

Donishmandlar guruhi:

1. Odamlarga nisbatan yomonligingni to'xtat, shu o'zingga sadaqa bo'ladi. (ohang vositasi bilan)
2. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, Orlanib so'ramagan o'ziga zolim. (ohang vositasida)
3. Ko'p yig'lama, og'riydi boshing,
axir baxtli bo'lmog'imiz shart.
Yomon bo'lar agar ko'z yoshing
tugab qolsa, kelgunicha Baxt.
(bog'lovchi yuklama va agar bog'lovchili qo'shma gaplar)
4. Kel, yashirib qo'yayin seni
yurakning eng chuqur yeriga,
keyin sen ham yashirgin meni
yurakning eng chuqur yeriga.
Topolmasin bizlarni birov. (ergashtiruvchi bog'lovchi) (Sh. R.)

Zukkolar guruhi:

1. Dunyo qizil, sariq deb,
bekor bizga berishgan saboq,
dunyo azal rangindir va biz
o'ylagandan ko'ra ranginroq.
(ergashtiruvchi bog'lovchi, biriktiruv bog'lovchi vos.)
 2. Xayr, Bahor! Alvido, Bahor!
Ushalmasdan qoldi armonim,
biroq kutgil, dediyu Bahor-
lablarimga bosdi barinog'in. (zidlov bog'lovchi orqali)
 3. Bir nafis gul ko'rdik yovuz jununda,
Orzulab ismini armona qo'ydik,
ismi jismiga mos armona bo'ldi,
bu gulga tikilib vayrona bo'ldik. (ohang vositasida)
- 2-stoldagi topshiriq. Quyidagi qo'shma gaplarni ikki sodda gapga ajrating. Har bir sodda gapning bosh bo'laklarini ko'rsating.

Tadqiqotchi guruhi:

1. Odam faqat bilmagan narsadan qo'rquadi. (,) Bilim esa har qanday qo'rquvni yengadi. (odam qo'rquadi, bilim engadi)

2. Bahor keldi. (va) Dalada ish avj oldi.

(bahor keldi, ish avj oldi)

Munaqqidlar guruhi:

1. Hamma vaqt shirinso‘z bo‘linglar. (,) Og‘izlaringizdan doimo yaxshi, ma’nili so‘z chiqsin.

(sizlar) shirinso‘z bo‘linglar, so‘z chiqsin)

2. Ba’zi tengdoshlarimning so‘z boyligi kam. (shuning uchun) Tili juda qashshoq, so‘zlari lanj.

(so‘z boyligi kam, tili qashshoq, so‘zlari lanj)

Donishmandlar guruhi:

1. Ona Vatanni himoya qilish - fuqarolik burchi. Ota-onaga sadoqat va ularga xizmat qilish –farzandlik burchi. (,) (himoya qilish fuqarolik burchi, xizmat qilish farzandlik burchi)

2. Kishi dunyoga mukammal inson bo‘lib kelmaydi. (,) U tug‘ilibaq aqli, dono bo‘lib qolavermaydi.

(kishi kelmaydi, u bo‘lib qolavermaydi)

Zukkolar guruhi:

1. Folklor bamisoli qaynar buloq. (,) U tinim nima, to‘xtash nimaligini bilmaydi. (folklor buloq, u bilmaydi)

2. Hammamiz xursand bo‘ldik. (,) Chunki Elbek tanlovda g‘olib bo‘ldi. (Hammamiz xursand bo‘ldik, Elbek g‘olib bo‘ldi)

3-stoldagi topshiriq. Sodda gaplardan qo‘shma gaplar tuzing.

Tadqiqotchi guruhi:

1. Futbol o‘yini juda qiziqarli o‘tdi (,) Bu o‘yinda bizning sinfimiz o‘quvchilarini g‘olib chiqdilar.

2. Alisherga bulbulning «navo» degan so‘zi yoqib qolibdi (va) U g‘azallariga «Navoiy» deb taxallus qo‘yadigan bo‘libdi.

Munaqqid guruhi:

1. O‘qituvchi sinfga kirdi (hamda) Dars boshlandi.

2. Masalliq mo‘l bo‘lsa, osh mazali bo‘ladi (shuningdek) Lug‘at xazinasi bisyor odamning tili biyron bo‘ladi.

Donishmand guruhi:

1. Yodlangan qoida va ta‘riflar xotiramizdan tezda ko‘tariladi (shuning uchun) Yodlashga ketgan vaqtimiz ham befoyda, zoye ketadi.

2. Chumolilar ittifoq bo‘lib yashaydilar (, shuning uchun) Ular dushmanlaridan ham qo‘rqlaydilar.

Zukkolar guruhi:

1. Baxilga yo‘liqqanga bir qiyin (, biroq) Uning o‘ziga esa ming bor qiyindir.
 2. Mehr inson bolasi uchun yashash ehtiyojidir (, biroq) Senda esa aynan shu mehr yetishmaydi.
- 4-stoldagi topshiriq. Gaplarni davom ettiring. Hosil bo‘lgan gapning tuzilishi va bog‘lovchisiga ko‘ra turini aniqlang.

Tadqiqotchi guruhi:

1. Bahor keldi... va hamma yoq ko‘m-ko‘k maysalar bilan qoplandi. (teng bog‘lovchili qo‘shma gap)
2. Mahkam bog‘lasang mehnatga bel....., mehnat bilan yashnaydi el. (ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gap)

Munaqqid guruhi:

1. Tangri saxiydir., u saxiylarni do‘st tutadi. (ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gap)
2. Ildiz oziq bersa... novda ko‘karar. (ergashgan qo‘shma gap)

Donishmand guruhi:

1. Ezmalikdan xazar qil.., so‘zingni muxtasar qil. (ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gap)
1. Vatanimizni sevamiz... , shuning uchun uning go‘zal tarixini bilishimiz kerak.

Zukkolar guruhi:

1. Muallif gapi ko‘chirma gapdan oldik kelsa... , muallif gapidan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi. (ergashgan qo‘shma gap)
 2. Yomg‘ir tomchilayotgan bo‘lsa ham... , havo iliq edi. (bog‘lovchi yuklama vositasida bog‘langan qo‘shma gap)
- (Guruhlar 1-stol topshirig‘iga yana murojaat qilib, quyidagi «jadvalni to‘ldiring» topshirig‘ini bajardilar):

Juft so‘zlar	Takroriy so‘zlar	Qo‘shma so‘zlar
past-baland	erkin-erkin	toshbaqa
yig‘im-terim	katta-katta	issiqko‘l
uzun-qisqa	chopa-chopa	Toshpo‘lat
ob-havo	chaman-chaman	belbog‘
eson-omon	yashik-yashik	beshotar v.h.k.

(Guruhlar quyidagi nisbiy so‘zlar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplarni 2-stol topshirig‘iga binoan tuzadilar)

1. Kimning sadoqatli do‘sti ko‘p bo‘lsa, o‘sha dunyodagi eng baxtli kishidir.

2. Ey ko'ngul, gar Bobur ul olamni istar qilma ayb, Tengri uchun de, bu olamning safosi qoldi-mu?

(Guruqlar 4-stoldagi: “O‘zbekiston” so‘zi bilan so‘z birikmasi hosil qiling” topshirig‘ini quyidagicha bajaradilar).

1-guruuh: Mustaqil O‘zbekiston **2-guruuh:** 1.Serquyosh O‘zbekiston

2.Go‘zal O‘zbekiston 2. Nurafshon O‘zbekiton

3. Sevimli O‘zbekiston 3. Bag‘ri keng O‘zbekiston

3-guruuh: 1.O‘zbekiston diyori **4-guruuh:** 1.O‘zbekiston hududi

2. O‘zbekiston xalqi 2. O‘zbekiston jamoli

3. O‘zbekiston bog‘lari 3. O‘zbekiston kelajagi

4-stol topshirig‘i: Matnning yaratilish bosqichlariga amal qilgan holda quyidagi so‘zlardan foydalanib matn tuzing.

So‘z So‘z birikmasi Gap Matn

Tadqiqotchi guruhi:

Bahor ... Erta bahor... O‘lkamizga bahor keldi. Dov-daraxtlarda shoda-shoda zumrad marjonlar terilgan, ona-zamin xamirday ko‘pchib turibdi. Dimog‘ingizga jannatiy iforlar uriladi, hamda kayfiyatizingiz ko‘tariladi. Bu manzarani ko‘rmoq rohat va his qilmoq qanchalik Baxt!

Munaqqid guruhi:

Hijob... Hijobli fe’l... Kishining fe’li hijobli bo‘lsin. Hammaning kiyinishida shunday rusm bo‘lsa, boshqa gap edi. Odamlarning etiborini tortish ham islomga zid, undan ko‘ra, o‘zimizning milliy kiyimlarimizga yo‘l ochaylik.

Donishmand guruhi:

Muhabbat.... Nurli muhabbat.... Muhabbat betakror. U shunday ozorsiz nurki, butun hayotingni xolisona yoritib, ilqlik va to‘liqlik baxsh etib turadi. Muhabbatni orzu qilish, unga xayolan ergashish va u bilan xayolan gaplashishday baxt yo‘q!

Zukkolar guruhi:

Vatan.... Vatan ishqisi.... Vatanga muhabbat yuragimning to‘ridan joy olgan. U ne’mat! Ta’rif yo‘q mavjudlik. U-ilohiy tuhfa! Vatanning katta-kichigi, xunuk-chiroyligi bo‘lmaydi, shuning uchun kimdir tiz cho‘kib «Vatanim» deya bo‘zlaydi.

Test bilan ishlash:

1. Qaysi qatorda qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar yuklama yordamida bog‘langan?

- A) Baxtim borki, har narsa go'zal ko'rinati mening ko'zimga
 B) Ko'z qayerda bo'lsa, mehr shu yerda bo'ladi.
 C) Bunda bulbul kitob o'qiydi.
 Bunda qurtlar ipak to'qiydi.
 D) Ko'rdingizmi, xalq shunday qudratli kuch-da.
2. Qaysi qatorda sodda gap berilgan?
- A) Oltin olma, duo ol.
 B) Na suv bor, na ozuqa, na daraxt.
 C) Til - qalblar jarchisi.
 D) Qancha ko'p kitob o'qisangiz, o'zingizni shuncha bilimdon, kuchli his qilasiz.
3. Nisbiy so'zlar yordamida bog'langan hokim tobe munosabatlari qo'shma gapni aniqlang.
- A) Kishiga hunar baxti iqbol eshigini ochadi.
 B) Til inson madaniyatining ifodasi.
 C) Kim nodonni qadrlasa, uning qadri ketadi.
 D) Til - tig'siz yov, kamonsiz o'q.
4. Fe'lning shart mayli yordamida bog'langan hokim tobe munosabatlari qo'shma gapni belgilang.
- A) Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.
 B) Kitob – kishini toblaydigan eng yaxshi do'st.
 C) Agar jahon bir gulzor bo'lsa, ona, siz unda yashnagan gulsiz.
 D) Saxyining nomi hech qachon o'chmaydi, u mangu yashaydi
- Test kalitlari: 1) D 2) C 3) C 4) C
- O'qituvchi:** Darsimiz yakunida yiqqan kartochkalaringizni tekshirib ko'ring. Sizning-cha, guruhingizdagi eng faol o'quvchi kim? Endi quyidagi uyga vazifani Ozodbek Nazarbekovning «Sen gulsan» qo'shig'i ijrosida yozib oling.
1. 17-mashq. Matndan qo'shma gaplarni topib, tarkibidan sodda gaplar nechta ligini aniqlang.
 2. Uchta sodda gapdan tashkil topgan qo'shma gaplardan birini daftaringizda «Murakkab qo'shma gap namunasi» deb sarlavha qo'yib ko'chiring.
 3. Adabiyot darsligingizdan o'rin olgan badiiy asar namunasi sahifalaridan murakkab qo'shma gaplarga misollar toping.

NISBIY SO'ZLAR YORDAMIDA BOG'LANGAN QO'CHMA GAPLAR

Dars nomi: Vatan tarkini bir nafas aylama,

Yana ranj-u g'urbak havas aylama. (A. Navoiy)

Maqsad: O'quvchilarga nisbiy so'zlar yordamida ham qo'shma gap tuzish mumkinligini o'rgatish; yurtga sadoqat ruhini singdirish; umumlashtirish, tizimga solish malakalarini shakllantirish.

Jarayon:

1-bosqich. (5-daqiqa)

O'qituvechi darsni o'quvchilarga o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni berish bilan boshlaydi.

1. Qo'shma gapning qaysi turlarini bilasiz?
2. Sodda gaplarni bir-biriga bog'lanish yo'llari qanday?
3. Misollar keltira olasizmi?

2-bosqich. (5 daqiqa) O'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi. So'ngra o'quvchilarni 5 ta guruhga bo'ladi. Har bir guruhga quyidagi topshiriqlar yozilgan tarqatmalar tarqatiladi. **(10 daqiqa)**

1-guruhga: Quyidagi «jadvalni to'ldiring» topshirig'ini bajardilar.

Juft so'zlar	Takroriy so'zlar	Qo'shma so'zlar
--------------	------------------	-----------------

2-guruhga: Quyidagi nisbiy so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring.

1. Kimki, ota-onasini chuqur hurmat qilsa, ularni rozi qilsa, albatta. farzandlari ham uni e'zozlaydi.
 2. Kim o'z vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas.
 3. Kimda-kim yoshlikdan badiiy adabiyotga astoydil mehr qo'ysa, uni ko'p o'qisa, o'sha yuksak madaniyatli, tili boy, uquvli kishi bo'ladi.
 4. Kimda o'z yurtiga bo'lmasa mehr, u qalban shikasta, u qalban majruh.
-

3-guruhga: "O'zbekiston" so'zi bilan so'z birikmasini hosil qilib, nisbiy so'zlar yordamida qo'shma gaplar tuzing.

4-guruhga: Matnning yaratilish bosqichlariga amal qilgan holda quyidagi so'zlardan foydalaniib matn tuzing.

So‘z	So‘z birikmasi	Gap	Matn:
Vatan.	Mening vatanim. Kim vatanini xor qilsa – u oilasidan ham ayriladi.		

Guruhlar taqdimoti. (10 daqiqa) Har bir guruuh vakili guruuh natijalarini taqdim etadi.

Muhokama: (10 daqiqa)

Topshiriqlar sizga yoqdimi?

Guruhi gizdagi eng faol o‘quvchi kim bo‘ldi?

Vazifani bajarishda kim, nima yordam berdi?

Madaniyatli inson qanday bo‘lishi mumkin?

Nisbiy so‘zlar bilan bog‘langan qanday hikmatlardan bilasiz?

Izoh: Guruhlarning taqdimotida o‘quvchilar ularning javoblarini tinglab, topshiriqlarini o‘rganib va xatolari bo‘lsa tuzatish kiritishi mumkin. O‘qituvchi guruhlarga berilgan topshiriqlarni bajarishda ko‘maklashadi.

Kengaytirish: “Vatanni sevmoq iymondandir” mavzusida nisbiy so‘zlardan foydalanib, matn yaratting.

Baholash: O‘quvchilarning guruuhda bajargan ishlari kuzatilib, reyting asosida baholanadi.

FAQAT OHANG VOSITASIDA BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLAR

Darsning uslubi: Modul (andozali) usuli.

Darsning maqsadi: O'quvchilarni o'z fikrini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etishga o'rgatish, matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek tushunishni o'rgatish.

Darsning johozi: 1.Texnik vositalar: audio kassetalar, kompyuter, kodoskop. 2. Ko'rgazmalar: 9-sinf ona tili darsligi, Said Ahmadning «Ufq», Malik Murodovning «Oltin sandiq ochildi», Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar», Tursunoy Sodiqovaning «Hazrati ayol», «Mehr qolur», Matlabbeka Ulugbek qizining «Hikmatlar guldastasi» hamda Shavkat Rahmonning «Saylanma» kitobi.

Darsning shiori: Odobning boshi - tildir

Guruhlarning shiori: 1. Gap – fikrning surati.

2. Yaxshi nutq - rang-barang gulzorga o'xshaydi.
3. Shirin so'z - inson qalbining chirog'i.
4. Mag'zi butun suhbat – odamni fikrlashga undaydi.

Mana, o'lkamizga Navro'zi olam kirib keldi. Atrof xushbo'y gullar ifori bilan burkandi. Shu bois, biz ham bugungi darsimizga to'rtta savatda go'zal gullar namunasidan: chinnigullar, lolalar, binafsha va moychechaklar guldastasini keltirdik.

Aziz o'quvchilar! Savatdagagi gullardan yoqtirganingizni tanlab, shu gul qo'yilgan stol atrofiga o'tiring. Guruhingiz nomi ham ushbu gul nomi bilan ataladi. Dars jarayonida to'g'ri javobingiz uchun bu gullardan terib, baho kartochkalaringizni yig'asiz.

MODULNING DIDAKTIK MAQSADI: o'quvchilar kichik guruhdha hamkorlikda ishlab, ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarning xususiyatlarini o'rganadi, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

No	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialiga oid topshiriglar.	Topshiriglarni bajaring	Baho
1.	Maqsad: faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarning xususiyatlarini o'rganish. 1. Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, tegishli mashqda berilgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni va ularni o'zaro bog'layotgan vositalarni aniqlang. 2. Magnit lentasidan berilgan matnga yozma va og'zaki izoh bering.	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang.	O'z faoliyatizingizni baholab boring

	3. O'tgan mavzuni takrorlash uchun kompyuterda test ishlang.	to'g'ri foydalaning.	
II	<p>Maqsad: ohang yordamida bog'langan qushma gaplarni har qanday matndan topa bilish va uning vazifasini anglatish.</p> <ol style="list-style-type: none"> Berilgan adabiyotlardan ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarni toping. «Zakovat» o'yinida qatnashib tinish belgilaringin vazifalarini tushuntiring. Kodoskopda berilgan qo'shma gaplarni topib, tinish belgilarni qo'ying, perfokarta bilan ishlang. 	O'quvchilar jamoasi bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting.	Nechta to'g'ri javob topdingiz? Belgilab boring
III	<p>Maqsad: og'zaki nutqni rivoj-lantirish, mavzuga ijodkorkorlik bilan yondashish.</p> <ol style="list-style-type: none"> Adabiyotlardan topilgan qo'shma gaplar tarkibidagi tinish belgilarni yordamchi so'zlar bilan almashting. Badiiy adabiyotdan tayyor matnni toping va uni ifodali o'qib, tinish belgilari o'rnnini sxemada belgilang. Yozuv taxtasida berilgan gaplarni ijodkorlik bilan to'ldiring. 	<p>Tezkorlik bilan ishlang. Adabiyotlardan foydalaning. Trening usulida guruh bilan ishlang.</p>	O'z kuchingiz ni sinab boring.
IV	<ol style="list-style-type: none"> Modulni yakunlash! Modulning didaktik maqsadini o'qing. Siz moduldan ko'zlangan maqsadga erishdingizmi? Qay darajada? O'quv materialidan o'zlash-tirishga nima yordam berdi va nima xalaqit berdi? Qaysi topshiriq tushunarsiz bo'lib qoldi? Dars davomidagi faoliyatizingizni baholang. Uyga vazifa: belgilangan mashq. Har bir berilgan tinish belgisiga ikkitadan qo'shma gap tuzib matn tuzing. 	O'z fikringizni bayon eting. Guruh sardori faoliyatizingiz haqida o'qituv-chiga hisobot tayyorlaydi.	Umumiyligi bahoni hisoblab chiqing.

O'qituvchi: Yozma nutqda tinish belgilaringin ahamiyati katta. Tinish belgilari o'z o'rnda ishlatalmasa, gapning mazmuni ham, sintaktik tuzilishi ham o'zgarib ketadi. Tinish belgilari yozma nutq mohiyatini yaxshi tushunishni ta'minlaydi. Yozuv taxtasidagi misollarni o'qib, ma'nosini tushuntirib bering:

1. Sen katta bola emassan.

(Kichkintoyga uning kichikligi ta'kidlanyapti)

2. Sen katta, bola emassan.

(O'smirga endi kichik bola emasligini ta'kidlanyapti)

3. Solining kelgani rost, emas yolg'on.

(Rost so 'zidan keyin qo'yilgan vergul Solining kelganini bildirishga xizmat qilyapti, ishontiryapti)

4. Solining kelgani rost emas, yolg'on.

(Bu gapda vergul joyini o'zgartirib, gapning yolg'onligini ta'kidlayapti).

O'qituvchi: Men ham darsni Afandi latifasidan boshlasam: Afandi bir kuni gaplashib o'tirib, qozini «Siz ahmoq odamsiz» - debdi. Xafa bo'lган qozi afandini podshohning oldiga sudrabdi. Voqeadan xabar topgan podshoh afandiga do'q qilib: «Darhol uzr so'rab, «Siz ahmoq odam emassiz», - degin, yo'qsa hozir jallod chaqiraman», - debdi. Illojsiz qolgan afandi qoziga qarab: «Siz ahmoq, odam emassiz!» - debdi.

(O'quvchilar darslikda berilgan mashq asosida qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni va ularni o'zaro bog'layotgan vositalarni aniqlashadi. Magnit lentasidan quyidagi matn o'qib eshittiriladi. O'quvchilar matn tarkibidagi tinish belgilaringin o'rnnini sxema tarzida belgilaydilar, qo'shma gaplarni aniqlab, bog'lovchi vositalarni sharhlaydilar.

«Oqil bobo deydi: - O'z vatanini sevmagan odam – yomon odam. Kimda-kim o'z ona diyorining zamini-yu oqar suvlarini, kimsasiz cho'llari-yu dala dashtlarini qalbdan seva olsa, unday odam kam bo'lmaydi, zavol ko'rmay kamol topadi. Vatangado esa xalq qahrg'azabiga uchragan kishidir. Vaqt kelib unga hatto bir parcha yer ham, kafan ham buyurmaydi. «Bir siqim ona yer tuprog'i bir hovuch oltindan qimmat», - deb beziz aytilmagan».

Chinnigul guruhi: Biz bu matnning sxemasini quyidagicha chizdik:

----- : ----- . ----- , ----- , ----- , ----- , ----- .
----- . ----- , ----- . «-----», ----- .

Lola guruhi: Biz bu matn tarkibida 3 ta sodda gap va bitta nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gap borligini aniqladik.

Moychechak guruhi: Bu matn tarkibidagi qo'shma gap uyushiq bo'laklar bilan bog'langan. Sodda gap tarkibida ham ega uyushib kelgan. Uyushiq bo'laklarda ham vergul, ikki nuqta va tire ishlataladi.

Binafsha guruhi: Bu matnda *kimda kim, unday nisbiy so'zları, -yu, ham bog'lovchi yuklamalari, tire, vergul, ikki nuqta* tinish belgilari sodda gaplarni o'zaro bog'lagan. *Ham bog'lovchisi takror qo'llangani* uchun har bir bo'lak vergul bilan ajratilgan.

O‘qituvchi: O‘tilgan mavzularni takrorlash uchun kompyuterda quyidagi testlarni ishlang.

Test bilan ishlash:

1. Ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?

A) Maktabda o‘qimoq kerak, ammo maktabdan chiqqandan keyin yana ko‘proq o‘qish kerak.

B) Kim o‘qishni istamasa, hech qachon haqiqiy inson bo‘lmaydi.

C) Bema‘ni fikrlar har kimda ham bo‘ladi, faqat aqlli kishigina uni aytmaydi.

2. Qo‘shma gap tarkibiy qismlarini bir-biriga bog‘lovchi vositalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang.

A) Ohang, bog‘lovchilar, yordamchi so‘zlar.

B) Yuklamalar, ergashtiruvchi bog‘lovchilar, ko‘makchilar.

C) Teng bog‘lovchilar, ergashtiruvchi bog‘lovchilar, bog‘lovchi - yuklamalar, nisbiy so‘zlar, ohang.

3. So‘zlarga qo‘silib yoziladigan yuklamalar qatorini belgilang.

A) -chi, -ku, -da.

B) -a, -yoq, -ya.

C) -mi, -oq, -gina.

4. Tog‘larda hatto yoz oylarida ham yomg‘ir yog‘adi. Ushbu gapda yuklamaning qaysi turi qo‘llangan?

A) ta‘kid yuklamasi.

B) ayiruv yuklamasi.

C) kuchaytiruv yuklamasi.

5. Ham so‘zi qanday vaqtida bog‘lovchi sanaladi?

A) hamma vaqt.

B) faqat teng bog‘lovchilar o‘rnida qo‘llanganda.

C) uyushgan bo‘laklarning oxirida takrorlanib kelganda.

6. Qaysi gapdagi nuqtalar o‘rniga ergashtiruvchi bog‘lovchini qo‘yish mumkin?

A) Osmonni quyuq bulut qopladi,..... yomg‘ir yog‘a boshladı.

B) Ichkaridan ovoz eshitilar, so‘zları anglashilmas edi.

C) Ko‘chatlar yaxshi parvarish qilindi, ular tez o‘sə boshladı.

7. Bog‘lovchi vazifasidagi -u (-yu) yuklamalari qaysi bog‘lovchilar o‘rnida qo‘llanishi mumkin?

A) biriktiruv bog‘lovchilar.

B) ayiruv bog‘lovchilar.

C) biriktiruv va zidlov bog'lovchilar.

8. Yordamchi so'zлarni toping.

A) Asablarning sog'lom bo'lishi uchun badantarbiya bilan shug'ullanish lozim.

B) O, qanday chin baxtga to'lg'in bu onlar!

C) Suvning yuzi jimir-jimir qiladi.

(Test kalitlari: 1-C, 2-C, 3-C, 4-C, 5-B, 6-C, 7-C, 8-A)

O'qituvchi: O'quv faoliyatining ikkinchi elementida siz ko'rgazmada taqdim etilgan badiiy adabiyotlar sahifalaridan faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarni topishingiz va «Zakovat» o'yinida qatnashib, tinish belgilarining vazifalarini guruhingiz bilan hamkorlikda tushuntirishingiz kerak bo'ladi.

Chinnigul guruhi: 1. Bu xunuk xabarni eshitganda qiz butun borlig'ini unutgan, (shu sababli) esankirab nima qilishini bilmay tong otguncha yurib chiqqan edi.

2. Qiz bola nozik narsa, (shu sababli) tengi chiqsa tekin ber, degandek, (shuning uchun) vaqtida egasiga topshirsak, yomon bo'lmadsi.

3. U uyga qaytarkan: «To urush tamom bo'lguncha yerto'ladami, o'radami kun kechiraman», degan o'yda edi.

4. Ufqidan uch nuqta qoldi, bu – Nizomjon, bu – Dildor, bu – Zebi.

(Said Ahmad «Ufq» romanidan)

5. Jismingga jon bo'lsa

Undan xazar qil,

Haqorat – xotirga sanchilgan nayza.

(Shavkat Rahmon, «Saylanma»).

Lola guruhi: 1. Qissadan hissa: Nonni ko'z qorachig'iday saqla, dehqon mehnatini oqla. (ikki nuqta)

2. Eng noyob boylik - bo'sh vaqtini behudaga o'tkazib, birlari bilan gap sotib o'tirish, arzimagan mayda-chuyda narsalar ustida bahslashish, yoxud ko'cha-ko'yda sanqib yurish bilan kun o'tkazuvchi bolalarni ko'rib afsuslanasan, kishi. (tire, vergul)

3. Vaqt - tig'iz, qadrlagan – aziz. (tire)

(Malik Murodovning «Oltin sandiq ochildi» odobnomasi)

4. El qirildi turkiy o'lkada,

El qolmadidi – keldi ajali,

Kim qoniga botdi u o'lkada,

Kim g'ajildi namoz mahali.

6. Sezaman – poyonsiz qorong'ilikda

Chinqirib o'sadi xo'rlangan maysa.

(Shavkat Rahmon, «Saylanma»).

Moymechak guruhi: 1. Ammo rostingni ayt: ko'nglingda bu yo'lni ixtiyor etib to'g'ri qildimmu, yo'qmu, degan bir ishtiboh yo'qmu? (ikki nuqta).

2. Dargohi ilohiyning gadosi - haq-taolonning suyukli bandasi erur. (tire).

3. Ha, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rmagan, o'n gulidan bir guli ochilmagan bu nozik qiz: qirqqa borib qolgan, chekmagan zahmati, ko'rmagan balosi qolmagan. (ikki nuqta).

(Odil Yoqubov, «Ulug'bek xazinasi»).

4. Qutidor xotiniga kulib qaradi: – Eri yaxshi bo'lsa, kundosh balosi nima degan gap? (tire).

5. Andisha va ehtiyyot yuzasidan bu xatni alohida yozib, kitob ichiga yashirdim: Anvar aka, og'ir soatlarda yoningizda turg'uchi do'stdir; qochquchi esakim – buni sizning hukmingizga havola qilaman. (ikki nuqta, nuqtali vergul, tire).

(Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon»).

Binafsha guruhi: 1. Azizim, har qanday yomon ishning bir jihatni xosiyatdir: 16-fevral katta-yu kichikka bir dars, hushyor torttiruvchi bir saboq bo'ldi! (ikki nuqta, vergul)

2. Bolalar dunyosi chinnidan qurilganday nafis – salga darz ketadi. (tire)

3. Ayol qaynar buloq: uning bir ismi Mehr, bir ismi Muruvvat, yana bir ismi Fidoyidir. (ikki nuqta)

4. Mardlik, tantilik, lafzda turish kabi xislatlar ayol toifasida kuchliroqdir: sevgisini yashirin asrash – mardlik; shaytonning yo'liga yurmay, sharm-hayo bilan turish – mardlik: hamisha o'zini kamtar va siniq tutish – mardlik.

(tire, ikki nuqta)

5. Bola – shamol, tiyaylik, - deb ayt,

Guldir – xorin qiyaylik – deb ayt.

Oy misoli jinday dog'i bor,

Artib, so'ngra suyaylik, deb ayt.

Yomon, deb ayt hammaga bir-bir.

Onasiga aytma bari bir.

O'qituvchi: Siz badiiy adabiyot sahifalaridan faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplarni topdingiz. Endi dam olish

bekatida quyidagi topishmoqlarga javob topib, so'ngra har bir stolga qo'yilgan tinish belgilarning (tire, ikki nuqta, nuqtali vergul, vergul) gapdagi o'rni haqida guruhingiz ma'ruza qiladi.

1. Jinqarcha deb, meni demang norasida,
O'rnim tengdosh bo'laklarning orasida.
Fikrlarning «raz'ezdi» – men, menda birpas –
Olib o'tar har o'quvchi yarim nafas... (vergul)
2. Yozuvlarga izlab ma'no, Yo'l ko'rsatay o'zim dono.
Har gap, so'zga, harfga hatto, Etolaman izoh ato. (tire)
3. Erkin duradgor, Tolib shifokor.
Erkin, Tolibdan keyin ne darkor? (tire)
4. Katta akang Samandar ishchan, ilg'or paxtakor.
Samandardan oldin, so'ng bir nimalardir darkor? (vergul)

Chinnigul guruhi: Vergul quyidagi o'rnlarda qo'yiladi:
Bog'lovchisiz birikkan uyushiq bo'laklar orasida; takrorlanuvchi bog'lovchilar bilan birikkan uyushiq bo'laklar orasiga; zidlovchi bog'lovchilar yordamida birikkan uyushiq bo'laklar orasiga; undalmalarni ajratish uchun; kirish so'zlar va tuzilishiga ko'ra murakkab bo'lмаган kirish gaplarni ajratish uchun; *ha* va *yo'q* so'zlarini gap bo'laklaridan ajratish uchun; gapning ajratilgan bo'laklarini ayirib ko'rsatish uchun; bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda; *va*, *ham*, *hamda*, *yoki* kabilardan boshqa bog'lovchilar bilan bog'langan qo'shma gaplarda; muallif gapini ko'chirma gapdan ajratishda vergul ishlataladi.

Lola guruhi: Nuqtali vergul quyidagi o'rnlarda qo'llanadi: 1. O'z ichida vergul bo'lган yopiq uyushiq bo'laklar orasida: «Mehnat, ijod, odam; sharaflı dil yorug'i, hayot qvonchi - hammasining asl manbai sen, vatanim – tinchlik tayanchi».

2. O'z ichida vergul bo'lган, mazmunan ma'lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdag'i gaplarni o'z ichiga olgan qo'shma gaplarda: Shinel jiqqa ho'l; Bektemirning yuzidan tomchilar quyilar edi.

Moychechak guruhi: Ikki nuqta fikrning to'la tugallanmaganligini, bundagi tugallik keyingi gap orqali ochilishini anglatish uchun qo'llaniladi. Bu uning asosiy xususiyati bo'lib: 1. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi gaplarni ajratish uchun qo'llanadi: Bir gap ikkinchi gapdan anglashilgan ish-harakatning sababini ko'rsatsa; natijasini ko'rsatsa; agar biror gap boshqa bir

gapning mazmunini to‘ldirsa yoki izohlasa; ko‘chirma gapdan oldin, muallif gapidan so‘ng qo‘llaniladi. 2. Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan ilgari kelganda, umumlashtiruvchi so‘zdan keyin qo‘yiladi.

Binafsha guruhi: Tire quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi: Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan keyin kelganda umumlashtiruvchi so‘zlardan oldin qo‘yiladi. Ba’zan ajratilgan bo‘laklarda ham ishlatiladi. Kiritma gap ham tire bilan ajratiladi yoki qavs ichiga olinadi. Dialog shaklidagi ko‘chirma gaplarda, tenglik ma’nolarini bildirishda ham ishlatiladi. Kesim yoki ega harakat nomi bilan ifodalansa, egadan keyin tire qo‘yiladi. (O‘qish - hayotni tushunish.) Ega ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalanib, alohida ajratib ko‘rsatilsa, bog‘lama va kesimlik qo‘srimchasi bo‘lmasa, egadan keyin tire qo‘yiladi. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid bo‘lsa, birinchi gapning mazmuni ikkinchi gapning mazmuniga o‘xshatilsa. birinchi gap ikkinchi gapdan anglashilgan ish-harakatning paytini yoki shartini bildirsa ham tire qo‘yiladi. (Ko‘z qo‘rqaq - qo‘l botir).

(Kodoskopda berilgan qo‘sma gaplarning tushirib qoldirilgan tinish belgilarni qo‘yib, sodda gaplar qay vosita orqali o‘zarbo bog‘langanini o‘z variantingiz asosida qo‘lingizdagি perfokarta- dan belgilang).

1. Jangda o‘lgan emas biror bahodir (,) bari halok bo‘lgan xiyonatlardan.
2. Toshday uxlaganda to‘siliarin ochib yo zahar qo‘silgan ziyofatlardan.
3. Hamal (-) bol nafasli (,) tonglari (-) pushti (-) quyosh qahrabo may to‘la kosadir.
4. G‘ijirlaydi bezovta chinor (,) ogoh etib shovillaydi (:) ku-uz (,) ammo uchta sap-sariq ilon ag‘ochlarga o‘rlardi (,) afsus. (Sh.R.)
5. Eshikka qarang (,) birov keldi-yov.
6. A’lo mamlakatning a’lo farzandi bilib qo‘yki (,) seni Vatan kutadi. (G‘.G‘.)
7. O‘ldimi (,) uxladimi (,) endi baribir unga. (H.O.)
8. Har kimki vafo qilsa (,) vafo topqusidir (Bobur)

PERFOKARTA BILAN ISHLASH

No	Teng bog'lovchilar	Ergashtiruvchi bog'lovchi	Bog'lovchilar yuklamalar	Nisbiy so'zlar	Ohang vositasi
1				X	
2	X				
3				X	
4	X				
5		X			
6		X			
7		X			
8			X		

(Guruhlar keyingi bosqichda badiiy adabiyotlardan topilgan, quyidagi qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lovchi tinish belgilarini yordamchi so'zlar bilan almashtiradilar).

1. Ro'zg'or Tohir Zuhrolik, (va) Layli – Majnunlik emasligini, ro'zg'or cheki yo'q kurash, (hamda) yutish – yutqizishlar maydoni ekanligni yod etib yur!

2. O'qituvchi bolaga chandon nafis tarbiya, (va) ishlov bermasin, (ammo) uning uyida otasining og'zidan bodi kirib, shodi chiqib tursa, (yoki) yeydigan ovqati birovning haqi bo'lsa, bola qanday poklansin!

3. Padaringiz uyi avlodningizning ruhlari-yu, (hamda) tiriklari to'planadigan joy, (shuning uchun) imkoningiz yetgancha u yerni obod qilishga intiling.

4. Tilingizni yomon so'zdan tiying – (chunki) bir marta aynigan til yana ayniyveradi.

O'qituvchi: Darsimizning ijodkorlik bosqichida siz yozuv taxtasida berilgan gaplarni maqsadi nuqtai nazaridan tahlil qilib, guruh bilan hamkorlikda fikringizni bildiring. Bu topshiriq trening usulida o'tadi.

1. Nazardan qolmoqlik ulkan fojiadir – nazardan qolganlarning oilasi ham hech qachon ungan emas, o'sgan emas.

Chinnigul guruhi: Unday kishilar aybini tan olmaysdi, boshqalarga ozor beradi; biri ikki bo'lmaydi; uyidan baraka ketadi; oila tanazzulga yuz tutadi: nomardlik uning hamrohiga aylanadi; nomard taqdiridan noliydi; uyida janjal ko'p bo'ladi; noshud - qo'rqqanidan firib beradi; oiladan omad ketadi; atrofdagilarga qo'shila olmaydi, e'tibordan qoladi...

2. Dunyo bergen bor narsasini yo'qotgan keksalar bora-bora mung'ayib qolarkan, shunday paytda ularni: onasi bo'lib erkalatmoq kerak.

Lola guruhi: otasi bo'lib ko'nglini olmoq kerak; eng yaqin kishisi bo'lib mehribonchilik ko'rsataylik; xasratlarini erinmay tinglaydigan dardkashi bo'laylik; yuragiga malham, beliga quvvat bo'laylik; ulardan tez-tez xabar olaylik; vaqtimizni ajratib sayrga olib chiqaylik; shirin gapimizni ayamaylik; chehramizni ochib gaplashaylik; imkon qadar sovg'alar qilaylik; yo'limizga termultirmaylik va h.k.

3. Mehr qozonish insonga qanot beradi:

Moychechak guruhi: mehr - hayot lazzati; mehr – oilaning quvvati va joni; mehr - ko'ngil uyini tozalovchidir; mehrli ko'ngilda g'ubor bo'lmaydi; qalb muzini mehr eritadi; mehr-muhabbati yo'q xonadonga baxt kelmaydi; qalbni zabit etish uchun jang emas, mehr kerak; odam hech qachon mehrdan to'yagan; ota-onas mehri -- o'zidan so'ng ham nur qoldiradi va h.k.

4. Har bir odamning suyanch tog'lari bo'ladi: bandalari oyog'ingdan ming tortsinlar – xudo suyasa, seni hech kim kamsitolmaydi;

Binafsha guruhi: Vatan – tayanch nuqtamiz; ota-onas uchun farzand - qalb g'ururi; ota – umr bog'boni; bola og'ir yuk ko'tarsa, onaning beli og'riydi; etsiz tirnoq - hech narsaga yaramaydi; panjalar to'plansa – musht hosil bo'ladi; do'st - do'stga suyanchiq; do'sting mehri – umr oftobidir; bilim – kelajakning yo'li; aql – odamning qanoti va h.k.

O'qituvchi: Darsimizning yakunida modulning didaktik maqsadini o'qing. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Siz moduldan ko'zlangan maqsadga erishdingizmi?
2. O'quv materialini o'zlashtirishga nima yordam berdi va nima xalaqit berdi?
3. Qaysi topshiriq tushunarsiz bo'lib qoldi?

(O'quvchilar mavzu yuzasidan o'z xulosalarini bayon etishadi. Guruh sardorlari o'quvchilar o'zlarini uchun qo'ygan baholarini ko'rib chiqib hisobot beradilar).

ADABIYOT

ISTIQLOL DARSI

Darsning maqsadi: O‘quvchilar qalbiga istiqlol, Vatan tushunchalarini singdirish; Ularni ko‘z qorachig‘idek asrash, e’zozlash; Vatan oldidagi burchlarini ado etishga shaylantirish kabi fazilatlarni o‘stirishdir.

Darsning jahozi: Mustaqillik aks etgan fotorasmlar,Vatanimizning serquyosh osmoni hamda keng dalalari, bog‘lari, tog‘lari aks etgan rasmlar.Ma’naviyatimiz yulduzlarining rasm va kitoblari, prezidentimizning yoshlar davrasida tushgan rasmili albomlari va hokazo.

Darsning shiori: «Vatanni sevmoq iymondandur» (Hadisdan). «Vatan – u mening jonu tanim, sajdagohimdir. U mening to‘lin oyim, tinch omonligim, izzatim, sharafim, ka‘bam, qiblam hamda gulistonimdir. Dunyoning butun balolari boshimga to‘kilsa, zulm cho‘lining temir tikonlari ko‘zlarimga kirsa yana seni qutharaman. Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman».

(Fitrat).

O‘qituvechi: «1991-yil 1-sentyabr – O‘zbekiston Respublikasi mustaqqillik kuni» bayrami har yili xalqimiz tomonidan keng nishonlanadi. Bizning mustaqil davlatimiz bu qisqa davr mobaynida katta va shonli yo‘lni bosib o‘tdi. Bu davr ichida mamlakatimiz siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotida chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu yutuqlarning barchasi istiqlolimiz, xalqimizning sa‘y harakatlari tufayli amalga oshyapti. Kelinglar, Vatan, istiqlol, vatanparvarlik haqidagi fikrlarimizni o‘rtoqlashsak. Avvalo «Zakovat» o‘yinimizning quyidagi savollariga javob bering:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyatining tizimi qanday? (O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyatining tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiysi prinsipiiga asoslanadi)
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan? (1992-yil 8-dekabrda)
3. O‘zbekiston Respublikasida qaysi til Davlat tili hisoblanadi?

(O'zbek tili)

4. O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi qachon joriy etilgan? (1994-yilning 1-iyulidan)

5. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi nimani anglatadi va qachon tasdiqlangan?

(1992 yil 2 iyulda tasdiqlangan. Gerbimiz xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu umidlarini ifodalaydi.)

6. O'zbekiston Respublikasining madhiyasi qachon tasdiqlangan va uning mualliflari kimlar?

(1992 yil 10 dekabrda tasdiqlangan. Uning so'zini shoir Abdulla Oripov yozgan, musiqasini Mutual Burxonov bastalagan)

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i nimani anglatadi?

(1991 yil 18 noyabrda tasdiqlanib, moviy rang – tiriklik aks etgan mangu osmon va obi hayot ramzidir. Oq rang – tinchlik ramzi. Yashil rang – tabiatning yangilanishi, qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir. Navqiron yarim oy tasviri tarix bilan bog'liq bo'lib, mustaqilligimiz ramzidir. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ida 12 ta yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomamizga bevosita aloqadordir.)

8. Qanday unvon va ordenlarni bilasiz?

(«O'zbekiston qahramoni», «Sog'lom avlod uchun», «Mustaqillik», «Do'stlik», «Amir Temur» ordeni kabilar)

9. O'zbekiston qanday tabiiy boyliklarga ega?

(Davlatimizning yer ostida amalda Mendeleev davriy tizimining barcha elementlari bor. Masalan: mis, oltin, kumush, rux, granit, marmar, uran, gaz, neft kabi.)

10. Asaka shahridagi avtomobil zavodi qachon qurilgan? (1996-yil, 19-mayda. Bu zavodda «Tiko», «Nexia», «Damas», «Matiz», «Lacetti», «Captiva», «Epica» avtomobillari ishlab chiqariladi).

11. O'zbekiston havo yo'llari Milliy aviakompaniyasi qachon tuzilgan? (1992-yil, yanvarda)

12. Respublikamizda nechta oliv o'q uv yurtlari mavjud? (59 ta)

13. O'zbekiston BMTga qachon qabul qilingan? (1992-yil, 2-mart)

14. O'zbekiston Respublikasining elchixonasi dastlab qaysi Yevropa mamlakatida ochildi?

(1994-yil, 1-sentyabrdagi Germanianing Bonn shahrida ochildi)

15. Qaysi xorijiy davlat birinchi bo‘lib O‘zbekistonda o‘zining elchixonasini ochdi?

(1992-yil, 16-martda AQSh o‘zining elchixonasini Toshkentda birinchilardan bo‘lib ochdi).

(Yuqoridagi savollar kartochka qilinib har bir o‘quvchiga tarqatilishi, yechimi uchun 3 daqiqa berilishi ham mumkin).

O‘qituvchi: Endigi sahifamiz «Donishmandlik» deb ataladi. Bunda siz Vatan, mustaqillik haqidagi maqol, hikmatli so‘zlardan bilganlariningizni aytishingiz kerak bo‘ladi.

1. Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni.

2. Vataning tinch – sen tinch.

3. Eli baquvvatning – beli baquvvat.

4. Vatan taqdiri har bir kishining taqdiridir.

5. Vatanparvarlik – bobolardan qolgan meros.

6. O‘z diyorini gullatganning baxti gullaydi.

7. Har bir nihol o‘ziga xos tuproqda ildiz otadi.

8. Vatan uchun qurban bo‘lganlarning hoki – muqaddasdir.

9. O‘z uyim – o‘lan to‘shagim.

O‘qituvchi: Asqad Muxtor yozadi: «Senda bir fikr bor, menda bir fikr bor, o‘rtoqlashsak har birimizda 2 tadan fikr paydo bo‘ladi». Shunday ekan biz ham «Tafakkurlar gulshani» sahifamizni quyidagi savollar bilan bezadik. Siz ushbu savollarga aytigelan maqollardan xulosa chiqargan holda yondoshing. Nega Vatanni sevadilar? Nega uni iymon qadar muqaddas tutadilar? Nega barcha gunohlarni kechirish mumkin-u Vatanga xiyonatni kechirib bo‘lmaydi?

1. Vatan onadek tanhodir, yagonadir. Chunki u ko‘z ochib ko‘rgan dunyomizdir. Biz voyaga yetgan makondir. Tog‘-toshidan yer suvigacha, sabza-giyohidan dov-daraxtigacha umrimizga jon qadar payvand.

2. Bu tuproqda bizni dunyoga keltirgan, aql-u ma’rifatimizni bugungi darajaga olib chiqqan, shon-u shuhratimizni dunyoga namoyish etgan ota-bobolarimizning xoki poylari yotibdi. Shuning uchun ham uni «qiblagoh», «sajdagoh» ataydilar.

3. Vatanni sevmoq, undan shunchaki quvonmoq emas, uni dil-dildan anglamoq, u bilan nafas olmoq, u bilan yashamoqdir. Uni yashnatmoq, obod etmoq uchun kurashmoqdir.

4. Vatan-onaning allasi taralgan, beshigining izlari chizilgan zamin. Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta

hayitlik olgan joying, birinchi muhabbatingni tanitgan makon – Vatandir!

5. Har bir insonning baxtu kamoli Vatan bilandir. O‘z Vatani uchun jonini fido etishga tayyor turmoq kishining yuksak ahloqi va chinakam fidoyiligidan dalolatdir.

6. Ba‘zi kishilar har xil shaharlarni o‘zaro taqqoslamoqchi bo‘ladilar. Ularning katta-kichikligini, chiroyini, farovonligini qiyoslaydilar. Ammo tanlash imkonи berilsa, baribir o‘z vatanini tanlaydi. Chunki, Vatan bizga hayot baxsh etdi, to‘yirdi va tarbiyalab balog‘atga yetkazdi.

7. Bu Vatan ozodligi uchun qanchadan-qancha bobolarimiz kurashmadi deysiz. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Avloniy, Akmal Ikromov, Fayzulla Xo‘jayev, G‘afur G‘ulom... ularni sanab adog‘iga etib bo‘lmaydi. Istiqlol-bu ota-bobolarimizning asriy orzu-umidlari edi.

O‘qituvchi: Ha, o‘zbek halqi jahonga har doim fikr bergen.O‘zining zukkoligi, vatanparvarligi bilan ajralib turgan. Shunday ekan, milliy tafakkursiz komil ma’naviyat ham, Vatan ozodligi va obodligiga mas’ullik ham, milliy g‘urur ham sobit bo‘lmaydi. Yurtimiz jonkuylarli shoir-u ijodkorlarimiz bizning o‘zligimizni anglashimizga imkon beradi. «Nazm javohirlari» sahifamizda biz ana shunday asarlarni esga olamiz.

1. Adbulla Oripovning «Men nechun sevaman O‘zbekistonni» she’ri qalbimga o‘rnashib qolgan. Men ko‘p savollarga javoblarni shu she’rdan topgandyman:

Vatanlar, vatanlar mayli gullasin,
Bog‘ unsin mangulik muzda ham ammo,
Yurtim, sening boyliklaring chun
Sevgan farzand bo‘lsa kechirma aslo!

2. Muhammad Alining «Gumbazdagи nur» dostonida ham o‘lkamizning shonli sahifalarini ko‘rsatiladi. Vatanni sevish va ardoqlashga, o‘tmishdan saboq olishga, bobolarimiz merosini qadrlashga o‘rgatadi:

Xalqim! Nokas erur ul farzand,
Gar seni deb bo‘lmasa fido!
Mening xalqim fidoyi xalqim,
Kifting uzra yashaydi hayot!

3. Alisher Navoiyning ushbu mashhur ruboysi ham erk, ozodlik haqida.

G`urbatda g`arib shodmon bo`lmas emish,
El anga shafiqo mehrimon bo`lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa
Bulbulg`a tikondek oshiyon bo`lmas emish.

4. Mirzo Bobur ham bir g`azalida Vatanini sog`inganini kuz manzarasini chizib tasvirlaydi. «Kuz, xazon umrning so`ngidan nishona. Vatan esa abadiy bezavol, yashillik maskanidir. Faqat ugina muqaddasdir. Chunki avlodlar kelib-ketaveradilar, u esa sobitdir» deydi.

Xazon yafroqi yangliq gul yuzung hajrida sarg`ardim,
Ko`rub, rahm aylagil, ey lolaruh, bu chehrai zardim.
Sen, ey gul, qo`ymading sarkashligingni sarvdek hargiz
Ayog`ingga tushub bargi xazondek muncha yolbordim.

5. Rauf Parfsining «Ona Turkiston» she`ri ham qadim Turkistonnig erki, birligi uchun kurashni tasvirlaydi.

O`, Ona Turkiston, kuylayman yonib,
Dunyo jur`atini berding qo`limga
Men endi angladim turkiy dunyonи,
Mana, men tayyorman endi o`limga.

6. Erkin Vohidovning «O`zbekistonim» she`ri ham Vatan, istiqlol, baxtli kelajak haqida kuyladi.

Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen - Muqanna, sarbador - sen,
Erksevar qon, o`zbegin.
Ortda qoldi ko`hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam.
Ketdi vahming, bitdi zahming,
Topdi darmon, o`zbegin.

7. Vatanni sevish, uning har bir qarich erini muqaddas bilib qadrlash go`daklik chog`imizdanoq ona allasi bilan qon-qonimizga singadi...

Alla desam bor bo`lgin, allayo-alla,
Menga nomus-or bo`lgin, allayo-alla.
Katta bo`lgan chog`ingda, allayo-alla,
Yurtga vafodor bo`lgin, allayo-alla.

8. Xalq ona yurtini «Ona yurting-oltin beshiging», deb ulug`laydi. Xalq bahodirlari ham aziz yurtning bir qarich yeri uchun jon olib, jon beradilar.

Masalan: Go‘ro‘g‘li -Yurtga dushman ko‘z olartsa. Qarab turmas yigit mardi, – deydi.

9. Ko‘zingdan oqqizmay bir tomchi yoshing,
Kishanlarni uzdi sherdil yurtboshing,
Istiqlol ufqida balqdi quyoshing.
Ey dilim, istiqlol nurida yayra,
Turkistonim yayra, Turonim yayra.

O‘qituvchi: She’rlar qo‘shiqqa ulanib, «Misralar o‘yini» boshlandi. Bunda siz magnit lentasidan ijro etiladigan qo‘shiqlar kompozitsiyasining nomini, ijrochisini aniqlashingiz kerak. (Foydalanish uchun qisqa qilib yozib olingan «Ulug‘imsan, Vatanim» (Sevara Nazarxon), «Vatan yagonadir» (Safiya Saftarova), «Ajdodlar ruhi», «O‘zbegim» (Setora), «Jon o‘zbegim, elim» (Ozoda) kabi qo‘shiqlarni tavsiya qilish mumkin)

O‘qituvchi: So‘nggi sahifamizning shiori:

Yashasak bu dunyoda Vatan uchun yashaylik,
O‘zbekiston Vatandir, chaman uchun yashaylik!

Vatanni, istiqlolimizni asrashimiz uchun qanday yoshlar bo‘lishimiz kerak?

1-o‘quvchi: qo‘lga kiritgan istiqlolimizni asrab-avaylashimiz, kelajak avlodga ozod, obod yurtimizni gard yuqtirmay topshirishimiz kerak. Buning uchun Vatanga chinakam vatanparvarlar kerak.

2-o‘quvchi: Shu qisqa vaqt ichida O‘zbekistonni jahon tan oldi. Yirik davlatlar o‘rin oldi. Xalqimizning o‘z taraqqiyoti yo‘liga, erishajak buyuk kelajagiga ishonchi mustahkam, shu ishonchni oqlaydigan zukko yoshlar kerak.

3-o‘quvchi: Yildan-yilga bu qutluq mustaqillik bayramimizning qadri, ahamiyati ortib boryapti. Ozodlik tuyg‘usi, Prezidentimiz da‘vatlari xalqimiz qalbidan, ruhidan teran joy olmoqda, Vatanga e’tiqodli, ilmlı jonkuyar fidoyilar kerak.

4-o‘quvchi: Vatanimiz sarhadlarini qo‘riqlaydigan Jaloliddin Manguberdidek qahramonlar kerak Vatanga.

5-o‘quvchi: Shonli o‘tmishga, buyuk kelajakka ega bo‘lgan O‘zbekiston farzandi ekanligimizdan, mard va shijoatli yurtboshimiz borligidan faxrlanamiz.

6-o‘quvchi: Prezidentimizga yelkadosh bo‘lib, buyuk kelajak deb atalmish ulug‘vor bino poydevoriga bir g‘isht qo‘yuvchi yoshlar bo‘lib yetishishning o‘zi bir baxt.

7-o‘quvchi: Shoira Halima Xudoyberdieva aytganidek: Dorilamon kunlar keldi. Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor. Shunday ekan, bu kunlarni qadriga yetishni o‘rganaylik.

8-o‘quvchi: Biz ozodlik, istiqlol yo‘lini tanlaganmiz. Bu yo‘ldan bizni hech narsa va hech kim qaytara olmaydi.

(O‘quvchilar mustaqil fikrlarning bayoni, sahifalardagi faol ishtiroklari va topqirliklari uchun baholanadilar. uyga vazifani yozib olishadi. «Mustaqil O‘zbekiston-mening vatanim» mavzusida mufassal reja tuzib, insho yozish buyuriladi.)

O‘qituvchi: Rahmat. Kelajak siz yoshlarning qo‘lingizda. Yuqoridagi gaplarga amal qilib Vatanga bir umr fidoyi bo‘lib, istiqlolimizni asrab yashaylik! Darhaqiqat, Vatanini sevish, uning ravnaqi yo‘lida qayg‘urish tuyg‘usi qoniga ona suti, ona allasi bilan kirgan xalqni yengib bo‘larmidi! Aslo!

SO'Z DUNYOSI G'AROYIBOTLARI.

MAQOLLAR

Darsning maqsadi: O'quvchilarni maqollar bilan tanishtirib, ularning bilim saviyasini o'stirish, komil insonni tarbiyalash, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jahozi: Texnik vositalar: audiokasseta, «O'zbek xalq maqollari» kitobi, «O'zbek va turk maqollari, iboralari» kitobi, maqollar aks etgan plakatlar. «Adabiyot (majmua)» darsligi.

Darsning shiori: Nodon qulog'iga pand, xuddi qafasda shamol. Olamning nasihatni g'alvirdagi suv misol. (*Sa'diy*)

Guruhlar shiori: Qaysarga nasihat qilgan kishining o'zi nasihatga muhtojdir. (*Sa'diy*)

So'z ta'sir qilmagan odamga kaltak ham o'tmaydi. (*Sugrot*)

Ko'ngul maxzanining qulfi til va ul

Maxzanning kalidin so'z bil. (*Navoiy*)

Darsning uslubi: Interfaol.

Maqollar asrlar davomida xalq donishmandligining asosiy manbai bo'lib kelgan. Ular xalqning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan teran fikrlar xulosasi sifatida chuqur mazmunga ega bo'lib, xalq og'zaki ijodining alohida janri hisoblanadi. Maqol - xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli va hikmatli ibora, gap. Xalq og'zaki ijodining boshqa barcha janrlari kabi maqollar ham asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan, ular xalqning dunyoqarashi, hayotga va jamiyatga bo'lgan munosabatini, yurtning tarixi, urf-odatlari, ma'naviy va ruhiy holatlarini ifodalagan.

Darsimizni shior tanlab, guruhlarga bo'linishdan boshlasak.

(*O'quvchilar donishmandlar, kamtarlar va haqgo'ylar guruhlariga bo'linib, o'zları tanlagan shiorlarga qisqacha sharh berdilar*).

Hurmatali o'quvchilar, guruhlaringiz bilan hamkorlikda ishlab, beriladigan topshiriqlarni bajarishingiz, nutqiy malakangizni kengaytirishingiz kerak. Topshiriqlar uchun uch daqiqadan vaqt ajratilgan. Vaqtidan unumli foydalaning. «Vaqting ketdi – baxting ketdi», – deb bejiz aytishmagan. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalarini olishga muyassar bo'ladilar. Sardorlar guruhdagi eng faol o'quvchini aniqlaydilar.

Birinchi topshiriq. «Maqollar sharhi» deb nomlanadi.

Sharhlash jarayonida maqollarning inson nutqiga ko'rk beruvchi, uning ta'sirchanligini oshiruvchi vosita ekanligini anglashingiz kerak.

Donishmandlar: «Vatan gadosi – kafan gadosi» maqolida Vatanni sevish, unga sodiq bo'lish uqtiriladi. O'sib-ulg'aygan yerni noshukurchilik qilib tashlab ketish juda yomon oqibatlarga olib borishini ko'rsatadi.

«Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni» maqolida esa o'zbek xalqining ona Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatni, sadoqati o'zining o'chmas izini qoldirgan. Ularda Vatan ulug'lanadi, har kim o'z elida erkin nafas olishi, izzat-hurmatda yashashi ko'rsatilib, Vatanni sevish, unga hamisha sodiq bo'lish uqtiriladi.

Kamtarlar: «Vataning tinch - sen tinch» maqolida Vatanning tinchligini saqlash, ozodligini, mustaqilligini ta'minlash, ona tuproqni dushmandan asrash, vayron bo'lishiga yo'l qo'ymaslik bizning burchimiz ekanligi aytildi.

Haqgo'ylar: «Aql bilan odob – egizak» maqolida har bir kishi o'zini qanday tutishi kerakligi to'g'risida ta'lim berib, aql bilan ish ko'rishga, chiroyli fazilatlar egasi bo'lishga, odobli, nomusli, samimiy, sof ko'ngilli bo'lishga undaydi.

«Ko'pdan quyon qochib qutilmas» maqolida ko'pchilik birikib, hamjihat bo'lib ishga kirishsa, har qanday mushkul ishning uddasidan chiqa olishi nazarda tutilgan.

Ikkinchchi topshiriq. «Topqirlar» deb nomланади. Guruhlar quyida berilgan so'zlardan foydalangan holda maqollar hosil qilishlari kerak.

1. (gav, yer, na, zi, suv, xa, har) Yer – xazina, suv - gavhar.
2. (oz, ran, g'oz, hu, chi, na, ma, ring)

Chiranma g'oz, hunaring oz.

3. (o't, til, lich, kir, qi, dan) Til - qilichdan o'tkir.
4. (iq, sabr, tin, sar, gi, ol, ta) Sabr tagi - sariq oltin.
5. (zi, zi, lar, aql, ota, so', ko', ning)

Otalar so'zi - aqlning ko'zi.

6. (gan, la, tish, di, ish, gan, lay, kish, di, ma, la, ish, nay,) Ishlagan – tishlaydi, ishlagagan – kishnaydi.

Uchinchi topshiriq. «Bahribayt», ya'ni she'riy musobaqa bo'lib, bunda to'rtliklar o'rniga maqollardan foydalanamiz.

Barvaqt qilingan harakat, hosilga berar barakat.

Donishmandlar: Temchi sel bo'lmas, dushman el bo'lmas.

Kamtarlar: Sulton suyagini xo'rlamas

Haqgo'ylar: Sayoq yurgan tayoq yer.

1. Rang ko'r, hol so'r.
2. Rahmat olgan omondir, la'nat olgan yomondir.
3. Rejasiz ish - qolipsiz g'isht.
4. Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz - hunar.
5. Ro'zg'or tushdi boshga, qo'l tegmadi oshga.
6. Avval o'yla, keyin so'yla! ...

To'rtinchi topshiriq. Maqollarning muqobillarimi toping.

Bu topshiriqda guruhlar birlashib, fikrlab ma'nosi yaqin maqollardan topishlari, qisqa sharhlashlari mumkin.

Donishmandlar: Aytilgan so'z – otilgan o'q.

- A) Og'izdan chiqqan so'z - qaytmas.
- V) Aytar so'zni ayt, Aytmas so'zdan qayt.
- S) Avval o'yla, keyin so'yla.
Qozonda bo'lqa, cho'michga chiqadi.
- A) Biliming bo'lqa, ishonch bilan so'zlaysan.
- B) Ishing - hunaringga yarasha.
- S) Bor borini yeydi, uyatsiz orini yeydi.

Kamtarlar: Qari bor uyning zari bor.

- A) Qarisi bor uyning parisi bor.
- B) Otalar so'zi - aqlning ko'zi.
- S) Yoshi ulug' kishi – tajribali, dono kishi.

Haqgo'ylar: Qars ikki qo'lidan chiqadi.

- A) Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi.
- V) O'xshatmasdan uchratmas.
- S) Kelishmovchilik – janjalning boshi.
Arslon izidan qaytmas, Yigit - so'zidan.
- A) Er so'zidan qaytmas, sher – izidan.
- V) Er aytmas, aysa qaytmas.
- S) Tursang so'zingda, hurmat yuzingda. kabi....

Beshinchi topshiriq. Son bilan izohlangan, hayvon nomlari bilan bog'liq maqollardan namunalar keltirin.

Donishmandlar: Yetti o'lchab, bir kes.

- Bir kun urush bo'lgan uydan qirq kun baraka ketar.
- Bir kun ming kun bo'lmas.
- It egasini taniydi, mushuk – bekasini.
- It itga buyuradi, it - quyrug'iga.
- Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi.

Kamtarlar: Bir qizga – yetti qo'shni ota-onा.

- Oyning o'n beshi qorong'i bo'lqa, o'n beshi yorug' bo'ladi.
- Qirqiga chidagan qirq biriga ham chidaydi.
- Qora tovuq ham oq tuxum qiladi.
- Sichqonning o'lqisi kelsa, mushuk bilan o'ynashadi
- Mol egasiga o'xshamasa, harom o'ladi.

Haqgo'ylar: Bir tulki yetti bo'rini yetaklaydi.
 Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas.
 Bir ko'ngil imorati – ming Makka ziyorati.
 Bir mayizni qirq kishi bo'lib yebdi.
 Sichqon sig'mas iniga, g'alvir boylar dumiga.
 Semizlikni qo'y ko'taradi.

O'qituvchi: Endi sizlar bilan "Dam olish bekti"mizda «Meni topping» o'yinini o'ynaymiz. Bunda guruh a'zosi berilgan maqoldagi obrazni harakatlari bilan ifodalaydi. Sizlar uning kimligini va bu o'rinda qanday maqol ishlatish mumkinligini aytasiz.

Donishmandlar: (Manim nafsim balodur, yonar o'tga solodur)
 Nafsi yomon xayitda o'lar (ochko'z).

Sihat tilasang, ko'p yema, Izzat tilasang, ko'p dema!

Kamtarlar: (Bersang yeyman, ursang o'laman.) (dangasa)
 Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas.
 Olma pish, og'zimga tush.

Haqgo'ylar: (Anqov bo'lgan kishining, mazasi yo'q ishining)
 Anqov, anqovning o'rtog'i - yalqov. (anqov)

O'qituvchi: Yuqoridagi topshiriqlarni bajarib, maqollarning xilmalil ekanini bilib oldingiz. Shunday ekan, maqollar haqidagi umumiy tushunchangizni quyidagi jadvalda aks ettiring. Guruhingiz bilan hamkorlikda ishlang.

Maqol haqida nima deya olasiz?	Maqol qanday xususiyatlarga ega?
Ibratli so'z.	Fikrlar aniq bo'ladi.
So'zga husn beradi.	Xulosa tugal bo'ladi
Fikrni oson tushunish yo'li	Ifoda lo'nda, fikr ibratli
Nutqimizdagи hamrohjimiz	Hukm shaklida bo'ladi
Badiiy asarlarda ishlatalidi	Topishmoqqa ham o'xshaydi
Arabcha «So'z» degani...	She'riy ham bo'lishi mumkin
«Otalar so'zi» ham deyiladi	Maqollar xalqchil bo'ladi
Xalqning ruhiyati aks etadi	Turli mavzularda bo'ladi
«Zarbulmasal»da 400 maqol bor	So'zlar ko'chma ma'noda bo'ladi
Xalq hikmatlari hisoblanadi	O'tkir mazmunli bo'ladi
Xalq og'zaki ijodining janri	Teran fikrlar xulosasi

O'qituvchi: Guruhlar o'zлари to'plagan rag'bat kartochkalari asosida baholanadi. Uyga vazifa majmuuada berilgan maqollar orasidan Vatan haqidagilarini ajrating. «O'zbek xalq maqollarida Vatan mavzusi» sarlavhasi ostida yozma ish tayyorlang.

XALQ OG'ZAKI IJODIDAN "RAVSHAN" DOSTONI

Darsning maqsadi:

- A) Tarbiyaviy maqsad** – o‘quvchilarda insoniylik fazilatlarini, o‘z Vatan va e‘tiqodiga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish;
- B) Ta‘limiy maqsad** – o‘quvchilarni doston matni bilan tanishtirish, undagi obrazlarni tahlil qilishga o‘rgatish va badiiy timsol haqida tushuncha berish;
- D) Rivojlantiruvchi maqsad** – O‘quvchilarda mas’uliyat hissini shakllantirish. Aytgan gapi, tanlagan yo‘li, bosgan qadami, qabul qilgan qarori uchun javobgarlik hissini uyg‘otish.

Darsning jihози: Go‘ro‘g‘li turkumiga kirgan dostonlardan namunalar, “Ravshan” dostonlari. Mavzuga ishlangan rasmlar. Honanda Hosila Rahimovaning “Baybichcha” qo‘shib‘I, Qodir baxshining dostonidan aytgan parchalari, termalar, qo‘g‘irchoqlar.

Darsning shiori:

* Agar fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, tadqiqotlar uning ildizini tashkil etadi. Zero, ildiz qanchalik baquvvat, chuqur joylashgan bo‘lsa, daraxt shunchalik barq urib yashnaydi, ko‘p hosil beradi.

Guruhlarning shiori:

* Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun!

(Donolar bisotidan)

* Bizning shaxsimiz bog‘, irodamiz esa uning bog‘bonidir.

(V. Shekspir)

* Yaxshiga yaxshi bo‘l, yomonga yomon,

Gulga gul bo‘lgin-u tikanga tikan. (Sa’diy)

* Sevgi – ajib bir gul, ammo tubsiz jar yoqasida o‘sgan bu gulga yaqin bormoq va uzmoq uchun jasorat kerak.

(Stendal)

Darsning uslubi: MODUL USULI

Modulning didaktik maqsadi:

Siz, o‘quvchilar kichik guruhdha hamkorlikda ishlab, xalq og‘zaki ijodining durdonasi bo‘lgan “Ravshan” dostonining poetik xususiyati, tasvir vositalari, obrazlari tilini bilishingiz kerak Nutqiy tafakkuringizni kengaytirishingiz, asarni tahlil qilib, o‘zingizga xulosa chiqarishingiz, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishingiz zarur.

O'quvchilar uchun topshiriqlar:

- Savodxonlik** – matndan imlo qoidalari buzilgan sozlarni toping, kelishik qoshimchasiga e'tibor bering.
- "Zakovat"** savollariga javob bering. Uch daqiqada mavzuga oid "TEST"ni ishlang
- Qo‘g‘irchoqlar bilan ishlash** – asar timsollarini ularda aks ettiring.
- Adabiyot nazariyasi** – nasrdagi qofiya – saj, mubolag‘a, o‘xshatish va maqollar, hikmatli so‘zlarni toping. Magnit lentasidan eshittirilgan baxshi termasining vaznini aniqlang.
- Folklorshunos** – uch daqiqada nechta maqol, ibora, hikmatlar aytga olasiz?
- Munaqqidlardek fikrlang!** – berilgan savollarga javob bering, oqlovchi-qoralovshilarga bo‘linib, timsollarga baho bering.
- Uyga vazifa** – yuqoridaqgi topshiriqlarni mustahkamlab, asarga taqriz yozing, mulohazalaringizni bildiring.

Guruhlarning nazorat ishi varaqasi

Adabiyot		7-“a”		36 ta		“Ravshan” dostoni	
fan	sinf raqami	o‘quvchi soni				nazorat turi	
Nº	Oquvchining f.i.sh.	Imlo	Zakovat	Timsollarni yaratish	Adabiyot nazariyasi	Xalq og‘zaki ijodi	Mustaqil fikrlang
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							
	Ekspert	A’lo	yaxshi	O’rta	qoniqarsiz	bilim sifati	umumiy bali
1	Sardor						
2	O’qituvchi: M.A Mirzarahimova						

O'quvchilar kichik guguqlar: Ravshan, Zulkumor, Hasanxon, Jiyronqush va G'irotga bo'linib, har biri topshiriqlar bilan tanishib, javoblarni daftarlariiga yozib borishadi. Guruh sardori nazorat jadvaliga har bir topshiriq uchun 5 ballgacha ball qo'yib boradi. Dars so'ngida umumiy bali hisoblanib, guruhning jami yig'gan bali aniqlanadi.

Ballarning to'g'ri qo'yilganini har bir guruhdan olingan bittadan o'quvchi, ya'ni ekspertlar nazorat qilib boradi. Guruhda 7 - 8 ta o'quvchi bo'lishi mumkin. Topshiriqlarga 5 daqiqadan vaqt ajratiladi.

Dars shiorlarni tahlil qilishdan boshlandi. Ko'rgazmadagi katta daraxt ramziy ma'noda doston qilib olindi. O'quvchilar uni: mevali, serhosil, yashnagan, gullagan, chinor daraxti deb nomlashdi va tagiga suv quyish uchun har bir topshiriqning javobini yelim qog'ozda yozuv taxtasiga yopishtirishdi. Tog'ri javoblar uchun kartochkalar tarqatildi. Guruhlar, avvalo. dostonni bizgacha yetib kelgani haqida axborot toplashdi.

Doston folklorchi olim Xodi Zarif (1905 -1972) tomonidan 1928 yilda Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) og'zidan yozib olingan va 1941 yilda nashr ettirilgan.

Ergash shoir «Ravshan»ni otasi Jumanbulbuldan, u esa ustozি Kichik Bo'rondan o'rgangan. Shoirning ota-bobolaridan besh kishi, momolaridan ikki kishi va ikki akasi xalq dostonlari va termalarini kuylovchi baxshilar bo'lган. Juman baxshi iste'dodli va yuksak mahoratli bo'lганligi uchun el orasida **Jumanbulbul** deb nom taratgan, uning to'la yod bilgan dostonlari yuzga yaqin bo'lган.

Birinchi topshiriq bajarilishida guruuhlar doston, qoshiq matnidan, imlo qoidalari noto'g'ri qo'llangan sozlarni topishlari kerak edi. Guruhlar quyidagi misollarni berishdi: Juringlar, jaynatib so'zidagi -j -y harfi bilan almashtirilgan. Qing, bo'ng, bo'p emas, balki qiling, bo'ling, bo'lib to'g'ri. "Bizning yordan ko'rgan bormi?" misrasida - dan chiqish kelishigi o'mida -ni tushum kelishigi bo'lishi lozim edi. "Vallamat boripti Avazga sovchi" misrasida boripti emas, boribdi kabi...

Guruhlarga lug'atga e'tibor bergenliklarini bilish uchun quyidagi so'zlar berildi:

O'dag'a -sardor, Nigin - uzuk, Suqsur - ko'l qushi, Zulf - soch, Salloh - qassob, Mehr-u moh - quyosh-u oy, Qulon -kiyikning bir turi, Jazoil - nayza, Qarsoq - tulkiga o'xshash, kichikroq yirtqich hayvon,

Bulon - yovvoyi ot, G'ul - mahbusning bo'yni va oyog'iga solinadigan temir halqa, Hudaychi - xon va arizachilar o'rtasidagi muloqotchi mansabdar shaxs.

Ikkinchি topshiriqda "Zakovat" hamda "TEST" savollari berildi.
«Zakovat» savollari:

1. Xon Dalli qaysi yurtdan? /Arzumdan/
2. Ravshanbekning yoshi nechada? /15/
3. Nega Yunus pari bolaga uzukni berdi? /ovunib o'tirsin, hech qayerga ketib qolmasin deb/
4. Hasan mingan otning nomi /G'irko'k/
5. Go'ro'g'li Avazni erkalab qanday chaqiradi? /bol Avaz/
6. Hasanxonning do'sti kim edi? /darvozabon/
7. Zulkumorning kasbi /qalpoq tikadi/
8. Zulkumorning ko'rmanasi /bir lagan tilla/
9. Qalpoq bozori qaysi bozordan keyin /pichoq, qin/
10. Ko'shkning zinasi nechta? /40 ta/
11. Ravshanbek qizlardan qayerga yashirindi? /gul ichiga/
12. Voqeadan Qoraxon qanday xabar topdi? /Oqqizning onasidan/
13. Zulkumor qamalganda necha sarboz qo'yildi? /500/
14. Xatni Chambilga qanday yubordi? /mayna qushidan/
15. Mayna kimning qo'liga qo'ndi? /Xon Dallining/
16. Jumanbulbul dostonni kimdan o'rgangan? /Kichik Bo'rondan/
17. Kampir Aynoqni qayerdan biladi? /katta o'g'lining polvoni/
18. Tersak kalning hunari /sinchi/
19. Kun pora-pora bo'lgan kun qaysi? /muhalat tugagan kun/
20. Hasanxonni kim birinchi tanidi? /Jaynoq/
21. Qoraxonning buyrug'ini kim o'qidi? /Hudaychi/
22. Ravshanning so'nggi tilagi /ko'zini ochish/
23. Shirvonga kim podsho bo'ldi? /Aynoq kal/
24. Shirvon bozori necha misrada tasvirlanadi? /145/
25. Hasanxon ikki oylik yo'lni necha kunda bosadi? /20/
26. Ergash shoir dostonni kimdan yozib olgan ? /Jumanbulbul/
27. Xalq dostonlarini do'mbirada kuylovchi /baxshi/
28. Sher haybatli, yo'lbars kelbatli yigitlar /Avaz, Hasanxon/
29. Dor qayerga qurilgan? /bozorning o'rtasiga/
30. Kampirning nechta o'g'li bor edi? /oltita/

TEST («RAVSHAN» dostonidan)

1. Go‘ro‘g‘li asrandi o‘g‘li Hasanxonni qaysi shahardan olib keldi?
A) Chambildan B) Eram bog‘idan S) Vayangandan D) Xunxordan
2. «Ravshan» dostoni qahramoni Ravshan nima uchun bandi bo‘lib zindonga tushib qoladi?
A) Qoraxonning a‘yonlarini urgani uchun
B) Yosh va tajribasizligi, oq ko‘ngilligi tufayli
S) Zulkumorni ranjitgani tufayli
D) Bozorda yengilgani tufayli
3. Qulon yurmas yerlardan, quvib o‘tib boradi
Bulon yurmas yerlardan, Burib o‘tib boradi
Bo‘ri yurmas yerlardan, Bo‘zlab ketib boradi.
Ushbu she‘rda tilga olingan qahramon nomini toping.
A) Ravshan B) Go‘ro‘g‘li S) Avazxon D) Hasanxon
4. «Ravshan» dostoni quyidagi xalq baxshilarining qaysi biridan yozib olingen?
A) Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan
B) Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan
S) Islom shoir Nazar o‘g‘lidan
D) Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘lidan
5. «Ravshan» dostonidagi epizodik obrazlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) Go‘ro‘g‘libek, Qasanxon, Avazxon, Gulonor
B) Ersak, Tersak, Go‘ro‘g‘libek, Ravshan
S) Kampir-ena, Maston, Oqqiz, Zulkumor
D) Aynoq, Jaynoq, Ersak, Tersak
(Kalit: 1-S, 2-B, 3-D, 4-B, 5-D)

Uchinchi topshiriqqa guruhlar qo‘girchoqlar bilan ishlab, matndan timsollarga berilgan tasvirlarni topib, obrazga kirishib, yoddan ijro etishdi. Hasanxon: “Hasan polvon o‘zi olovday yonid, dudday tutanib turgan edi. Endi mardning g‘ayrati kelib, jazavasi qo‘zg‘alib, o‘g‘lining bu so‘zlarini eshitib bir na‘ra tortib yubordi. Shu yerda turganlarning ko‘pi et-petidan tushib, aqli shoshib, esidan adashib, ne botirman deganlari turolmay emaklashib, bari birday chuvlashib qoldi.”

Zulkumor: “Jamoli chillaning qoriday tinjirlab, yaltirab o‘tiriddi. Ana Zulkumorning ko‘zi jovdirab, zulfi shovdirab, zulfining shu’lasi betiga ursa, yarq-yurq etib, betining shu’lasi zulfiga ursa, yashin

tushganday bo'lib o'tiribdi. Ravshanbek qarasa, musicha, so'pito'rg'ay, g'azalay, simcha qushlar Zulkumorning jamoli jilvasiga chidamay, baland quyilib kelib, egniga, kaptiga tegib-tegib uchib bora yetibdi."

Aynoq kal- "Kattasi Aynoq kal zo'r edi. Ot, tuya, arava ko'tarolmas edi. Doim bir yoqqa ko'chirmoqchi bo'lsa, piyoda ketar edi" "Jaynoq juda masxaraboz edi, har tusli bo'la berar edi. Agar birovni aldamoqchi bo'lsa, har tusli bo'Iganda o'zining jo'ralari ham tanimas edi." Jiyronqush: "To'rt oyog'I teng tushgan: biqini yoziq teng tushgan, qarchig'ayning havosi tekkan." v.h.k.

To'rtinchi topshiriqda o'quvchilar adabiyot nazariyasini bo'yicha matndan saj, mubolag'a, oxshatish, tashbeh kabi poetik vositalarni topishdi. Masalan: "G'amning loyiga botibman", "Kaptarday bo'p yurgan qizlar", "Kimga yetsa shu kallar, yetganda ikki boladi", "Ot boradi arillab, Otgan o'qday parillab, ot alqimi—tong shamol mis karnayday zarillab, suvsiz cho'lda G'irko'k ot , borayotir karillab", "Qush uchmagan cho'llardan, Odami yo'q yo'llardan, dim ichi yo'q cho'llardan, mard Hasan", "Kampirning olti o'g'li bor edi, oltovi ham ajdahor edi" kabi oxshatishlar, "Bir qancha yo'l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog', bir yog'I chorborg', juda katta kalondimog', ko'rganlar farog", "o'zining ko'rар ko'zi, so'zlar so'zi, o'z joniga teng ko'rib yurgan Ravshanbek bolasi yig'lab kelayotir" kabi sajlarni topishdi.

O'quvchilar magnit lentadan Qodir baxshining Shirvon bozori aks etgan qo'shig'ini tinglashib, matndan ohang, vazn, vaziyat tasvirini aniqlashdi, ya'ni uch xil ohang: "Elda davron surgan bormi? Yor daragin bilgan bormi?"—mungli nolalar yo'qlov. "Holin bilmas bir nechalar, bedob mingan boyvachchalar, tinmay elni kezarchilar, jo'n savdoni buzarchilar",-- hazil, kinoya, "Qalpoq bozori qaysidir?" deb yorini topolmay, intizor bo'lganidan armon ohanglari sezilib turadi. Yetti hijoli misralar voqealarning tezligini, sakkiz hijoli esa urush va jangovorlik holati va o'n bir bo'g'inli barmoq vaznidagi misralarda qahramonning ruhi holati ifodalananadi, masalan:

Sen aytgan odaming, zolim, men emasman
Bir nechalar o'z holini chengnamas
Men o'lmasam, o'z elimdan keshmayman!
Aziz boshing oyog'imga teng emas...

Beshinchi topshiriqqa binoan, guruhlар besh daqqa ichida nechta aytilmagan maqol aytal olishlarini namoyon qilishlari kerak. Qolgan ishtiroychilar matndan maqol va ota nasihatlarini topishdi: “Zinhor-zinhор bir miskinni yig‘latma!”, “Kechsang yomon bo‘lar ota-enadan”, “Qo‘lingdan kelgancha yomonga ketma”, “Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot! Yolg‘iz yursa, chang chiqarmas, yaxshi ot.”, “Yolg‘iz bola yovdan yomon”, “Qizi borning nozi bor” kabi...

Oltinchi topshiriqda munaqqidlar uchun quyidagi savollar berildi. Guruhlар xuddi asarga tanqidchilardek yondashdilar:

1. Nega Ravshan Gulanorga uylanmoqchi?
2. Avazxon qizini nega Ravshanga teng kormadi?
3. Dostondagi muommolar qaysi voqeadan boshlanadi ?
4. Ravshan Avazning gapidan nega yig‘ladi? Dor ostida-chi?
5. Ravshan bilan Yunus pari gaplarining mazmunidan qanday farq seziladi?
6. Ravshan hayotini nima o‘zgartiradi ?
7. Milliy qadriyatlar Ravshan va Hasanxonning qaysi harakatlarida ko‘rinadi ?
8. Otaning nasihatlaridan qanday xulosa chiqarasiz?
9. Nega kallar Ravshanni tanimay turib qutqarmoqchi bo‘lishdi ?
10. Dor qurilgan kundagi qahramonlarning holatiga baho bering ?
11. Doston deb nimaga aytildi?
12. Obrazlar haqida nima deysiz?
13. Dostondagi voqealarni shu kunlarga o‘xhash tomonlari bormi?
14. Ravshanning qaysi jihatlari yoqdi?

Yuqoridaq savol-javoblardan so‘ng, guruhlар oqllovchi va qoralovchilarga bo‘linib, har bir obrazga fikr-mulohazalarini bildirdilar. Bu bilan guruhlар dostondagi istalgan bir obrazni ayplash hamda oqlash mumkinligini bilib oldilar.

“Qoralovchi: -Hasanxon o‘z o‘g‘lini begona yurtga ketishiga ko‘ngilchanglik qilib ruxsat berib yuboradi. Qoraxonning aybini bo‘yniga qoymay o‘ldiradi.

Oqllovchi: - Hasanxon Go‘ro‘g‘lining tarbiyasini olgan mard, polvon yigit. O‘g‘liga juda mehribon, shunga qaramay, Ravshanni mard, ornomusli bo‘lishini istab, uning ra'yini qaytarmaydi. Qoraxon hukmni chiqarib bolgan edi. Hasanxon chorasisiz edi, lekin “ochlarni to‘ydirib,

yalang‘ochni kiydirib” o‘z yurtiga qaytadi. Bobolarimiz talonchi bo‘lмаган, balki nomusni asrash, orni saqlash uchun kurashganlar.

Qoralovchi: - Qoraxon zolim, o‘ylamay ish qiladi, qaror beradi. Qizining ko‘ngliga qaramaydi, jahli tez. Qattiqqo‘lligi boshiga yetdi.

Oqlovci: -U o‘z oilasining nomusini himoya qilgan, o‘z mammakatining diniy e’tiqodiga sodiq qolgan. Ravshanni qo‘lga tushirgandayoq o‘ldirib yubormay, a’yonlari bilan kengashgan.

Qoralovchi: - Ravshan bir qizni deb o‘z yurtini, ota-onasini tashlab ketgan. Begona yigitning qizlar orasiga kirishi noto‘ri. Nomusga daxl etganlar kim bo‘lsa ham kechirilmagan. Qonun buni himoyalaydi. U yig‘loqi yigit , osongina Qoraxonning qo‘liga tushdi.

Oqlovchi: - Ravshan or-nomus uchun Shirvonga ketdi. Otamning yolg‘iziman, deb o‘tirmadi. O‘zini sinab ko‘rdi. “Dala ko‘rmagan, sovuq shamol yemagan bola” bo‘lsa ham, bir so‘zli botir yigit. O‘limga buyurishsa ham boshqa dinga kirmadi. Ravshanni Zulkumor uzukni ko‘rgach, o‘zi chaqirdi. Oqqizning chaquvidan uni uyqusining ichida qo‘lini bog‘lab olib ketishdi. Tajribasizligi, oq ko‘ngilligi tufayli qo‘lga tushadi. Otasining oldida dor ostidagi holati uchun hijolat chekadi va yig‘lab yuboradi. Uning bu yurishi o‘zini tanish borasidagi birinchi qadami edi” ...kabi.

Dars so‘nggida g‘olib guruh aniqlandi. Darsning eng zukko g‘oliblari: “Ravshan”, “Zulkumor”, “Hasanxon” nominatsiyalariga sazovor bo‘lib, og‘il bolalarga do‘ppi kiydirilib, beliga belbog‘ boylandi. Qizlarga toj kiydirildi.

Uyga vazifa: Yuqoridagi topshiriqlarni adabiyot daftaringizga mustahkamlab, dostonda aks ettirilgan voqealarga oddiy hayotiy hodisalar bayoni tarzida emas, balki qarama-qarshi e’tiqodlar kurashi ko‘rsatilgan manzaralar tarzida yondashib, ularga munosabat bildirинг.

AHMAD YASSAVIY

5-sinfda Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida hikmatlarining hozirgi kunda ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaganligi, undagi ko‘tarilgan masalalar shu kunda ham dolzarbligini ko‘rsatish nazarda tutiladi. Bu darsni «O‘tmishga sayohat» deb nomlab, o‘yin tarzida tashkillash mumkin. Bunda parvozning bort kuzatuvchisi o‘qituvchi bo‘lib, o‘quvchilarni turli bilim orollaridan olib o‘tishi kerak. Maqsad o‘quvchilarni faolligini oshirish, og‘zaki nutqini o‘stirish, har tomonlama kamol toptirish, go‘zal ahloq-odob egasi bo‘lishga undash va adabiy, ma’naviy merosga bo‘lgan hurmatlarini oshirishdir.

Darsning shiori qilib quyidagilarni tanlash mumkin:

1. «Nafs ila dunyoga dil bergen fosiqlar siz bu kun
Yassaviy xok poyidin aylab oling tummorlar» (Abdulla Oripov).
2. «Hamisha yaxshilig‘ qilg‘il, ketarsan ushbu dunyodin,
Qiyomat obi ro‘yiga kerak xuni jigar qilsang.
Xoja Ahmad ma’siyat birla hayoting qilmag‘il zoye,
Bo‘lurseen loyiqi hazrat, agar toat sahar qilsang» (Yassaviy).
3. «Qarchig‘ayni qushlagan, shunqor lochin ushlagan,
Sonsiz murid boshlagan, shayxim Ahmad Yassaviy»
(Sulaymon Boqirg‘oniy).

O‘qituvchi shiirlarni sharhlaydi: Xalq shoiri Abdulla Oripov fosiqlarga, ya’ni bu dunyonи mol-dunyo yig‘ishdan iborat deb bilgan, nafsi buzuq kimsalarga Yassaviy hikmatlaridan o‘qib o‘zlariga xulosa chiqarsinlar, - deydi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida dunyoning o‘tkinchiligini ta’kidlaydi. Zotan, dunyo odamlar bir qo‘nib, yana ketadigan joy, umr yugurik bir narsa, yelday o‘tadi ketadi. Bas, shunday ekan, taqdирning ayovsizligi oldida mol-dunyoga inommoq nodonlik va g‘ofillikdir. O‘limni anglashdan esa hayotni ma’rifat bilan qadrlash, odam farzandini g‘animat bilish, manmanlik va jaholat «tulpor»lariga minib hovliqmaslik degan ma’no anglashiladi. Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z baytida Ahmad Yassaviyning muridlari, ya’ni shogirdlari ko‘pligini ta’kidlaydi. Haqiqatda, Ahmad Yassaviy Zangi ota, Ismoil ota, Cho‘pon ota, Xalil ota, Xoja Bahouddin, Sulaymon Boqirg‘oniy va boshqalarni tarbiyalagan.

1993-yil – “Yassaviy yili” deb e’lon qilingan edi. Bugungi kunda Yassaviy maqbarasi aziz qadamjolardan biri bo‘lib qolgan.

Xalq u yerga borib, ulug' bobomiz qabrini ziyorat qilib, ruhlaridan madad so'raydi.

So'ngra o'qituvchi darsga taalluqli izohtalab quyidagi so'zlarni ilova qilishi mumkin:

Tolib – talab qiluvchi, izlovchi.

Murshidi komil – yetuk pir.

Mahshar – qiyomat, to'planadigan joy.

So'fi – tasavvuf yo'liga kirgan kishi.

Ashk – ko'z yoshi.

So'finaqsh – tashqi ko'rinishi so'figa

Afg'on – fig'on bilan nola qilish.

o'xshash.

Magnitafondan quyidagi hikmat qiroat bilan o'qiladi. O'qituvchi hikmatni sharhlab beradi:

Ey ko'ngul, qilding gunoh, hargiz pushaymon bo'lmading,

So'fimen deb lof urib, tolibi jonon bo'lmading.

Hayfkim o'tti umring bir lahma giryon bo'lmading,

So'finaqsh bo'lding, vale hargiz musulmon bo'lmading.

O'zgalarning yolg'onchiligidan so'z ochish oson, biroq o'zingdagi qalloblik, riyo pardalarini yirtish esa mataton hisoblanadi.

IX asrda tasavvufda malomatiyya mazhabи yuzaga kelgan. Bu mazhabga kirgan kishilar o'z-o'zini komillashtirishni, yurakni poklashni bosh vazifa hisoblashgan. Bu ishni ular yashirin bajarishlari shart bo'lган. Malomatiyya — bu insonni o'z-o'zini tahlildan o'tkazish, nuqsonlari uchun o'zini ayamasligi, ya'ni malomat tilida fosh qilish yo'li bo'lган. O'tmishta sayohat qilar ekanmiz, bobomiz Alisher Navoiy hazratlari ham Ahmad Yassaviy haqida shunday deganlar: «Xoja Ahmad Yassaviy–Turkiston mulkining shayxul-mashoyixidir. Maqomati oliv va mashhur, karomati matavoliy (hayratlanarli) va nomahsur (chegarasiz) ermish».

Birinchi orol: Bilimdonlar oroli. Bu orolda sayohatchilarga zakovat savollari berilib, ularning bilimlari sinaladi.

1. Ahmad Yassaviy qayerda tug'ilgan? (Sayramda)
2. U dastlab kimdan tahlil oladi? (Yassanning yirik shayxi Arslonbobdan)
3. Uning keyingi ustozi kim? (Buxorolik Yusuf Hamadoniy)
4. Yassaviy qanday shoir bo'lган? (So'fiy shoir bo'lган).
5. So'fiyona she'rlar nimani targ'ib qiladi? (Olloohni, borliqni, insonni)
6. Uning she'rlari qanday nom bilan bizgacha yetib kelgan? (Hikmatlar, yaxlit holda «Devoni hikmat» nomi bilan)
7. Tasavvuf nima deb yuritiladi? (So'fiylik, deb)
8. So'fiylik ruhida yozilgan adabiyot, she'rlar qanday nomlanadi? (Tasavvufiy adabiyot, tasavvuf she'riyati)
9. So'fiylik qanday yuzaga keldi? (Hukmdorlarning kishilarga nisbatan ortiqcha zulmingin kuchayishidan yuzaga keldi)
10. Uning qanday bosqichlarini bilasiz? (Shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat)

11. So·fiylikning asosiy maqsadi nima?
(Diniy poklik orqali butun jamiyatni poklash g‘oyasi)
12. «Devoni hikmat» da qanday g‘oyalar ilgari surilgan?
(Zolimlar va haqsizlar, adolat va haqiqat, donolik, nodonlik)
13. Ollohnning jamoliga haqiqatda kimlar yetishadi?
(Faqt ruhi pok, iyomonli insonlar yetishadi)
14. Ahmad Yassaviy qanday kishilarni yoqtirmaydi?
(Nodon, kaltabin kishilarni xush ko‘rmaydi)
15. Nodonlikning muhim belgilarni aytинг
(Mol-dunyoga, mansabga, hirs-havoga mehr qo‘yish)
16. Uning hikmatlari kim orqali insonlarga murojaat qiladi?
(She’rxon orqali barchaga)
17. «Devoni hikmat» ning diqqatga sazovorligi nimada?
(Uning xalq tiliga yaqinligida, soddaligi va yoqimligida)
18. Yassaviy hikmatlari qanday shaklda yozilgan? (To‘ttlik)

Ikkinchи orol: Zukkolar oroli deb nomlanadi. Bunda sayohatchilar nomlar bilan bog‘liq bo‘lgan savollarga javob topishadi.

1. Otasining nomi? - Shayx Ibrohim Yassi
2. Onasining ismi? - Qorasoch momo
3. Akasi - Latif ota.
4. Ukasi - Mustafafoquli ota.
5. Buxorolik ustozи – Yusuf Hamadoniy
6. Yassalik yirik shayx – Arslonbob ota.
7. Yassaviyga maqbara qurdirgan sarkarda – Amir Temur
8. Yassaviyning ikkinchi nomi – Hoja Ahmad
9. Yassining hozirgi nomi – Turkiston.

Uchinchi orol: Ijodkorlar oroli bo‘lib, boshlangan hikmatni davom ettirishlari kerak. Buning uchun o‘quvchilar hikmatlarni yod olgan bo‘lishlari yoki esga olishlari zarur bo‘ladi.

1. Egri yo‘lga – bo‘yin to‘lg‘or
2. Bemor bo‘lsa – nodonlarni holin so‘rmayman.
3. Haq taolo rofiq bo‘lsa – birdam turmay
4. Nafsing seni oixir damda – gado qilg‘ay.
5. Oqil ersang, nafsi boddin – bo‘lg‘il bezor.
6. Dunyodorlar molni ko‘rub – havo qilur.
7. Manmanlikni ul da‘voysi – xudo qilur
8. Nodon bilan ulfat bo‘lsang – bag‘ring kuyur kabi...

To‘rtinchи orol: Sharhlovchilar oroli. Bu orolda o‘quvchilar hikmatlarning mazmunini so‘zlab beradilar. Tasavvuf bosqichlaridan ma‘rifat bosqichi haqida fikr yuritadilar:

1. Inson ma‘rifat orqali ruhiy poklikka erishadi.
2. Har bir odam dunyoga kelar ekan, u albatta, ilm orqali aqliy faoliyatini o‘stirishi kerak.
3. Kishi savodxon bo‘lgandagina oqni – qoradan, yaxshini – yomondan ajrata oladi.

4. Ma'rifatli odam gunoh ishlarga qo'l urmaydi.
5. Vijdonli kishi nafsiga erk bermaydi, boylikka qiziqib u dunyoni unutmaydi.
6. Ahmad Yassaviy ham o'z zamondoshlarini ilmli, farosatli, kamtar, diyonatli bo'lishlarini istagan.

Beshinchi orol: *Donishmandlar oroli*. Magnitafondan quyidagi hadisni tinglab, sayohatchilarga ilm haqidagi bilgan maqollarini eslash va ularning mohiyatini ochish topshiriladi:

«Ilm egallang! Ilm sahroda – do'st, hayot yo'llarida – tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda - rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zeb-u ziynat, dashmanlarga qarshi quroldir».

Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmas. Olim bo'lsang, olam seniki. Bilim – davlatdan qimmat. Ilm – aql chirog'i. Bilimli kishi o'zar, Bilimsiz kishi to'zar ... kabi.

Dars yakunida xulosa qilish mumkinki, mustaqillik tufayli biz Ahmad Yassaviy, Naqshbandiy, Imom Ismoil Al-Buxoriy, Att-termiziy, Amiriy kabi ulkan siymolar ijodini, ma'naviy merosini o'z mohiyatiga ko'ra o'qish va o'rganish baxtiga tuyassar bo'ldik. «O'tmishtga sayohat» qilib, bilim orollaridan shuni bildikki, Ahmad Yassaviy yetuk olim darajasiga yetgach, u O'tror yaqinidagi Yassi shahriga kelib, haqiqatni, islomni, insofu diyonatni keng targ'ib qilgan. Xoja Ahmadga ajoyib nodir iste'dod, ilohiy bir quvvat nasib etilgan ediki, bunday odamni hamma o'ziga ustoz hamda pir qilib olar, uning suhbatи va karomatidan bahramand bo'lishga shoshilar edi. Shuning uchun ham shoir ijodining qadr-qimmati hanuzgacha o'z kuchini yo'qtogani yo'q. Bugungi kunning talabi bilan bir xildek, ya'ni ilm olish, o'rganish, atrofdagilarga foydasi tegadigan inson bo'lish haqida qayg'uradi. O'zbek adabiyotida Vatan haqidagi falsafiy fikrlar Ahmad Yassaviy hikmatlaridan boshlanadi:

Boshim tufroq, o'zin tufroq, jismim tufroq,

Haq vasliga yetarman deb ruhim mushtoq. Yoki:

Tufroq bo'lg'il, olam seni bosib o'tsin – deydi.

Tuproq – Vatan. Tuproq necha yuz ming yillardan buyon ne-ne ulug' farzandlarini quchog'iga bosib kelayotgan mushfiq Zamin. Shuning uchun biz uni e'zozlaymiz. Tuproq – rizq ro'zimiz manbai. Shuning uchun biz uni ona-tuproq deymiz.

Uyga vazifa qilib hikmatlarni nasrga aylantirish, keltirilgan maqollardan birini sarlavha sifatida tanlab kichik matn yaratish beriladi. She'rlarni ifodalni o'qish uchun magnit tasmasiga yozib o'qish va uni tekshirish tavsiya qilinadi.

ALISHER NAVOIY IJODI – TARBIYA MAKTABI

Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganishda testlar, labirintlar, kichik matnlar tuzib ishlash juda maqsadga muvofiq. Bolalar dars davomida 1-2 tadan mavzuga oid testlar tuzib, bir-birlari bilan almashlab ishslashlari bevosita ularni test bilan ishslashga o'rnatadi.

Labirintlar bolalarni aql bilan ish tutishga o'rgatsa, kichik matnlar yaratish esa ularni fikrashga, ijod qilishga undaydi. Beshinchi sinfdan ahloq-odobga oid, hikmatomuz ruboiylarni o'qib o'rganish ko'zdautilgan. Ularni o'rganishda tahlil qilish, misralarning nasr bayonini tuzish, mazmunini sharhlash kabi topshiriqlar bajariladi. Bu topshiriqlarni amalgaga oshirishda o'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, zigzag usulida, ya'ni birin-ketin topshiriqlarni tezkorlik bilan ishslashga o'rnatish juda qiziqarli kechadi. Bunda vaqt belgilab boriladi. Topshiriqlar turli stollarga qo'yilib, guruhlarni o'rin almashib ishslashadi.

Birinchi topshiriq. Test savollari bilan ishlang.

1. Alisher Navoiy dastlab o'z g'azallarini qaysi tilda yaratgan?
A) arab B) fors-tojik C) o'zbek tilida
2. Alisherning yozgan g'azalidan ta'sirlanib: «Agar muyassar bo'lsa edi, men o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy tillarda yozgan baytimni shu g'azalga almashar edim va bu ishning yuzaga chiqishini zo'r muvaffaqiyat hisoblardim», deb kim aytadi?
A) Lutfiy B) Jomiy C) Ganjaviy
3. Husayn Boyqaro nega Mashhaddan Marvgaga jo'naydi?
A) kasalligi tufayli
B) toj-taxt uchun qo'shin toplash maqsadida
C) ota-onasining bag'rida bo'lish uchun
4. Qatordan Alisherni har jihatdan yoqtirmagan va Hirotdan surgun qilgan podshohni belgilang.
A) Husayn Boyqaro B) Abulqosim Bobir C) Abusaid Mirzo
5. 1483 - 1485-yillarda Alisher qanday baxtga erishdi?
A) «Xazoyin ul-maoniylar» devonlarini tuzadi.
B) «Xamsa» asarini yaratadi.
C) vazirlilik lavozimiga erishadi.
6. Alisher Navoiyning ruboiylari boshqa shoirlarning ruboiylaridan qaysi jihat bilan farqlanadi?
A) ishqiyligi, falsafiyligi bilan
B) rang-barangligi, mazmunining chuqurligi bilan
C) tarbiyaviyligi bilan.

- Alisher Navoiy haqiqiy insonning bezagi nimada deb biladi?
 - uning toj-taxti, mansabida
 - shohlar sallasiga sanchib qo'yiladigan hukmdorlik tamg'asida
 - uning odobi va hayosida
- Alisherni Samarqanddan Hirotga kim chaqiradi?
 - Do'sti Husayn Boyqaro
 - Tog'asi Mir Said Kobuliy
 - Ustozi Abdurahmon Jomiy

Ikkinchি topshiriq: Alisher Navoiy hayoti bilan bog'liq bo'ilgan shaharlar beshta nuqtada yillari bilan aks etgan. Siz shaharlarning nomini belgilang. Ular quyidagilar:

- (nuqta 1456-yil) – Mashhadga boradi.
- (nuqta 1469-yil) – Samarqanddan Hirotga qaytadi.
- (nuqta 1441-yil) – Hiroting Bog'i Davlatxona joyida tug'ilgan.
- (nuqta 1460-yil) – Hirotdan Samarqandga ketadi.
- (nuqta 1459- yil) – Mashhaddan Hirotga qaytadi.

Uchinchi topshiriq. Ismlarni to'ldiring va ularning kimligini aniqlang:

- G'iyosiddin (Muhammad, otasi)
- Shayx Abu Said (Chang, bobosi)
- Mir Said (Kobuliy, tog'asi)
- Sharafiddin (Ali Yazdiy, tarixchi)
- Abulqosim (Bobir, podshoh)
- Husayn (Boyqaro, do'sti).

To'rtinchি topshiriq. Ushbu berilgan so'zlardan foydalanib guruhingiz bilan kichik matn yarating. («Xamsa», Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, turkiy til, baxt, betakror, nafis, she'riy misralar...)

O'quvchilar topshiriqlarni bajarib bo'lgach, ruboiylar tahlili Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonidagi hikoyat bilan boshlanadi.

O'qituvchi: Bolalar, siz Makka haqida ko'p eshitgansiz, Hajga borgan kishi o'z gunohlaridan forig' bo'lishga, poklanishga umid qiladi. Hikoya qilinishicha, Ismoil degan shaxs ham Makka safariga otlanadi, u yo'lida Shayx Mo'min bilan uchrashib qoladi. Shayx Mo'min bu yo'lovchining haj orzusida ekanligini bilgach, undan:

- Onang bormi? – deb so'raydi. Tasdiq javobini olgach:
- Yo'ldan qaytib onang xizmatini qil, -deydi. Bu maslahat hoji bo'lishni istagan kishiga yoqmaydi. Shunda Shayx Mo'min:
- Men ellik marta haj qilibman, bosh yalang, oyoq yalang va biror

hamrohsiz. Barchasini senga berdim. Sen onang ko'ngli shodligin menqa ber, - deydi.

– Xo'sh, bobomiz Alisher Navoiy bu hikoyati orqali qanday fikrni ilgari surgan? – savoli orqali o'quvchilarga murojaat qilib, ularning fikrini bilishimiz va ruboiylaridagi ma'nolarni sharhlash yo'li bilan uqtirishimiz mumkin.

«Munshaot» asarida esa: «... Payg'ambar buyuribdurkim, tangri taolo g'azabi ham ota g'azabiga vobastadur. Kishi ota rizosin olsa, tangri taolo rizosin olgan bo'lur. Mashoyix so'zidurkim... otang parvardigoringdur», - degan fikr bayon qilingan.

Mana ko'rdingizmi, balki xalq orasidagi «ota rozi – xudo rozi» degan naql o'sha davrlardan qolgandir.

Topshiriq: Har bir guruh bittadan ruboyni nasrga aylantiradi.

«Farzand ato qullig'in chu odat qilg'ay» ruboysiining nasrdagi ko'rinishi bunday bo'lishi mumkin: O'z otasining hurmatini bajo keltirgan farzand dunyodagi eng baxthi farzand bo'la oladi. Mana shu hurmati tufayli uning kasb-kori rivoj topadi. Har kim otasiga qanday munosabatda bo'lsa, kelajakda xuddi shunday munosabat uning o'z farzandidan qaytadi. Darvoqe, bugungi o'g'il – ertaga ota, bugungi qiz - ertaga ona bo'lishi tabiiy, bu hayot qonunidir.

Ruboiylar sharhlangach, o'quvchilarga ota-onani hurmatlash borasida xalqimiz tomonidan yaratilgan maqollarni eslash vazifasi topshiriladi:

Ota-onan bo'lar farzandga quyosh.

Ota-onang duosi,

O'tga - suvg'a botirmas.

Otangni kaftingga tutsang,

Onangni boshingga tut.

Ota-onasini og'ritgan el ichida xor bo'lar,

Onasini og'ritgan parcha nonga zor bo'lar.

Ona mehribon, ota g'amg'uzor.

Ma,lumki, og'zaki nutq ifodalisi o'qish bilan chambarchas bog'liq. Ruboilyarni ifodalisi o'qish uchun magnitafon tasmasidan namunalar eshittiriladi. Ruboylarning vazni aniqlanadi va o'quvchilarga ko'chma yozuv taxtasiga yozib quyilgan she'r bahri bir necha bor takrorlatiladi. O'qituvchi kodoskop orqali ekranga tushirilgan ruboioining barcha misralarini ushbu o'lchov asosida yoddan ifodalisi o'qiydi:

Ze=var ki/ shi=ga ne to/ju ne af=sar/ bil
- - V V - V - V - - - -
Ul ze==var/ a=dab bir=la/ ha=yo dar=xar/ bil.
Har kim=ki/ a=dab=siz=dur/ i=shin ab=tar/ bil,
Al=qis=sa/e=ran=lar=ga/ a=dab ze=var / bil.
- - V V - - V V - - - -
Far=zand a / to qul=li=g'un/ chu o=dat qil/ g'ay
Ul o=dat / i= la kas=bi/ sa=o=dat qil/ g'ay.
Har kim=ki / a=to=g'a ko'p / ri=o=yat qil / g'ay.
O'g'=li=din / an=ga bu ish/ si=ro=yat qil/ g'ay.

Ruboiylarning qofiyasi (afsar, darxar, abtar, zevar, odat, saodat, riroyat, siroyat) ni va misralar oxirida takror kelgan so'zlar (bil, qilg'ay)ni topib adabiyot daftarlariiga ko'chirib yozadilar. Uyga vazifa qilib ushbu ruboiylarni belgilangan vazn asosida yod olish va mazmunini so'zlab berish topshiriladi.

Xulosa shuki, matn ustida ishslash, tahlil qilish, ifodali o'qish jarayonlarida o'quvchilarga estetik tarbiya berish va ularning og'zaki nutqini o'stirish ko'zda tutiladi.

EPIK ASARLARNI O'RGANISH

ALISHER NAVOIY. “MEHR VA SUHAYL” HIKOYATI

Dars nomi: Aql ila olam yuzin obod qil
Xulq ila olam elini shod qil (A. Navoiy)

Maqsad: O'quvchilarni:

- “Mehr va Suhayl” hikoyasining mazmuni bilan tanishtirishi.
- Hikoyada qo'llangan badiiy san'atlarni topish malakasini rivojlantirish.
- Har bir ishga aql bilan yondashish kerakligini, halollik, mardlik, chin muhabbat, kamtarlik inson xulqini bezaydigan fazilatlar ekanini e'tirof etishga erishish.

Jihozlar: A.Navoiy asarlari, asarlariga ishlangan bukletlar, A-4 qog'izi, markerlar.

Dars jarayoni:

1-bosqich. (8 daqiqa)

O'qituvchi o'quvchilarni 5 ta guruhga bo'lib, har bir guruhga “Sab'ai sayyor” dostonidan olingan “Mehr va Suhayl” matni yuzasidan “Aniq savollarga aniq javoblar” topshirig'ini beradi. To'g'ri javob uchun rag'bat kartochkasi beriladi.

1. Hikoyadagi voqealar qayerda bo'lib o'tadi?
2. Mehrning otasi kim?
3. Ular qaysi shaharda yashaydi?
4. Mehr,Suhayl, Numon Jobirning qo'liga tushib qolishiga asosiy sabab nima?
5. Numon qaysi yurtning podshohi edi?
6. Daryoning nomini aytинг?
7. Mehr va Suhayl nomlarining ma'nosini sharhlang.
8. “Ikkalamiz qo'shin to'plab, Jobirga hujum qilaylik”, deb kim xat yozadi?
9. Suhayl Behisht saroga dom-daraksiz ketganiga qancha muddat bo'ldi?
10. Kim quruqlikdan, kim dengizdan Jobirga urush ochadigan bo'ldi?
11. Navdarshoh Jobirning qo'liga qanday tushib qoldi?
12. Mehr va boshqalarni Jobirning asirligidan kim ozod qildi?
13. Suhayl Jobir bilan to'qnashganda qaysi gapni aytди?
14. Otalari hikoya so'ngida qanday yo'l tutdilar?
15. Jobir qanday nom oлган edi?

2-bosqich. (3 daqiqa)

O'qituvchi har bir guruhga A-4 qog'oziga yozilgan quyidagi topshiriqlarni beradi.

1-guruhga: Guruhingiz bilan hamkorlikda jadvalni to‘ldiring.

“Mehr va Suhayl” asarining qahramonlari	Ularning harakteri, o‘ziga xos sifatlari	Orzu-o‘ylari, maqsadlari	Maqsadlariga to‘sinqilik qilgan vosita va insonlar	Maqsadlariga yetishida yordam bergen insonlar
Mehr				
Suhayl				
Navdarshoh				
Numon				
Jobir				

2-guruh. Nuqtalar o‘rniga lug‘atdan o‘rin olgan quyidagi so‘zlarning ma’nosini izohlang. So‘zlar bilan bog‘liq vogelarni yodga oling: Rohzan-----, jazira-----, diydabon-----, roviy-----, xasm-----, ifrot-----, fasona-----, sayyod-----, sayd-----, choh-----, rasan-----, zavraq---, parxosh-----, Mehr-----, Suhayl-----

3-guruh. Hikoya matnidan badiiy san’at vositalaridan: tashbih, tanosub, irsolı masallarga misollar toping. Poetik vositalarning qoidasini aytинг.

4-guruh. “Nekim qildi johilki, erdi yomon
Tutub aksini, topdim andin omon”

A.Navoiyning ushbu hikmatiga mos hikmatni matndan toping va Asar g‘oyasiga bog‘lab, ma’ruza tayyorlang.

5-guruh. Ven diagrammasidan foydalanib, doira ichiga Suhayl va Jobirning xulqidagi o‘xshash hamda farqli tomonlarini aks ettiring.

Taqdimot: (15 daqiqa)

Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi guruh ishini taqdimot qiladi.

3-bosqich. (10 daqiqa)

Topshiriq:

* Guruh nomidan bir ishtirokchi tanlanib, guruhlararo “Bahr-u bayt” musobaqasida qatnashadi. Yod olingen baytlar hikoyaning she’riy matnidan bo‘lishi shart.

- Guruh nomidan bitta o‘quvchi “Hikmatlar guldstasi” musobaqasida qatnashadi.

Guruh a’zolari daftarlariiga o‘zları bilgan Navoiy hikmatlaridan namunalar yozishadi.

Muhokama: (5 daqiqa)

- a. Topshiriqlar sizga yoqdimi?
- b. Sizningcha, yaxshi xulq qanday bo‘ladit?
- c. Mumtoz adabiyotni sevasizmi? Nega?
- d. Shoir g‘azallaridan yod olganmisiz?
- e. Navoiy asarlarini ma’naviyat xazinasi desak bo‘ladimi? Nega?

Izoh: Guruh o‘z ishlarini taqdimot qilayotgan vaqtida guruhlar diqqatli bo‘lishlari, qoniqmagan javoblarga tuzatishlar kiritishi mumkin. 3-bosqich topshiriqlarida o‘quvchi o‘z xohishi bilan musobaqada qatnashadi.


Kengaytirish: “Har kishikim , birovga qozg‘ay choh, Tushgay ul choh aro o‘zi nogoh” maqoli nima munosabat bilan keltirilgan? Shu haqida kichik matn yaratting.

Baholash: O‘qituvchi o‘quvchilarni to‘g‘ri javoblari uchun olgan rag‘bat kartochkasi, guruhdagi faoliyati, muhokamadagi fikrlarini nazarda tutgan holda baholaydi.

Darsga ilova. Ven diagrammasi.

Suhayl o‘xhashh tomoni

Jobir kamolot



Eslatma: Diagrammani quyidagicha to‘ldirish mumkin.
Suhayl: qaddi-qomatli, fazl-u hunarda tengi yo‘q, hunar va san‘atga berilgan, jur‘atli, mard...
Jobir: rohzan, ayyor, qaroqchi, zolim, sherday baquvvat, chapdast, chaqqon, azamat, bezori.. v.h.k.

FITRATNING «YURT QAYG'USI» ASARI 1-QISMI ASOSIDA MUAMMOLI DARS ISHLANMASI

Darsning maqsadi: * O‘quvchilar o‘rtasida muammoli vaziyatni keltirib chiqarish. * Muammoni hal etishda ularning mustaqil fikriga tayanish; g‘oyalar ishlab chiqish. *O‘quvchilar qalbiga istiqlol, Vatan tushunchasini singdirish, ularni ko‘z qorachig‘idek asrash, e‘zozlash, Vatan oldidagi burchlarini ado etishga shay turish kabi fazilatlarni o‘stirishdir.

Darsning jahozi: Mustaqillik aks etgan fotosuratlar, Amir Temur sag‘anasining suratlari, Fitrat, Amir Temur, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlarning rasmlari, «Yurt qayg‘usi» mavzusiga ishlangan buklet. Fitratning «Tanlangan asarlar» kitobi. Tarqatma materiallar.Texnik vos.: magnitafon, video

Darsning shiori: «Vatan - u meninjon-u tanim, sajdagohimdir, u meninj to‘lin oyim, tinch omonligim, izzatim, sharafim, ka‘bam, qiblam hamda gulistonimdir. Dunyoning butun balolari boshimga to‘kilsa, zulm cho‘lining temir tikonlari ko‘zlarimga kirsa yana, yana seni qutqaraman. Men sening uchun tirildim Sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman». (Fitrat)

Guruhlarning shiori:

O‘, Ona Turkiston, kuylayman yonib,
Dunyo jur‘atini berding qo‘limga
Men endi angladim Turkiy dunyonи,
Mana, men tayorman endi o‘limga. (Rauf Parfi)

Necha qadim ajdodlar
Hoki erur bu Vatan.
Yurtini saqlolmas - ota
Qabrimi saqlolmas... (Xurshid Davron)

Tarixing bitmakka, xalqim, mingta Firdavsiy kerak.
Chunki bir bor chekkan ohing mingta doston o‘zbegim.

(Erkin Vohidov)

Seni Chingiz g‘azabga to‘lib
Yo‘qotmoqchi bo‘ldi dunyodan
Jaloliddin samani bo‘lib
Sakrab o‘tding Amudaryodan.
Sensan o‘shal samanim manim

Darsning uslubi: Muammoli dars.

Dars muammolari:

- | | |
|------------------------------|-------------------------------|
| - Qayg'u nima? | - Nega «Vatan» deb yig'ladi |
| - Yurt qayg'usi... | Furqat? |
| - Vatan qayerdan boshlanadi? | - Mustaqillik ne'mati.. |
| - Fitratning orzusi ... | - Tinchlik so'zining qadri... |

Aziz o'quvchilar! Bugungi so'z Fitratning «Yurt qayg'usi» asari ustida boradi. Siz Fitratning hayoti va ijodini va «Yurt qayg'usi» asarini mustaqil mutoala qilib, darsga tayyorgarlik ko'risingiz kerak edi. Darsga kirishish uchun birinchi topshiriq «Zakovat» o'yini bo'lib, «Savol bizdan – javob sizdan» bo'ladi. Har bir to'g'ri javob uchun rag'bat o'rniда, bahor ayyomi bo'lganligi sabab, bittadan lolaga erishasiz. Guruhlarga bo'linib, o'z guruhingiz bilan hamkorlikda darsga faol qatnashing. Qaysi guruh lolalardan ko'p guldasta to'plasa, g'olibga aylanadi. Berilgan shiorlardan birini tanlab, istagan qahramoningiz sharafi uchun kurashing! Yozuvtaxtadagi «Goyalar yig'indisi» ko'rgazmasida guruhingiz uchun ajratilgan bo'lakka o'z fikrlaringizni yozib borishingiz mumkin. Guruhlarning nomi: Fitratlar, Cho'ponlar, Usmon Nosirlar, Qodiriyalar bo'lib, magnit lentasidan darsning shiori o'qib eshittiriladi. Shiorlar sharhlangach, quyidagi savollar beriladi:

1. Fitratning asl ismi? (Abdurauf Abdurahmon o'g'li)
 2. U nechanchi yilda va qayerda tug'ilgan? (1886-yilda, Buxoroda)
 3. Fitrat qayerda tahsil olgan? (Turkiyada)
 4. «Fitrat» so'zining ma'nosi nima? (Yangilanish, poklanish, qayta tug'ilish)
 5. Fitratning qanday dramatik asarlarini bilasiz? («Abulfayzxon», «Chin sevish», «Hind istilochilari»)
 6. Fitratning qanday she'riy to'plamlari mavjud? («Sayxa», «Hind sayyohi», «Munozara»)
 7. Vatanga muhabbat tuyg'usi, erkin va obod ko'rish istagi bilan yo'g'rilgan asari qaysi? («Yurt qayg'usi»)
 8. Atoqli adib Fitrat qaysi yili qamoqqa olindi? (1937-yil)
- O'qituvchi:** «Yurt qayg'usi» adabiyotshunoslikda «sochma she'r» deb ataladi. U qofiyalarga solinmagan. Fikrlar she'riy shaklda ifodalangan-u, ichki tartib, shiddatli musiqiylik bor. Shuning uchun

ham u she'r. Shunday ekan, asardan oliingan har bir parcha o'ta jarangdor ohang bilan o'qilishi shart. «Turkiyadan dunyoqarashi jiddiy o'sib qaytgan Fitrat Buxoroda jadidchilik harakatining shakllanishi va kengayishida faol qatnashadi. Bu harakatning asosiy maqsadi Turkistonni mustamlaka kishanlaridan ozod etish, buning uchun xalqda ozodlikka tashna ruh paydo qilish, ma'rifat ko'zini ochish, ijtimoiy ongini o'stirish edi».

1. Vatan haqida shunday bitik yaratgan odamning, qalbida yurtiga buncha katta muhabbatি bor o'g'lonning o'zi qanday bo'lgan ekan?

2. She'rdagi: «Bagrim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'ynim bukik» singari alamlı iqrorlar sababi nimada deb o'ylaysiz?

O'qituvchi: Siz tarixdan bilsangiz kerak, yurtimizni 1870-yilda Rossiya davlati to'liq bosib oldi. Fitrat zamonida, 1917-yil fevral inqilobidan keyin Fitrat orzulari ushalgandek bo'ldi. Va «Yurt qayg'usi» deb nomlangan to'rtta she'rini e'lon qildi. Siz bu davrni Gafur Gulomning «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi orqali yaxshi bilasiz.

- «Nomusi bor kishilarning oyoqlari ostinda ko'rib, turklik qoni qaynagay, musulmonlik hamiyati toshgay, tamug' olovlar kabi sachragay. Lekin o'z kuchsizligini anglab, qaytib o'tirgan va qon yig'lagan turkning holini arz etarga keldim, hoqonim!» satrlarini sharhlang..

(Kodoskopdan Samarqanddagи «Go'ri amir» maqbarasi, u yerdagi Amir

Temurning sag'anasi, uni ziyorat qiluvchilar, ularning o'ychan nigohlari bir-bir namoyish etiladi. O'quvchilar ko'z oldiga xuddi shu sag'ana yonida Fitratning tizzalari bukilgan, cho'kka tushib o'tirgan, ko'zlar to'la yosh bilan buyuk Temurga qilayotgan murojaati gavdalani sherkat qilish kerak)

- G'urur nima?

Quyidagi satrlarni sharhlang:

1. «Turkning nomusi, e'tibori, iyemoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostida qoldi. Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i, Turoni yot qo'llarga tushdi»

- Sening omonatingga xiyonat qilganlarni ez, ur, o'ldir! satrlarini sharhlang.

- Yuqorida aytdigim ishlarning hammasiga o‘zim sabab bo‘ldim, barchasini o‘zim qildim, sening Turoningni o‘zim talatdim, sening turkingni o‘zim ezdirdim, sening omonatlaringga xiyonat o‘zim qildim!», satrlarini sharhlang.

- Fitratni xiyonatchi hisoblaysizmi?

- O‘zim deganda kimni nazarda tutyapti?

- Men qo‘limga topshirdig‘ing qilichni tashlab, cholg‘uni olmasa edim, Turonim talanmas edi!... - iqrori to‘g‘risida nima deya olasiz?

- Yurt uchun kurashish o‘rniga cholg‘u bilan ko‘ngil ochish oqibati xayrli bo‘ladimi? Ushbu savol sizga og‘irlik qilsa, uyingizdag‘i kattalar bilan maslahatlashib, keyingi darsda javob berishingiz mumkin. O‘tgan darslarning birida xuddi shunga o‘xhash voqeani kuzatganmisiz?

O‘quvchi: Kuzatganmiz. Aynan shunday bo‘lmasa ham, To‘marisning o‘g‘li dushmanning xiylasi bilan sharob ichib, kurashni boy beradi. Shunday ekan, ostonada turgan dushmanga bee’tibor bo‘lmasdan, juda ma‘suliyatli bo‘lish kerak.

O‘qituvchi: Sharhlash jarayonida fikrlaringiz, g‘oyalaringizni yozuv taxtagagi «Goyalar yig‘indisi» ko‘rgazmasiga yozib boring.

Shu mavzumizga yaqin bo‘lgan yana qaysi mavzulardan parcha keltira olasiz?

FITRATLAR: Kayxisrav Sparangizni ustidan kulib, uni asirlikdan ozod qilishini aytdi. Sparangiz shunda: - Qo‘shinimizning uchdan birini men nobud qildim, Safdoshlarimning qirilib ketishiga men sababchi bo‘ldim. Agar endi bo‘shatib yuborsalar ham o‘z elatimga qaytib ketmayman. Onamning oldiga qaysi yuz bilan boraman, - dedi. Qo‘li yechilgandan so‘ng qo‘ynidan pichoqni chiqarib o‘zining ko‘ksiga urdi va jon taslim qildi.

Usmon Nosirlar: To‘maris elchini gapini tinglab shunday deydi:

- Agar elchi bo‘Imaganingizda, shul gapni aytgan og‘zingizni qum bilan to‘ldirar edim. Boshimizdan zar sochganlaringga ham biz erkinlikni qullikka alishtirmaymiz.

Qodiriyalar: Shiroq Rustakning huzuriga kirganida shunday degan edi: - Agar mening bola-chaqamni unutmasang, o‘z shirin jonimdan voz kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim. Men el-yurt uchun o‘limning shirin sharbatini ichmoqqa qaror qildim, - deya Eron sarkardasining sahro quduqlarini ko‘rsatishini so‘rab, yaliniib –

yolvoishlariga ham qulq solmaydi. —«O‘z elimning dushmanlariga yordam uchun cho‘zadigan qo‘limni kesib tashlaganim ma’qul,- deb mardlarcha o‘limga yuz tutgan .

Cho‘ponlar: Chingiz Aytmatovning «Oltovlon va ettinchi» hikoyasida ham Guram Jo‘xadze: - Biz o‘zimiz bilan tariqcha narsa olganimiz yo‘q. Vatanni olib ketib bo‘lmaydi.. Faqat sog‘inch va armonlarimizni olib ketamiz. Agar vatanni xurjun kabi olib yurish va tashib ketish mumkin bo‘lganida, u sariq chaqaga ham arzimasdi,- deydi. Ular shu qadar jo‘shib, alam bilan kuylashadiki, eshitgan kishi ularni Vatan bilan vidolashayotganini his qiladi.

O‘qituvchi: Keltirilgan parchalar va Fitratning «Yurt qayg‘usi» she‘rida o‘xshashlik bormi? Siz qanday kishilarni kashf etdingiz?

- «Men yolg‘iz yozuqlarimni iqror etarga emas. Turonga berdigim zararlarni to‘lamoq uchun keldim, xoqonim. Mendar nafrat etma! - degan o‘tinchi sizga qanday ta‘sir qildi? – Nega?

- Vatanga yetkazilgan zararni to‘lash mumkinmi?

- Bir kishining joni, qoni vatan uchun, ona zamin uchun kerakmi?

- She‘r qahramoning qat‘iy qarori ifodasiga e’tibor qiling: «Sening dunyoga sig‘magan g‘ayratingga ont ichamanki, Turonning eski sharaf va ulug‘ligini qaytarmasdan burun oyoqdan turmasman».

- «Dunyolarga sig‘magan g‘ayrat» egasi kim?

- «Turonning eski sharaf va ulug‘ligi» deganda qaysi davrni nazarda tuyapti?

- «Turon», «Turkiston», «turk», «Turklik» tushunchalari haqidagi nima deya olasiz?

O‘qituvchi: Ha, vatandoshimiz, buyuk shoir Zokirjon Holmuhammad o‘g‘li Furqat ham ayrliqdan yozg‘irib, bir umr vatan sog‘inchil bilan yashagan. U o‘z yuragini sog‘inchidan qonga to‘lgan deb, qo‘lingizdagи qip-qizil lolalarga o‘xshatadi. Sizga yana bir parchani, Xayriddin Sultonovning «Saodat sohili» hikoyasidan olingen parchani o‘qib eshittirmoqchiman. Parchadan olgan taasurotingizni ko‘rgazmadagi «Goyalar yig‘indisi» ga yozib yopishtirishingiz mumkin.

«- Angladimki, bu o‘lkada alarning yolg‘iz jismlarini bo‘ysundira olar ekanman, ruhlarini itoat ettirmakka hargiz qudratim etmas ekan ... Va yana angladimki, alar o‘z yurtlaridan tiriklayin judo bo‘lmoqdan

ko'ra o'llimni afzal ko'rdilar. Men esa, ne yuz qarolig'kim, o'zga yurtni o'z yurtimdan afzal bildim ...

Qaytgim keladir, mavlono! – dedi Bobur toliqib. – Ammo imkon qayda? Siz bilan ko'rishganimdan buyon g'arib bir xayol tun-u kun tinim bermaydir: ul viloyatlarni endi zor-u zarb bilan ola bilmasman. Rozimen, kindik qonim to'kilnish yurtga shohlik minnatidan xalos bo'lib, qalandar libosida qaytay...».

(Magnit tasmadan Nilufar Usmonovaning «Bolam» qo'shig'i eshittiriladi. Qo'shiq davomida guruqlar o'zlarini uchun ajratilgan ko'rgazmaga o'z munosabatlari, fikr, g'oyalarini yozib yopishtirdilar Ular o'qib sharhlangach, «eng yaxshi fikr» deb tan olingan g'oyalar daftarga ko'chirilishi mumkin. Ular quyidagicha bo'lishi nazarda tutiladi):

1. Fitrat juda qattiq iztirobda, O'z yurtini dushmanlar qo'lida ko'rgan shoир chuqur qayg'uda, shuning uchun ushbu she'r ichidan otilib chiqqan dil izhoridir.
2. Ota-bobolarimiz bizga meros qilib qoldirib ketgan shu ona yurtimizning har bir qarich yeri uchun biz javobgarmiz.
3. Yurtga dushman bostirib kelganda hech kim qo'liga cholg'u olib maishatga berilmaydi. Aksincha, uning himoyasiga otlanadi. Bir qoshiq qoni qolguncha kurashadi.
4. Fitrat Amir Temur sag'anasi oldida ming bor ezilib, to'lg'anib uzr so'ramoqda. Chunki, Amir Temur Chingizxon zulmidan vatanni ozod etib, o'zligimizni tanitgan edi.
5. Yurtimiz turli bosqinchilar tomonidan talandi, g'ururimiz toptaldi. Fitrat kabi vatanparvarlar biroz aldanib qoldi. Lekin buni tushunib yetganlaridan so'ng Vatanni himoya qilishga ont ichishdi.
6. Menimcha, har bir kishi vatanni himoya qilish uchun ont ichish kerak. Va o'z burchini har qanday holatda ham ado etishi shart.
7. Biz o'qigan asarlarimizdan ham ko'rinish turibdiki, yurtning podshosidan tortib to oddiy cho'ponigacha o'z yurtining tinchligini, mustaqilligini, ozodligini istaydi. Shu istak yo'lida shahid ketishga hozir!
8. Bizning yurtimiz uncha-muncha yurt emas, butun dunyoni o'z kashfiyotlari bilan lol qoldirgan, g'ayrati dunyoga sig'may,

- nafaqat turkiylarni, balki Yevropa xalqlarini ham himoya qila olgan abjir, chapani, jasur xalq bo'lgani tarixdan ma'lum-ku!
9. Xalq bo'lib birlasha oladigan, xalq tinchligi, ozodligi deb kurasha oladigan azamat o'lkaning vaqt kelib dushman qo'lida qiynalayotganini ko'rgan Fitrat o'zini kechira olmayapti.
 10. Yurt himoyasi uchun bir kishining qoni, joni hech narsa bo'lmaydi. Lekin uning harakatlari, vatanparvarligi, jonkuyarligi boshqalarni ham chorlashi mumkin. Adolat yo'lida kurashga da'vat qilishi mumkin.
 11. Ona zaminimiz hurligi yo'lida qanchadan-qancha Fitratlar jon berdilar. Qayg'uga botdilar. Armonda yashadilar. Shirin orzular qanotida xayol surdilar. Shunday ekan, biz ularni ana shu o'gitlarini doimo yodda saqlab, yurt qo'shig'ini baralla kuylashimiz kerak bo'ladi.
 12. Yurtga muhabbat, mehr, burch hissi qanchalik kuchli bo'lsa, uni inson shunchalik qadriga etadi, ko'z qorachig'idek asrab avaylaydi.
 13. Har bir insonning qalbi yurt qayg'usi bilan yashasin! Fitrat kabi jonkuyar bo'lsin! Ajdodlarimiz sag'anasi yonida yorug' yuz bilan turaylik! Bizga qolgan ona-yurtimiz meroslarini kelajak avlodlarga ziyon-zahmat yetkazmay uzataylik!

O'qituvchi: Guruhlar lolalardan to'plagan guldastalaringiz hisobiga rag'bat kartochkalarini qo'lga kiritasiz. So'nggi sahifamiz: «Yashasak bu dunyoda Vatan uchun yashaylik, O'zbekiston Vatandir, charman uchun yashaylik!» deb nomlanadi. Unda berilgan maqollarni davom ettiring.

1. Vatan gadosi –
2. Ona yurting omon bo'lsa, ...
3. Eldan ayrilguncha, ...
4. Eli baqquvvatning –
5. Bulbul chamanni sevar, ...
6. Ona yurting –

Uyga vazifa: Fitratning «Yurt qayg'usi» she'rini yod oling. «Mening Vatanim» sarlavhasi ostida matn yaratating. Ijdokor o'quvchilar Vatan haqida she'r yozishlari mumkin.

**OYBEK. «GULNOR OPA», «FANORCHI OTA» hikoyalaring
matni ustida ishlash
(5-sinf)**

Darsning maqsadi: Oybek ijodi bilan tanishtirish. O'quvchilarga hikoyalarning asl maqsadini anglatish. Mustaqil fikrlashga, odobli, zehnli bo'lishga o'rgatish.

Darsning jihizi: Oybek hayoti va ijodiga oid rasmlar, «Bolalik xotiralarim», «Navoiy», «Mening Oybegim», «O'zbek hikoyalari antologiyasi» kitoblari. Texnik vositalar: Magnitafon. Kodoskop. Hikoyalarga chizilgan rasmlar

Darsning shiori: Gap—iloji boricha ko'proq bilim to'plashda emas, - gap shundaki, bu bilim ko'pmi yo ozmi, tanho seniki bo'lishi, u qoning bilan yo'g'rilishi, sening erkin va mustaqil

harakatlarining mevasi bo'lishi zarur. (R. Rollan)

Guruahlarning shiori: Bilim yodlash bilan emas, fikrlash bilan orttirligandagina haqiqiy bilimdir. (L.N. Tolstoy)
Qanday bo'lsalar o'shanday qolishga ahd qilganlargina nodon (Aflatun)

Shirin so'zli shilgay dushman po'stini,

Dag'al so'zli dushman qilar do'stini. (Sa'diy)

Yaxshi so'zla, ammo mahmadona bo'lma, ezmalik kaltabinlikdir.
(Qobus)

Darsning uslubi: Modul usuli: Skarabey
Kichik guruahlarga bo'linib, guruhingiz bilan hamkorlikda ishlang. Quyidagi topshiriqlarni bajaring. Darsda faol qatnashing. O'zingizni baholang.

Darsning rejisi:

1. O'tgan darsni mustahkamlash:
«Zakovat» o'yini. Chiroqli nutq
2. Savodxonlik: a) Lug'at diktant
b) Ko'chirma gaplarning tinish belgilarni qo'yish. Sxemaga solish.
3. Fanlararo integratsiya:
a) Adabiyotshunoslar. (jonlantirish, o'xshatish o'rinnarini topish)
b) Tilshunoslar: Matndan takroriy, juft, qo'shma so'zlarga misol toping.
5. Rassomlar. (rasmlar ko'rigi, tasvirlar)

6. Senaristlar: Monolog, dialog, muallif nutqidan namunalar keltirish.
7. Rejissorlar: Qo‘g‘irchoqlar bilan ishlash.
8. Munaqqidlar: Hikoyaga baho bering.
9. Bahs, munozara: Hikoyadan olgan taassurotlaringizni o‘rtoqlashing.
10. Uyga Vazifa: «Hikoyalardan qanday xulosa chiqardim?» mavzusida taqriz yozing.

Aziz o‘quvchilar! Bugungi darsimiz o‘zbek adabiyotining zabardast yozuvchilaridan biri bo‘lgan Oybekning «Gulnor opa» va «Fanorchi ota» hikoyalari yuzasidan bo‘ladi. O‘tgan darsda adibning hayoti, ijodi bilan tanishib, ushbu hikoyalarni o‘qib chiqqan edik.

Bugungi darsimizda hikoyalarning matni ustida ishlaymiz. Avvalo, guruhlarga bo‘linib, berilgan topshiriqlarni guruhingiz bilan hamkorlikda bajarasiz. To‘g‘ri javob uchun rag‘bat kartochkasini qo‘lga kiritasiz. Dars so‘ngida guruhingiz sardori sizning yiqqan kartochkangiz, faolligingiz va to‘plagan balingiz yuzasidan hisobot beradi. Topshiriqlarni daftaringizga yozib boring. Berilgan shiorlardan birini tanlab, go‘zal, lo‘nda va chiroyli nutqda gapirishga harakat qiling. Shiorlaringizni sharhlang.

Bilimdonlar: Bilimni yodlagan bilan bir kun esdan chiqib qolishi mumkin. Agar bilimga tushunib, fikrlab yondashsak, u bir umr esda qoladi. Hikoyalardan ham to‘g‘ri xulosa chiqarishimiz kerak.

Donolar: Hech kim onasidan bilimdon yoki dono bo‘lib tug‘ilmaydi. «Odobni odobsizdan o‘rgan» deb bejizga aytishmagan. Eng yomon bola ham bir sabab bo‘lib o‘zining yomonligini tashlashi mumkin. Hikoyalardagi Badal ham, to‘polonchi mahalla bolalari ham o‘zgarishdi.

Shirinso‘zlar: Agar shirin so‘zli bo‘lsak, do‘stlarni, atrofdagilarning hurmatini qozonamiz. Qo‘pol odamdan hamma qochadi. Qo‘pollik madaniyatsizlikka kiradi. Gulnor opa ham, Fanorchi ota ham o‘zining shirinso‘zligi, mehribonligi, sabr-qanoati bilan o‘z maqsadlariga erishdi deb o‘ylayman.

Notiqlar: Biz o‘z fikrimizni ezmalik qilmay, to‘gri tushuntira olishimiz kerak. Bitta gapni aylantirib, cho‘zaversak haqiqiy bilim egasi bo‘lolmaymiz. Chiroyli, ma’noli so‘zlashga o‘rganaylik!

Yozuv taxtasidagi ko'rgazma savollariga javob bering.
(Har bir guruh o'zlariga berilgan topshiriqning javoblarini maxsus yelimli qog'ozlarga yozib, yozuv taxtasiga yopishtiradilar va guruhlar bir-birlarining xatolarini tekshiradilar)

Bilimdonlar:

1. Oybekning asl ismi -
2. Otasining kasbi -
3. O'qigan maktabi -

Donolar:

1. Yozuvchi qaysi yili adabiyotni tanladi? -
2. Oybekning she'riy to'plami -
3. Tariixiy romanining nomini aytin? -

Shirinso'zlar:

1. Oybek millatchi sifatida qachon uyushmadan haydaldi? -
2. Adibning birinchi romani -
3. Qanday asarlarini bilasiz? -

Notiqlar:

1. Asarlari necha jilddan iborat? -
2. Onasining ismi? -
3. Yozuvchi qanday sharaflarga erishgan?

«Zakovat» savollariga javob bering:

1. Hikoya nima? (kichik epik janr)
2. O'zbek adabiyotida hikoyalar qadimda qanday atalgan? (hikoyat)
3. Hikoyani kim so'zlaydi? (muallif yoki ishtirokchi)
4. «Mening o'g'rigina bolam»da hikoyachi kim? (bola)
5. To'pning rangi (qora)
6. Bog'cha kimniki? (Shokir akaniki)
7. Gulnorning ko'ylagi (atlas)
8. To'pni bog'chaga kim tushirdi? (Vali)
9. Gulnorning onasi (Xayri xola)
10. Asadning otasi (Turdi sartarosh)
11. Bog'chaga tushmagin, deb kim nasihat qildi? (Fattoh)
12. Bog'cha necha tanob yer? (bir yarim)
13. Badal bog'chaga qanday o'tdi? (onbor orqali)
14. Badal nega Gulnornikiga bordi? (sutga)
15. Gulnor nimchasidan bolaga nima berdi? (qand)
16. Fanor qayerga o'rashgan? (Tursunqul darvozasiga)
17. Dushmanlar kim? (bolalar va fanor)
18. Eng battol bola (Qosim cho'loq)
19. «Rost» deb kim javob berdi? (bolalar)

20. Gugurt, yoquvchi, moy nimaga kerak bo'lmaydi?
(elektr lampochkasi uchun)
21. Yiqilgan odamni kim uyiga eltdi? (chol)
22. Kim fanor sindirgan bolani tutib bermoqchi? (Ahmad)

Savodxonlar uchun topshiriqlar:

TOPSHIRIQ: Lug'at diktant. So'zlarni to'g'ri yozing va hikoyalarga bog'lang. (Magnit lentadan aytildi) (Onbor, Fattoh, bog'cha, obkash, mahalla, yuvosh)

Bilimdonlar: Onbor 5ta harf, n harfi m deb eshitiladi. «Gulnor opa» hikoyasidagi Badal ariqqa o'rnatilgan quvur (onbor) orqali Shokir akaning bog'chasiga tushadi. Bog'cha -- 5ta harf. Talaffuzda g' harfi x kabi eshitiladi.

Donolar: Fattoh – 6 ta harf. Ikkita t, yumshoq h. U Badalga: «Bog'chaga tushsang, Shokir aka oyog'ingni sindiradi», - deb nasihat qilgan.

Shirinso'zlar: Obkash - 5ta harf. Suv tashiydigan kaltakka Fanorchi otanining yelkalari o'xshatiladi.

Notiqlar: Mahalla – 7 ta harf. Ikkita l, yumshoq h.

Fanorchi otani mahalladagi bolalar kutadi. Ota juda yuvosh edi. Yuvosh -- 4ta harf. Kitobda ikkita v, ma'no kuchaytirilgan bo'lishi mumkin.

Topshiriq: Kodoskop orqali hikoya matnidan olingan ko'chirma gaplar beriladi. Siz gapning tinish belgilarni qo'yib, sxemasini yozing.

1. Fattoh qo'lini orqasiga tashlab, Tag'in tushib o'tirma, bilasan-ku Shokir akaning fe'lini, deb nasihat qilganday bo'ldi. (M: - K, - M.)
2. Nimani, Gulnor opa? so'radim. (- K? - M.)
3. Bolalar birdan Rost! deb javob qaytarishdi. (M: - K! - M.)
4. Fanorchi ota Ha, barakalla, endi sindirmaysizlarmi? dedi. (M: - K? - M.)

Tilshunoslar uchun topshiriqlar: Matnlardan takroriy, juft, qo'shma so'zlarga va bog'lovchi, ko'makchi, yuklama kabi yordamchi so'zlarga misollar toping.

Bilimdonlar: 1. Biz birin-sirin, rang-barang, qo'l-oyoq, yigirma-o'ttiz, limmo-lim kabi juft so'zlarni topdik.

2. Vali ustalik bilan bir urgan edi, to'p yuqorilandi-da, qaytib ko'chaga tushmadi. Gapda bilan ko'makchisi, -da yuklamasi ishtirok etgan.

Donolar: 1. «Gulnor opa» matnidan tez-tez, sekin-sekin, bittabitta, quruq-qurug'i, shoxdan-shoxga kabi takroriy so'zlarni topdik.

2. "Fanorchi ota": keyin-keyin, piq-piq, pish-pish, jiq-jiq, yo'q-yo'q kabi

Shirinso'zlar: 1. Matnlardan molxona, bilaguzuk, ko'ksulton, ko'zoynak kabi qo'shma so'zlarni topdik.

2. Tushibdi-ya, -ya, bilasan-ku, -ku, xuddi, faqat, hatto, axir kabi yuklamalarni topdik.

Notiqlar: 1. «Fanorchi ota» hikoyasidan uch-to'rt, tosh-kesaklar, qari-qartanglar, qop-qorong'i juft so'zlarni topdik. 2. Ammo shu tilaklardan bittasi ham yuzaga chiqmadi, gapida «ammo» bog'lovchisi, «ham» yuklamasi bor.

Adabiyotshunoslar uchun topshiriqlar.

Topshiriq: «Fanorchi ota» hikoyasidan jonlantirish, «Gulnor opa» hikoyasidan o'xshatishlarga miosllar keltiring.

Bilimdonlar: «Ayniqsa, mahalla bolalari ila fanor o'rtaida anglashilmas dushmanlik uyg'ondi», gapida fanor jonlantirilgan. Chunki fanor bolalarga dushmanlik qila olmaydi.

Donolar: 1. "Bezalgan do'ppini kiyib olib, fanor chiroyli tus olar va bizni xafa qilgandek bo'lardi». gapida ham jonlantirish bor. Xafa qilish odamga xos.

2. Yoki biz uning yangi ko'zlarini o'yib olardik, gapida bechora fanor jumlasida, yana «U yuqorida, sizlar pstda o'ynay beringlar-da» gapida ham fanor jonlangan.

Shirinso'zlar: 1. Qushlarning shoxdan-shoxga o'tib, o'ng'ay joy qidirishini Badal o'zining goh g'ururlanayotgan, goh alam qilayotgan qalbiga o'xhatadi. Chunki u ham xuddi qushlardek bir qarorga kelmag'an edi.

2. Quyoshning so'ng nurlari daraxtlarning uchlarida porlashini esa, Gulnor opaning umid qilishiga o'xhatilgan. Gulnor opa Badaldan bilib olgan sirini hech kimga aytmasligini umid qilyapti.

Notiqlar: «Asad bir nimadan qattiq hurkib, arqonni uzgan ot kabi o'zini bir yoqqa otdi, devorga sakradi, irg'iydi, yana yiqlidi» gapida yigitning harakatlarini yovvoyi otning harakatlariga o'xshatilyapti. Bu Asadning birdaniga qo'rqib ketishi edi.

Rassomlar hikoyalar matnidan tasvir o'rirlarini topib, qo'g'irchoqlar yordamida, rasmlarga qarab so'zlang.

Bilimdonlar: 1. Gulnor opaning tasviri: Gulnor opaning ustida bir oz to'zishga boshlagan atlas ko'yak, sarpinka ro'moli yelkasida, to'la, oppoq bilagi.

2. Yirik qora ko'zları, chiroqli yuzi, uzun kiprikları, uzun, nozik barmoqları, sochlari qora ekan.

3. Fanorning tasviri: To'rt tarafдан qulagan uy kabi ajava tusda, bir tomonga qiyshayib qolgan.

Donolar: 1. Fanorchi otaning tasviri: past bo'yli, burushiq yuzli, obkashdek bukilgan yelkasi, egilgan kichkina qomati, o'siq qoshlari, qisilib yotgan ko'zları.

2. Ko'cha - tor, qiyshiqli. Narvoncha kichkina, oqshom o'ksiz.

3. Qosim - qo'rqmaydigan, eng battol, cho'loq bola. Bolalar esa yosh, ko'zları o'tkir.

4. Tunov kuni - yomg'irli, ko'cha qorong'u, shamol bo'lgan.

Shirinso'zlar: 1. Fanor – titrak nurli, piston qadalgan yoki har turli ipak bilan bezalgan do'ppini kiyib olib, chiroqli tusga kirar edi. Shuning uchun bolalar unga tosh, kesak otishar edi.

2. Yiqilgan bir kishining tasviri: Qari, hamma yog'i loy, jiq-jiq suv, soqoliyam, yuziyam loy.

Notiqlar: 1. Chol juda yuvosh, indamas, mayin tovushli odam edi.

2. Elektr lampochkasi sim to'r bilan o'ralgan, tuxumdan kattaroq edi.

3. Mahallaning bolalari to'polonchi, sho'x edilar.

O'qituvchi: Cholni yuvosh deyishimizga sabab nima?

O'quvchi: Bolalar fanorning ko'zini o'yib olishsa ham, ota «lom» deb og'iz ochmasdi.

O'qituvchi: Hikoyalardagi obrazlarning o'xshashlik joylari bormi?

O'quvchi: Ota bilan Gulnorning harakatida bor. Ota bolalarni qilmishlari uchun koyimay, ularga yalingansimon qarab, mayin tovushda gapiradi. Gulnor opa ham Badalga yalingansimon qarab, titrak tovush bilan: - Birovga ayta ko'rma, - deydi.

Senariychilar uchun topshiriqlar: Avval yozuv taxtasiga hikoyalardagi qatnashchilarning nomini yozib chiqing. Va «Gulnor opa» hikoyasidan monolog, dialog, mualif gaplariga misollar toping.

Guruuhlar yozuv taxtaga asar ishtirokchilarining nomlarini yozib, yopishtirdilar.

«Gulnor opa»: Vali, Shokir aka, Fattoh, bolalar, Gulnor opa, Turdi sartarosh, Asad, Xayri xola, Badal.

«Fanorchi ota»: Bolalar, Tursunqul aka, fanorchi ota, Qosim, bir kishi, hikoyachi, fanor.

Bilimdonlar: Badalning monologi: «Mening qora to‘pim, shubhasiz, mana shu bog‘chada. Faqat qanday qilib olish mumkin?»

Donolar: Dialog: - Badal, oposi, tag‘in haligini birovga ayta ko‘rma..

- Nimani, Gulnor opa?

Shirinso‘zlar: Muallif gapiga misol.

«Kechqurun sutga chiqqanida Xayri xola sigir sog‘ishga hozirlanib turgan ekan»

Notiqlar: Badalning monologi: «Shokir aka yo‘q ekan, bular bu yerda», «Nega mucha yalinadi, nega Xayri xola o‘ldiradi»

O‘qituvchi: Topshiriq rejissorlarga, matndagi dialog, monologlardan foydalаниб, qo‘g‘irchoqlar yordamida obrazlarni aks ettiring.

Bilimdonlar: Badal: - Ah, qanday yaxshi to‘p edi. Shokir akaning bog‘chasiga tushdi-ya. Essizgina...

Fattoh: - Tag‘in tushib o‘tirma, bilasan-ku Shokir akaning fe’lini, xuddi oyog‘ingni sindiradi.

Donolar: Xayri xola: - Badaljon, xolasi o‘rgilsin. Gulnor bilan kirib maydondan o‘tin olib chiqqin, keyin bir kosa limmo-lim qilib sut beraman. Gulnor: - Shundoq qo‘rqib ketdimki, qo‘l-oyog‘im bo‘sashib yiqilayozdim, yaxshiki uydagilar eshitmagan. Xayri xolang meni xuddi o‘ldiradi-ya...

Shirinso‘zlar: Fanorchi ota: - Sizlar hali yosh, ko‘zlarizingiz o‘tkir. Qorong‘i ham, yorug‘ ham baravar. Xufton bo‘lmasdan onalarining quchog‘ida pish-pish uxbab qolasiz. Bizga o‘xshash qari-qartanglar uchun chirog‘ judayam kerak.

Notiqlar: Qosim: - Bolalar! Fanorchi ota keladigan vaqt yaqin. Sindiramiz. Nima qilar ekan?

Fanorchi ota: - Tentak bolalarim, bu qanday gap? Fanorga tegmasanglar, bir narsa bo‘ladimi? U yuqorida, sizlar pastda o‘ynay beringlar-da.

O'qituvchi: Rahmat. Endigi topshiriq munaqqidlarga. Siz hikoyalar haqida qanday fikrdasiz? Hikoyalardan qanday xulosa chiqardingiz? O'z munosabatingizni bildirsangiz.

1. Yozuvechi «Gulnor opa» hikoyasi orqali Badalning obrazini yaratishga ko'proq e'tibor bergan. Badal boshqa bolalar kabi to'polonchi, qitmir bola edi.

2. U ikkita sevishganlarni ko'rib hayron bo'ldi. Bu sirmi u hammaga aytishi mumkin edi. Lekin Gulnor opa juda shirinso'z, mehribon, muloyim qiz ekan.

3. Shuning uchun ham Badal o'z fikridan qaytdi. Men ham bu sirmi fosh qilnagan bo'lardim.

4. Hikoya menga juda yoqdi. Ayniqsa Badal obrazi. Ko'p bolalar bunday sirmi saqlay olmasliklari mumkin. Badal qizning yig'laganini ko'rib, unga achinadi. U ham mehribon, irodasi mustahkam bola.

5. Fanorchi ota juda yuvosh, indamas odam. O'zi qari, shuning uchun ham boshqa qariyalarni o'ylab, fanorning hadeb sinaverishidan, o'chib qolishidan qayg'uradi.

6. To'polonchi mahalla bolalari ham fanorchi otaning hikoyasini eshitib, fanorning qanchalik zarur ekanligini tushunib yetishdi.

7. Menimcha, kattalar bolalarning bilib-bilmay qilib qo'ygan nojo'ya harakatlari uchun qattiq koyimasliklari kerak. Fanorchi otaga o'xshab vaziyatni to'g'ri tushuntirishsa, bolalar ham tushunishadi.

8. Ha, hatto, Qosimdek battol bola ham ko'pchilikka bo'ysundi. Ahillik bor joyda, do'stlik, tartib bo'ladi. Shu hikoyadan so'ng mahallamizni yoritib turgan chiroqlariga mehr bilan qaraydigan bo'ldim.

9. To'g'ri. Bunday bezoriliklar kimga kerak? U davrdagi bolalar uchun bir sport maydonchalari ham bo'limgan. Bo'sh vaqtlarini qiyshiq, tor ko'chalarda o'tkazgan.

10. Bizning imkoniyatlarimiz katta. Darsdan so'ng to'garaklarimiz, mashg'ulotlarimizga qatnashamiz. Ko'chalarimiz keng, yorug'.

11. Mana, mahallamizda yashovchi bir arman kishi biz, bolalarga «Guga» bog'ini ochib berdi. Bog'da futbol maydonchasidan tortib, har xil o'yingohlar bor. Xullas, bizning bolaligimiz uchun hamma sharoitlar mavjud. Biz buning qadriga yetishimiz kerak.

O'qituvchi: Yiqqan kartochkalaringiz, darsdagi faoliyattingiz haqida guruh sardori hisobot beradi. O'zingiz-o'zingizni qanday baholagan bo'lardingiz?

Uyga vazifa: Hikoyalardan olgan taassurotlaringiz asosida taqriz yozib keling.

ABDULLA QAHHOR – SO‘Z USTASI

(hikoyalari misolida)

Darsning maqsadi: O‘quvchilarda o‘tmish haqidagi tasavvurni kengaytirib, ularni solishtirish orqali baho berish, zulmga isyon hissini shakllantirish. Adib hikoyalari bilan tanishtirish, ulardagи obrazlarni ruhiy tahlil qilish, yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratini anglatish.

Darsning jihizi: Texnik vositalar: Magnitafon. Darslik. Said Ahmadning «Yo‘qotganlarim va topganlarim» kitobi, Abdulla Qahhorning badiiy asarlari, yozuvchi hayotiga oid fotosuratlar, Shajara daraxtida aks etgan romançilik, hikoyachilik, dramaturgiya va jurnalistikaga oid asarlarining nomlari, «Qahhorona gaplari», «O‘g‘ri» va «Hur qiz» hikoyalariiga ishlangan qo‘g‘irchoqlar, rasmlar hamda o‘tmishdagi ajdodlarimizning uy maketi.

Darsning shiori: «Eshilib, to‘lg‘anib, ingranadi kuy, Asrlar g‘amini so‘zlar «Munojot» Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga Qanday chiday olgan ekan odamzod». (Abdulla Oripov)

Rassomlar: Dunyo – bir ko‘zgu, u har kimning qiyofasini aks ettirib beradi. (U. Tekkerey)

Rejissorlar: El g‘ussasini singurmaging maqsul et,
Bu sheva bilan oqibating mahmud et. (Navoiy)

Bilimdonlar: Davron elining jismida ham jon bo‘lg‘il,
Ham jonlariga moyayi darmon bo‘lg‘il. (Navoiy)

Munaqqidlar: Ijod bog‘iga bolta emas, tokqaychi ko‘tarib kirish kerak. (Ozod Sharafiddinov)

Tilchilar: Ko‘ngul durji ichra guhar so‘z – durur,
Bashar gulshanida samar so‘z – durur. (Navoiy)

Darsning uslubi: Skarabey interfaol texnologiya bo‘lib, o‘quvchilar da fikriy bog‘liqlik, mantiqiy aloqadorlik va xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Aziz o‘quvchilar! Bugungi darsimiz o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shtan, mashhur hikoyanavis, qisqa so‘zda ko‘p ma’no ifodalash mahorati egasi Abdulla Qahhor haqida va uning hikoyalari xususida. O‘tgan dars topshirig‘i bilan yozuvchi hayoti va kitobda berilgan hikoyalar matni uyga vazifa qilib berilgan edi. Darsga tayyor ekanligingizni, matn ustida ishlay olish mahoratingizni sinab ko‘rish uchun avvalo kichik guruhlarga bo‘linishingiz kerak bo‘ladi. Topshiriqlarni guruhingiz bilan hamkorlikda ishlab,

faolligingizni ko'rsating. O'z mulohaza, fikrlaringizni ochiq va erkin ifodalang. Har bir to'g'ri, mantiqli javob uchun rag'bat kartochkasini olasiz. Guruhlar o'zaro javob berayotganda bir-biringizni kuzatib, noto'gri bo'lganda aytсангиз ham rag'batga ega bo'lasiz.

Biz yozuvchining ushbu hikoya matniga tarbiyaviy tomonidan, ilmiy va san'atkorona tayanib, o'z mustaqil g'oyamiz bilan bilan yondashishimiz lozim bo'ladi. Quyidagi guruhlarga: rejissorlar, rassomlar, munaqqidlar, tilchilar, bilimdonlarga bo'linamiz. Har bir guruh o'zlariga yuqorida qayd qilingan shiorlardan birini tanlashlari mumkin. Baholash jadval asosida amalga oshiriladi. Jadval oxirida uchta katakda hamisha, ba'zan, hech qachon degan javoblar mavjud. Siz savollarga javob berishda ushbu uchta javobdan birini belgilaysiz.

1. Matnning sarlavhasi yoki rejasiga qarab mazmun haqida tasavvur qilaman. (hamisha..., ba'zan....., hech qachon.....)
2. Matn janri va uslubiga ko'ra voqealar rivojini oldindan bilib olaman. (hamisha....., ba'zan....., hech qachon.....)
3. Matnni o'qish jarayonida o'zimning barcha tasavvur va farazlarimni fikrimda saqlayman. (hamisha....., ba'zan....., hech qachon.....)
4. Tasavvur qilishda yordam beruvchi omillar va tafsilotlarga e'tibor beraman. (hamisha....., ba'zan....., hech qachon...)
5. Matnni o'qish jarayonida ba'zan to'xtab, o'zimga savol beraman, nimalar haqida bilib oldim, bundan keyin nima haqida so'z boradi? (hamisha...., ba'zan....., hech qachon...)

Jadvaldagagi javobingizga qalamda "+" belgisini qo'yganingizdan so'ng, izohlashingiz kerak. Eng ko'p rag'bat kartochkasini yig'gan gupuh darsimiz g'olibiga aylanadi.

Dars jarayoniga to'liq kirishishingiz uchun «Zakovat» savollariga qisqa vaqt ichida javob berishingiz kerak.

1. Abdulla Qahhorning qanday taxalluslarini bilasiz? - (Norin shilpiq, Mavlono Kufur, Gulyor, Erkaboy).
2. Chexovning «Uyqu istagi» hikoyasi adibning qaysi hikoyasida tilga olinadi? - («Adabiyot muallimi»).
3. Adibni qaysi ijodkorlarning asarlari o'ziga maftun etdi? - (Gogol, Turgenev, Chexov).
4. «Ta'bimdagи kitob emas», deb qaysi asarini nazarda tutadi? - («Qo'shchinor chiroqlari»).
5. «Novvoy qiz» hikoyasining muallifi kim? - (Cho'lpon).

6. Muvaffaqiyatli chiqqan ilk hikoyasi – («Boshsiz odam»).
7. Sotiboldining boshiga tushgan kulfat nima? (xotinining kasalligi).
8. Qahhor XX-asr adabiyotida qaysi ijodkor an'analarini davom ettirdi? - (Cho'lpou).
9. «Bemor»ga asos bo'lgan voqeя? - (Onasining ko'zi yorishi)
10. «Dahshat» dagi «tiriklar go'ristoni» qayer? - (Olimbek dodhoh xonadoni).
11. Yozuvchining komik hodisalar, hajviy xarakterlar ifodalangan hikoyasi - («Adabiyot muallimi»).
12. Egamberdi paxtafurush qaysi hikoya timsoli? - («O'g'ri»)
13. «Adabiyot muallimi» hikoyasida o'ta madaniyatsiz odam kim? - (Boqijon Baqoyev).
14. Bahs-munozaraga sababchi bo'lgan asar – («Sarob»).
15. Yozuvchi hayotida chuqur iz qoldirgan qori kim? – (Muhammadjon).
17. «O'g'ri» hikoyasida o'g'irlilik sodir bo'lgan joyga kim birinchi keladi? - (Ellikboshi).
18. «Qirq qizlar» qayerdan «hu-uv» deb javob berishadi? (Shohimardon tog'idan).
19. Azim duduq qachon yo'qolib qoladi? - (Savrinisoning qirqidan keyin)
20. Adibning yoshligida eshitgan haqorati? – («Ko'chmanchining bolasi»).
21. «Hur qiz» qaysi qissadan olingan? – («O'tmishdan ertaklar»).
22. Qaysi asari vafotidan keyin e'lon qilingan? - («Zilzila»).
23. Qaysi asari respublika konkursida mukofatlandi? - («Sarob»).
24. Saidiy sevgan qiz? – (Munisxon).
25. Stending, Shelling, Mering, Demping qaysi hikoyada tilga olinadi? - («Adabiyot muallimi»).

Guruhlarga quyidagi topshiriqlar berilib, uch daqiqa tayyorlanishga vaqt ajratiladi. Bu vaqtida elliqinchi yillar ruhini eslatuvchi musiqa qo'yiladi.

1-topshiriq. Adibning hayotiga oid ma'lumotlar.

1. Otasining ismi ----- (Abduqahhor)
2. Toshkentga kelgan yili ----- (1925)
3. «O'tmishdan ertaklar»ning nurli bobini kimga bag'ishlaydi?

----- (Muhammadjon qoriga)

4. O'qigan maktablari: ----- («Istiqlol», «Kommuna» da)
5. Ishlagan gazetaning nomi ----- (“Qizil O'zbekiston”)
6. Onasining ismi ----- (Rohatoy)
7. 17-sentabr ----- (1907-yilda tug'ilgan)
8. Oqqa'rg'onda ----- (jadid mактабида о'қиди)
9. Otasi o'qib bergen kitoblar nomi ----- («Dalli va Muxtor», «Baxori Donish», «Bobo Ravshan»)

2-topshiriq. Ijodiga oid ma'lumotlar jadvalini to'ldiring.

1. 1934-yili ----- («Sarob» romani yozildi)
1. «Qo'shchinor chiroqlari» ----- (1951)
2. «Yangi Farg'ona» va «Qizil O'zbekiston» ----- (gazetalarida xabarlari bosildi).
3. Ijodi ----- (1924) yilda boshlangan.
4. 1958-yilda ----- («Sinchalak» qissasi)
5. Shuhrat keltirgan roman ----- («Sarob»)
6. 1965-yilda ----- («O'tmishtdan ertaklar»)
7. Taxalluslarini ayting ----- (Norin shilpiq, Mavlono Kufur, Gulyor, Erkaboy).
8. «Adabiyot muallimi» yozilgan yil ----- (1962-yil)
9. «Muhabbat» qissasi ----- (1968-yilda yozilgan)

3-topshiriq. Ko'rgazmadagi qo'g'irchoqlardan foydalanib, «O'g'ri» hikoyasidagi obrazlarning nomlarini aniqlang va ularga kichik tavsif bering.

1. Qobil bobo: Yoshi ulug', kampiri bilan zo'rg'a kun kechiradi. Ho'kizi yo'qolgach, juda qayg'uradi. Topish niyatida mansabdorlarga pora berib, bor-budidan ayrıldı.
2. Kampir: Qobil boboning umr yo'ldoshi. Farzandi yo'q, shu sabab bir-biridan keyingi eng aziz narsasi ho'kizi edi. Dastyori yo'qligidan uy yumushlarini o'zi qiladi.
3. Ellikboshi: Qobil boboning qo'shnisi. Burunsiz, ovozi pang, o'ta ta'magir odam.
4. Amin: To'ralik halqasining muhim bo'g'inlaridan biri va boshiga ish tushganlar uni ham boqishlari darkor edi
5. Tilmoch: Yerlik aholining gaplarini rus to'ralariga tarjima qilib beradigan, evaziga pora so'raydigan odam.
6. Pristav: Amaldor. Yerlik kambag'al odamlarni odam o'rnida ko'rmaydigan, lekin poradan qaytmaydigan odam.

7. Egamberdi: Ellikboshining qaynatasi. Poraxo'rlikda kuyovidan qolishmaydigan paxtafurush.

8. Odamlar: Qo'ni-qo'shnilar. O'zlarining ahvoli Qobil bobonikidan qolishmaydi. Kambag'al, nochor bo'lganliklari sabab, ularga yordam berolmaydi

4-topshiriq. Gulyor boshqotirmasi.

1. «O'g'ri»dagi Ellikboshining qaynatasi (Egamberidi)
2. Jadid qorining nomi (Muhammadjon)
3. Tugallanmay qolgan asarning nomi (Zilzila)
4. Hikoyaning nomi («Adabiyot muallimi»)
5. Hikoyaning nomi («Bemor»)
6. Onasining nomi (Rohatoy)

-G-----

- U -----

- L -----

- Y -----

- O -----

R -----

5-topshiriq. Ko'rgazimadagi o'yinchoqlardan, hikoyaga ishlangan rasmlardan foydalanib, «Hur qizlar» hikoyasini qisqa vaqt ichida gapirib bering. (Kampir, amaki, amakining kasal xotini, qizi: Savriniso, o'g'li: G'afforjon, bo'lajak kuyov - Azimjon, Abdulla va uning ota-onasi hamda hikoyadagi joy nomlari tilga olinishi kerak.) Guruhlar uchun topshiriq. Mantiqiy fikrlash. Gapni davom ettiring,

kim tomonidan aytigelganini aniqlang.

1. «Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, (dunyoda bundan oson ish bo'lmas edi. «Abdulla Qahhor»)
2. Hayotdan aynan ko'chirish (kitobdan ko'chirishday gap. «Abdulla Qahhor»)
3. Yozuvchi janrni emas, (janr yozuvchini tanlaydi. «Abdulla Qahhor»)
4. «Qahhor umuman jasoratli, (mard kishi edi». «Simonov»)
5. «Qo'yinglar, bolalar, tegmanglar, kelgindi bo'lsa (o'zi bo'libdimi, xudo qilgan.» «mo'ysafid»)
6. «Uyda menga indamas, ichimdan top (deb dashnom beradigan bo'lishdi.» «Abdulla Qahhor»)

7. «Bunaqa ta’na dashnomlar meni battar – (soqov qilar edi.)» «Abdulla Qahhor»)

O‘qituvchi: Endigi topshiriq qisqa vaqt ichida guruuhlar adib asarlaridan “Qahhorona gaplar”dan misollar keltirishi kerak.

1. «Saidiy Munisxonning yonida yurib, kechasi chiroq bilan yurgan kishiday bo‘lib qoldi, u hech kimni deyarli ko‘rmaydi, uni hamma ko‘radi.» «Sarob» romanidan.
2. Saviyasi past redaktor haqida: «Redaksiya eshigini o‘z bo‘yiga moslab qurib olgan, katta yozuvchilar bu eshikka sig‘maydi.»
3. «Tolstoy boboning asarlari qaziga o‘xshaydi, chaynagan saring mazasi chiqaveradi»
4. «Bu odam adabiyotga eshikdan emas, o‘g‘ri mushukka o‘xshab tuynukdan tushgan»
5. «O‘zi yozolmaydi, adabiyotda men ham borman, deb majlislarda ovoz chiqazib turadi»
6. «Kichkina, nimjon bo‘lsang ham, osmonni ko‘taradigan quvvating, g‘ayruting bor ekan», «Sinchalak» qissasidan.

O‘qituvchi: «O‘tmishdan ertaklar» turkumiga kirgan hikoyalarni o‘qib o‘tmishga qanday baho berasiz?

1. Ijtimoiy tengsizlik,adolatsizlik,qonunsizlik,jaholat avj olgan yurtda ma`rifat, ijtimoiy adolat uchun olib borilgan kurash ko‘pincha ma’nisiz tus oladi.
2. «Qishloqqa ilm-ma’rifat urug‘ini sochgani kelgan» Muhammadjon qorining yangicha usuldagagi ta’lim maktabi johil kimsalar tomonidan xonavayron etiladi.
3. Usta Abdugahhorning akasi qizi Savrinisoni urib o‘ldirib qo‘yganda bu qotillik uchun hech kim hech narsa demaydi, aksincha, bu ishni yaqin kishilar «yohti-yohti» qilishga urinadilar.
4. Qasoskorlar oqposhshoning arzandasasi – yuzboshini avval tillarini yutishga majbur etadilar, zo‘rlab og‘ziga tiqadilar, so‘ng jodida uch bo‘lak qilib, keyin o‘sha bo‘lingan jasadga kerosin sepib o‘t qo‘yadilar.
5. Musulmonchilikda zo‘rlash man etilgan. Bir yoz chillasida ro‘zasini buzgan temirchi oilasi a‘zolari ta‘qib ostiga olinib, sazoyi etiladi.

- O'zbek adabiyotida ma'nisiz hayotning bu xildagi mudhish manzaralari hech qachon bu qadar shafqatsizlik bilan ifoda etilgan emas.
- Yozuvchi haqiqat oldida hatto o'z yaqinlari, otasini ham ayamaydi. Bu jihatdan «O'tmishdan ertaklar» asari adabiyotning noyob badiiy durdonalari qatoridan o'rinn olishga haqidir.
- O'tmishdagi voqealar bilan tanishib, hozirgi kuniimizning dorilamon kunlariga shukronalar keltirishimiz kerak.
- Hozirgi kuniimizda uzoq mintaqada joylashgan dehqonning uyi ham gazlashgan, suvi bor. Sharoiti yetarli. Uyi pishiq qurilgan.
- Shunday ekan, biz o'z istiqlolimizni asrashimiz, erkinlikning qadriga yetishimiz kerak. Mana bunday asarlarni o'qib, o'tmishni hozirgi kuniimizga qiyoslay olishimiz kerak.

O'qituvchi: Abdulla Qahhorning bir fikri bor. «Biron hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini bildirish bilan unga nisbatan nafrat yoki muhabbat hissi tug'dirish orasida juda katta farq bor. Bilgan kishi bilib qo'ya berishi mumkin, lekin his qilgan kishi his qilib qo'ya bermaydi.» Shunday ekan, bo'layotgan voqealarni his qilib, qahramonlarning o'rniga o'zingizni qo'yib ko'rgan holda fikrlang, tahlil qiling. Matn bilan ishlash uchun «Hur qizlar» hikoyasini olamiz. Hikoyani har bir guruh o'z yo'nalishi bo'yicha tahlil qiladi. Masalan, rejissorlar guruhi, avvalo, matnning senariysini tuzib oladilar. Keyin har bir qahramonning holatini tasvirlab, tavsif beradilar va rollarni taqsimlab, ovoz berish bilan o'ynab ko'radilar. Monolog, dialog, remarka, muallif gapi kabi unsurlarga aniqlik kiritadilar.

Rassomlar guruhi esa hikoyadagi manzara larga, tasvirlarga e'tibor qilib, o'sha o'rnlnarni topib va timsollarning holatlarini, voqealarni ko'z oldilariga keltirib rasm chizishlari kerak. Munaqqidlar va tilchilar hikoyaning tili haqida, so'z qudrati va hikoyaning g'oyasi haqida fikr bildiradilar. Bilimdonlar guruhi Savrinisoning o'limi bilan bog'liq bo'lgan voqealar tizimini ochadilar. «Tergovni bilimdonlar olib boradi» rukni bilan ishni yoritadilar.

Ustoz adibning mashhur «Ming bir jon» hikoyasida shunday so'zlar bor: «Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta edi. Hozir tugab qolgan shamdek lipillab yonayotgan joni basharti so'ngan taqdirda ham qolgan mingtasini yoqib, keyin so'nadi.»

Abdulla Qahhor ham ming-minglab o‘quvchilari, ixlosmandlari, shogirdlari yuragiga chiroq yoqib ketdi.

G‘olib guruh aniqlandi. O‘quvchilar rag‘batlantirildi. Sinf kutubxonasi uchun «O‘zbek hikoyalari antologiyasi» kitobi berildi. O‘quvchilar ushbu kitobdagagi hikoyalarni tez kunlarda o‘qib chiqishni rejalashtirishdi. Uyga vazifa sifatida quyidagi jadval ustida ishslash topshirildi. Va yuqoridagi guruhlarga berilgan topshiriqlar uyda nihoyasiga yetkazilishi kerak bo‘ladi. Dars Safiya Saftarovaning «Vatan yagonadir» qo‘sishig‘i bilan tugallanadi.

Hikoyaning badiiy tiliga oid jadval

Mualif nutqidan	Qahramonlar nutqidan	Eng qiziqarli manzaralar	Portret tasviri	Joy tasviri	Xalq ibora va maqoli

«O‘G‘RI» HIKOYASINI O‘RGANISH

Darsning maqsadi: O‘quvchilarda o‘zgalar baxtsizligi hisobiga kun ko‘rvuchchi manfaatparast kimsalarga nafrat, zulmga isyon hissini shakllantirish. Adib hikoyalari bilan tanishtirish, ulardagi obrazlarni ruhiy tahlil qilish, yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratini anglatish. Istiqlol qadriga yetish.

Darsning jahozi: Texnik vositalar: Magnitafon. Darslik. Said Ahmadning «Yo‘qotganlarim va topganlarim» kitobi, Abdulla Qahhorning badiiy asarlari, yozuvchining rasmlari, «Qahhorona gaplari», matn ustida ishslash uchun ko‘rgazmalar hamda hikoyaga ishlangan rasmlar. «Tafakkur gulshani», Zamaxshariyning «Nozik iboralar» kitoblari. Dehqon uyining maketi.

Darsning shiori: Na faryoding, na doding bor,

Nechun sen buncha sustlashding?

Haqorat dilni og‘ritmas,

Tubanlik mangu ketmasmi?

Tiriksan, o‘limgansan,

Sen-da odam, sen-da insonsan! (Cho‘lpon)

Insonparvarlar: Odamlarning eng aziz va hurmatlilari qayg'u-hasratu tashvishli damlarda bilinur, go'yoki bu tashvishlar ular (hurmatli kishilar) uchun tug'ishgan opa-singildek yaqindir. (Zamaxshariy)

Senariychilar: Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas. (Abdulla Qahhor)

Izquvarlar: Faqat insonni sevish orqaligina adolatparvar bo'lish mumkin. (I.Kant)

Rassomlar: Odamlar, insonparvar bo'ling! Bu sizning birinchi burchingiz. (J.J. Russo)

Rejissorlar: Xulq – har kim o'z qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgudir. (J.J. Russo)

Munaqqidlar: Ijod bog'iga bolta emas, tokqaychi ko'tarib kirish kerak. (Ozod Sharafiddinov).

Tilchilar: So'z - hikmat, so'z - quroq. (maqol)

Darsning uslubi: Skarabey interfaol texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy aloqadorlik va xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Aziz o'quvchilar! Bugungi darsimiz o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. mashhur hikoyanavis, qisqa so'zda ko'p ma'nio ifodalash mahorati egasi Abdulla Qahhor haqida va uning «O'g'ri» hikoyasini o'rganamiz. O'tgan dars topshirig'i bilan yozuvchi hayoti va kitobda berilgan hikoyalar matni uyg'a vazifa qilib berilgan edi. Darsga tayyor ekanligingizni, matn ustida ishlay olish mahoratingizni sinab ko'rish uchun, avvalo, kichik guruhlarga bo'linishingiz kerak bo'ladi va topshiriqlarni guruhingiz bilan hamkorlikda ishlab, faolligingizni ko'rsating. O'z fikr-mulohazalarining ochiq va erkin ifodalang. Har bir to'g'ri, mantiqli javob uchun rag'bat kartochkasini olasiz. Guruhlar, o'zaro javob berayotganingizda bir-biringizni kuzatib boring, noto'gri javob bo'lganda aystsangiz ham rag'batga ega bo'lasiz. Dars nihoyasida «SMS xabarlar» rukni bilan eng yaxshi ishtirokchi va eng faol guruh aniqlanadi. Bu ishni har bir guruhdan olingan bittadan ekspert nazorat qiladi, g'olib guruh faxrli «Qahhorshunoslar» nomiga ega bo'ladi.

Biz yozuvchining ushbu hikoya matniga tarbiyaviy tomonidan, ilmiy va san'atkorona tayanib, o'z mustaqil g'oyamiz bilan yondashishimiz lozim bo'ladi. Xullas, yetti guruhga: rejissorlar, senariy ijodkorları, rassomlar, munaqqidlar, tilchilar, izquvarlar hamda insonparvarlarga bo'linamiz. Har bir guruh o'zlariga yuqorida

qayd qilingan shiorlardan birini tanlashlari yoki ko'rgazmada taqdim etilgan «Tafakkur gulshani», «Nozik iboralar» kitoblaridan olishlari mumkin.



Guruhlarga topshiriqlar:

1-topshiriq. Hayotiga oid ma'lumotlar jadvalini to'ldiring

1. Abduqahhor ----- (otasi, temirchi)
2. 1925-yil...----- (Toshkentga kelgan)
3. 25-may ----- (1968-yil vafot etgan)
4. gazetasida ishladi. ----- ("Qizil O'zbekiston")
5. Eski mакtabda _____ o'qidi. (Buvaydada)
6. Ko'chgan qishloqlari: ----- (Buvayda, Yaypan, Oqqo'rg'on)
7. 17-sentyabr ----- (1907-yilda tug'ilgan)
8. Oqqo'rg'onda ----- (jadid mакtabida o'qidi)
9. 1930-yilda-----(O'zMU ning pedagogika fakultetida o'qidi)
10. O'qituvchilar tayyorlash kursida o'qidi.-----(1922-1924)

2-topshiriq. Ijodiga oid ma'lumotlar jadvalini to'ldiring

1. 1934-yili ----- («Sarob» romani yozildi)
2. «Qo'shchinor chiroqlari» ----- (1951)
3. (Mushtum)----- oybitigida, (Yangi Farg'ona va Qizil O'zbekiston) ----- gazetalarida xabarlari bosildi.
4. Ijodi ----- (1924) yilda boshlangan.
5. 1958-yilda ----- («Sinchalak» qissasi)
6. Shuhrat keltirgan roman ----- («Sarob»)
7. 1965-yilda ----- («O'tmishdan ertaklar»)
8. «Ayajonlarim» komediysi ----- (1967)
9. Komediya... 1962-yilda ----- («Tobutdan tovush»)
10. «Muhabbat» qissasi ----- (1968-yilda yozilgan)

3-topshiriq. Mantiqiy fikrlash. «O'g'ri» hikoyasidan olingan quyidagi gaplarni davom ettiring.

4-topshiriq. Quyidagi gaplarni kim aytganini aniqlang.

1. – Yig‘lama, yig‘lama, deyman! (Ho‘kizing oq poshsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa, topiladi) (Ellikboshi)
2. – Endi bizga qiyin bo‘ldi-da.. (Peshonam sho‘r bo‘lmasa) (chol)
3. – Yo‘qolmasdan ilgari bormidi? (Qanaqa ho‘kiz edi?) (amin)
4. – Ey, yosh bolamisiz? (Nega yig‘laysiz? Kap-katta odam...) (Ellikboshi)

5. – Ha, ho‘kizni uylariga eltib berishsinmi? (Axir, borilsin, arz qilinsinda) (amin)

6. – Yo‘q... Sigin emas, (ho‘kiz, ola ho‘kiz edi) (Qobil bobo)

7. Birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... (Ammo kampirning dodiga odam tez to‘plandi) (muallif)

5-topshiriq. «O‘g‘ri» hikoyasidagi obrazlarning nomlarini aniqlang va ularga kichik tavsif bering.

1. Qobil bobo: Yoshi ulug‘, kampiri bilan zo‘rg‘a kun kechiradi. Ho‘kizi yo‘qolgach juda qayg‘uradi. Topish niyatida mansabdorlarga pora berib, bor-budidan ayrıldi.

2. Kampir: Qobil boboning umr yo‘ldoshi. Farzandi yo‘q, shu sabab bir-biridan keyingi eng aziz narsasi ho‘kizi edi. Dastyori yo‘qligidan uy yumushlarini o‘zi qiladi.

3. Ellikboshi: Qobil boboning qo‘schnisi. Burunsiz, ovozi pang, o‘ta magir odam.

4. Amin: To‘ralik halqasining muhim bo‘g‘inlaridan biri va boshiga ish tushganlar uni ham boqishlari darkor edi

5. Tilmoch: Yerlik aholining gaplarini rus to‘ralariga tarjima qilib beradigan, evaziga pora so‘raydigan odam.

6. Pristav: Amaldor. Yerlik kambag‘al odamlarni odam o‘rnida ko‘rmaydigan, lekin poradan qaytmaydigan odam.

7. Egamberdi: Ellikboshining qaynatasi. Poraxo‘rlikda kuyovidan qolishmaydigan paxtafurush.

8. Odamlar: Qo‘ni- qo‘schnilar. O‘zlarining ahvoli Qobil bobonikidan qolishmaydi. Kambag‘al, nochor bo‘lganliklari sabab, ularga yordam berolmaydilar.

6-topshiriq. «O‘g‘ri» hikoyasidagi berilgan poralarni aniqlang.

1. Ellikboshi: mingboshiga 700 bog‘ beda, bir toy paxta bergen.

2. Kampir: azaimxonga yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo‘xori, ikki kalava ip bergen.

3. Qobil bobo: tilmochga uchta tovuq, yor-u birodarlari yig‘ib bergen yuzta tuxumni bergen.
4. Pristavga bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so‘m pul.
5. Ellikboshiga hamyonidagi bor pulini qoqishtirib berdi.
6. Aminga suyunchidan chashma... pul berdi.
7. Egamberdining «kichkinagina» sharti kuzda ma’lum bo‘ladi.

7-topshiriq. «O‘g‘ri» boshqotirmasi. Kataklardagi Abdulla

Qahhor asarlari nomlarini toping

-O‘-----
- g‘-----
-----r--
---i-----

O‘qituvchi: Endigi topshiriq qisqa vaqt ichida har bir guruh o‘zlarining nomlaridan kelib chiqib, matn ustida ishlashlari kerak. Asarni tahlil qilib, matndagi tagma’noni ilg‘ashga harakat qiling. Badiiy haqiqatlarni ko‘ra olish salohiyatingiz alohida rag‘batlantiriladi. Matnni idrok qilishingiz uchun avvalo savollardan boshlaymiz.

1. Kampirning dodlashiga nega odamlar tez to‘planishdi?
2. Nega chol dag‘-dag‘ titraydi? Sovuqdanmi?
3. Amin hamisha ham o‘zini shunday tutarmikin?
4. Nega yozuvchi «Otning o‘limi itning bayrami» maqolini epigraf qilib olgan?
5. Asosiy qahramonning «Qobil bobo» deb atalishida biror ma’no bormi?
6. Hikoya nima uchun «O‘g‘ri» deb nomlangan?
7. O‘g‘ri muallif nazarida kim?
8. Qobil boboning uyiga o‘xshagan uylarni ko‘rganmisiz?
9. Voqeа qaysi faslda bo‘lib o‘tgan?
10. Mustaqillik bizga nima berdi?

O‘qituvchi: Abdulla Qahhorning bir fikri bor. «Biron hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini bildirish bilan unga nisbatan nafrat yoki muhabbat hissi tug‘dirish orasida juda katta farq bor. Bilgan kishi bilib qo‘ya berishi mumkin, lekin his qilgan kishi his qilib qo‘ya bermaydi.» Shunday ekan, bo‘layotgan voqealarni his qilib, qahramonlarning o‘rniga o‘zingizni qo‘yib ko‘rgan holda fikrlang, tahlil qiling.

Asar tahlilini senariy ijodkorlari boshlab beradi.

Biz matn bilan tanishib, o‘g‘irlilik sodir etilgan kunning ertasidagi voqealarni quyidagicha senariyga kiritdik.

parda ochiladi

Kampir: – O! ... Voydod, voydood!

(Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan yugurib chiqadi.Odamlar yig‘iladi)

Odamlar: – Voy bechoralar, ho‘kiziga o‘g‘ri tushibdi... - Endi qanday kun kechirishadi?

(Qobil bobo og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko‘zлari jovidiraydi, hammaga qaraydi. lekin hech kimni ko‘rmaydi)

Xotinlar: – Hmm... iloyo o‘g‘irlagan qo‘ling sinsin!...

– Topgan puling teshib chiqsin, o‘zingga buyurmasin!.

– Qariyalarning uvoli tutsin!

Kimdir: – Nahotki shu kichkina teshikdan ho‘kiz sig‘gan bo‘lsa.... Aql bovar qilmaydi-ku!

Ellikboshi (Hamma yoqni tekshirib, pang tovush bilan):

– Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.

Qobil bobo (sevinganidan xo‘rligi kelib, yig‘lab):

– Xudo xayr bersin... Ola ho‘kiz edi...

Odamlar: – O‘g‘ri devorni yarim kechada teshgan bo‘lsa kerak...

– Poy tesha o‘tkir bo‘ladi yoki lo‘m bilan urib teshgan.

– Ho‘kizni uzoqroqdagi bozorda pullasa kerak...

– Balki allaqachon so‘yib yuborgandir...

Ellikboshi (ketidan ergashib, yig‘layotgan boboga):

– Yig‘lama, yig‘lama, deyman! Ho‘kizing oq poshsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa, topiladi.

Kampir: – Ilohim, umringizdan baraka toping...

Qobil bobo: – Sizni xudoning o‘zi yarlaqasin! Dunyo turguncha turing! (hamyonidan pul chiqarib berdi)

Ellikboshi: – Bu haqda beto‘xtov aminga xabar qilaman.

parda yopiladi

Bizning taxminiy sahnynomamiz quyidagicha:

- | | |
|----------------------------|----------------------|
| 1. Qobil boboning hovlisi. | 5. Ellikboshi keldi. |
| 2. Subhidam (Erta tong). | 6. Pristav huzurida. |
| 3. Ho‘kiz yo‘qoldi. | 7. Amin qabulida. |
| 4. Og‘il yonida. | |

Rejissorlar guruhi:

1. Avvalo, hikoya matni bilan tanishish kerak. Bo'lib o'tgan voqealarni ko'z oldimizga keltirib, tassavvurimizni boyitib bo'lgach, senariy asosida ishlaymiz.
2. Hikoyadagi obrazlarning xarakterini o'rganib, rol taqsimlaymiz. Har bir aktyor o'ziga berilgan rolini mahoratli ijro etishi uchun, obrazning ichki holatini tushunishi lozim. Tashqi ko'rinishiga e'tibor qilinadi.
3. Bunda bizga pardozchilar, rassomlar, tikuvchilar yordam beradilar. Ayrim joylarda holatni chuqurroq, bo'rttirib ko'rsatish uchun musiqadan foydalanamiz. Tasvirga tushirishda operatorlar va ularning yordamchilari bo'ladi.
4. Ovoz yozish studiyalarida qaytadan qahramonlarga dublaj usulida ovoz beriladi. Bunda ovoz rejissorlari, texnika muhandislari ovoz beruvchi aktyorlar bilan ishlaydi.
5. Aktyor dastlab olgan rolining gaplarini o'qib, rolga tayyorlanadi. Bu jarayonda o'qiyotgan gaplarni so'z urg'usiga, mantiqiy urg'usiga e'tibor berish kerak. Yo'qsa, asarning mazmuni buzilib, kutilgan maqsad amalga oshmaydi.
6. Biz «O'g'ri» hikoyasining senariysini olib, voqelarni 4ta kadrda olmoqchimiz. Birinchi dubl: kampirning og'ilxonaga kirib ho'kizini yo'qolganini bilishi, dod ovozini eshitib odamlarning to'planishi, Qobil boboning holati.
7. Ikkinci dubl: Xotinlarning qarg'ashi, odamlarning g'ala-g'ovuri, ellikboshining og'ilxonani sinchiklab tekshirishi.
8. Uchinchi dubl: Qobil boboning ellikboshi ketidan yig'lab yurishi, xo'rlik holatlari... Odamlarning o'g'ri haqidagi o'zicha chiqargan xulosalari...
9. To'rtinchi dubl: Ellikboshining pul undirish maqsadida chol-kampirga yolg'on va'da berishi, ularga munosabati, chol-kampirning umid bilan ellikboshini duo qilishlari hamda birinchi poraning uzatilish sahnasi.

Rassomlar guruhi: Biz matnni sinchiklab o'rgandik. Quyidagi rasmlarni hikoyaning mazmunini ochishga ilova qilamiz:

1. Tong qorong'usi, g'ira-shira tong otmoqda.
2. Hovli tasviri: bir qop somon, ikkinchi tarafda o'n-o'n besh xoda, bir arava qamish – uy, og'ilxonada ho'kiz.
3. Og'il yonida kampirning dodlash holati, odamlarning

ularga achingan holatda yig‘ilib turishi.

4. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib, dag‘-dag‘ titrashi tasviri.
5. Ola ho‘kiz tasviri.
6. Semiz, baqbaqalari osilgan, qirraburun, nigohlari qattiq, shafqatsiz amin burnini kavlab o‘tirgani, yonida iltijo qilib turgan Qobil boboning tasviri.
7. Qo‘lida tasbeh, boshida salsa, soqol-mo‘ylov qo‘ygan, olachipor to‘nda duo o‘qiyotgan azaimxon va boshini quyi egib o‘tirgan kampir tasviri.
8. Pristav – gavdali, bo‘ydar, mo‘ylovli, tepakal kishi. Cholning qo‘lidan tovuqlar, pul olayotgani tasviri.
9. Qobil bobo, yonida tovuqlar, tuxumlar solingen savat va qoshlari chimrilgan tilmoch tasviri.
10. Boboning ikkita ho‘kiz bilan yer haydayotgani, qo‘lida tugun bilan yo‘lda turgan kampir tasviri.

Tilchilar guruhi:

1. Matn bilan ishlab, asar tili haqida quyidagi xulosaga keldik. Yozuvchi hikoyada xalq maqollaridan o‘rinli foydalangan. Hatto asar mohiyatidan kelib chiqib «Otning o‘limi, itning bayrami» maqoli epigraf qilib olingan.
2. «Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin» maqolida gaplar zidlanyapti, bu gaplar orasiga zidlov bog‘lovchisini qo‘yish mumkin. «Qobil boboni chaqirdi va pang tovush bilan dedi» gapida teng bog‘lovchi mavjud.
3. «O!...» tovushi gapda holatni bildiryapti; «qozonni suvga tashlash», «uyi xatga tushdi» ko‘chma ma’noda qo‘llangan.
4. «Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan» gapida sifatlar uyushgan, «yaktakchan» so‘zi - yaktagi yo‘q ma’nosida.
5. «aqlning ishonmasligi», «qo‘l ostidan chiqmagan bo‘lsa», «pulning yuziga qarash» birikmalarini ko‘chma ma’noda kelgan.
6. Poshsholik, ellikboshi, mingboshi, paxtafurush, amin, pristav, tilmoch, obdastagardon, azayimxon, kabi so‘zlar tarixiy so‘zlardir.
7. «Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi», «Quruq qoshiq og‘iz yirtadi», «Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz»

- maqollari, «ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim» ko'chma ma'noda qo'llangan.
8. «Suyunchidan chashma» bo'lak ma'nosida, «obdastagardon» tumor ma'nosida, «yelpishtovoq» don yelpiydigan tovoq, «arbob» mansabdor kishi ma'nosida qo'llangan.
 9. «qulf ochadigan azaimxon», «tepa sochi tikka bo'ldi», «peshonam sho'r», «go'rda bir narsa deyish» kabi birikmalar ko'chma ma'noda ishlataligil iboralardir.
 10. «Uni beginm deguncha kishining beli sinar ekan», «O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan» kabi maqollarning tagma'nolari bor.

Munaqqidlar guruhi:

1. Yozuvchi «O'g'ri» hikoyasida bir oilaning fojiasini ko'rsatish bilan birga, o'sha davrdagi oilalarning og'ir ahvolini ham tasvirlaydi. Qobil bobo hayotining butun mazmuni, chol-kampirning bir-biridan keyingi ishongan qimmatbaho narsasi shu - ho'kiz edi.
2. Kampirning dastyori yo'q. Shuning uchun u tongdan turib xamir qoradi, ho'kizidan xabar oladi.
3. Kambag'al odam boriga shukr qilib yashaydi. Chunki ko'p narsani orzu qilgani bilan unga yetisholmasligini biladi. Shuning uchun uyi kuysa ham ho'kizi yo'qolmasin. Ho'kizi bilan yer haydaydi, dehqonchilik qiladi.
4. Dehqonning uyi «bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish» bilan tiklanadi. O'sha vaqtlar xalqimiz Rossiya qo'l ostida bo'lishgan. Qaram xalq hech qachon to'kis yashamaydi. Istiqlolning qadriga yetishimiz kerak.
5. Ellikboshiga o'xshagan ta'magir odamlarga insof, shafqat singari tuyg'ular begona. Uning burunsizligi, pang ovoz bilan gapirishi ham qanday odam ekanligini ko'rsatib turadi. O'zining gaplariga cholni ishontirib, uning ustidan kuladi.
6. Amin nafaqat Qobil boboni, balki qashshoq kishilarni odam o'rnida ko'rmaydi. Shu bois qariyadan uyalishni ham bilmay, jirkanch qiliqlarini qilaveradi. Kitobxon undan, u kabi mansabdorlardan nafratlanadi.
7. Hikoyachi timsollar tabiatidagi eng mayda holatlarni ham bexato ilg'ay oladi va katta mahorat bilan aks ettirgan.

- Obrazlarning yorqin tasviri yaratishiga qarshilash uchun xilma-xilligi adibning o‘ziga xos uslubini namoyon etgan.
8. Kitobxon qalbida hikoyadagi Qobil boboga o‘xshagan kishilarga achinish birinchi o‘rinda turadi. Bu hikoya kitobxonni o‘ylantiradi, zulmga qarshi kurashga chaqiradi.
 9. Said Ahmad aytganlaridek: - Abdulla Qahhor chinakamiga so‘z zargari. Kichik bir hikoyasi ham soat mexanizmidek aniq detallardan tashkil topgan. Shuning uchun ustoz yozgan asarlaridan biron vergulni ham olib tashlab bo‘lmaydi.
 10. To‘g‘riso‘z, insonparvar Abdulla Qahhorga «Yelkasini haqiqat silagan shoir», deb to‘g‘ri baho beradi, yozuvchining eng sodiq shogirdlaridan atoqli adibimiz Said Ahmad.

Izquvarlar guruhi:

1. Kampir tong qorong‘usida xamir qorish uchun turgan. Demak, ho‘kiz yarim kechada o‘g‘irlangan. Og‘il ko‘cha tomondan teshilgan. O‘g‘ri hovliga kirmagan.
2. Bu jinoyatni Ellikboshi ochmoqchi bo‘ladi. O‘g‘ri teshgan joylarni ikki martadan tekshiradi, ustunni qimirlatib ko‘radi. Ishonch bilan «ho‘kizing topiladi» deydi.
3. Uning maqsadi choldan biror narsa undirish. Ellikboshi bo‘lish uchun ancha pul sarflagan. Poshsholikdan oylik olmaydi. Shuning uchun u kishilarni aldarab, pulini oladi.
4. Odamlarning gapiga qaraganda o‘g‘ri devorni lo‘m yoki poy tesha yordamida teshgan. Qishloqdagilar bormaydigan bozorda uni pullagan yoki allaqachon so‘ydirib yuborgan.
5. Amin - to‘ralik xalqasining muhim bo‘g‘inlaridan biri. Boshiga ish tushganlar uni ham boqishlari kerak. Aldangan chol ho‘kizi yo‘qolganini unga o‘zi aytadi.
6. Amin ham «beto‘xtov pristavga xabar qilaman», deb va‘dani berib, choldan pora undiradi. Biroq ho‘kizni izlamaydi..
7. Pristavga ham cholning o‘zi xabar beradi. U bilan so‘zlashish uchun, avvalo, tilmochga, keyin pristavga pora berishga majbur bo‘ldi. Pristav uni yana aminga yuboradi.
8. Amin uni ellikboshiga jo‘natgach, ellikboshi qaynatasiga ro‘para qiladi. Egamberdi cholga bergen yordami uchun shart qo‘ydi. Bu shart kuzda ma’lum bo‘ladi.

- Xulosa shuki, Ola ho‘kiz topilmadi. Qobil bobo o‘g‘irlangan ho‘kizini topaman deb, mansabdar «o‘g‘rilar»ning qo‘liga tushdi. O‘scha davrda bunday voqealar tez-tez bo‘lib turar edi.

Insonparvarlar guruhi:

- Hikoyani o‘qigan o‘quvchi cholga achinish bilan birga, ba’zi qahramonlarning o‘zini tutishidan nafratlanadi Mana shu tuyg‘ular bizni odobga o‘rgatadi. O‘zbeklar andishali, ovozini balandlatishdan uyaladigan xalq.
- Kampir tongda fojia yuz bergani sabab dodlaydi. Boshqa xonadonlarda esa, uyidagi yetishmovchilikdan norozi bo‘lavergan ayolni eri uradi. Chunki er kambag‘allikdan chiqish yo‘lini topolmay, xotinini kaltaklaydi.
- Yoki qashshoqlikdan chiqish uchun boydan qarz olib, oqibatda qarzini uzolmay, evaziga uyi xatga tushadi. Shu bois dod ovozi tez-tez eshitilib turadi.
- O‘zbek uchun kambag‘allik – isnod. Chunki juda mehnatkash xalq. Mehnatiga yarasha haq olishi kerak.
- O‘zbek qariyalari hozir ham boshyalang yurishni odobsizlik deb hisoblaydilar. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, tag‘in yaktaksiz el ko‘ziga ko‘ringan. Fojeadan aqli sustlashib, hech kimni ko‘rmaydi. Boboni shu holga solgan - o‘g‘irlilik.
- Ellikboshi cholning qo‘snnisi, yosh bo‘la turib, keksa odamni sensiraydi. Ahvolini ko‘ra turib masxaralaydi. Aminga xabar beraman, deb yolg‘on gapiradi, ta’magirlik qiladi. Yolg‘onning doimiy hamrohi ayyorlik bo‘ladi.
- Aminning bobo oldida og‘zini ochmay kekirishi, burun kavlab etigiga artishi, baqbaqalarini selkillatib kulishi qolaversa, ataydan ho‘kizni sigir deb masxara qilishi o‘ta madaniyatsizlik, iymonsizlik hisoblanadi.
- Bunday odamlar odam ajratadi. Agar boyning ishi tushganda bunday qilmasdi. Afsuski, hali ham shunday odam ajratadigan, qo‘liga qaraydigan odamlar bor.
- Amaldorlar bu kambag‘al cholning bor-budini olib ham unga yordam bermaydilar. Ular ojiz va muhtoj odamlarni inson sanamaydigan kimsalar ekan. Inson qadri oyoqosti bo‘ladi.
- Adolat yo‘q joyda kishilar hayoti qadr-qimmatini ushlab turadigan hech nima qolmaydi. Ushbu hikoya insonparvarlik haqida, mehribonlik, rostgo‘ylik, odob, Erk haqida!

O'qituvchi: To'plagan rag'bat kartochkalaringiz SMS xabarlaridan ma'lum bo'lguncha, Sizga magnitafon orqali «Abdulla Qahhor hikoyalarini o'qing» reklamasi eshittiriladi.

«Dahshat» hikoyasidan: «Bola edim. Rahmatli dadam gap yer edilar. Bir mehmonxona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. «Hozir kim go'ristonga borib, Asqarponsotning go'riga pichoq sanchib keladi?»- degan gap bo'lipti.»

«Adabiyot muallimi» hikoyasidan: -- Boqijon aka, - dedi qiz uyalibroq, - Bir narsani sizdan so'ramoqchi edim: biz sinfda Chexovning «Uyqu istagini» o'qidik, go'dakni o'ldirgan qizni sud qilmoqchimiz.

«O'tmishdan ertaklar» hikoyasidan: Men arang qochib qoldim. Amakim dahshat ichida uyga o'zini urgan Sarvinisoning ketidan otilib kirdi. Savrinisoning avvaliga «Dadajon» degan chinqirig'i, keyin mushukday vag'illagani, nihoyat, ingragani eshitildi-yu, jim bo'lib qoldi.

O'qituvchi: Men ham muhtaram yozuvchimiz Said Ahmad domlaning ushbu «Yo'qtoganlarim va topganlarim» kitobini sizga reklama qilmoqchiman. O'qing, maza qilasiz. Ishonchim komil, dam yig'lab, dam kulasiz. Buyuk insonlar hayoti bilan tanishib, jajji qalbingizda nozik tuyg'ular paydo bo'ladi. Ajabmas, sizdan ham otashin shoirlar, dilkash yozuvchilar chiqlsa..

«1936-yili qo'limga Abdulla Qahhorning hikoyalar to'plami tushib qoldi. O'qib ko'rdim... Yana o'qidim. O'qiyverdim. Birdan yozuvchi bo'lish havasi dilimga tushdi. Yozib ko'rdim. Sira hikoyaga o'xshata olmadim. E, bu ham bo'lmasdi, deb qalamni uloqtirdim. Ertasiga yana yozuvchi bo'lgim kelaverdi.»

«Nimagaki erishgan bo'lsam, hammasiga Abdulla aka sababchi. U kishiga berilgan yerga uy qurdim. Mehr qo'yib, parvarish qilgan bog'ini ham menga tashlab ketdi. Hozir shu bog'da ustoz chirog'ini yoqib o'tribman.»

Ekspert guruhi g'olib gurujni aniqlab berdi. O'quvchilar rag'batlantirildi. G'olib guruh «Qahhorshunoslar» nomiga ega bo'ldi.

Uyga vazifa:

Hikoyada moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan va kambag'al kishilar tasvirlamgan. Ulardagi ma'naviyat haqida nima deya olasiz? Fikringizni yozma tarzda ifodalang.

ODIL YOQUBOV
“MUZQAYMOQ” HIKOYASI
(matn ustida ishlash)

Darsning maqsadi: Odil Yoqubov ijodi bilan tanishtirib, uning «Muzqaymoq» hikoyasi zamiridagi voqealar rivojidagi bolaning ichki hissiyoti, davr, o’tmish bilan tanishtirish; zamonamizga qiyoslash, mustaqil fikrashga o’rgatish.

Darsning jahozi: Odil Yoqubov hayoti va ijodiga oid rasmlar. Asarlaridan namunalar, «Muzqaymoq» hikoyasiga ishlangan rasmko’rgazma. Magnit tasmalar, «Tarbiya» jurnali, 2007 yil, 5-sonida Odil Yoquboning jurnalist Maxmuda Valieva bilan «Muzqaymoq» hikoyasi xususidagi suhbati.

Darsning shiori: Bilim – barcha kulfatlarga qalqon (A. Rudakiy).

Guruhlarning shiori: Fikr! Buyuk narsa! Insonning ulug‘vorligi ham fikrdan bo‘lmay nimadan? (A.S.Pushkin)

Har narsaga qiziquvchanlik olimlar va shoirlarni yetishtiradi.
(A. Frans)

Yaxshi tarbiya har qanday nodon kishini ham odam qatoriga qo’shami. (V.G.Belinskiy)

Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot yo najot- yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidur. (Abdulla Avloniy)

Darsning uslubi: Interaktiv usuli (Tintuv asosida)

Darsning rejasи:

1. Shiorlar tanlash, chiroyli nutq.
2. O’tgan darsni mustahkamlash: «Aniq savollarga aniq javoblar» o‘yini.
3. Savodxonlik: Izohli diktant
4. Ko‘chirma gaplarning tinish belgilarini qo‘yish, sxemaga solish.
5. Fanlararo integratsiya: Ona tili – matn bilan ishlash jarayonida fe’l shakllariga, iboralarga misollar topish.
6. Adabiyotshunoslik: O’xshatish o‘rinlarini toping. Portret janriga misollar topib, inson qiyofasini tasvirlang
7. Rassomlar: tasvir o‘rinlarini belgilang.
8. «U kim?» o‘yinida qatnashing.
9. Debatlar guruhida bellashing
10. O‘z mustaqil fikringizni «G‘oyalalar yig‘indisi» ga jamlang.

11. Uyga vazifa: Hikoyadan olgan taassurotlaringiz asosida sarlavha tanlab insho yozing. Sarlavhaning ma'naviy fazilatlarga bog'liq bo'lishiga e'tibor bering.

Kichik guruhlarga bo'linib, guruhingiz bilan hamkorlikda ishlang. Quyidagi topshiriqlarni bajaring. Darsda faol qatnashing. O'zingizni baholang. Eng faol ishtirokchini ko'rsating.

Aziz o'quvchilar! Bugungi darsimiz O'zbekiston xalq yozuvchisi, o'nlab qissa va zamonaviy, tarixiy mavzudagi «Er boshiga ish tushsa», «Adolat manzili», «Oq qushlar, oppoq qushlar», «Diyonat», «Ko'hnha dunyo», «Ulug'bek xazinasi» romanlari muallifi, oqsoqol adibimiz, minglab muxlislarga ega Odil Yoqubovning ijodi haqida. To'g'rirog'i, uning bolalik yillarda boshidan kechirgan voqealar tasviriga bag'ishlangan «Muzqaymoq» hikoyasi ustida bo'ladi. Guruhlar: Ilmsevarlar, to'g'riso'zlar, izquvarlar, zukkolar bo'lib, hikoyaning har bir satriga e'tibor qaratishingiz, to'g'ri javoblarining uchun rag'bat kartochkasini qo'lga kiritishingiz kerak. Berilgan shiorlardan birini tanlab, sharhlang.

O'qituvchi o'tgan dars so'ngida hikoyadan parcha o'qib, u bilan to'liq tanishib kelishni, savol-topshiriqlar bilan ishlashni uyga vazifa qilib bergen. Quyidagi parcha o'qilgan:

«... to'satdan ko'chadan kirib kelgan ikki harbiyga ko'zim tushdi, - deb yozadi yozuvchi, - negadir yuragim orqaga tortib ketdi... Harbiylarni ko'rishi bilanoq turgan joylarida tosh qotib qolgan oyimlar bilan opamlar birdan dod solishib, uyga qarab yugurishdi... Nihoyat tintuv tugadi. Dadamlarga kiyinishni buyurdilar. Oyimlar bilan opamlarning nolasi ko'kka chiqib, uyimiz achchiq faryoddan zir titradi. Oyimlar dadamlarning elkasiga pal'tosini ildilar. Mehmonlarga tuzalgan dasturxonadan ilingan narsani ro'molga tugib qo'llariga tutqazdilar. Dadamlar avval hamon faryod chekayotgan oyimlar bilan opamlar, so'ngra qaqshab-qaltirab qolgan ukalarimning peshonalaridan o'pdilar-u, menga navbat kelganda: - Hay attang! – dedilar to'satdan ko'zlariga yosh olib, - umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo'lувдим. Shuniyam eplay olmadim-ov, bolam!... Alamli chinqiriq bilan dadamlarning tizzalarini quchoqlab oldim...»

O`qituvchi - Hikoya matni ustida ishslashdan oldin uni qanchalik o`qib- o`rganganingizni bilish maqsadida «**Aniq savollarga aniq javoblar**» topshirig`i beriladi. Qum soatimiz 4 daqiqaga mo`ljallangan. Vaqtdan unumli foydalaning. Har bir guruh bir daqiqa ichida 8ta savolga javob berishi kerak.

1. Bola necha yoshda edi? -- o`n yoshlar atrofida
2. Bola yashagan ko`chaning nomi – «Lager»
3. Uy necha xonadan iborat? – 2ta
4. Pichan qaerda joylashgan? – Bolaxonada
5. Kitoblar qaerga yashirilgan? – beda tagiga
6. Mehmonlar necha kishi edi? – uch kishi
7. Egamberdi Jaqibov kim? – otasi
8. Onasining ismi- Gulshan
9. Mehmonlar qayerda birga o`qishgan? - SAKU da
10. Nega otasining ko`zi qizargan? - uyqusizlikdan
11. Qayerda grafin sindi? – mol bozorida
12. Go`sht qayerda saqlanadi? - quduqda
13. Do`konga nega bolani yuborishdi? - qimizga
14. Ko`chadan nechta harbiy kirdi? - ikkita
15. Kapitan bolani kimga o`xshatdi? – Pavlik Morozovga
16. Pavlik Morozov kim? – Otasini dushman sanab qizil askarlarga tutib bergen rus bolasi
17. G`ujum panasiga kim yashiringan edi? – pochchasi
18. Mehmonlar shahardan qaytayotib nima yozishdi? – tilxat
19. U Turkistonda kimlarga bino qurdirdi? - chor askarlariga
20. Bu binolar qanday binoga almashtirildi? - Qamoqxonaga
21. Qamoqxona qabuliga kimsalar kelishardi? - «Xalq dushmani»ning oilalari
22. Nega otasi lavozimlardan olingen? – Buvalari Yoqubshayx so`filik qilgan uchun
23. Vidolashuv uchun necha kishiga va qancha muxlatga ruxsat berildi? - Uch kishiga, chorak soat
24. Gulshan opa otasiga necha pul berdi? – 50 so`m
25. Harbiylarni qanday xodimlar deb atashgan? - NKVD
26. Bola yoqtirgan mashg`ulot – kitoblarni titish, rasm ko`rish
27. Otasi bolaga 5 so`m pulni nimalarga berdi? - muzqaymoq va daftар, kitoblarga
28. Nodir matoh nima edi? – Grafin

- Vidolashuv kuni onasi otasi uchun qanday taom tayyorladi?- bug'doy talqon, so'k talqon
- Qaysi kuni qamoqxonada ovqat olinardi? – shanba kuni
- Bolaning orzusi – otga minish edi

Magnit tasmasidan «**Izohli lug'at**» uchun quyidagi so‘zlar aytildi. O‘quvchilar bu so‘zlarni to‘gri yozishlari va izohlashlari kerak. Ular tushunmagan so‘zlarga o‘qituvchi o‘zi izoh beradi:

«Avaxta - qamoqxonha, Va’zonlik -quruq gap sotish, ko‘p gapirish, Miting -namoyish, siyosiy yig‘in, Pioner – biron ishni birinchi kashf etgan, kashshof, ilg‘or. Diqqinafas – nafasi bo‘g‘ilgan, asbiylashgan, Qiyg‘och - qisiq, suzuk ko‘z; nafis qiya tushgan qosh»

Topshiriq: Kodoskopdan beriladigan quyidagi ko‘chirma gaplarning tinish belgilarni qo‘ying, sxemasini qiling.

- Shu payt hovlidan chiqqan oyimlarning: - Kelinglar, mehmonlar, xush kelibsizlar, -degan ovozi eshitildi. (M:-K,-M.)
- Erkaklardan biri meni ko‘rib qolib: - Egamberdi Jaqipovning uyi shulma?-deb so‘radi. (M:-K?-M.)

Topshiriq: Berilgan gaplardan fe'l shakllarini aniqlang.

- U kishi hansiray-hansiray aytgan gaplarimni eshitdilar-u, chehralari yorishib: Yur, bolam!- dedilar boshimni silab.
- Zarb bilan ofilgan grafin shundoq qulog‘im tagidan o‘tib, devorga tegib chil-chil sindi.

Topshiriq: Hikoya matnidan tilshunoslardek iborałarni topping.

- Ikki oyog‘i qo‘limda yugurdim.
- Foytunga ko‘zim tushdi.
- Boshimga kulfat tushgan kun.
- Ko‘kragini zaxga berib yotibdi.
- Yuragim orqaga tortib ketdi.
- Yuragimni hovuchlab
- Bo‘zchining mokkisidek qatnardim.
- Bitta shaltoq buzoq bir podani buzadi.
- Qovog‘idan qor yog‘di.
- Nolasi ko‘kka chiqdi... kabi

Topshiriq: Matndan adabiyotshunoslardek o‘xshatish o‘rinlarini topping va «Toping-chi, u kim?» o‘yinida qatnashing.

(Qora kun, mash‘um kun, achchiq faryod, o‘rgatilgan otga o‘xshab, kotibning omburdek metin changali, choynakday)

to'pponcha, hushyor pioner, mudhish haqiqat, motamsaro bir makon, almisoqdan qolgan soat kabi...)

1. Bolani qashqirdan tug'ilgan qashqircha deb kim aytdi? -
kotib, qo'shni yigit
2. Qoqqan qoziqdek qaqqayib turgan kim? – pochchasi
3. Tosh qotib qolgan kimlar? – ona va opa
4. Kalxatlardan qo'rqqan jo'jalar – opa-ukalari
5. Nog'oraga o'rgangan harbiy ot – bola
6. Trotskiy chilarning «dum»i – bolaning otasi

Topshiriq: Matndan manzara, narsa-buyumlar va qahramonlar siymosining tasvirlarini toping.

1. Hovli-Ikki xonadan iborat, oldi ayvon, ikki qavatli, ulkan darvozali o'sha zamon imkoniyatiga ko'ra tuzukkina uy. Bu uyda bir necha xonadon yashar edi.
2. Bolaxona – u yerda quruq pichan saqlanadi, bekinmachoq o'ynaganda «jon saqlardik».
3. Yog'och va temir qoziqlar qoqilgan mol bozori
4. Tikanli sim bilan o'ralsan qal'a
5. Uzun, tor nimqorong'i yo'lak

Timsollar tasviri portret janriga asos bo'ladi. Ular bilan tanishib qahramonlar ma'naviyati haqidagi mulohazalaringizni aytинг.

1. Ota - to'ladan kelgan, novcha, to'mtoq mo'ylov, qirraburun, xushqad, salobatli kishi-ko'krak cho'ntakli yashil kostyum va galife shim kiygan, oyog'ida g'arch-g'urch etik kiygan. Qamoqxonadagi ko'rinishi- Barvasta, to'la odam cho'pday ozib, lunjlari ichiga botgan, ko'zları kirtayib, qiyg'ir burni so'rrayib qolgan. Horg'in, diy dasi qattiq, o'ktam, kamgap odam. 2. Mehmonlar - yashil galife shim va gimnastyorka kiygan o'rtalash yashar ikki kishi bilan qizil ko'yakli, ko'zları qiyg'och bir aylol. 3. Qo'shni - Shahar komsomol qo'mitasining kotibi, yosh, xushqad, xushsurat yigitcha. O'zi juda kelishgan bo'lsa ham, ichi qora, ikkiyuzlamachi odam. To'yida to'yoshi bo'lgan, hatto moddiy yordam bergen odamni qashqirga, bolasini qashqirchaga o'xshatib taxqirlaydi.

Topshiriq: Rassom bo'lganinigizda qaysi epizodni tasvirlagan bo'lar edingiz?

Qora kun tasviri – Uyda qiy-chuv boshlangan, katta opamlar o'rtalash eshikda haykalday qotib qolgan dadamlarning bo'yniga osilib yig'lamoqda, opamlar ham ularning elkasiga suyanib, unsiz

titramoqda. Kichik opamlar bilan ukalarim burchakka tijilishib, xuddi kalxatlardan qo'rqqan jo'jalardek ko'zları ola-kula, bir-birining pinjiga kirib olishgandi. Mehmonlar esa ranglarida-rang yo'q tippa-tik serrayib turishardi. Harbiylar esa har bir joyni bittalab ko'zdan o'tkazmoqda edi.

Vidolashuv kuni- Oyisi yuzini ro'moliga yashirib, jimgina titrab yig'lashi, opasining ota bo'yniga osilib faryod chekishi, bolaning ota tizzasini quchoqlab, dod solishi, devorga osilgan soatning millari 11dan 15 minut o'tayotganini ko'rsatishi kabi...

O'qituvchi - Endigi topshiriq bahs munozara bo'lib, unga kirishish uchun quydagi savollarga javob berishingizga to'g'ri keladi.

1. Nega bola «mehmon» so'zidan ko'ngli yorishdi?
2. Shahar bog'idagi tantana nima sababdan uyuştirilgan?
3. Insonlarni yuziga qarab baho berish mumkinmi? Qaysi obraz o'z qiyofasini o'zgartirdi?

O'qituvchi - Matndan olingen quydagi parchadan Ota va bola munosabatiga dalilli detallar topib bahslashasiz. Biz bu bahsda qatnashganlarni «Debatlar» deb ataymiz. Guruhlar ikki tomonda turib, masalaga ijobji va salbiy fikr aytishi joiz.

«O'sha kungacha men otamning biror marta boshimni silaganlarini bilmadim. Onam grafindagi teshikka ko'zları tushib, qo'limdan ushlagancha ichkariga sudradilar.

-Do'konda qimiz yo'q ekan, bu ham etmagandek, o'g'lingiz grafinni sindirib qo'yibdi. Ota shitob bilan qadlarini rostlab, grafinni menga qarab otdilar. Zarb bilan otilgan grafin qulog'imdan o'tib (chamasi jonholatda boshimni olib qochgan bo'lsam kerak) devorga tegib chil-chil sindi.»

1. Ota –zolim, qatiqqa'l odam. Onasi ham so'rab-surishtirmay otasining qahriga duchor qildi.
3. Ota qilgan ishidan pushaymon bo'lgan. Hatto muzqaymoq olib berolmaganidan attang qiladi.
4. Ota bolasining boshini biror marta silamagan. U tabiatan qattiqqa'l, diydasi qattiq odam.
5. Otasi ur kaltak, sur kaltak tagidan chiqolmay, ishdan haydala-haydala qishloqqa qaytib, ko'kragini zaxga berib yotgan paytlar bo'lGANI uchun jahli tez bo'lib qolgan.
6. U grafinni ko'proq qadrlaydi, bo'lmasa mo'ljalga olib otarmidi... Shuning uchun bola ham otaga mehribon emas.

Masalan: tortmani mix bilan oolib berishi, kapitanning maqtovidan g'ururlanishi, tintuvda ko'ziga yosh olishni istamagani...

- Ota boshiga musibat tushishini sezib, xalovatsiz edi. Otasi so'fi bo'lgani uchun katta lavozimlardan olingan edi. Qamalgan paytida xotini Gulshanga: - Ayol boshing bilan besh bolani qanday boqasan?» deyishlaridan u mehribon ota.

O'qituvchi - Siz hikoyadagi bola, uy, davrga munaqqidlardek munosabat bildirib hozirgi kun bilan qiyoslang. Diagrammasini ishlab chiqing.

- Ilmesevarlar guruhi. Bolaning diagrammasi: Hikoyadagi bola qiziqvchanligi bog'da bo'ladigan karnay-surnay sadolari ostida o'quvchilarning saf tortib yurishlarida, muttasil bo'lib turgan mitinglarni kuzatishlarida seziladi. U otasining dushmanlar safida bo'lib qolganidan ezilgan. Bilimga chanqoq, sho'x, xotirasi mustahkam, o'yinqaroq, mehribon ... Hozirgi bolalar ham sho'x, o'yinqaroq, mehribon, qiziqvchan.
- To'g'riso'zlar guruhi. Davrning diagrammasi: Davr shunday yovuz ekanki, hatto bolani otaga dushman qilib qo'yar ekan. Sho'ro zamonida o'z otasini dushman sanab, qizil askarlarga tutib bergen Pavlik Morozov qahramonga aylantirilib, o'quvchilarga ibrat qilib ko'rsatilgan. «Xalq dushmanlari» sifatida qanchadan-qancha begunoh yurtdoshlarni abgor qiladigan mitinglar, karnay-surnay nog'oralar ostida pionerlarning saf tortib yurishlari, yolg'on aqidalar bilan hukumat xalqni aldagani ekan. Biz «Qatag'on yillar» haqida tarixdan yaxshi bilamiz. Shu tufayli oilalarning boshiga kulfat tushgan, yaqinlaridan ajragan. Mustaqilligimiz tufayli tarixiy shaxslar o'rGANilib, qoralangan xalq dushmanlari oqlandi, tariximiz, ajdodlarimiz merosi qayta tiklandi. Hozirda oddiy gap uchun, ota-onasi uchun qamashmaydi. Bolalarini taxqirlashmaydi. O'zlarini bemalol himoya qilish huquqiga ega.
- Izquvarlar guruhi. Insoniy fazilatlar diagrammasi: Hikoyadan shuni angladikki, zamon juda qaltis bo'lgan. Odamlar qo'rquvda yashaganlar, hatto mehmonga borish ham muammo ekan. Hikoyadagi mehmonlar sarson bo'lib, qaytayotganlarida NKVD xodimlariga tilxat yozib, ruxsat olishlaridan ko'rini turibdi. Yaqin odamlarga ham ishonch yo'q. Bir devor

qo'shnisi ham otasi qamalganda qashqir deb haqoratladi. Bugun Trotskiylarning «dum»larini fosh etib, otashin nutq so'zlagan notiqlarning aksariyati o'zları «dum» ga aylanib, fosh etilganlar ro'yxatiga tushib qolarkan. Kimga ishonishingni bilmaysan.

Hozirgi davrda esa tinchlik barqaror. Xalqimizga azaldan xos bo'lgan hamjihatlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, saxovat va mehmondo'stlik kabi insoniy fazilatlar yorqin namoyon bo'lmoqda. Chunki muhit, davrimiz yaxshiligidan odamlarning ruhi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

4. Zukkolar guruhi. Uy, sharoitlar diagrammasi: O'sha zamonda eng tuzuk uyda ham sharoit yetarli bo'limgan. Muzlatgich yo'qligidan go'shtni quduqda saqlashar ekan. Dasturxonada nozne'matlar etarli emas. Chunki otasi qamalganda mehmonlarga qo'yilgan narsalardan ul-bulini berib yuborishdi. Vidolashuv kuni ham bug'doydan talqon qilib berishdi. Sharoit og'ir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan uylarimizning ko'rinishi ham, qurilishi ham o'zgardi. To'kin-sochinlik tufayli zamonaviy ikki-uch qavatli, ko'p xonali va barcha sharoitga ega hovli-joylar bor. Xonadonlarda gazlar yonib, o'tinga ehtiyoj sezilmaydi. Muzlatkichdan tortib to kirni o'zi yuvadigan mashinagacha bo'lib, hamma sharoitlar muhayyo.

O'qituvchi: Men «Tarbiya» jurnalining 2007-yil, 5-sonida Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyasi xususida jurnalist bilan qilgan suhbatini ilova qilmoqchiman.

«Biz ota tarbiyasini deyarli ko'rmaganmiz. Otam qamalganida 7-8 yoshda edim. Otamiz nohaq qamalib, 1943-yil qish oylarida Uzoq Sharqdagi qaysi bir o'rmon xo'jaligida daraxt kesayotganda yiqilib, o'lgan ekan. Biz buni 12 yil o'tib bilganmiz. Shunday nohaqliklarga ham chidab onamiz besh bolani boqish uchun erkaklar bilan barobar zavodda ishlagan. Zo'rg'a kun kechirsak ham, bizni o'qitishgan. Ukam Erkin sovuqdan qotib o'lgan. Katta opamning turmush o'rtog'i, pochchamiz Ne'matullo Matmusayev o'qituvchi, ziyoli inson bo'lib bizga ta'siri bo'lgan. Afsus, undan «qoraxat» kelgan. Opam qishloqdagagi do'konda sotuvchi bo'lib ishlagan. Men ham 15-16 yoshimdan hisobchi bo'lib ishlaganman. Demak, bolani yoshligidan mehnatga o'rgatsa, tarbiyasi yaxshi bo'ladi.

Yana shu haqiqatni angladimki, farzandga yaratib berilgan barcha imkoniyat, sharoit uni xudbinlikka yetaklaydi. Men qattiqqa'l

ota bo'lganman. Sho'x, qiziqqon to'rt o'g'ilni tarbiyalashda qattiqqo'lligim qo'l keldi.

Farzand va nabiralarim ardog'ida to'g'ri tarbiya mevasidan bahramand bo'lib yashab yuribmiz»

O'qituvchi: Shunday ekan, «G'oyalar yig'indisi» taxtasiga qanday xulosalaringizni taqdim etasiz.

1. Avvalo mustaqqiligmizni qadriga yetishimiz, Vatanmiz taqdiri, uning buguni va kelajagi uchun ma'suliyatni his qilaylik.
2. Vatan oldidga farzandlik burchimizni oqlab, ajdodlarimizga munosib voris bo'laylik.
3. Ota-onamizning, shirin turmushimizning qadriga yetaylik.
4. Bizga qilingan sharoitlardan to'g'ri xulosa chiqarib, ilm olishda toliqmasdan harakat qilaylik....

Guruhlarning yiqqan kartochkalari asosida g'olib guruh aniqlanadi. Eng faol o'quvchi ko'rsatiladi. O'quvchilar o'zlarini baholaydilar.

Uyga vazifa: Hikoyadan olgan taassurotlaringiz asosida taqriz yozing, tasvirlarga rasmlar chizib keling.

O'TKIR HOSHIMOV IJODI. «DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR»

5-sinfda O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodini o'rganish, «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» asarining tahlili uchun ikki soat vaqt ajratilgan. Qo'shimcha o'qish uchun adibning «Dunyoning ishlari» qissasi tavsiya etiladi.

Darsga Uilyam Metyuening quyidagi fikri shior qilib olingan: «Hamma qobiliyatlarning sarvari fikrdir».

Darsning maqsadi: O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, insoniylik fazilatlarini shakllantirish. Matn yaratishga o'rgatish.

O'qituvchi darsni O'tkir Hoshimovning hayoti, ijodi yuzasidan lahzalik savollardan iborat anketa tarqatishdan boshlaydi.

O'quvchilar quyidagi anketa savollariga javob berishlari kerak:

1. O'tkir Hoshimov tavallud topgan yil – 1941-yil 9-avgust.
2. Otasi – ishchi, kitobni, qiroatxonlikni sevgan.
3. Onasi – Hakima aya go'zal fazilatlar egasi.
4. Bolaligi o'tgan joy – Do'mbirobod.
5. O'tkirga xos tabiat – donishmandlik.
6. Bolalikda eshitgan dostoni – «Kuntug'mish».
7. U necha yoshda ijod qila boshladi – 12 yoshdan.
8. Dastlabki ijodi qanday boshlandi – she'rlar yozishdan.
9. Birinchi kitobi – «Po'lat chavandoz».
10. Uning ijodiga baho bergan talabchan yozuvchi – Abdulla Qahhor
11. Asarlarida ulug'lanadigan fazilatlar – jonkuyarlik, fidoyilik.
12. Onasiga bag'ishlangan asari – «Dunyoning ishlari»
13. Qissaning yozilgan vaqt – 1981-yil.
14. Asar qanday hikoyalardan tashkil topgan - mustaqil .
15. Hikoyalarning barchasini qanday timsol birlashtiradi - Ona.
16. Adibning romanlari - «Cho'l havosi», «Bahor qaytmaydi», «Nur borki, soya bor», «Qalbingga quloq sol», «Ikki eshik orasi» kabi...
17. Sahna asarlari: «To'ylar muborak», «Sizdan ugina, bizdan bugina»
18. Yozuvchining olgan mukofotlari: O'zbekiston xalq yozuvchisi (1991) «Dunyoning ishlari» qissasi uchun Oybek nomidagi (1982) hamda «Ikki eshik orasi» romani uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga (1986) sazovor bo'lgan.

O'tkir Hoshimovning asarlari chop etilishi bilanoq qo'lma-qo'l bo'lib ketadi. Negaki, ularda inson qismati, inson dardi, quvonchi,

iztiroblari bor. Va sizga havola etiladigan ushbu «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» asarida ham inson qismati. tabiat va jamiyat taqdirini o'ylab, kuyunchaklik bilan yozgan mulohazalari o'rinni olgan. O'quvchilar bitiklardagi ma'nolarni yanada uqishlari, his qilishlari uchun adibning asarlaridan olingan quyidagi parchalar kodoskop orqali berilib, qiroat bilan o'qiladi:

1. «Inson bolasining fe'li qiziq bo'larkan. Kechagi kuningdan qancha uzoqlashsang, unga shuncha bog'lanib qolarkansan. Go'daklik chog'imda keksa ammam har kuni qulog'imga quyadigan gapni keyingi paytlarda bot-bot eslaydigan bo'lib qoldim. «Bolam! Odamning ikki yelkasida ikki farishta o'tiradi. O'ng yelkangdag'i farishta qilgan savoblarining hisoblab beradi, chap elkangdagisi qilgan gunohlarining hisoblab boradi. U dunyoda hammasini taroziga solib ko'radi. Savobing ko'p bo'lsa, jannatga kirasan. Gunohing ko'p bo'lsa, do'zaxga tushasan». Yoshim ellikka kirib ushbu sodda va buyuk falsafaning mohiyatini endi chuqurroq anglagandek bo'ldim». (Ta'zim. Saylanma. 2-jild).

2. «O! Endi haqiqat izlab qoldingmi? Haqiqat kuchda, degan shiorni qonun qilib olgan sen emasmid! Qancha zolimlik qilsam, shuncha haq bo'laman, degan sen emasmid! Rost, hozir ham haqiqatni yer bilan bitta qilib, o'zining rohatini o'laydiganlar bor. O'tirgan kursisidan foydalanib, cho'ntagini qappaytiradi. Avval atrofiga tanish-bilishlarini to'playdi, keyin mol-mulk yig'adi. To'g'ri, hozirgi ablahlarning sen ablahdan farqi yo'q. Ammo ertami-kechmi hamma narsaning hisob-kitobi bo'ladi. Haqiqat degani – aslida mana shu! Absolyut haqiqat degani shu!». («Ikki eshik orasi» romanidan).

3. «Onaning yosh-qarisi bo'ladimi? Mehrning yosh-qarisi bo'ladimi? Shafqatning-chi? Sadoqatning-chi? Ilgarilari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmash ekan. Ona – ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas».

4. «Otasi boshqa aylolga uylangandan keyin Xo'ja avvalgidan ham ma'yus, indamas bo'lib qoldi. Oyisi mehribonchilik qilgan sayin o'zini olib qochadi. O'shanda bir narsani bilmagan ekanman, keyin tushundim. Odam o'zining nochorligini qanchalik chuqur his qilsa, shuncha mag'rur bo'larkan».

5. «Otamning jahli yomon edi. Badjahl bo'lib, aka-ukalardan birontamizni chertgan emas. Biroq onam: «Hoy, ehtiyot bo'l,

adangning jahllari yomon!», deb shunchalik uqtirib qo‘yganki, otamizni ko‘rishimiz bilan hammamiz yuvosh tortib qolardik». («Dunyoning ishlari» qissasidan)

6. «Televizorda «Inson sadoqati» spektaklini ko‘rib... yuragim yomon bo‘lib qoldi. Bir vaqtlar men ham Elyorning onasi singari o‘z «baxt»ga ergashib, Chimkentga ketib qolganman, bolamni tirik yetim qilgan edim... Endi kech...» (Muallif pochtasidan)

7. «Bu xatni sizga g‘amboda bir ayol yozmoqda. Mening o‘g‘lim Afg‘onistonda halok bo‘ldi: jasadi temir tobutta keldi... Ona uchun bundan ortiq azob bormi? Adoyi tamom bo‘ldim. Ko‘zimga o‘limdan boshqa narsa ko‘rinmay qoldi...»

8. «Robiya! Men o‘lgan emasman, ishon!

Ishon, Vatanimning yuragidaman!

Tinchlikni istagan jami odamning

Oppoq orzulari, tilagidaman!

Ergashali aka mina ostida

Qiyma-qiyma bo‘ldi, o‘zim ko‘rganman.

Vasya amakining shilinib ketgan

Jasadini tortib, yerga ko‘mganman.

Dahshat! Nimasini aytay Robiya!

Kuygan bolakayning ko‘zhalari yo‘q!»

(«Ikki eshik orasi»ni o‘qib... Muallif pochtasidan).

Har bir o‘qilgan parchalarni o‘quvchilar qaysi bitiklarga ma’no jihatdan to‘o‘ri kelishini topadilar. Va ularni turli ruknlarga ajratadilar: Do‘slik – oltindan qimmat. Noming o‘chsin urush. Ota - aql, ona – idrok. Rost gap - haq gap. Mag‘rurlik - jasorat kabi... Matn ustida ishslash uchun quyidagi shiorlar ilova qilinadi:

1. Bu yorug‘ olamda Vatan bittadir,

Bittadir dunyoda Ona degan nom. (Abdulla Oripov)

2. O‘lim umid bilan yashashdan, kuchli iroda va hayotga muhabbat, ishonch bilan qarashdan qo‘rqadi.

3. Jannat onalarning oyog‘i ostadir. (Hadisdan)

O‘quvchilar kichik matn yaratishda avvalo o‘z fikrlarini og‘zaki bayon etadilar. Bahs munozara davomida xulosa chiqarishni o‘rganadilar. Ular o‘zlari keltirgan misollarda vatanparvarlik, fidokorlik, mehr-muruvvat, oqibat, qadr-qimmat, hurmat kabi tuyg‘ularga to‘xtaladilar. Bu tuyg‘ular haqidagi maqollardan topib yozish uysa vazifa qilib beriladi. Keltirilgan parchalarni asarning

o‘zidan topib o‘qishga intiladilar. Badiiy kitobga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Iqtidorli o‘quvchilar bo‘lib o‘tgan voqealar asosida kichik hikoyalar yozishlari mumkin.

O‘TKIR HOSHIMOV. «URUSHNING SO‘NGGI QURBONI»

Darsning borishi: Bahs, munozara.

Darsning maqsadi: O‘quvchilarni erkin va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.

Darsning jahozi: O‘tkir Hoshimovning «Urushning so‘nggi qurboni» hikoyasi, «Nurli dunyo» va «Umr savdosi» saylanma asarlari, o‘quvchilar tomonidan asarga chizilgan suratlar. Audio kasseta.

Darsning shiori: Oshkora munozaralar tufayli xatolargina emas, balki eng yomon be‘maniliklar ham tezda bartaraf etiladi.

(M.E. Saltikov – Shchedrin)

Bahsda go‘yo sen uchqur toysan.

Qizishmasang, ko‘p yiqilmaysan.

(Nosir Xisrav)

Guruhlarning shiori: 1. Odamzot uchta narsaning qadrini hamisha kechikib tushunadi: sog‘lik, yoshlik, tinchlik. (O‘tkir Hoshimov). 2.Oadamxo‘rlik (kannibalizm) bundan besh asr ilgari barham topgan deyishadi. Bilmadim... Menimcha odamxo‘rlik bugun ham davom etyapti. Modomiki, er yuzida urush balosi bor ekan, shuning o‘zi odamxo‘rlik! (O‘tkir Hoshimov)

3. Robiya, odamlar eshitsin, aytgin:

Noma‘lum askar – men mag‘rur har mahal

Mangu olov bo‘lib, o‘chmas nom bo‘lib

Qalbingda tiklangan haykalman, haykal!

(«Ikki eshik orasi» romanini o‘qib, Nodira..)

Dars o‘quvchilarga mazkur hikoyaning bir epizodini magnit lentasidan eshittirishdan boshlanadi. (Shoikrom uxladimi, yo‘qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig‘ladimi, yo tashqarida shamolning guvillashi aralash dahshatli bir faryod qulog‘iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o‘rnidan turib ketdi. Ayvon chirog‘ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko‘rdi-yu, dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi.

«Boshqalari qochdi» degan fikr lip etib hayolidan o'tdi. Pushtalar ustida sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog'i botib ketayotganini payqdadi. Keyin g'ujanak bo'lib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to'xtadi-yu, birdan cho'kkalab qoldi. Bir lahma ko'zlarini olayib tikilib turdi-da, ko'ksidan shamol g'uvurini ham, o'z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otolib chiqdi: - Oyi-i-i!)

O'qituvchi: Siz ushbu asar bilan tanishsiz. U qanday nomlanadi? Epizoddan qanday xulosa chiqardingiz?

Munozara uchun savollar:

1. Asar nima uchun «Urushning so'nggi qurboni» deb nomlangan?
2. Urushning so'nggi qurboni kim? U nima sababdan qurbon bo'ldi?
3. Urush Shoikromning ongiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
4. Nima sababdan Shoikrom hayotdan hursand emas?
5. Shoikrom kimgardan o'ch olmoqchi edi? Uning qalbida o'ch olish tuyg'usi qay tarzda paydo bo'ldi?
6. Bu tuyg'u Shoikromni yaxshilikka olib keldimi? Qanday voqeа sodir bo'ldi?
7. Nima sababdan Shoikrom xotini yolg'on gapirayotganini bilib tursa ham, uni qoralashni istamaydi?

O'qituvchi: Savollarga bergan javoblariningizdan asarni yaxshi o'rganganingiz bilinib turibdi. Endi qoralovchilar va oqlovchilar guruuhlariga bo'linib, o'zaro hamkorlikda darsimiz shiorlaridan birini tanlaymiz. Munozarada faol ishtirok etishingiz kerak. Ayting-chi, sodir qilingan qotillikda Shoikromni ayblast mumkinmi?

Qoralovchilar guruhi: Ha, asosiy aybdor Shoikrom. Uning ko'ngli hech narsadan to'lmaydi. O'z shaxsini o'ylaydigan ichi qora odam. Bolalarining ko'pligidan ranjiydi. Xudoga shukur qilishni bilmaydi. O'g'irlangan sigiri uchun hammadan alamzada.

Oqlovchilar guruhi: Shoikrom – ko'ngli nozik yigit. U har bir narsaga e'tibor beradi. Sopol tovoq, bandi kuygan qoshiq, hattoki shinni dog'i qotgan quroq dasturxon ham, ter hidi anqib turgan lo'labolish, kunlar isib keraksiz bo'lib qolgan sandal ham uning g'ashiga tegadi. Xotinining pishiqligidan uni hurmat qilmaydi.

Qoralovchilar guruhi: Shoikrom - bemehr inson. U keksayib qolgan onasidan, o'lim to'shagida yotgan ukasi Shone'matdan haftalab xabar olib turmaydi. Hatto kechasi bezovta bo'lib yig'layotgan chaqaloqning, o'z bolasining ovozi ham unga yoqmaydi.

Oqlovchilar guruhi: Bu fikringizga qo'shilmayman. Shoikrom la' nati urush tufayli kambag'allashib ketgan. U ertadan yarim kechagacha Tekstilda ishlaydi. Horg'in holda ishdan qaytadi. Umri xola chiqqan kuni choy ichib o'tirib, onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini ko'rib eziladi. Ukasidan xabar ololmaganidan afsuslanib xo'rsinadi. Ocharchilik, qashshoqlikda uchta bolani boqish og'irligidan urushda o'lib ketishni afzal ko'radi.

Qoralovchilar guruhi: U har doim yomon narsalarni o'ylab yuradi. Masalan: Ukasini ko'rgani kirganda uning qoqsuyak bo'lib qolganini ko'rib «Yaqinda o'ladi, baribir o'ladi», - deb xayolidan o'tkazadi. Ilhom samovarchining xotini echkisini o'g'rildan olib qolmoqchi bo'lganida uni pichoqlab ketishganini bila turib xotinini sigirining o'g'irlanishida ayblaydi. U o'z kasbidan ham odam o'ldirish uchun foydalanadi.

Oqlovchilar guruhi: Shoikrom – mehnatkash inson. Suyagi mehnatda qotgan. Otasi vafot etganda, u 6-sinfda, Shone'mat esa 2-sinfda o'qishardi. U ukasi Shone'matni har kuni mакtabga olib borgan, olib qaytgan, ukasini tarbiyalashda onasiga yordamlashgan. Endi shu ukasi uch oydan beri yerga yopishib, qoqsuyak bo'lib yotibdi. Ukasining o'lishi muqarrarligini bilib, unga achinadi. U hammasi uchun o'zini aybdor hisoblaydi. Ukasini urushga olishmaganida qancha suyungan edi. Afsuski, u sil kasal ekan. U odamlarning og'irini yengil qilish, xonadonlarga nur olib kirish, to'yxonalarni charog'on qilishga o'rgangan. Faqat yaxshilikka xizmat qildi.

Qoralovchilar guruhi: O'sha kuni oqibati nima bilan tugashini bilgan holda simni tokka ulab, qulupnay pushtalari orasiga tashlab qo'yan. U o'g'ri bahona ichidagi yomon niyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan.

Oqlovchilar: Shoikrom o'sha tunda ko'p o'yladi. Ilhom samovarchining xotinini pichoqlab ketishgani, o'zi bilan ishlaydigan bir yigitning g'arq pishib yotgan uzumlarini o'g'irlab ketishgani, qolaversa, erta bahorda tug'ay deb turgan sigirining o'g'irlanishi, non puli bo'lar deb yetishtirgan mevalaridan judo qilishayotgani uchun o'g'rildan qasos olmoqchi edi.

Qoralovchilar: U qotillikka qo'l urar ekan, o'z ishidan zavqlanadi. Xotinini «hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o'ladi»

deb ogohlanitiradi. Ko'rinib turibdiki, Shoikrom qotillikda, qasddan odam o'ldirishda ayblanadi.

Oqlovchilar: Biz Shoikromni qasddan odam o'ldirishda ayblanadi degan fikringizga qo'shilmaymiz. U qulupnay pushtasi ichida yotgan odamni ko'rib dahshatga tushadi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini anglaydi. Titroq qo'llari bilan loy changallagancha cho'kkalab ko'ksiga mushtlaydi. U aybdor ekanligidan ko'z yumayotgani yo'q. Og'ir va nochor hayot uni charchatgan. Shoikrom bu ishi uchun bir umr armonda yashaydi, ma'naviy jazoga hukm etiladi.

O'qituvchi: To'g'ri, Shoikromday mehnatkash, sabr-qanoatli odamda ham faqat o'zini o'ylash, xudbinlik, shafqatsizlik kabi illatlarini nima yuzaga chiqardi?

O'quvchilar: Urush. «Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqiganidan buyon yomon ko'paydi» deganda yozuvchi haq edi. Ana shu yomonlarning harakatlari Shoikromday yigitning ham ongiga ta'sirini o'tkazdi.

O'qituvchi: Endigi bosqichimizda hikoyaning boshqa personajlari hatti-harakatlarini chuqurroq o'rganib tahlil qilsak. Bu bizga qotillikni keltirib chiqargan ba'zi sabablarni topishimizda yordam beradi. Izquvarlar va zukkolar qotillikka dahldor bo'lgan isbot va dalillarni keltirishi bu ishimizga aniqlik kiritadi..

Izquvarlar: Ushbu qotillikda Xadichaning ham aybi bor. Chunki Shoikromga turmushga chiqib, uni tubdan o'zgartirib yubordi. Shoikromday mehribon yigitni o'z shaxsini o'ylaydigan, qizg'anchiq, xudbin yigitga aylantirdi. «Erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin», deb bejiz aytishmagan dono xalqimiz. Bu xonadonga Xadicha kelin bo'lib tushibdiki, oilada tinchlik yo'q. Uning injiqligidan, ikir-chikir gaplar chiqaverganidan Umri xola ularning qozonini boshqa qilib berdi.

Zukkolar: Bizning fikrimizcha, qotillikni sodir etilishida qo'rquv va o'sha kungi ob-havoning ham ta'siri bo'lgan. Shoikrom Xadichaning "Shu kunda yana o'g'ri oralab qoldi" degan gapidan so'ng vahimaga tushdi. U aylanib yong'oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham ko'cha tomondagi devorning bir cheti o'pirilganini, ostiga tuproq to'kilganini ko'rib, yuragi orqasiga tortib ketdi.

Izquvarlar: Xadichaning qurumsoqligi, uy tutishni bilmasligi, ziqnaligi, qaynonasi bilan munosabatining yomonligi Shoikromni

doin g'ashlantirgan. Bolasini ham ovutishni bilmaydi, oqibatda bolasi ham yig'loq bo'lib qolgan. Eri ishdan charchab kelib, bolasining yig'i ovozi yoqmay, uni tinchlantrishini so'raganda Xadicha darrov beshikni mushtlab zarda qiladi. Bolalariga qarashadigan qaynonasidan ovqatini qizg'anadi. Yolg'on gapiradi.

Zukkolar: Shoikromni qo'rquv bosadi. U Ilhom samovarchining xotinini so'yib ketishganini eslaydi. O'zi smenada kechasi bilan qolib ketsa, xotini uchta jo'jabirdek jon, jon hovuchlab tong ottirsa, o'g'riga o'janing katta-kichigi bormi? Bordi-yu, o'zi yo'g'ida uyini o'g'ri bossa, xotini dod salsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa.. «Vijdonsiz! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalaniq qoladiganlarni qirish kerak», degan o'y keladi. Qo'rquv nafratga aylanadi.

Izquvarlar: Xadicha o'sha kuni vahima qilib erini gjigjilamaganda, bir hovuch qulupnayga bir kosa jo'xori beradi, demaganida Shoikrom o'sha tokni simga ulamasmidt. Erining - Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o'ladi! - deganiga qiziqmaydi ham. Bemalol kirib uxbaydi.

Zukkolar: Shoikromning sigiri yo'qolgan kuni ham rosa jala quygan edi. Bugun ham osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, shamol o'kiriyapti.. O'g'rilarga bo'lgan nafrat qo'rquvni yengdi. «Menga desa otib yubormaydim!- deb o'yladi u ayvon labiga cho'qqayib o'tirganicha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan: «Harna bitta xaromxo'rni o'ldirganim. Bittasi o'lsa, boshqalari adabini yeysi» deb, a'zoyi badani terlab ketgan edi. U qilayotgan ishining oqibatini o'laydigan holatda emas edi. Simlari yaxshilikka xizmat qilayotganiga imoni komil edi.

Izquvarlar: Xadicha shu qulupnay tufayli bulturgi yili qaynonasini qattiq ranjitgan edi. Bir hovuch qulupnay olganiga, norastalarning nasibasiga tegmang, deb bobillab bergen edi. Yoz bo'yi Umri xola bilan yuz ko'rmas bo'lib yurgandi. Xadicha shu oilaga qayishganida, qaynisining holidan xabar olib turganida qotillik yuz bermasdi.

Zukkolar: Bu voqeani sodir bo'lishida Umri xolaning o'zi ham aybdor. Negaki, Umri xola qishloqda bo'layotgan o'g'irliliklardan xabardor edi. O'g'lining sigiri yo'qolib, alamzada bo'lib yurganini bilardi. Kelinining injiqqliklariga barham berishi, o'g'liga Shone'matning og'ir ahvolini tushuntirib, qulupnayga sut olishini

bildirishi kerak edi. Shone'matning qarshiligidagi qaramay Umri xolaning yarim kechada o'g'lining hovlisiga o'g'irlikka kirishi, farzandlariga o'z fikr-o'ylarini ochiq-oydin aytmaganligi, xokisorligi, har qanday sharoitda ham bolasini o'ylaganligi uning o'limiga sababchi bo'ldi. 1945-yil 8-may kuni kechqurun o'g'li tomonidan o'ldirildi. Urushning so'nggi qurbanini bo'ldi.

Izquvarlar: Asosiy aybdor urush. Urush bo'lmanida ocharchilik, qashshoqlik bo'lmasdi. Odamlar xudbinlik qilishmasdi. Yozuvchi ham urushni qoralaydi. Bu hikoya hajm jihatidan kichik bo'lsa-da, urushga qarshi yozilgan eng katta aybnomalardan hisoblanadi. Yozuvchi «Ikki eshik orasi» romanini orqali ham hech qachon urush bo'lmasligi kerak, deb ogohlantiradi.

Izquvarlar: Biz to'g'ri yo'l tanlashimiz uchun «Urushning so'nggi qurbanini» hikoyasiga o'xshagan kishini o'ylantiradigan asl kitoblarni ko'p o'qishimiz, mutoala qilishimiz kerak. Har qanday sharoitda ham kishi o'z bilimini oshirib, dunyoqarashini o'stirishga harakat qilishi kerak bo'ladi. Kitob bizning doimiy hamrohimiz, do'stimizdir.

O'qituvchi: Bundan ko'rinish turibdiki, ma'naviyati yuksak odam hayotda qoqlilmaydi. Har qanday vaziyatdan osonlikecha chiqib ketadi. Turmush chigalliklarini yechishda aqliga, farosatiga tayanadi. Shiorlarimizdan kelib chiqib tinchlik, sog'liq va yoshlikning qadriga yetishni o'rganishimiz kerak. Bugungi bahslarimiz ham qilgan xatolarimizni, kamchiliklarimizni o'rganishda, tuzatishda yordam beradi deb o'layman. Tinchlikni ko'z qorachig'imizdek asraylik. Darsga yakun yasar ekanmiz, uyingizda «Mustaqil O'zbekiston tinchlik yo'lida» mavzusida insho yozib keling. Ta'tilda O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanini o'qib olishga harakat qiling.

MUHAMMAD ALINING «GUMBAZDAGI NUR» DOSTONI

Darsning maqsadi: Dostonni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarni erkin va sog'gom fikrashga o'rgatish, milliy qadriyatlarni e'zozlash – avlodlar burchi ekanligini uqtirish, madaniy meros va ota-bobolarimiz ruhiga bo'lgan hurmat tuyg'usini o'stirish.

Darsning jihози: Ko'rgazmalar, Muhammad Alining asarlaridan namunalar, dostonga ishlangan suratlар, Amir Temur portreti va Toshkent, Samarkand, Farg'ona tasvirlari.

Darsning shiori: 1. O'tmisht va tariximizni o'rganaylik, chunki o'tmishtini bilmagan xalqning kelajagi bo'lmaydi.

2. Yana keldim, Ey, tarix bobo,

Sendan yana talab qilurman

O'z haqqimni qilomoqni da'vo –

Haqiqatning yo'li bilurman (M. Ali)

3. Ma'naviy merosimizni qadrlaylik, chunki u xalqimizning eng bebafo boyligidir. (Islom Karimov)

Darsning uslubi: Muammoli dars. Suhbat – munozara asosida.

Darsning asosiy ko'rgazmasi:

FARHOD GESI

KATTA FARG'ONA KANALI

GO'RI AMIR

MADANIY MEROS

INSONIYLIK

GUMBAZDAGI NUR

FIDOIYLIK

HAQIQAT

NAVOIY TEATRI

TOSHKEVDAGI ZILZILA

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar! O'tgan darsda o'zbek adabiyotining zabardast shoirlaridan biri, kitobxonlarni tarix yordamida tarbiyalashga, uning qalbiga ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan insoniy tuyg'ularni singdirishga intilgan, she'riyati bilan nazm gulshanida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan shoir Muhammad Ali ijodiyoti bilan yaqindan tanishdingiz. Keling, bugungi darsimizda shoirning «Gumbazdagi nur» dostoniga to'xtalsak.

Doston sakkiz qismidan iborat bo'lib, vogelikni nafis san'at vositalari, yorqin timsollar orqali tasvirlab bergan. Shunday ekan, siz «Adabiyotshunoslar», «Tilshunoslar» va «Goyashunoslari» guruhlariga bo'linib, qo'yilgan muammolarni hal qilishga kirishsak. Darsdagi bilimingiz, guruhingiz bilan hamkorlikdagi faoliyattingiz uchun rag'bat kartochkasini qo'llga kiritasiz.

Darsda qo'yilgan quyidagi muammolar guruhlarga tarqatma kartochka savollari qilib tarqatildi.

1. Nur deganda nimani tushunasiz, qanday nurlarni bilasiz?
2. «Gumbazdagini nur» haqidagi fikringiz...
3. 1967-yil, doston yaratilgan davr qanday davr edi?
4. Shoir nima uchun Tarix boboga murojaat qiladi deb o'ylaysiz?
5. Dostonning 2-qismida Temur hukmronligi davridagi Samarqand manzarasi nima uchun keltirilgan?
6. Samarqanddagi tengsiz go'zal obidalarni qurgan me'morlar san'ati borasida matnga tayanib fikrlang.
7. Temur harbiy yurishlarining asl bahosi berilgan o'rinnarni topib, mulohaza qiling.
8. Tarix qa'ridan kelayotgan sadolarga munosabatingiz.
9. Katta Farg'ona kanalini qurgan kishilarning «o'n ikkilar»ga qanday aloqasi bor?
10. Doston yozishda shoirning jasorati haqida nima deya olasiz?
11. Shoir: Nega mening shodligim durkun?
Nedan g'amgin kulishim manim, - deydi?
12. Farhod GESi qurilganida tarix qo'ynidan chiqqan ovoz mazmunini izohlab bering.
13. Alisher Navoiy nomli teatr qurilishi jarayonida hayotning davomiyligi aks etgan tasvirni topib izohlang.

O'qituvchi: Mana darsimizning asosiy muammolarini biroz hal qilib oldik. Endi ushbu muammolarga «g'oyashunoslari» guruhi aniqlik kiritadilar. Darsimizning asosiy ko'rgazmasida «Gumbazdagini nur» dostonini nega atrofdagi so'zlar bilan bog'laymiz? O'n ikki memor kimlar edi?

1. «Gumbazdagini nur» dostoni maqbaradan tarqalayotgan nur bo'lsada, u asrlar davomida xalqimizning birdamligi, mehnatsevarligi, vatanparvarligini ko'rsatuvchi nur. U so'nmas nur, har qancha to'siqqa uchramasini baribir o'z yorqinligini, jilosini yo'qotmagan.

O'zidan insoniylik fazilatlarini, adolat, haqiqat, jasurlik, fidoiylik kabi nurlarini hamon taratib turibdi.

2. O'n ikki me'morlar: Gilkor – loy pishituvchi, g'isht teruvchi, ganchkor,naqqosh, koshinpaz - bezakchi, muxandislar edi. "Xalqim! Nokas erur ul farzand, Gar seni deb bo'lmasa fido!" satrlaridan ham ko'rinish turibdiki, anashunday fidokor insonlar me'morlar ekan. Ular xoh yoz, xoh qish bo'lsin tinmay ishlaydilar, qo'sidan poyteshasi tushmaydi. Ajoyib maqbaralar, osmono'par koshonalar qurildi.

3. Me'morlar bir inson umrini o'tab, nom-nishonsiz ketgan bo'lsa-da, 12 me'mor qurgan bu gumbazlar hanuzgacha ezgulik nurini taratib, kishilarni o'ziga chorlaydi. Ular samarqandlik, andijonlik, buxorolik, toshkentlik, lekin ularning shogirdlari vatanimizning har go'shasidan topiladi. Ular doimo el xizmatida, qurgan maqbaralari xalqning esidan chiqmaydi.

O'qituvchi: O'zbek millatiga mustaqillik nima berdi?

Milliy g'oya deganda nimani tushunasiz?

1. Mustaqillik yurtimizga har tomonlama kafolat berdi. Biz o'z tilimizga, madaniyatimizga, rasm-rusumlarimizga egaligimiz qaytarildi. g'oralangan ajodolarimiz oqlandi. Tariximiz tiklandi. O'zbekistonning ko'rki, jamoli kundan-kun tanib bo'lmas darajada o'zgarib bormoqda.

2. Shoir orzu qilgan tilaklar bugun amalda. Madaniy merosimiz kalitlari qo'limizda. Biz, yoshlarga hamma eshiklar ochiq. O'n ikki me'morning shogirdlari vatanimiz bo'ylab ulkan, zamonaviy, go'zal koshonalar qurmoqdaki, litseylar, kollejlar, maktablar ham anashular qatoridan o'rinni organ. Mustaqillik maydonida qad ko'targan

3. Milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning maqsadlarini ifodalaydigan, o'tmish va kelajakni bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-istikclarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalari tizimidir. Asarda yurtga sadoqat, mehr-muhabbat bor. Og'ir kunlarda millatning birligi tasvirlangan. O'tmishdan qolgan tarixiy obidalarimiz bizning merosimizga aylangan. Bizdan keyingi avlodlar ham uni avaylashlari uchun ogoh bo'lishimiz kerak.

O'qituvchi: Dostonda shoir badiiy san'at turlaridan ustalik bilan foydalangan. Ana shunday o'rirlarni «Adabiyotshunoslar» guruhi topib, badiiy vositalarga misollar keltiradilar.

1. Masalan, jonlantirish ikki yo'sinda bo'lib biri tashxis, biri intoqdir. Tashxis - jonsiz narsalarni jonlantirish, nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash.

«Koshinpazning qo'lida sopol, Ko'ngurlalar aylar ixtiro Naykamalak parchasi misol, Nigohlarni erkalar jilo» kabi.

2. «Qanchalar tez dunyo sur'ati! Munchalar zud u bergan farmon» tashxisiga misol bo'lsa, «Madrasalar mo'ysafidsimon ro'parangda o'qishar duo, «ojizman» deb turar beibo» satrlari intoqqa misol bo'ladi.

3. Irsoli masal – she'rda maqol, matal, hikmatli so'zlarni muayyan maqsad bilan ishlatish usuli. Bunga misollar: «Noring bo'lsa qatorda, qolmaysan hech xatarda», «Donishmandlar bejiz demaslar: Me'mor boshi -palahmon toshi», «Otalar der keltirib imon: Savob bo'lar hech bo'limganda - o'tganlarni eslab har qachon gul dastalash ushbu chamanda» kabilar.

4. Mubolag'a - bo'rttirish. Narsa, shaxs, voqeа-hodisaning muayyan jihatlarini kuchaytirib tasvirlash usuli. Tablig'- amalda bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish.. Ig'roq - amalda qilish mumkin bo'lmaydigan xususiyat. Misollar: «mehnat o'pgan qo'llaaringdan», «yerni quchgan metin poydevor», «ishchi xalqining qo'li oltin bo'lgan hamisha» kabi.

5. «Tarix tilga kiradi bir kun», «do'ppi aylanar bir bor, yuz yil, ming yil deganlarida», «ufq asti yamlaydi oftobni, qarag» kabi satrlar ham mubolag'aga misol bo'la oladi.

6. Apostrofa - jonlantirishning bir ko'rinishi bo'lib, jonsiz narsa yoki hodisaga jonli narsadek qarash. Masalan: «Yana keldim, ey, tarix bobo, Sendan yana talab qilurman. Boq, ey tarix, ohista yelar. Ne yillarning dudli sabosi» satrlarida tarix jonlantirilgan.

7. Istiora – metafora so'z ma'nolari ko'chishining bir turi bo'lib, u narsa-hodisalar o'tasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Bunga quyidagi satrlar misol bo'la oladi: «Yulduz sifat ochilgan chanoq, Chopar zoti – xuddi zamona!, Chaqmoqday tez u mingan tulpor!, o'n ikki jon – yo'qolgan gavhar, o'n ikki jon – ochilmas tilsim, xuddi yilning o'n ikki oyi, Buyuk poytaxt yashardi go'yo Farog'atning to'shagida mast» kabi

8. G'uluv – tasavvur qilish qiyin bo'lgan, amalda bo'lmaydigan xususiyatlardandir. Masalan: «Go'ri Amir qo'r to'kib mag'rur Pahlavonday menga tikilar, O'shanda ham Tarix entikib,

Eslolmasa yoshligin, inon» kabilardir.

Tilshunoslar: Bu guruh kesimlik so‘zlar, so‘z ma’nosining kengayishi va torayishiga misollar topdilar. «Devor ichra shajara kabi Temir sinchlar tomir otganda» satrlaridagi «shajara» so‘zi daraxt ma’nosida kelganligi, «ne yorug‘ tun, ne qaro kun, xoh qish bo‘lsin, xoh yoz» satrlarida antonim so‘zlar borligi kabi misollarni topishdi. Va guruhlarga «**Aql qasr – Test**» tarqatildi, bu vaqtda magnit lentasidan Mahmudjon Azimov ijrosidagi «Samarqandga borsam men agar» qo‘shig‘i qo‘yildi.

1. «Boqiy dunyo», «Sarbadorlar» asarlarining muallifi kim?
 - A. Rauf Parfi
 - B. Muhammad Ali
 - C. Maqsud Shayxzoda
 2. Shoir Muhammad Alining nasrdagi birinchi asarini toping.
 - A. «Mashrab»
 - B. «Sarbadorlar»
 - C. «Otalar yurti»
 3. Muhammad Ali qalamiga mansub asarlarni belgilang
 - A. «Spitamen», «Mashrab», «Boqiy dunyo»
 - B. «Spitamen», «Sukunat», «Aks – sado»
 - C. «Xotiro», «Mashrab», «Boqiy dunyo»
 4. «Temur Yevropaning chehrasi, Senga kulib boqdi o‘shanda Ko‘p g‘aroyib tarixning ishi, Iltifoti qiziq ekanda...» satrlarida qanday badiiy san‘at qo‘llangan?
 - A. Tajnis
 - B. Tashxis
 - C. Kinoya
 5. «Ne yorug‘ tun, ne-ne qora kun, Kurash ketdi maydon ichinda!» she’riy parchada qanday badiiy san‘at qo‘llangan?
 - A. Tashxis
 - B. Mubolag‘a
 - C. Tazod
- (Test kaliti: 1-B, 2-A, 3-B, 5-C.)
- Guruhlar keyingi topshiriqda «Bahru bayt»ni boshlab yuboradilar:
1. Amir bilar va lekin bu gal Tan olgisi kelmaydi ajab,
Eng suyukli nabira qani? qirqildimi lochin parvozi?
 2. Ishtiyogi sinmas bir yigit, Bir durrani asraydi doim. Garchi shuncha yillar o‘tibdi, Uni bergen Tamaraxonim.
 3. Mittigina bolasan, asli, Xayolingda qiziq xayollar Bunday o‘yga borishar, balki, Dunyonи bir qayirgan chollar
 4. Rost gap, do‘ppi aylanar bir bor, Yuz yil, ming yil deganlarida..
Sobit turgan o‘n ikki me’mor, O‘zbekiston chamanlarida.

- Alisherning ruhin shod etib, qog'oz uzra naqshlar chizgay Roxat topib salgina joni, Yuragining chigilin yozgay
- Yigitlarning qarashi keskir, qaytaradi qilich damin ham. Faqatgina sobit va eski: Labda kulgu, ko'zda qotgan nam.

O'qituvchi: Navbatdag'i topshiriqda «Men kimman?» o'yinini boshlaymiz. Bunda siz topqirligingizni namoyish etishingiz kerak. O'qilgan she'riy parchalardan timsollarni toping:

- «O'tmishda, hattoki, arpa non yer edi» (hamma, xalq)
- «Uning shaxti juda ko'p baland! Yer-u ko'kni u taq tindirar Shu lahzada qaytsa Samarqand, Yana otga uradi egar» (Amir Temur)
- «Eng suyukli nabira qani? Qirqildimi lochin parvozi? Nechun endi uning vatani, Valiahdsiz ketmog'i lozim» (Muhammad Sulton)
- «Yevropaga panja urgali, Ul kishi-usmoniy arslon
Yer titratib ulgurmay hali, Bo'lganida yer bilan yakson» (Boyazid)
- «Ko'rdik ne-ne imorat, Ammo bilmadik g'orat.
Toleyi past yer qadar, himmati osmon edik» (12 me'mor)
- «O'zbekning sho'x, chapdast o'g'loni, o'ttizdag'i tinmas bir yigit.
Bilagida kuchi to'lg'anur, Ishtiyooqi sinmas bir yigit» (Ahmadqul - shoiringning otasi)
- «Nedan mening shodligim durkung' Nedan g'amgin kulishim
mening. Tarix tilga kiradi bir kun, Bugunga men aytay
bilganim...» (shoir - Muhammad Ali)

O'qituvchi: Doston bizni nimaga o'rgatdi?

O'quvchilar: Vatanni sevish va ardoqlashga, o'tmishdan saboq olishga, bobolarimiz merosini qadrlashga, insoniy fazilatlarni e'zozlashga, ma'naviy barkamol inson bo'lishga o'rgatdi. Tarixni bilishga, o'zbek madaniyatini, urf-odatlarini qadrlashga o'rgatdi.

O'qituvchi: Inson ezgulik sari, bilim sari intilar ekan, jaholat chekinadi. Qancha ko'p mutolaa qilsak, badiiy adabiyotlar o'qisak, fikrlash doiramiz kengayadi. Adabiyotning sirli olamiga kirib boramiz, nozik tuyg'ularimiz jo'sh uradi. Dostondan ta'sirlangan parchalaringizni, albatta, yod oling.

Dars «Sitora» guruhining: «Ajdodlar ruxi» qo'shig'i bilan yakunlanadi. O'quvchilar reyting usulida baholanadi.

Uyga Vazifa: Insho «Men sevgan asar»

MUHAMMAD YUSUF IJODINI O'RGANISH

(«Bir kuni», «Qushlar ham yig‘lar» she’rlari asosida)

«Poeziya tavsiflar bilan emas, balki ramzlar va obrazlar bilan so‘zlashi kerak, poeziya tavsif etmaydi va undan nusxa ko‘chirmaydi, balki uni yaratadi», – degan so‘zlar to‘lig‘icha hassos shoir Muhammad Yusuf she’riyatiga ham daxldordir. Chunki Muhammad Yusuf poeziyasida shoir sof tuyg‘ularning go‘zalligini nafis poetik obrazlarda mujassamlashтиради. Shoirning ijodini o‘rganishda o‘qituvchi shoir haqida qisqacha ma’lumot beradi. Ifodali o‘qish va matn ustida ishslash jarayonida o‘qituvchi quyidagilarga alohida e’tibor beradi:

- Muhammad Yusuf she’riyatida mehr – muruvvat tuyg‘ularining badiiy talqini;
- Shoir qalbida paydo bo‘lgan iztiroblarning ifodalani;
- She’rlarning badiiy xususiyatlari.

Darsning ko‘rgazmasi sifatida va o‘quvchilarни kitobxon-ligini oshirish maqsadida Ibrohim Karimning «Begona» xotira-nomasi, Shukrullo ijodining turfa qirralari «Umrboqiylik» kitobi, Muhammad Yusufning she’riy to‘plamlari tavsija qilinadi.

Texnik vositalar: magnitafon, kodoskop.

Darsning maqsadi: 1. O‘quvchilardagi mustaqil erkin fikrlash ma’naviy teranlik xususiyatlarini shakllantirish. 2. O‘quv-chilarda ifodali o‘qish va she’riy asar tahlili ko‘nikmalarini takomillashtirish. 3. Milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash. 4. She’riy go‘zallik va nafosatni his qilishga o‘rgatish.

Darsning shiori:

Shunday damlar yio‘lamasdan yozolmayman she’r.

Senga nima, to‘xtab, yurib, urib turaver.

- Sohibdilim, mayliga-yu, ko‘p yio‘laysan-da,

Qarab tursam, hech bir yayrab sen kulmaysan-da.

(M.Yusuf «Yurak bilan suhbat»)

Darsning uslubi: Ijodiy izlanish uslubi.

Birinchi topshiriq. «Aql qasr – Test» da o‘quvchilar darslikda berilgan savol-topshiriqlar bilan ishlaydilar. Ular yuzasi-dan ikkitadan test tuzadilar va bir-birlari bilan almashib ishlaydilar. Mustahkamlash uchun tuzilgan eng yaxshi testlar savol tariqasida sinfda beriladi. Masalan:

- 1 Shoir badiiy ijodni qachon boshlagan?
2. Muhammad Yusuf she'riyatga qanday munosabatda bo'lgan?
3. Ilk to'plamining nomini aytинг.
4. Qanday she'riy kitoblarini bilasiz?
5. Uning she'rlari nima uchun kitobxonning ko'ngil mulkiga aylandi? kabi...

So'z san'ati inson nutqiga fayz berib, uning ta'sir kuchini oshiradi. Bu haqda O'rta Osiyoning mutafakkiri Abu Nasr Farobi (873-950) o'zining ilmiy ishlarida ovoz, nutqning tarbiyaviy roliga alohida ahamiyat berib, ifodali o'qish zo'r san'at ekanligini aytadi. She'rlarni ifodali o'qishdan oldin barmoq vaznidagi she'rlarning tuzilishi va o'qilishiga e'tibor qaratiladi. Barmoq sistemasiga xos she'rlar cho'ziq va qisqa bo'o'lnlarga ajratilmaydi. Balki hijolar miqdoriga asoslanadi. Bunday she'rlarning misralaridagi hijolar soni bir xilda tekis takrorlanib keladi.

Ikkinchи topshiriq. «Nazm daqiqasi»ning birinchi bosqichi ifodali o'qish bo'lib, unda magnit lentaсидан she'rlar o'qiladi. O'quvchilar she'rlarning o'qilish texnikasiga e'tibor qaratishadi. Va bиргаликда she'rlarni o'qishadi, yod olishadi. Qalamda she'rlarning turoqlarini belgilab turishadi:

Ter=lar oq=di/ suv bo'=lib bir=dan 4+5=9

Va gur=sil=lab/ yi=qil=di te=rak. 4+5=9

A=ka biz=ning/ qil=mi=shi=miz=dan 4+5=9

Tun=da qush=lar/ yio'=la=sa ke=rak. 4+5=9

Uchinchi topshiriq. «Nazm daqiqasi»ning ikkinchi bosqichi ongli o'qishda o'quvchilar she'r mazmuniga e'tibor qaratishadi. She'riy misralarni matnga aylantiradilar. Og'zaki tushungan-larini gapirib beradilar. Ular xulosa chiqarishlaridan oldin o'qituvchi kodoskopdan kitoblardan olingan parchalarni qiroat bilan o'qiydi. «Men tug'ilgan yili quloqlashtirish davri boshlanib, otamni surgun qilinadigan odamlar safiga qo'shib qo'yishdi. Quloqlarni etap qilish punkti to's-to'polon, odamlar dod-faryod ko'targan, qarindosh—urug', yor-u birodarlar xayrashmoqda. 1931-yilning jazirama avgust oyida otam Karimjon amin, buvim Zebuniso, onam Xosiyatxon hamda uchta akam, bitta opam va men – jami 8 kishini uyimizdan haydab, kechasi qizil vagonga xuddi mollarday birin-ketin tiqishdi. Erkak, xotin, bolalar aralash bo'lgan bu vagonda hech qanday sharoit yo'q edi. Qanchalar dahshat! Ammo rus bolsheviklari uchun bular odam emas,

«sinfiy dushman» bo‘lib ularning mol-qo‘ychalik ham qadr-qimmati yo‘q edi» (Ibrohim Karimov. «Begona» xotiranomasi).

«O‘scha yillari xalq orasida Sho‘roga haqsizlik degan gap paydo bo‘ldi. Haqsizlikka duchor bo‘lganlar kimlar edi? Eski kitob o‘qigan mulla odamlar, yana tuzukroq hovli-joyi bor kishilar. Xususiy mulk bahonasi bilan ularning mol-dunyosi musodara qilina boshlandi. Boshqalarga berildi. Xo‘s, yetti-sakkiz bolasini chirqiratib kim o‘z qo‘schnisining, mahalladoshining uy-joyini o‘zlashtiradi? Vijdoni bor odamlar bunday qilmaydi. Lekin shu ishni qilganlar ham ko‘p bo‘ldi. Birovning haqqidan, ko‘z yoshidan qo‘rqmagانلار ham bo‘ldi».

Parchalar o‘qib eshittirilgach, ularga quyidagi savollarni berib murojaat qilish bilan babs – munozara bosqichiga kirish mumkin: 1. Keltirilgan parchalar sizda qanday taassurot uyg‘otdi va shoirning «Qushlar ham yio‘lar» she’riga aloqadorligi bormi?

2. She’rdagi qushlar timsoli o‘rnida uy-joysiz qolgan bolalarni tasavvur qilib ko‘rdingizmi?

3. Mustabid davrning anna shunday og‘ir kunlarida hayot kechirgan insonlar haqidagi o‘ylaringiz...

4. Muhammad Yusufning she’rlariga munosabatingiz, kabi... savollarga o‘quvchilar o‘z mulohazalarini bildiradilar. So‘nggi savolga ular shoir ijodiga katta qiziqish bilan qarashganini, she’rlarni hayajon bilan o‘qishganini, shoir she’rga solgan muammolar oldida ma’suliyatni his qilganlarini bayon etishadi.

Darsimizning shioridan ko‘rinib turibdiki, shoir o‘z yuragi bilan tez-tez suhbat quradi. Yuragining kulmasligi yurtining o‘amnok, dardli ekanligidan xabar beradi. Shoirlar qachonki, o‘z yurtlarini tinch, farovonligini, hazrati insonlarini ko‘rsagina shodlanishlarini ta’kidlaydi.

Unga vazifa qilib she’rlarni yodlash, matnning namunali ijrosini tinglash va o‘z ijrosini magnit tasmasiga yozib olish beriladi. «Men sevgan shoir», «Qushlar bizning do‘stimiz» mavzu-larida kichik matn yaratish topshiriq qilib beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijodiy izlanish darslari iqtidorli va ijodkor, chinakam fanimiz ixlosmandlari bo‘lgan bolalarni kashf qiladi. Ayni vaqtida ularga ota-onha, hayot, mehnat, hunar, odamiylikni ulug‘lash, tabiat va hayvonot dunyosini e’zozlash, do‘stlik va birodarlikni qadrlashni o‘rgatadi.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATINI O'RGANISH

Darsning maqsadi: o'quvchilarning she'riyatga qiziqishini oshirish shoira ijodidagi kuchli ehtiros, tabiiylik, fikriy teranlik, poetik mukammallik, shiddatkor ohang bilan sokin, osoyishta, samimiy ruhning uyg'unligini anglay olishlariga erishish.

Darsning jahozi: Shoiraning rasmi, she'rulariga ishlangan rasmlari, she'riy to'plamlari. Magnitafon. Kompyuter.

Darsning shiori: Fikri chuqur odamning irodasi kuchli bo'ladi.
(Gyote)

Abad so'lmas muhabbatga fido bo'lib o'tyapman

O'nglab bo'lmas muhabbatga fido bo'lib o'tyapman.

So'ng nafasi kelar bir kun - ne tirk jon tug'ildi,

Men hech o'lmas muhabbatga fido bo'lib o'tyapman.

Shunchaki yozmoqqa ko'nglim to'lmaydi

Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'lim.

Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi

Shunchaki yozmoq bu - shoirga o'lim.

Darsning uslubi: Izlanish, ijodkorlik. Interfaol usuli

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar! Bugungi darsimizda iste'dodli shoira Halima Xudoyberdiyaning purma'nno she'rularini guruhlarga bo'linib tahlil qilamiz. Shoira aytmoqchi bo'lgan fikrlarni topishga va hayotga bo'lgan qarashlarimizni belgilab olishga harakat qilamiz. Har bir to'g'ri javobingiz, faoliyattingiz uchun rag'bat kartochkasini qo'lga kiritasiz. Darsimiz «Nazm daqiqasi»dan boshlanadi.

(Magnit lentinaidan shoiraning «Begim, sizni tabiat» she'ri sokin va ta'sirli ohangda o'qiladi. She'r qo'shiqqa ulanib, o'g'il bolalar ijrosida «Muqaddas ayol» qo'shig'i ijro etiladi)

1-guruh: She'riyat shaydolar

Bu guruh o'quvchilari shoiraning «Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'lim» satrini shior qilib, baxr-u baytni boshlab yuboradilar.

1. Onaginam!

Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol,

Qayon borsang, shaylanishar va so'zlashar tor.

Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol:

«Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor»

2. Rizqdir bizga, rizqqa doim dil ilinjlikdir

- Bog'lardagi yetilgusi har mevali shox.
 O'g'lonlaring kelar ana ochishib quchoq
 O'g'lonlaring meva qadar bir shirinlikdir. Onaginam!
3. Mixning, tig'ning zahrini sezmay yonib boraman
 Ishq zardobli sharobdir, qonib-qonib boraman.
 Hech kim bilan sirlashmay, hech kimsaga tutimay may
 O'z qonim bilan o'zim alvonlanib boraman.
 4. Nigohing qiya tushsa armonga yo'ymagaysiz
 Qiz qalbiga sevmoqni osonga yo'ymagaysiz
 Qiynamangiz, u o'zi o'rganuvchi bir bag'ir
 Bu bag'irli kenglikda, osmonga yo'ymagaysiz.
 1. Zeroki siz Farhodsiz, Shirin qaydadir beginim,
 Orzularim dildayu, nolam naydadir, beginim
 Siz desam, bar tutqazmay, sochilgan o'ylarimday
 Bu tong qora sochlaram, mayda-maydadir, beginim.
 2. Mening shunchaki yig'lagim kelmas,
 Xayol sharob misol qilsin sarxusht, mast.
 Mening shunchaki kuylagim kelmas,
 Ovoz pardalarim chidab bersa bas.
 3. So'lg'in-so'lg'in lablaringdan ucharkan shu so'z,
 Otaginam xayolimda rostlay boshlar qad.
 Dorilamon kunlarga qayt, ona, yumib ko'z,
 O'ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat.
 4. To'la tole uchun bu kemtik, bu kam.
 Shunchaki sevilmoq – baxti qoralik,
 Mening qalbim shunday sevgiga molik,
 Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham.
- O'qituvchi:** Baxru bayt aytishdagi topqirligingiz, hozirjavobligingiz juda yaxshi. Shoiraning ushbu she'rlaridan qanday xulosaga keldingiz?
- She'riyat shaydolari: «Ona ulug' zot, yaratganning mo'jizakorligi, har bir ishga fidoiylik, muhabbat-ilohiy ishq» degan xulosaga keldik.
- 2-guruh: «Yosh munaqqidlar» isbotlaydigan haqiqat: «Odamning qalbi qaynab turgan qozondan ham o'zgaruvchanroqdir» (hadisdan) Yosh munaqqidlar shoiraning «Dorilamon kunlar keldi...», «Begin, sizni tabiat», «Shunchaki» va to'plamga kirgan boshqa she'rlari yuzasidan o'z fikrlarini bildiradilar.

1. Menimcha, shoira mehrga tashna, u mehrni ulug‘laydi. Onasidan erta ayrıldi. Xolasining qo‘lida bekam-u ko‘st katta bo‘lib ulg‘aygan bo‘lsa ham, hayotdan onasining o‘rnini izlaydi.
2. Mustaqillik shabadasi esib, dorilamon kunlarga yetib kelganimiz haqida jon kuydiradi. Bu kunlarni orzu qilgan onalarimizning tilaklari ijobat bo‘lganidan shukronalar keltiradi.
3. «Dorilamon kunlarga qayt, ona, yumib ko‘z, o‘ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat» satrlarida shoira onasining hayotga qaytishini, tinch, sokin, mustaqil yurtimizning baxtiyor kunlarini ko‘rishi ni istaydi.
4. Ona ko‘nglidagi g‘ashlikni qishning qorli sovuq kunlariga o‘xshatadi. Bu g‘ashliklarni qorlar bilan birga erib ketishini, qalbiga bahoriy iliqlik kirishini istaydi.
5. Hayotning go‘zalligini, yashashning zavqini kuylab, uni bir tansiq taomga o‘xshatadi. Unga qo‘l ursang shirinligidan go‘yo ishtahang ochiladi. Ya‘ni, yashaging keladi, deb hayotni sevishga undaydi.
6. Bog‘lardagi mevalarni rizqu nasibamiz, farzandlarni esa o‘sha mevalar kabi shirindir, deb ta‘kidlaydi. Ona farzandining baxtini ko‘rib yashasa hayotda bearmon yashashini, ko‘ngli taskin topishini uqtiradi. Olcha gulini ko‘zlariga surtib, uyg‘onish faslini dorilamon kunlarga qiyos qiladi.
7. Shoira «Begim sizni tabiat...» she’rida musaffo sevgini, alloh bergen go‘zallikni ta‘riflaydi. Ko‘nglidan kechgan rivoyatni she’rga soladi.
8. Shoira chin dildan sevishni, muhabbat boqiyligini ta‘kidlaydi. g‘ar qanday holatda ham sevgisidan voz kechmasligini uqtiradi.

3-guruh: «Yosh adabiyotshunoslar» «Bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro‘zadan afzaldir» hadisini o‘zlariga shior qilib olganlar. Shunday ekan, ular shoira she’rlariga adabiyot nazariyotchisi sifatida yondashib , tahlil qiladilar.

1. Ilgargi davrda qizlar o‘z sevgan yigitini, ayol o‘z sevgan tur mush o‘rtog‘ini ehtirom bilan «begim» deb atagan. Bu so‘z she’rdagi milliylik, samimiylilikni chuqurlashtirishga xizmat qilyapti.
2. «Siz huddiki Farhodsiz, Shirin qaydadir, begim. Orzularim dilda-yu, nolam naydadir, begim» satrlaridagi go‘zał, alamlı tashbehlarni mohirona ishlatgan. Nayning navosini sevgisining nolasiga, o‘zini dostonlardagi Shiringa qiyoslaydi.

- «Siz desam, bar tutqazmay, sochilgan o'ylarimday, Bu tong qora sochlarim mayda-maydadir, begim» satrlarida yor haqidagi tumtaroq o'ylarini sochlarining maydaligiga o'xshatyapti. Istiora kabi badiiy vositalardan o'rinali foydalangan.
- «Shunchaki» she'rida oxirgi banddag'i misra, so'z birikmasining aynan takrorlanib kelishi, ya'ni: shunchaki yozmoq birikmasi anaforaga misoldir.
- Ikkinci banddan kelib chiqadigan qarama-qarshi ma'noga: «sevmoq» va «ozor bermoq» so'zlari antitezaga misol bo'lib, ularga qiyosiy tavsif berish vositasidir

O'qituvchi: 5-guruh: «Yosh tilchilar». Ularning shiorlari quyidagicha: «Boshi bilan sho'ng'ib kirmasa har dam,
Suv ostidan durni toparmi odam?» (Jomiy)

Siz ona tili fani bilan bog'lanib, shoiraning she'rlaridan ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlashga harakat qiling.

1. She'rlarni tahlil qilar ekanmiz, sifatlovchi-aniqlovchiga misol keltirmoqchimiz. Dorilamon kunlar, so'lg'in-so'lg'in lablaring, o'ksik dil, dorilamon quyosh, quyoshday issiq va mahvash, qorli kunlar, raso qilib, ravon yo'llar, sovuq suluv kabilar.

2. Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol

Qayon boqsang, shaylanishar va sozlashar tor

Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol, satrlarida shafaqlari-ni ol, qayon-ga boqsang, olcha-ning gulin so'z birikmalari belgisiz berilgan. Bu birikmalar vositasiz to'ldiruvchiga, o'rinni xoliga, qaratqich aniqlovchiga misol bo'la oladi.

3. Bog'lardagi yetilgusi har mevali shox

Rizqdir bizga, rizqqa doim dil ilinjlikdir, misralaridagi bog'lardagi so'zi o'rinni holiga, mevali shox so'z birikmasi sifatlovchi-aniqlovchiga, rizqdir bizga, rizqqa doim birikmalari vositali to'ldiruvchiga misoldir.

4. Behol surtasan, alvonlanib boraman, charsillab yonay, kulib yaratgan, ochishib quchoq kabi so'zlar holga misol bo'ladi

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar, siz o'z bilimingizni test savollari orqali sinab ko'rishingiz mumkin 5-guruh «Zukkolar»: Qulordan dilingga gar kirmasa nur, Sichqon kavagidan ne farqi bo'lur. (Jomiy) shiori ostida shoira hayoti va ijodi yuzasidan komputerga kiritilgan 10 ta test savollariga javob beradilar.

TEST:

1. Halima Xudoyberdiyeva qachon va qayerda tug‘ilgan?
 - A. 1948-yil, 17-may Jizzax viloyatida
 - B. 1947-yil, 17-aprel Samarqand viloyatida
 - C. 1947-yil, 17-may Sirdaryo viloyatida
2. Qaysi qatordagi she’rlarini onasi ta’sirida yozgan?
 - A. «Ayolga bosh urish», «Mohlar oyim tug‘ilajak», «Iltijo»
 - B. «Ayol o‘tib borar», «Muqaddas ayol», «Yolg‘iz ayol xati»
 - C. «Bir o‘rim soch tarixi», «Sayram baxshi aytimlari»,
3. Dastlabki she’riy majmuasini belgilang.
 - A. “Oq olmalar”
 - B. «Ilk muhabbat»
 - C. «Suyanch tog‘larim»
4. Mustaqillikka erishgandan so‘nggi to‘plamlari
 - A. «Issiq qor», «Chaman», «Bobo quyosh»
 - B. «Muqaddas ayol», «Yuragimning og‘riq nuqtalar»
 - C. «Bu kunlarga yetganlar bor», «Turkiston onasi»
5. «Begin sizni tabiat» she’ri zamirida lirik qahramonning qanday holati tasvirlangan?
 - A. Yorga erishish uchun qat‘iy intilish holati.
 - B. Ulkan insoniy dard va g‘urur. o‘zbek qizi ruhiyati
 - C. A va B javoblar to‘g‘ri.
6. Tabiat yigitga nogahon nimani ato etadi?
 - A. Husn va kamolni
 - B. Kulgu va chiroyni
 - C. Shirin so‘z va zabardastlikni
7. «Bu kunlarga yetganlar bor» she’rida shoira ko‘p nuqtalar o‘rnida qaysi so‘zni qo‘llagan?
 - A. Bu dunyo
 - B. Bu tabiat
 - C. Dorilamon quyosh
8. «Shunchaki» she’rida qanday tasvir usulini qo‘llaydi?
 - A. Avval obrazli keyin kuchaytirilgan usul
 - B. Qarama-qarshi ma’nolarni qo‘llash usuli
 - C. Baland talablar qo‘yish usuli
9. Shoirani kim tarbiyalab voyaga yetkazadi?
 - A. Xolasi
 - B. O‘gay onasi

C. Otasi

10. Qachon «O'zbekiston xalq shoirasi» unvonini oldi?

- A. 1991-yil
- B. 1992-yil
- C. 1995-yil

O'qituvchi: Endi yozuvtaxtada kodoskopdan matn yoritiladi. Matndan kelib chiqib, shoira ijodiga nazar solsangiz, o'z fikrlaringizni she'riyat muxlislaridek bayon etsangiz.

«Fidokor kishilar quyoshdek zarur. Ular jamiyatning eng shoirona va hayotbaxsh elementi bo'lib, boshqalarga hayajon, taskin beradilar va yoshartiradilar. Ularning shaxsiyatlari - hayot to'g'risida bahs yurituvchi, zerikkanidan xom-xatala qissalar, keraksiz loyihibar va bir mirriga arzimaydigan dissertatsiyalar yaratuvchi, hayotni inkor etish uchun ahloqsizlik qiluvchi va bir burda non deb yolg'on gapiruvchi kishilar toifasidan tashqari boshqacha odamlar, jasorat, e'tiqod va aniq maqsadga ega odamlar ham borligini jamiyatga uqtirib turuvchi jonli guvohlardir». (A.P.Chexov)

1. Halima Xudoyberdieva anashunday fidokor, e'tiqodli va jasoratli insonlar sirasiga kiradi. Uning she'rularini o'qigan odam hayotga ishonch ko'zi bilan qaraydi, taskin topadi.

2. Halima Xudoyberdieva she'riyatida inson ko'nglidagi murakkab his-tuyg'ular, ziddiyatlar ruhiyatining g'oyat murakkab manzaralari ta'sirchan aks etadi.

3. Shoiraning barcha she'rlerida chuqur insoniy iztiroblar, dardlar, sevinchlar, olajanob xayollar, mardona o'ylar juda ta'sirli, yorqin chizilgan.

4. Shoira she'rxonni o'ziga ergashtiradi, chin va samimiy tuyg'ular tasviri yordamida rom etadi.

5. Uning ijodi bilan tanishish jarayonida o'ziga xos ovozini tingladim. Shoira uchun ijod ermak emas. «Avval ichingga kir» she'ri har qanday odamni o'ylashga majbur qiladi. Mana, eshititing-a:
Avval ichingda qil ibodatingni,

Avval ichingda yoy shahd, qanoatingni.

Avval ichda tikla imoratingni,

Shu muhim, muhimmas tashqi yomg'irlar.

Ichingni tozalab qirib oldingmi?

O'zingni jam qilib, kirib oldingmi?

Har bir kunjingni tekshirib oldingmi?

Muhimmas toshdag'i ilashgan kirlar.
Ich xazon tashqari gullahdan qo'rqqin,
Ko'zni tiy, ko'z yoshdan, qul yoshdan qo'rqqin.
Muhimi, ichingdan qulashdan qo'rqqin -
Ichingdan ketmasin ilohiy nurlar

G'am yema, bir kamdir, to'ldirib bo'lmas
Avval o'z ichingga kir, kirib bo'lmas.
Ichki burgut ko'klab o'zni urarmu
Tashqarida seni o'ldirib bo'lmas.

6. Yoritilgan matndan, ushbu she'didan ko'rinish turibdiki,, shoiraning maqsadi aniq, fidoiy inson. o'z hayajonini muxlislarga yuqtira oladi.

O'qituvchi: Unday bo'lsa «Misralar o'yini»ni boshlaymiz. Shoiraning «Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor» she'ri misolida nazira bog'lang, misralarni davom ettiring.

Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor
Alamli armonlarda o'tganlar bor
Onasining qadriga yetib-yetmasdan
Xasrat-u nadomat chekkanlar ham bor.
Yurakka armonlar nishday sanchilar
Aytgan qo'pol so'zlarining go'yo qamchilar.
Ona nigohiga zor bo'lib, endi
Jamolini ko'rishga intazorlar bor.

Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor
Onasin boshiga ko'targanlar bor
Bir umr xizmatin qilib beminnat,
Eng yaxshi duolarni olganlar ham bor.

Qadrlaylik mehriгиyo onajonlarni
Soyabonday ulug'ver otajonlarni
Dorilamon kunlar keldi, o'zligingga qayt
Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor.

O'qituvchi: Ijodkorligingiz uchun rahmat. Bugungi darsimizda shoiraning she'rlaridan ilhomlangansiz, taassurotlaringiz shoirona deb o'ylayman. Uyga vazifada anashu taassurotlaringizni yoritsangiz.

Dars shoiraning «Muqaddas ayol» qo'shig'i sadolari ostida tugatildi.

DRAMATIK ASARLARNI O'RGANISH

SHAROF BOSHBEKOVning

«TEMIR XOTIN» ASARI USTIDA ISHLASH

(8-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan)

Darsning maqsadi: O'quvchilarga dramatik asar turlaridan tragikkomediya namunasi bo'lgan «Temir xotin» asarini tanishtirish, tahlil jarayonida shoirning maqsadini anglash, jiddiy gapni aniqlash hamda o'quvchilarni erkin va sog'lom fikrlashga o'rgatish, milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish.

Darsning jihizi: Dramaturg asarlaridan namunalar, komediyaga ishlangan rasmlar, robot qiz – Alomatning ko'rinishi. Qo'chqor hovlisining maketi va video, audio kassetalar. Erkparvar, vatanparvar zamondoshlarimizning rasmlari.

Darsning shiori: Lola tuxumicha rag'bating yo'qmu?

Ipak qurtichalik himmating yo'qmu?

(Alisher Navoiy)

Dili tig'i sitamdin yora bo'lg'on xalqni ko'rdim

Tani dard-u alamdin pora bo'lg'on xalqni ko'rdim.

(Mashrab)

Munaqqidlar shiori: Boshingda vataning bor – baxtiyorsan

Bu baxtni jonda saqla, toki borsan.

(Mirzakalon Ismoiliy)

Tilshunoslar: Yigitlikda yig' ilmnинг mahzanin,

Qarilig' chog'i xarj qilg'il oni.

(Alisher Navoiy)

Dedektivlar: Agar siz bilimdon bo'lsangiz, birodarlariningizga ham bering, toki undan shamchiroqlarini yondirib olishsin.

(Tohir Malik)

San'atshunoslar: Kimki kurashsa gar erk va hayot deb,

O'shangang loyiqidir erk ham, hayot ham.

(Gyote)

Insonparvarlar: Kishida insoniy ruh uyg'ongan damlar qanday yaxshi!

(Gyote)

Darsning uslubi: Interfaol. Suhbat-munozara qilish jarayonida darsning maqsadiga erishish. Modul usuli bo'yicha kichik guruhlarga bo'linib, qiziqarli o'yinlarni tashkil qilish.

Aziz o‘quvchilar! Bugungi mavzu o‘zbek adabiyotining zabardast dramaturgi Sharof Boshbekovning «Temir xotin» asari xususida bo‘ladi. (Yozuvtaxtada Jaloliddin Manguberdi, Muqqana, To‘maris, Shiroq, Mashrab, Usmon Nosir, Cho‘pon, Fitrat, Temur Malik, Abdulla Qodiriyarning rasmi ilova qilinadi)

«Zakovat» savollariga javob bering.

1. Dramaturg qachon va qayerda tug‘ilgan? (1951-yilda Samarqandda)

2. U qachon adabiyotga kirib keldi? (XX asrning saksoninchı yillarda)

3. Dastlab qaysi janrda o‘zini sinab ko‘rdi? (hikoya janrida)

4. Qadimgi afsonalarda xalq va vatan ozodligi uchun o‘zini qurban qilgan qahramonning nomi – (Shiroq)

5. Dramatik asarlarda ishtirokchilarning tashqi qiyofasi yoshi, xulqi, hatti-harakati, qiliqlari, intonatsiyasi, sahna manzarasi haqida muallif tomonidan beriladigan izohlar nima deb ataladi? - (Remarka)

6. Qo‘chqor o‘g‘lining nomi nima? – (Turobjon)

7. Adibning eng yaxshi ko‘rgan quroli? – (yumor)

8. «Temir xotin» asarining yozilishi haqida nima bilasiz? (1989-yilda yozildi, 1989-yilda Maqsud Shayxzoda sovriniga loyiq deb topildi. 1990-yilda esa unga Hamza nomidagi Davlat mukofoti berildi.)

9. Komediya deb nimaga aytildi? Nega jiddiy komediya deymiz? (Kulgili voqealar tasvirlanadigan dramatik asar – komediya deylildi. Adib o‘zi aytganidek, asarda aytildigan gap jiddiy, lekin vaziyat, qahramonlarning so‘zi kulgili yoki aksincha bo‘lishi mumkin.)

10. Inqilobiromantizm nima? (Asar inqilobiromantizmda yozilgan, ya‘ni san’atkor o‘z ijodida eski jamiyat tuzumini tubdan o‘zgartirish g‘oyasini ilgari suradi).

11. Asardagi Qo‘chqor rolini kimlar o‘ynagan? (sahnada Farg‘ona teatrining artisti Mamasoli Yusupov, kinoda esa Murod Rajapovlar o‘ynagan).

12. O‘zbek sahnasida yana qanday komediyalarni ko‘rgansiz? («Kelinlar qo‘zg‘oloni», «Oltin devor», «Kuyov» kabi).

O‘qituvchi: Donishmandlar hazil haqida aytgan fikrlarini sharhlang.

1. Kulgili narsa bizda o‘z qadrini bilish tuyg‘usini uyg‘otadi.
(Chernishevskiy)

2. Hazilning tagida hamisha jiddiy niyat yashiringan bo‘ladi.
(J. Balles)

3. Hazildan jiddiy gapga va jiddiy gapdan hazilga osongina o'tish kishilar o'ylaganlaridan ko'ra ko'proq qobiliyat talab qiladi. Ko'pincha hazil shunaqangi haqiqatni ochib qo'yadiki, hazilsiz unga yetishish amri mahol bo'lur edi. (F. Bekon)

San'atshunoslar: 1. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, Sharof Boshbekov o'zining ushbu komediysi orqali o'zbekning qadrini baland tutuvchi bilish tuyg'usini uyg'otmoqchi.

Dedeaktivlar: Komediyaning zamirida jiddiy niyat yashiringan. Bu niyat xalqning turmush darajasini ko'rsatish, yig'ilgan dardini, armonlarini to'kib solish. Ularning qo'liga oyna tutqazadi va o'z aksini ko'rsatadi.

Munaqqidlar: 1. San'atkorning eng zo'r qobiliyati uning ustalik bilan hazildan jiddiylikka, jiddiylikdan hazilga o'tib ketishidir. Bu vaziyatlar tomoshabinni avval o'ylantirib, keyin kuldirib yuboradi.

Insonparvarlar: Masalan: Qo'chqor Qumriga alam bilan baqiradi: – Qo'limni echib ket. Insofing bormi, o'zi qanaqa odamsan? – deb. Shu payt qo'shnisi Bozortoy esiga tushib qoladi. Lekin uning xotiniga: – Ishkom tarvaqaylab ketibdi, tokqaychini so'ramoqchiydim, – deydi.

Tilshunoslar: 1. Alomat Qo'chqorni gipnoz qilgandan keyin, u yosh bolaga o'xshab g'ingshib yig'laydi. Yana qo'shni xotinni chaqirib, Bozorvoyni so'raydi. Yana qo'shni xotin – nimaydi? – desa Qo'chqor: – Bir ikki qo'l «durraq» o'ynardik, – deydi.

O'qituvchi: «Men kimman?» o'yinida qatnashib, yashirin obrazlarning kimligini aytishingiz kerak.

1. «Bozorvoy akam ikki qopgina bodring olib bozorga ketuvdilar» (Sharofat)
2. «Qo'chqor: Ho-o, qarorni bilarkanlarmi? O'zi sakkizinchisinfda qolib ketgan! Chalasavod! Rasmi yo'q ekan, deb gazet o'qimaydi!» (Safar)
3. «Allo, allo! Voy o'rtog'jon, o'zingmisan? Ovozingni eshitadigan kuning ham bor ekan-ku! Biram sog'indim, biram sog'indim, o'lib qolay deyapman!... (Alomat)
4. «Rakatopsin. Mana xotin-xalaj, bola-chaqa daladan beri kelmaydi. Na dam olish bor, na bayram bor, ertadan kechgacha ish, ish, ish!» (Qo'chqor)
5. «Odamlarning og'irini yengil qilaman, deb kechalari uxlamaydi. O'ziga -o'zi gapiradimiy, bir balolarni chizadi, yirtib tashlaydi, yana chizadi! (Olimtoy)

O'qituvchi: Endi matn bilan ishlash jarayonida har bir guruh o'z yo'naliishingiz bo'yicha asarni tahlil qilasiz. Munaqqidlar asardan adabiyot nazariyasiga oid gaplarni tilshunoslar ko'p ma'noli so'zlar, undalma, kirish so'z, iboralar, atamalar ishtirok etgan gaplarni topib, tahlil qiladilar. Dedeaktivlar har bir obrazga to'xtalib, qo'g'irchoqlardan foydalanib tavsif beradilar. San'atshunoslar asardan Qo'chqor va Alomat misolida o'zbek xalqining og'ir hayotini tasvirlovchi parchalarni topib, rollarga taqsimlab, ohangdorlikka e'tibor berib o'qiydilar. Insonparvarlar asarga baho berib, insonning qadri, davrning turmush tarziga munosabat bildiradilar.

Munaqqidlar: 1. Majoz – allegoriya, ya'ni ramzning bir ko'rinishi bo'lib, voqeа, hodisa, narsa-buyumning mavhum tushunchasi o'rnida qo'llanadigan aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so'z (obraz).

2. Asarda Qo'chqor o'zini qaysar, suzadigan qo'chqor qo'yga o'xshatadi. Masalan: - Qo'chqorman! Qo'chqor ekan deb bog'lab tashlayveradimi?
3. Qumri: - Qo'chqormas, ho'kiz ekansan, dedi Muxitdin aka, - deydi. Yoki - O'zining ko'zi ukkinikiga o'xshaydi, tovuqchalik aqli yo'q, kabi o'xshatishlari.
4. Otga o'xshab tikka turib uxmlayapti, qo'ng'izga o'xshab g'ing'illamay o'l, kabi istioralardan foydalangan.
5. Asarda kinoya ham ishlatilgan. Masalan: - Men shuncha gapni kimga gapirdim, bo'lmasam! Butun o'zbekning dardini dasturxon qilib o'tiribman. Doim bizga o'xshagan odam gapirsa yo hech kim eshitmeydi, yo eshitadigani temir chiqadi.

Tilshunoslар: 1. Asarda adib frazeologik birikma, ibora va so'z o'yinlaridan o'rnida foydalangan. Masalan: - Kechadan beri onamni Uchqo'rg'ondan ko'rdim. (Bunda qiyalib, ezilib ketish ma'nosida)

2. «Tuyaning dumи yerga tekkanda», ya'ni hech qachon amalga oshmaydigan ish. Yoki: «Ayol kishining joni toshdan bo'ladi» kabilar mubolag'aning ig'roq turiga mansub
3. Muxitdin aka: - Peshingacha yechmang, kelin, - deb ketdilar. -Bu nima bo'pti, o'g'iltoy. - Bo'la qol, bolam. - Eh xudo! -E, bormisiz Qo'chqor aka! - E, Olimtoy! kabi undalmalar bor.

- Alomat bir gapida: - Shunday xulosa kelib chiqadiki... yoki - Nihoyat, Qo'chqor aka, bиринчи тајриба нусхаси тайор бо'лди, гапларда кириш со'злари бор.
- Shevaga oid so'zlar ham bor. Masalan: patinka, gazet kabi... Inkvizitor – zolim, yovuz, shafqatsiz, feodal – ekspluatatsiya atamalari – kishi kuchidan o'z maqsadida foydalananish ma'nosida kelgan.
- Olimtoy tilidan bir qator atamalar: kvarts, elektromagnit, mikrosxema, koeffitsient, kompleks, maksimum, boshqaruv bloki, robot, mashina, labaratoriya, kontakt, manusonik, gipnoz kabilalar tilga olinadi.

Dedektivlar: Inson qiyofasini aniqlashda ilmiy tasvirga asoslanish kerak bo'ladi. Odamning yoshi, yuz tuzilishi, ko'zi, qulog'i, burni, sochi, rangi, bo'yi, gavdasi kabi faktlarga asoslangan bo'ladi.

- Qo'chqorning jasadiga qarasak shaqir-shuqur suyak, undan solyarka hidi kelib turadi. O'zi qirq yoshda, ammo ellikka kirgan odamga o'xshaydi.
- Uning qo'lini bog'lashda armiya ham bas kelmaganidan ko'rinish turibdiki, u juda kuchli. Arzonligi uchun yozning jazirama kunlarida ham neylon ko'ylik kiyadi, kalishsifat patinkada yuradi.
- Qumri: Qo'llari qadoq bosib ketgan, yorilgan. Undan kirsovun aralash tappi hidi kelib turadi. Ishi pishiq. Oilasiga mehribon. 13 ta bolasidan beshtasi bo'limgan. Yoshi o'ttiz-o'ttiz beshlarda, lekin yoshiga nisbatan katta ko'rindi. Yaxshi kunlar kelishiga ishonmaydi.
- Chalasavod, o'zining turmush tarzi yoqmaydi. Lekin birovga hasrat ham qilmaydi. O'zbek ayoliga xos bo'lgan belgisi: oilasini yaxshi ko'radi. Masalan: - Sizni qo'rqtish uchun bir-ikki kunga ketuvdim, dadasi, - deydi.
- Alomat: (Robotga qarab gapiradi) Ko'rinishi o'ttizlarga kirgan o'zbek ayoliga o'xshaydi, qo'llari muzday. Ichi to'la sim, plastmassa, yarim o'tkazgichlar!
- Ko'zi kvartsdan yasalgan. Uni so'zlatadigan har xil mikrosxemalar bor. Tashqi olam bilan faqat manusonik holatda aloqa qiladi. Odamlarga havas qiladi, ammo keyinchalik ulardan xafsalasi pir bo'ladi.

7. Olimtoy: O'qimishli olim. Yetti yil mehnat qilib, Alomat robotini yaratgan. Ertadan kechgacha mehnat qiladi, lekin rohatini ko'rmagan. O'zbek xalqiga yordam bo'lsin deb robotni yaratgan. Alomat kuyib ketganda unga juda achinadi.
— Axir u temir edi-ku, - deydi.

San'atshunoslar: Biz komedyядан ayrim dialog parchalarini olib «chitka», ya'ni ovozli o'qish qilib sahnalashtirdik. Bu sahnada Qo'chqor kulgili emas, balki achinarli ahvolda namoyon bo'ladi.

I-dubl. To'rtinchi sahna. 54-kadr.

1. Alomat: Men odamlar haqida boshqacha tasavvurda edim. Ularning erki qo'lida, nimani xohlasa shuni qiloladi, deb o'ylardim.
2. Qo'chqor: Haliyam erkimiz qo'limizda.
3. Alomat: Yig'laysiz... Chunki, juda ezilgansiz... Yuragingizga qil sig'maydi... Ich-ichingizdan bir nima toshib kelyapti.. Hech kimning rahmi kelmaydi, birov dardingizga sherik bo'lmaydi..
4. Alomat: - O'z yog'ingizga o'zingiz qovrilib yashayapsiz ... Aftangoringizga bir qarang, qirqa kirgan qirchillama yigitsiz-u, ko'rgan odam sizni ellikka kirgan deb o'ylaydi.
5. Alomat: Endi bor umidingiz bolalaringizdan. Ularni o'qitib «katta odam» qilmoqchisiz. Lekin ularingizdan «katta odam» chiqmaydi. Daladan beri kelmaydigan chalasavod bolalardan nimaniyam kutib bo'lardi?
6. Qalbingizning burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo'rqsiz, uni sezmaslikka olasiz! Sizning vujudingiz faqat ko'z yoshidan iborat. lim-lim yosh... (Dubl olindi)

Insonparvarlar: Odam o'z aksini oynadan ko'rish mumkin. Qo'chqorga esa robot qiz – Alomat gipnoz bilan uning hayot tarzini ko'rsatishi orqali asar bizga mustabid tuzumning qanday kechganini, o'zbek millatining hayotini, ayollarning turmushdagi qiyinchiliklarini oynadek ravshan qilib ko'rsatgan.

1. Robotlar buyruqni so'zsiz bajaradi, degan gapga Qo'chqor juda hayratlanadi. Chunki odamlar ham buyruqlarni so'zsiz bajargan, xotinlar emizikli bolalarini, bolalar o'qishlarini tashlab dalaga chiqishgan. Qor, yomg'ir demay ishlashgan.
2. Ana shu davrdagi maqsad, Olimtoyning aytishicha, paxtani sifatli terib olish edi. Paxta odamdan ham yuqori baholangan.

- Dorilangan paxtazorlarga kirish oqibatida ko'plab odamlar nobud bo'lishgan.
3. O'qish kerak ekanligini Qo'chqor tushunib yetadi. O'zi o'qimaganiga yarasha bolalarini savodli qilishni orzu qiladi. Lekin Alomat aytganidek, ulardan «katta odam» chiqmaydi. Daladan beri kelmaydigan, chalasavod bolalardan nimaniyam kutib bo'lardi?
 4. Qo'chqor hokimiyatga ishonmaydi. «Ular na dardingga sherik, na xursandchiligingga. Nomi mahalliy bo'lgani bilan, bilmayman narigi mahallaga qaraydimi?», deydi.
 5. Qo'chqor kolxoz idorasining tepasiga lokator kerakligini ayтиб, yangi tuzum bo'lishini istaydi. Boshqalardan yo'l- yo'riq so'rayvermasdan, hamma narsaga o'qish, aqli va erki orqali yetishishni orzu qiladi.
 6. Alomat kuyib ketganda, u temir bo'lsa ham, unga achinamiz. Chunki uning qiyofasida o'zbek ayolining timsoli bor.

O'gituvchi: Odama ga o'xshab yashash uchun «Oilani planlashitirish»ning o'zi yetadimi? (Oilaning bolasi kamaygani bilan og'iri yengil bo'lib qolmaydi. Odama ga o'xshab yashash uchun avvalo, uning qadriga yetish kerak. U davrda bu qadrlar toptalgan edi).

- Qo'chqor Qumriga: - Nolima! Bola-chaqang oldingda bo'lsa, eb-ichishdan kaming bo'limsa! Bundan ortiq yana nima kerak? - deganda u – Birov sizga och qoldim deyaptimi? - gaplaridan qanday xulosa chiqarasiz?

(Hayot faqat to'q yurishdan iborat emas. Oilada o'qish, ishslash, dam olish uchun sharoit yaratilishi kerak. Insonning qadri bo'lishi kerak).

Qarang, necha-necha allomalarmi yetishtirgan sharq bag'ri mustabid davrida daladan boshqa narsani bilmasa... Hadislаримизда, урф-одатларимизда е'зоzlangan ayol xo'r bo'lsa... Siz ayollar haqida yozilgan hadislardan bilasizmi?

1. «Tangri ayollar bilan yaxshi muomalada bo'lishingizni tavsiya etadi, chunki ular onalaring, qizlaring, xolalaringdir».

1. «Sizlarning yaxshilaringiz o'z ahlu ayoliga yaxshi munosabatda bo'lganlaringizdir. Ayollarni faqat yomon odamlargina xor-u zor qilur»

O'gituvchi: Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida 70-80-yillarda ayollarning tuzumga isyon sifatida o'ziga-

o'zi o't qo'yib yondirganini, turmush qiyinchiliklari jonidan o'tgan achchiq qismatlarini real voqealar bilan ko'rsatadi. Masalan: Ikki yilda 753 ta ayol o'zini yondirgan. Shunday ekan, «Temir xotin» komediyasi ham jiddiy mazmunga ega. Asarda o'sha turmushning og'irini kulgili vaziyatlarda ko'rib, kulgi aralash beixtiyor yig'laymiz. Hozir ushbu asarga qo'yilgan badiiy filmning oxirgi kadrlaridan Qo'chqorning odamlarga aytgan gaplarini video kasseta orqali tomosha qilamiz.

«Alomatni men o'ldirgan emishman. Unga biron-bir ortiqcha ish buyurganim yo'q. Kechalari uyqudan qolib, beshik quchoqlab chiqqani yo'q, har bir farzand bilan ming bor kasal bo'lib, ming bor sog'aygani ham yo'q. Bitta o'zbek ayoli nima ish qilsa, shuni, yarmini qildi, xolos».

Mana asarning matni ustida birqalikda ishladik. Adibning maqsadini angladingizmi? Mustaqillik bizga nima berdi?

O'quvchilar bu gaplarni izohlaydilar.

1. Alomat Odamlarning og'ir turmush darajasini ko'rib, ichiga sig'diraolmay kuyib ketdi.
2. O'zbek ayolining mehnatiga temir ham bardosh berolmagani Qo'chqorni ajablantiradi. Qo'chqor xotinini odam bo'lib yaralganidan xudoga shukronalar keltiradi.
3. San'atshunoslar o'z sahnalarida Qo'chqor va Alomat misolida o'zbek xalqining og'ir, mashaqqatli hayot tarzini, insoniy qiyofasini ochib berishdi. Adibning maqsadi ham o'zbek xalqiga o'z turmush tarzini ko'rsatish.
4. Zulmga, tuzumga, yashash tarziga isyon ruhida yozilgan jiddiy komediya deb hisoblayman. Odamlar erksiz, qadrsiz bo'lishgan. Yashash sharoiti juda og'ir edi.
5. Mustaqillik tufayli qishloqlarimiz ham gazlashdi. Har bir xonadonda ichimlik suvi bor.
6. Talabga javob beradigan maktablar, zamonaviy kollejlar, bog'chalar qad ko'tardi.
7. Oddiy qishloq bolasi ham shahar bolasidek chiroqli, zamonaviy mактабда o'qiydi. Bilimi kuchli bo'lsa chet elda ham o'qishi mumkin.
8. Hozir qishloqlarda fermerlar ko'payib, xususiy ishlab-chiqarish korxonalari ochilgan. U yerga sut topshirish mumkin.

- Zamon shunday shiddat bilan o'sib bormoqda. Ayollarning og'irini engil qildigan tikuv mashinalari, kir yuvadigan, idish yuvadigan, sutni separadan chiqaradigan, xamir qoradigan kabi mashinalarning turlaridan bor.
- Onalar va bolalarga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qilinmoqda. Biz istiqlolimizni ko'z qorachig'idek asrashimish, vatanga, xalqimizga kerakli farzand bo'lishimiz kerak.

O'qituvchi: Tursunoy Sodiqovaning «Hazrati ayol» kitobidan ushbu satrlarni o'qib bersam: «Bu zot kim?! Onam farzandlar dog'ini, umr sargardonligini filday ko'tardi. Po'latday mahkam onam dadam ketishi bilan chirt uzildi. U asli bargi xazon kabi mo'rt ekan. Onamni fil qilib turgan otamning Mehri ekan».

Ayolini asragan yurtning kelajagi porloq bo'ladi!

O'ylaymanki, bugungi darsimizni yuqoridagi fikrlar bilan yakunlasak bo'ladi. Bugungi dars bo'yicha yig'gan rag'bat kartochkalaringiz asosida baholaringiz qo'yildi.

Uyga vazifa: Asardan olgan taassurotlaringizga tayanib, munaqqid, san'atshunos, tilchi, nazariyotchi dedektiv nuqtai nazari bilan qarab, asarga taqriz yozing. O'zingizga ma'qul obrazning gaplaridan kichik matn tuzib yod oling.

Quyidagi ma'lumotlarni yodda saqlang:

SHAROF BOSHBEKOV 1951-yilda Samarqandda tug'ilgan.

A S A R L A R I:

- «G» varianti hikoyasi (1981)
- «G'urur» hikoyasi (1982)
- «Jumboq» hajviyasi (1986)

SAHNA ASARLARI:

- «Tushov uzgan tulporlar» (1983)
- «Eshik qoqqan kim bo'ldi»(1987)
- «Eski shahar gavroshlari»(1988)
- «Temir xotin» (1989)
- «Qasosli dunyo» qisqa metrajli film ssenariysi
- «Taqdir eshigi»
- «Tikansiz tipratikanlar»
- «Charog'bonlar»
- «Charxpalak» teleserialining ssenariy muallifi, rejissori.

TARBIYAVIY SOATLAR UCHUN ISHLANMALAR

SAXIYLIK VA BAXILLIK TUYG'USI

(tarbiyaviy soat)

Darsning maqsadi: O'quvchilarning insoniylik fazilatlari haqidagi tushunchalarini kengaytirish, ular qalbida shu fazilatlarni mujassamlashtirish.

Darsning jahozi: Magnit tasmasi orqali beriladigan hadislar, rivoyatlar. Alisher Navoiyning «Xamsa» asari, «Hotam Toyi» hikoyatiga ishlangan rasmlar.

Darsning shiori: Muruvvat – barcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat – barcha qilmakdur, demak yo‘q.

(A.Navoiy)

Guruhlarning shiori:

Sahovatpeshalar: Har kim himmatiga yarasha topar.

Homiyalar: Qo‘li ochiqning - ko‘ngli ochiq.

Hotamtoylar: Baxilni saxiylik bilan uyaltir.

Darsning uslubi: Muammoli dars. Bahs-munozara

Aziz o‘quvchilar! Bugungi darsimiz insoniylik haqida bo‘ladi. Alisher Navoiy «Odami ersang demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami», deb bejiz aytmagan. Inson, avvalo, insonni sevishi kerak. Unga har kez yordam qo‘lini cho‘zishi, dardiga darmon bo‘lishi, og‘irini yengil qilishi odamgarchilik yuzasidan bo‘ladi. Bugun ana shunday xislatlar, fazilatlar xususida so‘z yuritamiz. Endi uch guruhg‘a: **Saxovatpeshalar**, **Homiyalar**, **Hotamtoylarga** bo‘linamiz. Guruhingiz bilan hamkorlikda ishlang. Har bir to‘g‘ri javobingiz uchun rag‘bat kartochkasini qo‘lga kiritib, darsimizning g‘olibiga aylaning... Topshiriqlarni bajarishda faol ishtirot eting.

Birinchi topshiriq. Podshoh Anushervoni Odilning o‘z vaziri Buzurgmehrga bergen savollariga siz ham javob bering:

1. Jahonda eng baxtli kishi kim? (O‘zini saxovat va to‘g‘rilik bilan bezagan kishi)
2. Qaysi pastlik hamma balandliklardan balandroq? (Xokisorlik)
3. Sodiq do‘sit kim? (Yaxshilik sari senga yordam bergen va menlikdan qaytargan kishi)
4. Yuzta aybi bo‘lsa ham, aybi ko‘rinnmaydigan kishi kim? (Saxiy kishi)
5. Yaxshi odamni nima bilan tanish mumkin? (Uchta alomat bilan: Tolibi ilmligi, saxiyligi va ochiq yuzligi bilan)
6. Saxovatning chegarasi qanday? (Bir narsani berish)

- Ishlarning eng yaxshisi nima? (Olimlar majlisida o‘tirish, ularning suhbatidan bahra olish)
- Ishlarning eng yomoni nima? (Tilanchilik)
- Ma’rifatga yetkazish sababi nima? (Sabr va shukur)
- Qayerga borsa, odamlar xush qabul qiladigan kishi kim? (odob sohibi)

Topshiriq: Donolar o‘gitini sharhlang.

Saxovatpeshalar: Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami. (Navoiy)

Homiylar: Qo‘lingdan yaxshilik kelmas ekan,

Qilma, yomonlik ham,

Vujuding qilmishingdan ko‘rmasin

Hargiz sitam ham g‘am. (F. Attor)

Hotamtoylar: O‘z nafsi mag‘lub etolgan marddir.

G‘iybatdan uzoq-uzoq ketolgan marddir. (A.Rudakiy)

O‘qituvchi: Luqmoni Hakim aziz farzandiga yuz nasihat qilgan ekan. Masalan:

- Ey farzandim, ulug‘ va qudratlari yaratuvchini tani.
- Kimga pand-u nasihat qilsang, unga avvalo o‘zing amal qil!
- So‘zni o‘z qadringga loyiq gapir! kabi... Sizga ham oilangizda ota-onangiz, bobo-buvilingiz ana shunday nasihatlar qiladimi? Agar nasihatlar yodingizda bo‘lsa, ularni uch daqiqa ichida yozing. Qaysi guruhi ko‘p va ma’noli nasihat yozishga ulgursa g‘olib bo‘ladi. Nasihatlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:
- Oz yeish va oz gapirishni odat qil.
- Odamlarga qarab kerishma.
- Etaging bilan burningni artma.
- O‘qimay ustozlik qilma.
- Odamlarning yaxshiligiga ta’mal qilma.
- Birovni birovning oldida xijolat qilma.
- Olijanoblikni o‘zingga shior qil.

Topshiriq: Hadislarni mavzuga bog‘lab sharhlang.

Saxovatpeshalar: Jobir ibn Abdulloh al-Ansoriy aytadilar:

- Rasululloh «Kim moddiy jihatdan birovga yaxshilik qilsa, unga ham yaxshilik qaytarilsin. Yaxshilik qilishga qurbi kelmasa, u kishini g‘oyibona maqtasin, chunki maqtash tashakkur o‘rnida o‘tadi. Ammo u kishining yaxshilagini yashirsa, undan tongan, yaxshilikni bilmagandek bo‘ladi», – dedilar.

Homiylar: Roziyollohu anhu aytadilar: «Yetim bolaga o‘z otasidek marhamatlik bo‘!! Nima eksang o‘shani o‘rishingni yaxshi bil. Boylikdan keyin kambag‘al bo‘lib qolish juda yomon. Bundan ham yomonroq narsa to‘g‘ri yo‘lda bo‘lib, keyin egri yo‘lga o‘tib qolishdir».

Hotamtoylar: Abu ad-Dardo rivoyat qiladir: Rasululloh: «Kimgaki muloyimlikdan nasiba berilgan bo‘lsa, unga yaxshilikdan nasiba ato qilingan bo‘ladi va kim undan mahrum qilingan bo‘lsa, yaxshilikdan ham mahrum bo‘lgan bo‘ladi. Qiyomat kuni mo‘min bandaning tarozusini og‘ir qiladigan narsa yaxshi ahloqdir. Alloh taolo yomon so‘z va yomon fe’llik kishiga albatta g‘azab qiladi», - dedilar. (463 - hadis)

Topshiriq: Yozuvtaxtadagi maqollarni davom ettiring.

1. Saxiy yo‘q bo‘lsa ham (to‘q).
2. Saxiy topsa – barcha yer, Baxil topsa- (bosib yer)
3. Saxiy hurmatda, (baxil la’natda)
4. Kamtarning ko‘ngli tog‘, (Baxilning ko‘ngli dog‘)
5. Saxyining qo‘li ochiq, Qo‘li ochiqning (yo‘li ochiq)
6. Baxil ehsondan qochadi, (xasis mehmondan)

Topshiriq: Berilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini toping.

1. Himmeliti: Olijanob, hotamtoy, oq ko‘ngil, qo‘li ochiq, saxovatini ayamaydigan, nazr-niyozli, in’om ulashuvchi....
2. Baxil: Qizg‘anchiq, himmatsiz, ochko‘z, ichi qora, ziqna, qattiq, xasis, qitmir, oqibatsiz, ko‘rolmaydigan....
3. Muruvvatli: mard, tanti, bag‘ri keng, saxiy, oqibatli, nurli, himmati baland, kechirimli, mehrli....

O‘qituvchi: Himmeliti, saxovatli kishilar mard va tanti bo‘lishar ekan. Bunday kishilarning obro‘-e’tibori baland, so‘zi oltinga teng bo‘lgan, nufuzi el orasida kuchli bo‘lgan. Sizga Oqil bobo shunday deydi: «Aziz farzandim! Hamma joyda, hamma vaqt va har qanday sharoitda himmatli bo‘l! Bu fazilatni ham o‘zingga odat qilib olib, unga qat’iy amal qil! Shunda seni hamma hurmat qiladigan bo‘ladi. Ko‘pchilik hurmatini qozona oldingmi, shuning o‘zi sening yurt e’zozlaydigan yaxshi kishi bo‘lib yetishganindir. Buni hech qachon unutma?». Bunday fazilatga qanday erishiladi!

1. Ilm olish bilan. Mol-dunyo odamzodga lazzat bag‘ishlagani bilan, uning cheki bo‘ladi. Ilm esa poyoni yo‘q boylikdir. Moddiy boylikni tortib olish mumkin, ilm yo‘qotilmaydigan boylik. Odil Yoqubovning «Ko‘hna dunyo» romanidagi Beruniy, Ibn Sinolarni namuna qilsak bo‘ladi.
2. Kamtarlik shunday xislatki, unga ega bo‘lgan odam boylik va maqtovlarga uchmaydi. Mol-dunyoga berilib, takabbur bo‘lib ketmaydi. Har qanday vaqtida ham o‘zini bir xil tutadi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridagi O‘zg‘urmish ana shunday sabrli, qanoatli, kamtar, ilmli inson.

3. Tavoze xalqdan o‘zini yuqori tutmaslik, o‘zgalarni kamsitmaslik kabi eng yaxshi fazilatdir. O‘zini boshqalardan ortiq bilmagan odam maqtovga sazovor ulug‘ insondir. «Farhod va Shirin»dagi Farhod kabi.

O‘qituvchi: Tarixda saxovatpesha kishilardan kimlarni bilasiz?

Saxovatpeshalar: Nizomiddin Mir Alisher Navoiy juda saxovatpesha, himmati baland inson bo‘lganlar. U kishi Ixlosiya, Nizomiya, Xusraviya madrasalarini qurdirgan. Xalosiya, Shifoysi, Fanoysi kabi xonaqohlarni bunyod qilgan. 52 ta rabot, 20 ta hovuz, 9 ta xammom, 16 ta ko‘priklar qurdirib, bular haqida «Vaqfiya» asarida ma’lumot bergenlar.

Hotamtoylar: Bobomiz Amir Temur tuzuklaridan: «Mening dargohimga iltijo qilib, panoh istab kelgan turk-u tojik, arab-u ajam toifalaridan bo‘lganlar borasidagi tuzuk».

«Agar kasb-u hunar, ma’rifat ahllaridan bo‘lsalar, buyurdimki, xizmat o‘rinlarini belgilab, saltanat korxonalaridan yumush berilsin... Dehqonlar va raiatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug‘ va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqaroden birining imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar bilan yordam ko‘rsatilsin».

Amir Temurning davlatning boshqarishdagi ushbu tuzuklari, ayniqsa, uning donishmand sifatidagi hayotiy tajribasi olti asrdan buyon o‘z ahamiyatini yo‘qotmay keladi.

Daho darajasidagi bu siymo to 70 yoshigacha eng xatarli janglarni ham g‘alaba bilan tugatganiga va shunday qudratli davlat tuzganiga bosh sabab – u o‘z aql-zakovatini, boy hayotiy tajribasini to‘liq va mohirona ishga sola bilganligidadir.

Homiyalar: Husayn Bayqaro saxovat bobida quyosh yanglig‘ shu‘la sochar edi. Islom ulamolarini sharaflar, o‘z zamonasining adiblari ahvoldidan xabar olib turardi. Madrasalar, masjidlar qurdirish, karvonsaroy va musofirxonalar bunyod qilishga moyil edi. Qishloq va shaharlarni, ziroatli yerlarni o‘zining xolis molidan vaqf qilardi. Qasrlarni ta’mirlash va chiroyli binolarni loyihalash, bog‘-u bo‘ston yaratish, daraxt va xushbo‘y o‘tlar ekishni o‘rniga qo‘yardi.

Saxovatpeshalar: Yurtimiz mustaqillikka erishib, xalqimizning turmush darajasi yaxshilandi. Recpublikamizda 2004-yil «Mehr va muruvvat yili», 2005-yil esa «Homiyalar va shifokorlar yili» deb nomlandi. Gazeta sahifalarida bunday saxovatli kishilar haqida ko‘plab maqolalar berildi va berilmoqda. Saxovatpesha kishilar

bizning o‘quv dargohimizni ham ta’mirdan chiqarishga yordam berdilar.

Hotamtoylar: Yaqinda davlatimiz tomonidan yaxshi bir farmon chiqdi. Bu farmonda fermer bo‘ladigan kishi uchun mollar, ozuqa yemlari bekorga beriladi. Fermer ish yuritishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysa, o‘zi ham, davlat ham bundan manfaatdor bo‘ladi.

Homiylar: Prezidentimiz: - «Homiy» deganda, yon atrofdagi beva-bechoralarga, yetim-yesir, muhtoj kishilarga ko‘mak va yordam berishga, odamlarning dardiga hamdard bo‘lishga, qadrdon qishlog‘i, yoki shahrini obod qilishga intiladigan, savob ish qilib yashaydigan insonlarni o‘zimizcha tasavvur etamiz», deb ta’kidladilar. Biz ham ulg‘ayib, ana shunday ezgu amallarni bajarsak deymiz.

O‘qituvchi: Ha, davlatni ana shunday saxovatli, muruvvatli, xalqparvar kishilar boshqarsa xalq qiyalmaydi, och qolmaydi. Ma’lumotlarga qaraganda, 1917-1923-yillarda turli xil kasalliklar va ocharchilik oqibatida Farg‘ona vodiysining o‘zidan 1 million odam qirilib ketgan. Sovet hukumati tomonidan bu fojeaga hech qanday yordam ko‘rsatilmagan. Oqibatda qishloqlar odamsiz qolib, hovlilar buzilib, yo‘q bo‘lib ketgan.

Siz O‘zbekistonning hozirgi kuni haqida nima deya olasiz?

O‘qituvchi: O‘zbek xalqi o‘zining saxovati va himmatliligi bilan dunyodagi barcha xalqlarga namuna bo‘lmoqda. Ana shu hotamtoy, bag‘ri keng xalqqa munosib farzand bo‘lish siz bilan bizning asosiy insoniy burchimiz bo‘lmog‘i lozim.

Yiqqan rag‘batlaringiz G‘olib guruhi.....

Uyga vazifa «Himmatli bola» mavzusida matn yarating.

Foydalanim uchun quyidagi matnlar ilova qilinadi:

Rivoyat:

Donishmand bani basharning noplari istaklari, tuban ehtiroslarini bir uyga qamab qo‘yilgan uch maxluq – odam, to‘ng‘iz va arslonga o‘xshatgan ekan. Bani odam deganda u aql-idrokni nazarda tutibdi, to‘ng‘iz deganda insonning chirkin xohishlarini, arslon deganda qahru g‘azabini nazarda tutadi. Bu uch mahluqning qaysi biri zo‘r chiqsa, qamalgan uyda o‘sha ustunlik qilar emish.

Qissadan hissa - to‘ng‘iz bilan sherring tuban ehtiroslari qanchalik zo‘r bo‘lmasin, bani odam, ya’ni aql-idrok yengusidir.

Suv - bebafo boylik

Odamlar bir donodan so‘radilar:

- Cho'lda och qolsangiz, birov bir burda non bersa, evaziga nima berardingiz?
- Yarim mulkimni berardim.
- Suv talab bo'lsangiz, suv bersa-chi?
- Barcha mulkimni berar edim, - degan ekan. Tabiatda hamma narsa bebaho, biroq suv butun tabiat go'zalligidir.

Ayub – komil inson

Ayubning uyiga o'g'ri lahm qazib kiradi. Lahm orqali u o'gurlangan narsalarini olib chiqib ketmoqchi bo'ladi. Voqeadan xabardor bo'lib turgan Ayub o'g'riga yumshoqlik bilan muomala qiladi va narsalarni olib chiqib ketish uchun eshikni ochib beradi. O'g'ri bu munosabatdan so'ng tavba qiladi. To'g'ri yo'lga kiradi. Odatda uyiga o'g'ri kirgan kishining qay holatga tushishi, unga qiladigan munosabati ayon. Ammo shayx nega karam-u avf ko'rsatdi, yaxshi muomala qildi? Sababi nima?

(Ayub – komil inson. Adashganni to'g'ri yo'lga solish haqiqiy musulmonning ishi ekanligini yaxshi biladi. Shayx «shariat riyorati va tariqat odobi»dan xabardor edi. Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida: «Ul adabdurki, yaxshi-yu yomonga va ulug'-u kichikka bajo keltirurlar... hattoki, o'z farzandlariga va xodim-u qullarigaki, har necha alardin beqoidalig' ko'rsalar ham xushunat (qo'pollik, dag'allik) birla alarga so'z demaslar, balki nasihatni yumshog' va chuchuk til bila qilurlar, hattoki o'g'rigacha...»)

Alisher Navoiy tasviri

“Shoirning boshida uchli ko'k taqyaga silliq o'rالgan korkamgina salsa. Egnida odmi shohi to'n ustidan yalang qo'ng'ir movut chakmon... Navoiy o'ttizdan oshmagan bo'lsa ham yoshi ulyg'roqdek korinardi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin pishiq, barmoqlari uzun va nafis, qora va qisqa, soqolli hushbichim miyig'lari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq; kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil, go'zallashtiruvchi bir horg'inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalananadi”

(Oybekning “Navoiy” romanidan)

MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

Darsning maqsadi: O'quvchilarda Vatanga muhabbat, yurt tinchligi uchun qayg'urish, ota-onaga mehr-oqibatlari bo'lish hissini uyg'otish. Ularda erk, istiqlol, mardlik, jasorat tushunchalarini mustahkamlash.

Darsning jihizi: Devoriy gazetalar. Vatanimiz xaritasi. Magnitafon. Said Ahmadning «Ufq» romani. «Qochoq» parchasiga ishlangan rasmlar. «Xalq so'zi» gazetasi. «Charxpalak»ning ichiga quyidagi nomlar: Shuhrat, Zulfiya, Muhammad Yusuf, Erkin Vohidov, Navoiy, Ulug'bek, Muhammad Ali, Temur, O'tkir Hoshimov, Spitamen, To'maris, Manguberdi kabilalar qayd qilingan.

Darsning shiori: «Odamxo'rlik (kanibalizm) bundan besh asr ilgari barham topgan deyishadi. Bilmadim... Menimcha, odamxo'rlik bugun ham davom etyapti. Modomiki, yer yuzida urush balosi bor ekan, shuning o'zi odamxo'rlik!» O'tkir Hoshimov.

Adolatparvarlar: «Ota qarg'ishi misoli o'q - u oxiratda emas, shu dunyoning o'zida nishonga tegadi».

(Buxorolik yuz yosh yashagan Usto bobo)

Vatanparvarlar: Yaxshi o'g'il tindirar,

Yomon o'g'il o'ldirar (maqol).

Eksperdlar: Farzand ato qullig'in chu odat qilg'ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay.

Har kimki atog'a ko'p riyoyat qilg'ay
O'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay.

(Alisher Navoiy)

Darsning uslubi: Bahs, munozara.

(Magnit lentasidan past ovozda jangovor kuy qo'yiladi)

Aziz o'quvchilar! Bugungi darsimiz mardlik, jasorat, tinchlik va Vatanga sodiqlik haqida. Shunday ekan, sizlarni 14-yanvar, «Vatan himoyachilari kuni» bayrami bilan qutlayman. Milliy istiqlol, yurt tinchligi o'zbek xalqining azaliy orzusi, armoni edi. Bu yo'lda ming-minglab Vatan, yurt fidoyilari aziz jonlarini fido qildilar. Uning qadriga yetish, mustahkamlash, avaylab saqlab qolish oldimizdag'i sharaflı burchimizdir.

Darsimiz bahs, munozara uslubida o'tadi. Siz guruhlarga: adolatparvarlar, vatanparvarlar, eksperdlarga bo'linasiz. Yuqoridaqgi

shiorlardan birini guruhingiz shiori qilib tanlashingiz mumkin. Darsni Said Ahmadning «Ufq» romanidan olingan «Qochoq» parchasi matniga tayanib, «Charxpalak» ko'rgazmasidagi nomlarga e'tibor berib, ularning asarlaridan misollar keltirishingiz, yod aytishingiz mumkin. Avvalo, voqealar rivojini eslash uchun Zakovat savollariga javob berishdan boshlaymiz. To'g'ri javob uchun rag'bat kartochkasi beriladi. Munozaradan so'ng guruhlari o'z-o'zlarini baholaydilar.

Zakovat savollari:

1. Said Ahmadning uch kitob-trilogiya bo'lgan asari haqida nima bilasiz? (Adibning «Ufq» romani uch kitobdan – «Qirq besh kun», «Hijron kunlarida» va «Ufq bo'sag'asida» deb nomlanadi).
2. «Ufq» romanining qahramonlarini bilasizmi? (Ikromjon, Tursunboy (qochoq), Nizomjon, Zebixon, Jannat xola, Azizzon va boshqalar...)
3. Parchadagi voqelar qayerda bo'lib o'tadi? (Farg'ona vodiysida)
4. Tursunboy qamish kapa oldida tizzasini quchoqlab qanday qiyofada o'tiradi? (vaxshiy qiyofasida)
5. Kim urushda qahramon bo'ladi? (Ikromjon)
6. Ikromjon to'qayzorda Tursunboyni uchratganida qayeridan taniydi? (ko'zidan)
7. Tursunboy necha yoshda edi? (22 yoshda)
8. Hadis deganda nimani tushunasiz? (Hadis arabcha so'z bo'lib, yangi narsa, so'z, rivoyat, xabar degani)
9. Manqurtlikning ildizi nima? (Hayotga befarqlik)
10. Ikkinci jahon urushi qaysi yillarga to'g'ri keladi? (1939-yilda boshlanib, 1945-yilning 9-mayida tugaydi).

Magnitafondan urushning boshlanishiga bastalangan kuy eshittiriladi.

O'qituvchi: Endi asar qahramonlariga qisqa tavsif bering.

1. Ikromjon urushdan bir oyog'idan ajrab, nogiron bo'lib qaytadi. Lekin uyida o'tirmay, cho'l o'zlashtirayotganlarga yordamga chiqadi. Tursunboyning onasiga sensirab: – Shattaligimni dadam biladimi? Unga aytma. Naq tutib beradi – deyishidan Ikromjon mard, vatanparvar odam.

2. Jannat xola ruhan ezilgan. Hasratdan ariqlab, darmonsiz bo'lib qolgan. O'g'lining xoinligi, qo'rqoqligi uni shu holga solgan.

3. Nizomjonni Ikromjon o‘zi ishga olib kelgan. Mehnatsevar, mehribon yigit. Jannat xolaga qarashadi. Ikromjonga dardkash bo‘lib, uni «dada» deb chaqiradi.

4. Tursunboy – Jannat xolaning yagona o‘g‘li. Erka, tantiq o‘sgan. Mehnatni yoqtirmaydi. U otasining yuzini yerga qaratib, urushdan qochib keldi. Qishloq yaqinidagi to‘qayzorda vahshiy qiyofasida yashirinib yuribdi.

O‘qituvchi: Endigi bosqichda adolatparvarlar bilan insonparvarlar o‘zaro bahsga kirishadilar. Bahs Tursunboyning urushdan qochib kelishi ustida boradi. Adolatparvarlar Tursunboyning hatti-harakatini oqlashga, insonparvarlar esa qoralashga urinadilar. Guruhlar «debatlar» singari o‘z nuqtayi nazarini himoya qilishlari, raqib fikrini rad qilishi kerak. Bahsda eng asosli dalilingizni keltirib, boshqa tomonning asosli daliliga javob qaytarishingiz lozim. O‘qib o‘rgangan asarlaringizga tayanib bahs yuritishingiz, munozara so‘ngida fikringizni o‘zgartirishingiz mumkin. Ekspertlar guruhi ishtirokchilarning har bir aytgan fikrlaridan o‘z xulosalarini chiqarib, xattaxtaga yozib borishlari mumkin.

O‘qituvchi: Tarixchi olim, Turg‘un Fayzievning yozishicha, Gavhar Shod begin eri Shohruxning tiriklik paytida ham, o‘limidan keyin ham bolalari va nevaralarini hokimiyat uchun urshtiraverib, oxir-oqibatda sulton Abu Said Mirzo farmoni bilan chopib tashlanadi. O‘z vaqtida berilgan jazo yomon oqibatlarning oldini oladi.

Ekspertlarning xulosasini tinglaymiz.

1. Ota-onaning qadriga yetish, ular oldidagi farzandlik burchni ado etish kerak.

2. Bolaning ko‘ngliga emas, tarbiyasiga qarash kerak ekan.

3. Xudbin odam o‘z yaqinlariga ham yaxshilik qilmas ekan.

4. Qalbida vatanparvarlik, insonni sevish tuyg‘ulari jo‘sh urmagan kishi manqurtga aylanadi.

5. Shu kunda ham o‘z nafsi o‘ylab, din niqobi ostida xalqiga, Vataniga, oilasiga xoinlik qilayotganlar topiladi. Kim o‘z Ona yurtini sotsa, oxir oqibat xor bo‘ladi.

6. Nega Ikromjonning bolasi qo‘rroq chiqdi? Kasal bo‘lganda toyloqday qilib opichib yurardi, yig‘laganda qo‘shilishib yig‘lard... Shularni o‘ylab Ikromjon o‘zini ayblaydi. «Bola aziz – tarbiyasi undan aziz» ekanligini tushunib yetadi. Afsuski, kech bo‘lgan edi.

7. Mard, jasur bo‘lish uchun sport bilan shug‘ullanish kerak. Qiyinchilikdan qo‘rqlaydigan, aql bilan ish tutadigan yigitlar doimo Vatan himoyasiga tayyor turadilar.

8. Oilada xoh o‘g‘il, xoh qiz bo‘lsin, uni yoshlikdan jasoratli, matonatli bo‘lishga, burchli bo‘lishga o‘rgatish kerak.

9. Zulfiya «O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush» she’rida butun dunyo onalarini tinchlik uchun kurashga chaqiradi.

Urush! Noming o‘chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko‘p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

10. Har kimning ham sochlariqa oq tushsin,
Ajin tushsin, yuzlariga dog‘ tushsin.
Har kimning ham quvvat ketib belidan,
Qo‘llariga aso, bir tayoq tushsin.
Iymoni sof, yuzga kirib, yorug‘ yuz
To‘ylar ko‘rib, yelkasidan tog‘ tushsin.
U dunyoga so‘nggi safar oldidan
O‘z bolasin qo‘lidan tuproq tushsin.

O‘qituvchi: Xalq maqollaridan mardlikka atalganlarini aytинг.

1. Mard bir o‘lar, nomard ming o‘lar.
2. Mard bo‘l, tadbirli bo‘l.
3. Mardlik – mangulik.
4. Mard maydonda sinalar.
5. Mard yengilsa maydonda qolar.
6. Mard yigitni maydonda ko‘r.
7. Botirdan o‘lim qo‘rqrar.
8. Botirning mushti ham yarog‘.

Uyga Vazifa: Albatta bo‘sh vaqt topib, yuqorida tilga olingan kitoblarni o‘qib chiqing. «Vatan himoyachisi sizning nazaringizda qanday bo‘lishi kerak?» mavzusida insho yozing.

MUSTAOIL O'RGANISH UCHUN

ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN IJODI

(«Baliqchi va baliq haqida ertak» asari asosida)

Darsning uslubi: Modul (andozal) usuli.

Modulning didaktik maqsadi: O‘quvchilarning ifodali o‘qishini takomillashtirish; ulardagagi eng nozik his-tuyg‘ularni uyg‘otish; badiiy asarga qiziqtirish va ma’naviy chiniqtirish.

Darsning jihози: 1 Texnik vositalar: audio kassetalar, kodoskop. Ko‘rgazmalar: o‘quvchilar tomonidan ertak qahramonlari va voqealar rivojiga chizilgan suratlar, A.S.Pushkin asari, ertaklar.

Darsning shiori: Ertaklar bizni ezzulikka yetaklar.

Guruhlarning shiori:

1. O‘z qusuringni anglashing kamolatga yetaklaydi.
2. Saxiy bo‘lish juda oson, qiyini – adolatli bo‘lish.
3. Halollik, to‘g‘rilik – katta baxt.

O‘qituvchi darsni boshlab, ularni quyidagi modul dasturi bilan tanishtiradi. O‘quvchilar darsning tashkiliy qismida yuqoridagi shiorlardan birini tanlab, guruhlarga, ya’ni: kamtarlar, adolatchilar va halollarga bo‘linib modul asosida ishlashlari kerak. To‘g‘ri javoblari uchun ko‘rgazmadagi dengiz baliqlaridan ushlab, baho kartochkalarini yig‘adilar.

Darsda ifodali o‘qish san’atiga alohida e’tibor beriladi. Chunki ifodali o‘qish san’ati faqat bolalarning badiiy didini rivojlantiribgina qolmay, ularni ma’naviy chiniqtiradi, chin inson qilib tarbiyalaydi. Ifodali o‘qiladigan asar talqin etilishiga qarab muayyan ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Talqin jarayoni esa o‘quvchining jismoniy-ruhiy holatidir. O‘quvchilar A. S. Pushkin hayoti va ijodiga tegishli ma’lumotlar bilan tanishib, lahzalik savol-javoblar o’tkazilgandan so‘ng «Baliqchi va baliq haqida ertak» asari mustaqil ravishda sinchiklab o‘qiladi. Asarni ifodali o‘qish asarga emotsiyonal va ongli ravishda yondashish imkonini beradi. Masalan, baliqning baliqchi cholga yolvorishi:

«Qo‘yib yubor dengizga bobo:

Katta to‘lov to‘layman senga,

Ko‘ngling ne tilasa bergayman», - degan so‘zlari har qanday sof dil kishini mehr-shafqatga chaqiradi. Yoki kampirning cholga

o‘dag‘aylashi, buyruq berib talab qilishi kampirning ochko‘zligi, sabr qilishni bilmasligi, noshukur ekanligi, cholini mensimasligini his qilgan o‘quvchi shunday kishilarga nisbatan nafrati oshadi:

«Ey tentak chol, go‘l, devona chol!

Ololmabsan baliqdan to‘lov!»...

MODUL USULI

Modulning didaktik maqsadi: Siz o‘quvchilar kichik guruhda hamkorlikda mustaqil ishlab, o‘z nutqingiz, talaffuzingizga alohida e’tibor berib, ertakning mazmunini tahlil qilishingiz, u yuzasidan ijodiy izlanishingiz, o‘z nutqingizni hamda tafakku-ringizni kengaytirishingiz va muloqot madaniyatingizni rivojlanti-rishingiz zarur.

No	O‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan o‘quv materialiga oid topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko‘rsatmalar	Baho
I.	<p>Maqsad: Ifodali o‘qish ko‘nikmalarini hosil qiling. Deklamatsiya.</p> <p>1.Darslikdagi shoir hayoti va ijodi yuzasidan berilgan lahzalik savollarga javob toping.</p> <p>2. Magnitofondan ertakning o‘qilishini tinglab siz ham so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling.</p>	<p>O‘quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang.</p> <p>O‘quvchilar jamoasi bilan o‘tkaziladigan savol - javobda faol ishtirok eting.</p> <p>Tushunmagan so‘zlar- ingizni daftaringizga yozing.</p>	
II	<p>Maqsad: Matn ustida ishlashni o‘rgatish. Til qoidalarini puxta o‘zlashtirish.</p> <p>1. She’riy parchalarni matnga aylantiring.</p> <p>2. Dialoglar tuzing. Mavzuga oid savollar tuzing.</p> <p>2. Mavzuga oid tuzilgan savollarga</p>	<p>Guruh bilan hamkorlikda ishlang.</p> <p>Tezkorlik bilan ishlashga harakat qiling.</p>	
III	<p>Maqsad: Oo‘zaki nutqni rivojlantirish va fikrlash qobiliyatini o‘stirish.</p> <p>1. To‘g‘ri-noto‘g‘ri» o‘yinida qatnashib,berilgan savollarga javob bering.</p> <p>2. Mavzuga oid tuzilgan savollarga javob bering va shioringiz asosida ertakka xulosangizni sharhlang.</p>	<p>Guruh bilan hamkorlikda ishlang.</p> <p>Mantiqan fikrlang.</p> <p>Kodoskopda berilgan matnga munosabat bildiring.</p>	

IV	<p>1. Modulni yakunlang! Modulning didaktik maqsadini o'qing.</p> <p>2. Siz moduldan ko'zlangan maqsadga erishdingizmi? Qay darajada?</p> <p>3. O'quv materialini o'zlashtirishga nima yordam berdi, nima halaqit berdi.</p> <p>4. Qaysi topshiriq tushunarsiz bo'lib qoldi? Dars davomidagi faoliyatin gizni baholang.</p> <p>5. Uy vazifasi: Darslikda beril-gan topshirqlarni bajaring. She'rnинг urg'u o'rnnini va hijolar sonini belgilang.</p> <p>Ertakning senariysini yozing.</p>	<p>O'z fikringizni bayon eting.</p> <p>Baho keyingi grafaga qo'yiladi.</p> <p>Mavzuga oid ertaklar-dan topib o'qing.</p>	
----	---	--	--

Bu o'rinda deklamatsiyadan, rollarga bo'lib o'qish, ertakning mazmunini tahlil qilish, luo'at bilan ishslash, texnik vosita yordamida o'qish, matnga yaqinlashtirib qayta hikoya qilish kabi usullardan foydalanish mumkin. O'quvchilar tomonidan ertakka chizilgan rasmlardan foydalansak, ularni diafilm orqali namoyish qilib, asarni o'rgansak maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Guruhlar modulning ikkinchi bosqichida matn ustida ishlaydilar. Birinchi guruh: **kamtarlar guruhi** ertakdan olingen she'riy parchalar asosida matn yaratadi. **Adolatchilar guruhi** ertakdan mavzuga oid savollar tuzadi. **Halollar guruhi** esa ertakdan dialoglar tuzadi. Masalan, baliq va chol dialogi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Baliq: *Iltimos qilaman bobojon, meni dengizga qo'yib yuboring.*

Chol: *Umrimda baliqning gapirganini eshitmagan edim. Bu qanday mo'jiza. Tushimmi yo o'ngimmi?*

Baliq: *Bobojon, men oddiy baliq emasman, oltin baliqman. Agar dengizga qo'yib yuborsangiz katta to'lov beraman. Istagan narsangizni muhayyo qilaman.*

Chol: *Eh oltin baliq, senga tangri yor bo'lsin. Menga hech qanday to'lov kerak emas. Mayli, dengizda yana erkin suzaver.*

Adolatchilar guruhi tuzgan savollar quyidagicha bo'lib, bu savollar bilan guruhlarga murojaat qilish mumkin:

1. Ertak qahramonlarining xarakteri sizga qanday ta'sir etdi?
2. Kampir choliga nisbatan qanday munosabatda bo'ladi?

3. Chol har gal dengizga yo‘l olganda qanday holatda bo‘ladi?
Dengiz-chi?
4. Chol nega kampirning buyruqlarini so‘zsiz bajaradi?
5. Ertak bilan multfilmda voqealar qanday tasvirlanadi?
6. Farqi nimada?

Keyingi o‘quv faoliyatida guruuhlar bir-birlariga ertak yuzasidan to‘g‘ri - noto‘g‘ri savollarni tuzib, o‘zaro bilimlarini sinab ko‘rishadi. «To‘g‘ri – noto‘g‘ri» o‘yinining savollari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Chol baliq oviga borib katta cho‘rtanbaliq tutib oladi.
Javob: Noto‘g‘ri. Chol oltin baliq tutib oladi.
2. Kampir oltin baliqdan dastlab uy so‘rashni talab qiladi.
Javob: Noto‘g‘ri. Uy emas, tog‘ora so‘rab oladi.
3. Bاليq aslida cholning emas, balki kampirning tilaklarini bajaradi.
Javob: To‘g‘ri. Chol beminnat yaxshilik qilgan.
4. Kampir boshidanoq qora dehqon bo‘lishdan ko‘ra malika bo‘lgisi keladi?
Javob: Noto‘g‘ri. Kampir dastlab begoyim bo‘lishni istaydi.
5. Kampir aslzoda bo‘lganidan keyin cholini otxonada ishlatadi.
Javob: To‘g‘ri. Kampir cholini mensimay qo‘yadi.
6. Chol baliqqa kampirning okeanga malika bo‘lgisi kelayotganini aytganda, baliq cholga: - Ko‘rpasiga qarab oyoq uzatsin, – deydi.
Javob: Noto‘g‘ri. Bاليq cholga bir so‘z ham aytmay dengiz tubiga g‘oyib bo‘ladi.

Guruuhlar ertakni yaxshi o‘zlashtirib olishgach, kodoskopdan mavzuga yaqin matn tanlanadi va o‘qituvchi yoki nutqi ravon o‘quvchi matnni o‘qiydi:

«Luqmoni Hakim o‘g‘liga qarab doimo shunday der ekan: - Ey bo‘tam, boshingga qanday og‘ir g‘am-kulfat tushmasin, sabr qil! Hayot musibatsiz, mashaqqatsiz bo‘lmaydi. Birov sening aybingni, kamchiligingni aysa, ochiq chehra bilan qabul qil, unga yuzingni tirishtirma, og‘zingni yomon gapga burma. Ko‘cha-ko‘yda kibrланib, takabburlanib yurma hamda shoshilgan holda yoki yalqovlanib ham yurma, ovozingni baland ko‘tarma. Bunday qabih ovoz hech kimga yoqmaydi.

Qissadan hissa: Kamtar yetar murodga,
Man-man qolar uyatga»

Guruuhlar so'nggi o'quv faoliyatida ertakdan kampirning bir qator yomon fazilatlarini topadilar. O'zлari shior qilib tanlagan insoniylig fazilatlari: kamtarlik, adolat va halollikni yoqlaydilar: kamtarlikning yetishmasligi nodonlikdandir. Kampir ham o'zini katta tutadi, cholini mensimaydi. Takabburligi tufayli yetishgan narsalaridan mahrum bo'ladi.

Adolat yurish-turishimiz va har qanday istaklarimizning asosi bo'lishi kerak. Agar kampir ham faqat o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlamasdan mulohaza bilan ish yuritganda edi, bиргина тешик тог'ора билан qolib ketmasdi.

Halollikdan yuz o'girgan odam yaramas illatlarga berilib ketadi. Halollik har qanday martabani bezaydi. Kampir ochko'zligi, manmanligi, sabr qilolmasligi tufayli yana eski holiga qaytdi. Agar nafsi tiyiq, shukurni biladigan halol odam bo'lganida edi, yaxshi hayot kechirib, ezgu niyatlariga yetardi.

O'quvchilar dars so'nggida modulning oxirgi grafasiga o'z baholarini qo'yadilar. Guruh sardorlari baholarni ko'rib chiqib, to'g'ri-noto'g'ri qo'yilgani haqida hisobot beradilar. O'quvchilar modulda ko'rsatilgan uyga vazifalarni kundalik daftarlariga yozib oladilar.

Xulosa shuki, bunday modul darslar o'quvchilarga nafosat tarbiyasi berishning hamda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirishning muhim vositalaridan hisoblanadi.

MUNDARIJA

So‘z boshi.....	3
Ona tili	
«Til mustaqilligi – el mustaqilligi».....	7
Sifat. Inson qiyofasini tasvirlash.....	15
Olmosh haqida ma‘lumot.....	27
Gapda uyushiq bo‘laklar.....	33
So‘z-gaplar.....	43
«O‘gdulmish va O‘zg‘urmish» matni ustida ishlash.....	47
Qo‘shma gap.....	50
Nisbiy so‘zlar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar.....	57
Faqat ohang vositasida bog‘langan qo‘shma gaplar.....	59
Adabiyot	
Istiqlol darsi.....	69
So‘z dunyosi g‘aroyibotlari. Maqollar.	76
«Ravshan» dostoni.....	80
Ahmad Yassaviy.....	88
Alisher Navoiy ijodi – tarbiya maktabi.....	92
Epik asarlarni o‘rganish	
«Mehr va Suhayl» hikoyati.....	96
Fitrat. Yurt qayg‘usi.....	99
Oybek. Gulnor opa. Fanorchi ota.....	106
Abdulla Qahhor – badiiy so‘z ustasi.....	114
«O‘g‘ri» hikoyasi.....	121
Odil Yoqubov. «Muzqaymoq»	133
O‘tkir Hoshimov. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar».....	142
«Urushning so‘nggi qurboni»	145
Lirik asarlarni o‘rganish	
Muhammad Ali. «Gumbazdag‘i nur»	151
Muhammad Yusuf ijodi.....	157
Halima Xudoyberdiyeva she‘rlarini o‘rganish.....	160
Dramatik asarlarni o‘rganish	
Sharof Boshbekov. Temir Xotin.	167
Tarbiyaviy soatlar uchun ishlannmalar	
Saxiylik va baxillik.....	176
Mardlar qo‘riqlaydi vatanni.....	182
Mustaqil o‘rganish uchun	
Aleksandr Seprgeyevich Pushkin.	186

**Ibrohim Yo'ldoshev
Muborak Mirzarahimova
Farida Imomova
Anora Mahmudova**

**TIL VA ADABIYOT TA'LIMIDA
MODDIY VA MA'NAVIY HAYOT
UYG'UNLGI
(metodik qo'llanma)**

Muharrir: Behbud Botirov
Kompyuterda sahifalovchi: Bahodir To'xliyev
Texnik muharrir: Nodir Rahmonov

Bosishga ruxsat etildi: 24.12.2010. Qog'oz bichimi: 60x84^{1/16}
Times garniturasi, Ofset bosma usuli. Nashr tabog'i 12,0.
Shartli bosma tabog'i: 12,0. Adadi 100. Buyurtma № 40.

"BAYOZ" MCHJ matbaa korxonasida chop etildi.
100100, Toshkent. Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.